ONA TILI 10

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

Toshkent – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 811.512.133(072)
KBK 81.2O‘zb
O-58

Tuzuvchilar:
Baxtiyor Mengliyev, Shohrux Abdurahim,
Klaraxon Mavlonova, Mansur Siddiqov

Taqrizchilar:

B. Bahriddinova	– filologiya fanlari doktori, professor.
D. Yuldasheva	– pedagogika fanlari nomzodi, professor.
G‘. Hamroyev	– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
M. Rahmonova	– Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahridagi 33-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.
D. Nurmuhamedova	– Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 23-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.
L. Rustamova	– Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi 1-IDUMning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Ona tili 10 [Matn]: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / B. Mengliyev va boshq. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.

ISBN 978-9943-8462-4-1

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

M U N D A R I J A

I CHORAK

MUHABBAT O‘ZI NIMA?

1-dars 18
2-dars 21
3-dars 23
4-dars 25
5-dars 27

JAMIYATNING BIR BO‘LAGIMAN

6-dars 30
7-dars 33
8-dars 37
9-dars 40
10-dars 44

HUQUQDAN BURCHGACHA

11-dars 47
12-dars 50
13-dars 52
14-dars 55
15-dars 59

II CHORAK

MEN VA BOSHQALAR

19-dars 62
20-dars 64
21-dars 66

RUHIY TARBIYA

22-dars 70
23-dars 72
24-dars 75
25-dars 78

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

TILIM – BOYLIGIM

26-dars....81
27-dars....85
28-dars....89
29-dars....92

III CHORAK

FAN VA TEXNOLOGIYALAR

33-dars....94
34-dars....98
35-dars....35
36-dars....105
37-dars....108
38-dars....112

BOY BO‘LSAM

39-dars....115
40-dars....118
41-dars....122
42-dars....125
43-dars....129

KINO SANOATI

44-dars....132
45-dars....136
46-dars....140
47-dars....144
48-dars....148
49-dars....152

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

IV CHORAK

TABIAT VA INSON

53-dars.....155
54-dars.....159
55-dars.....164
56-dars.....167
57-dars.....171

TAKRORLASH

58-dars.....172
59-dars.....177
60-dars.....178
61-dars.....180
62-dars.....181
63-dars.....187
64-dars.....188
65-dars.....190

10-SINF “ONA TILI” DARSLIGI HAQIDA

Mazkur darslik til ta’limidagi kommunikativ yondashuv talablari asosida yaratilgan. Unda til qonuniyatlari nutqiy vaziyatlar vositasida berilgan. O‘quvchilarni nutqiy vaziyatlarga tayyorlash orqali ularda til ifoda imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish, tushunish va tushuntira olish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

DARSLIKNING TUZILISHI:

- matnlar;
- o‘quv topshiriqlari;
- nazariy qoidalar;
- takrorlash uchun testlar.

DARSLIKNING O‘ZIGA XOSLIKLARI:

1. Tushunish, yozish, so‘zlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga urg‘u berilgan.
2. Dars jarayoni qiziqarli o‘tishi uchun darslikka o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos nutqiy mavzular kiritilgan.
3. Grammatik mavzular nutqiy mavzularga singdirilgan. O‘zbek adabiy tilining zaruriy me’yorlari taqdim etilgan.
4. Takrorlash alohida qism sifatida berilgan. Bu o‘quvchilarga barcha o‘rgangan va o‘zlashtirgan bilimlarini o‘quv yili oxirida mustahkamlash imkonini beradi.
5. Har bir nazorat ishi uchun 3 soatdan vaqt berilgan bo‘lib, bu barcha til ko‘nikmalari: tushunish, grammatik savodxonlik, og‘zaki va yozma nutq darajasini tekshirish imkonini beradi.

10-SINF “ONA TILI” DARSLIGI QUYIDAGI RUKNLARDAN IBORAT:

- Menimcha…
- Mustaqil bajaraman
- Til sandig‘i
- Mantiq vaqti
- Mutoyiba vaqti
- Loyiha tayyorlash

“Menimcha…” rukni


Menimcha…



1-rasm

1-rasmdagi kitob varaqlayotgan bola qanday kishining timsoli deb o‘ylaysiz? Fikrlaringizni izohlang.

2-rasmda qanday kishilar tasvirlangan deb o‘ylaysiz? Fikrlaringizni izohlang.



2-rasm

Bu ruknda muayyan hayotiy vaziyat, muammo va masalaga o‘quvchidan shaxsiy pozitsiyasini bayon etish talab qilinadigan topshiriqlar berilgan. O‘qituvchidan o‘quvchilarning fikrlariga aralashmaslik, o‘zaro bahsga kirishishlari uchun sharoit yaratib berish tavsiya etiladi. Rukndan vaziyatga qarab darsning turli qismlarida foydalanish ham, uyga topshiriq sifatida berish ham mumkin.

“Mustaqil bajaraman” rukni

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Tanishilgan namuna va ma’lumot asosida argumentli esse yozing. Quyidagi mavzulardan birini tanlashingiz yoki o‘zingiz mavzu topishingiz mumkin.

Nima deb o‘ylaysiz: televideniyeda dorilar reklamasi berilishi kerakmi yoki yo‘q?	Maktab uchun bir xil kiyim tanlanishiga qanday qaraysiz?
Ayrimlar laboratoriyalarda tadqiqot uchun hayvonlardan foydalanishga qarshi ekanini aytishadi. Siz qanday fikrdasiz?	Boylar va kambag‘allar bir xil soliq to‘lashini to‘g‘ri deb bilasizmi?
Shaxmat olimpiada o‘yinlari sirasiga kiritilishi kerakmi yoki yo‘q?	“Samsung” yoki “Ayfon”?

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Siz rejissyor bo‘lsangiz, qanday film olgan bo‘lar edingiz? Shu filmning bir lavhasi uchun dialog shaklida ssenariy tuzing.



Bu ruknda o‘quvchilar tomonidan uyda mustaqil bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar berilgan.

“Til sandig‘i” rukni

Bu ruknda ma’nodosh, talaffuzda adashtiruvchi, ko‘p ma’noli so‘zlar izohi, so‘zlar etimologiyasi, jonli nutqda o‘rinsiz ishlatiladigan varvarizmlar o‘rnida qo‘llanishi lozim bo‘lgan o‘zbekcha so‘zlar, maqol-matal va iboralar sharhi keltirilgan.

TIL SANDIG‘I

XONIM KIM? BEGIM KIM?



Xotinlarni *falonchi xonim* yoki *begim* deb atash bor. Bu so‘zlardagi “-im” qo‘shimchasini egalik qo‘shimchasi deb tushunish bor. U holda nima uchun egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda *xon* bilan *bek* ayol kishiga aylanadi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Vaholanki, “xonim” va “begim” so‘zlaridagi “-im” qo‘shimchasi egalik qo‘shimchasi emas. Qadim turkiy tillarda *ona* ma’nosidagi “uma” so‘zi bo‘lgan. “Begim” va “xonim” so‘zlari tarkibidagi “-im” ana shu “uma” so‘zining ixchamlashganidir. Demak, aslida “xonim” “mening xonim” emas, *xon ona* va begim “mening begim” emas, *bek ona* degan ma’noda ekan.

Alibek Rustamiy

“Mantiq vaqti” rukni

Bu ruknda ko‘rish, o‘qish orqali o‘quvchining mantiqiy tafakkurini, tushunish qobiliyatini rivojlantiruvchi topshiriqlar berilgan. Rukndan dars vaqtida foydalanish ham, uni uyga topshiriq sifatida berish ham mumkin. Mantiqiy savollarning javoblari mazkur qo‘llanmada keltirilgan.

Mantiq vaqti

1943-yili yurtimizda misli ko‘rilmagan qashshoqlik hukm surdi. Xalq to‘yib ovqatlana olmas edi. Bir yoqda urush. Urushga bormaganlar bor-budini frontga jo‘natayotgan paytlar.

Yaqindagina o‘g‘lonini frontga jo‘natgan 10-15 oila ayollari bir xonadonga yig‘ilib o‘zlarini biroz ovutgan bo‘lishardi. Boshqalar o‘z uyida, bu 10-15 oila esa bir xonadonda farzandlari haqiga duo qilish uchun to‘planishar edi.

Doim yig‘inlarga mezbon bo‘ladigan oila xonadonida 10-15 ta oila uchun aziz bir narsa bor edi. O‘sha narsani bir necha so‘z bilan aytib bering.



“Mutoyiba vaqti” rukni

Bu ruknda yengil kulgini, mutoyibani keltirib chiqaradigan parchalar orqali tilning nozik ifoda imkoniyatlarini anglashga qaratilgan topshiriqlar berilgan.

MUTOYIBA VAQTI

41.3-mashq. Quyidagi latifalarni o‘qing hamda mutoyibani keltirib chiqarayotgan omilni izohlang.

Afandidan o‘qituvchisi so‘rabdi:
— “O‘g‘irladi” so‘zi uzoq o‘tgan zamonda qanday bo‘ladi?
— “O‘g‘irlagan edi” bo‘ladi.
— Kelasi zamonda-chi?
— “Qamoqda” bo‘ladi, ustoz!

O‘qituvchi o‘quvchidan so‘rabdi:
— Shekspir nechanchi yilda tug‘ilgan?
— 1564-yilda.
— Xo‘sh... 1565-yilda nima bo‘lgan?
— Shekspir 1 yoshga to‘lgan.

LOYIHA TAYYORLASH

Topshiriq. Tasavvur qiling: Stokgolmdasiz. Nobel mukofoti bilan taqdirlandingiz. Sizni minbarga nutq so‘zlash uchun taklif qilishdi.

Avvalo, matnni tayyorlashga kirishing.

Qaysi yo‘nalish bo‘yicha Nobel laureati ekaningizdan kelib chiqib asosiy qismni shakllantiring.

Matnni qayta-qayta o‘qing. Ko‘zgu qarshisida turib yuz, qo‘l ishoralarining holatini kuzating.

“Qirol nutqi” (“The King‘s Speech”) filmini ko‘rib, undagi maslahatlarga amal qilish tavsiya etiladi.

Adabiy til me’yorlariga rioya qiling.

Tavsiya etiladigan vaqt: 5 daqiqa.



“Loyiha tayyorlash” rukni

Bu ruknda tilning o‘ziga xosliklarini, milliy jozibasini anglash, undan foy¬dalana olishga qaratilgan, chorak oxirida, ta’til paytida bajarishga mo‘ljallangan topshiriqlar berilgan. Loyiha ishlari maxsus tayyorgarlik (zarur ma’lumotlar bilan tanishib chiqish) ni talab etishi mumkin. Masalan, 34-darsdan keyin berilgan loyiha ishini tayyorlashda “Qirol nutqi” filmini ko‘rib, undagi maslahatlarga amal qilish tavsiya qilingan. Shuningdek, notiqlikka doir boshqa materiallar bilan tanishish, ijtimoiy tarmoqlar orqali Nobel mukofoti sohiblarining nutqlarini topib, ko‘rib chiqish ham mumkin.

O‘QUVCHILARNING BILIMINI BAHOLASH YO‘RIQNOMASI

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini baholash murakkab jarayon bo‘lib, u o‘qituvchidan alohida diqqatni, jarayonga o‘ziga xos e’tibor bilan yondashishni talab etadi. Shuningdek, baholash jarayonida o‘quvchidan nima so‘ralsa, qanday ko‘nikmalari tekshirilsa, u o‘shani o‘rganishga, egallashga harakat qiladi. Shuning uchun ham, nazorat ishlarini baholash qonuniyatlari talablariga mos tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Baholash nazariyasiga doir ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sinov jarayonlarini tashkil etish bilan bog‘liq uchta muhim jihat bor: nazorat ishini o‘tkazishga tayyorlanish, nazorat ishini o‘tkazish hamda nazorat ishi natijalarini baholash. Yuqorida keltirilgan jihatlar nazorat ishlarini o‘tkazishda quyidagilarni hisobga olishni taqozo etadi:

1. Nazorat ishini o‘tkazishga tayyorlanishda hisobga olinadigan talablar:

– nazorat ishida o‘quvchilarning qaysi BKM[1]lari baholanishini belgilash;

– nazorat ishi uchun materiallar tayyorlash;

– nazorat ishida boshqa manbalardan ko‘chirish imkonini beradigan topshiriqlardan foydalanmaslik;

– nazorat ishi materiallarini ekspertizadan o‘tkazish;

– nazorat ishi oladigan vaqtni va nazoratchilarni belgilash.

2. Nazorat ishini o‘tkazishda hisobga olinadigan talablar:

– nazorat ishida hammaga bir xil sharoit yaratib berish;

– nazorat ishida ko‘chirmakashlikka imkon bermaslik;

– nazorat ishi belgilangan vaqtda boshlanib, o‘z vaqtida tugashini ta’minlash.

3. Nazorat ishi natijalarini baholashda hisobga olinadigan talablar:

– nazorat ishini tekshirishda aniq baholash imkonini beradigan baholash mezonidan foydalanish;

– nazorat ishini o‘sha guruhga dars o‘tgan o‘qituvchi tekshirmasligini ta’minlash;

– nazorat ishida har bir qo‘yilgan baho uchun asoslangan taqriz yozish.

Umuman, choraklar oxiridagi nazorat ishi chorak davomida o‘tilgan nutqiy va lingvistik mavzular asosida tashkil etiladi. Har chorakda 10-sinflar uchun nazorat ishi va tahliliga 3 soat ajratilgan. Dastlabki ikki soatda nazorat ishi o‘tkaziladi. Uchinchi soatda esa nazorat ishi natijalari tahlil qilinadi.

[1] BKM – bilim, ko‘nikma va malaka

“Ona tili” fanidan 10-sinflar uchun nazorat ishlari mazmuni va o‘tkazilish tartibi bo‘yicha ayrim tavsiyalar

Chorak/soat		Tekshiriladigan ko‘nikma	Imtihon mazmuni	Ajratilgan vaqt
I chorak	16-dars	O‘qib tushunish va yozish	Muhabbat tushunchasi, muhabbatning inson hayotida tutgan o‘rni, insonning kasbiga, fanga, mashg‘ulotiga, hayvonlarga, buyumlarga va boshqalarga muhabbati, muhabbatni ifodalash usullari, kechagi va bugungi muhabbat izhor qilishdagi farqlar, “ishq”, “sevgi”, “muhabbat”, “yoqtirish”, “yaxshi ko‘rish”, “ixlos qilish” tushunchalari o‘rtasidagi farqlar, “muhabbat va sadoqat”, “muhabbat va boylik”, “muhabbat va axloq” tushunchalari munosabati, jamiyatdan ayro inson, milliy va turli xalqlarga xos urf-odatlar, ism qo‘yish bilan bog‘liq odatlar, insonning jamiyatdagi o‘rni, shaxsning huquqlari, mualliflik huquqi, gender tengligi, shaxs mas’uliyati haqidagi informativ matnni o‘qib tushunish hamda o‘z munosabatini savodli tarzda yozma bayon qilish	45 daqiqa
	17-dars	Tinglab tushunish va so‘zlash	Muhabbat tushunchasi, muhabbatning inson hayotida tutgan o‘rni, insonning kasbiga, fanga, mashg‘ulotiga, hayvonlarga, buyumlarga va boshqalarga muhabbati, muhabbatni ifodalash usullari, kechagi va bugungi muhabbat izhor qilishdagi farqlar, “ishq”, “sevgi”, “muhabbat”, “yoqtirish”, “yaxshi ko‘rish”, “ixlos qilish” tushunchalari o‘rtasidagi farqlar, “muhabbat va sadoqat”, “muhabbat va boylik”, “muhabbat va axloq” tushunchalari munosabati, jamiyatdan ayro inson, milliy va turli xalqlarga xos urf-odatlar, ism qo‘yish bilan bog‘liq odatlar, insonning jamiyatdagi o‘rni, shaxsning huquqlari, mualliflik huquqi, gender tengligi, shaxs mas’uliyati haqida fikrlarini og‘zaki bayon qilish	45 daqiqa (har bir o‘quvchi uchun 1,5–2 daqiqa)
	18-dars	O‘z ustida ishlash	O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan grammatik va mazmuniy xatolarni tahlil qilish	45 daqiqa (har bir o‘quvchi uchun 1 daqiqa)

II chorak	30-dars	O‘qib tushunish va yozish	Shaxsning “men”i, olomon madaniyati, shaxsning o‘zgalar bilan munosabati, e’tiqod, vijdon erkinligi, halollik, keng ildiz otgan illatlar (yolg‘onchilik, tuhmat qilish, g‘iybatchilik...), “So‘z latofati” va “So‘z xususida so‘z” asarlaridan parchalar, “qog‘ozga o‘ralgan” so‘zlar, til “ekologiyasi” haqidagi informativ matnni o‘qib tushunish hamda o‘z munosabatini savodli tarzda yozma bayon qilish	45 daqiqa
	31-dars	Tinglab tushunish va so‘zlash	Shaxsning “men”i, olomon madaniyati, shaxsning o‘zgalar bilan munosabati, e’tiqod, vijdon erkinligi, halollik, keng ildiz otgan illatlar (yolg‘onchilik, tuhmat qilish, g‘iybatchilik...), “So‘z latofati” va “So‘z xususida so‘z” asarlaridan parchalar, “qog‘ozga o‘ralgan” so‘zlar, til “ekologiyasi” haqida fikrlarini og‘zaki bayon qilish	45 daqiqa (har bir o‘quvchi uchun 1,5–2 daqiqa)
	32-dars	O‘z ustida ishlash	O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolarni tahlil qilish	45 daqiqa (har bir o‘quvchi uchun 1 daqiqa)

III chorak	50-dars	O‘qib tushunish va yozish	Nobel mukofoti, Nobel mukofoti laureatlari nutqi, Silikon vodiysi, kelajak kasblari, tabiat va ixtirolar, Innovatsion rivojlanish vazirligi, boylik tushunchasi, boylarga munosabatda kecha va bugungi farqlar, pul, qashshoqlik sabablari, milliarderlar hayoti, kino sanoati, kassabop filmlar, adabiyot va kino, seriallar, o‘zbek kinematografiyasiga doir informativ matnni o‘qib tushunish hamda o‘z munosabatini savodli tarzda yozma bayon qilish	45 daqiqa
	51-dars	Tinglab tushunish va so‘zlash	Nobel mukofoti, Nobel mukofoti laureatlari nutqi, Silikon vodiysi, kelajak kasblari, tabiat va ixtirolar, Innovatsion rivojlanish vazirligi, boylik tushunchasi, boylarga munosabatda kecha va bugungi farqlar, pul, qashshoqlik sabablari, milliarderlar hayotidan hikoya qiluvchi, kino sanoati, kassabop filmlar, adabiyot va kino, seriallar, o‘zbek kinematografiyasiga doir mavzuda fikrlarini og‘zaki bayon qilish	45 daqiqa (har bir o'quvchi uchun 1,5–2 daqiqa)
	52-dars	O‘z ustida ishlash	O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolarni tahlil qilish	45 daqiqa (har bir o'quvchi uchun 1 daqiqa)
IV chorak	66-dars	O‘qib tushunish va yozish	Olam va ekologiya, insonning tabiatga ta’siri, Qizil kitob, ekologik muammolar haqidagi informativ matnni o‘qib tushunish hamda o‘z munosabatini savodli tarzda yozma bayon qilish	45 daqiqa
	67-dars	Tinglab tushunish va so‘zlash	Olam va ekologiya, insonning tabiatga ta’siri, Qizil kitob, ekologik muammolar haqida fikrlarini og‘zaki bayon qilish	45 daqiqa (har bir o'quvchi uchun 1,5–2 daqiqa)
	68-dars	O‘z ustida ishlash	O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolarni tahlil qilish	45 daqiqa (har bir o'quvchi uchun 1 daqiqa)

Qadrli o‘qituvchi! Yuqorida keltirilgan mazmun asosida nazorat ishini tashkil etayotganingizda o‘quvchi 45 daqiqada siz bergan topshiriqlarni bajara olishi kerakligini hisobga oling. O‘quvchilarning yozma nutqini tekshirishda essedan foydalanish tavsiya qilinadi. Quyida yozma ish va og‘zaki nutqni baholash mezonlarini keltiramiz. Nazorat ishlarini baholashda ulardan foydalanishingiz mumkin.

YOZMA ISH (ESSE)NI BAHOLASH MEZONLARI

Mezonlar	Deskriptorlar	Ball
Matn mazmuni	matn mazmuni berilgan savolga mos, mavzu tushungan holda to‘liq yoritilgan; tezis (asosiy g‘oya) mavzuga mos tanlangan; tezisga aloqador shaxsiy fikr-mulohazalar bildira olgan.	3
	mavzu yetarlicha yoritilgan; tezis (asosiy g‘oya) to‘g‘ri tanlangan; tezisga aloqador shaxsiy fikr-mulohaza bildirishda kamchiliklar bor; matn mazmunida mavzudan chetlashish kuzatiladi.	2
	mavzu yuzaki yoritilgan; tezis (asosiy g‘oya) to‘g‘ri tanlanmagan; tezisga aloqador shaxsiy fikr-mulohaza berilmagan.	1
	o‘quvchi mavzuni tushunmagan.	0
Matn yaxlitligi	matn qismlari to‘g‘ri bog‘langan; xatboshilarga to‘g‘ri ajratilgan; fikr bayonida mantiqiy izchillik saqlangan.	3
	matn qismlari orasidagi muvofiqlik buzilgan; xatboshilarga to‘g‘ri ajratilgan; fikr bayonida mantiqiy izchillik buzilgan.	2
	matn qismlari orasidagi muvofiqlik o‘zgargan; xatboshilarga to‘g‘ri ajratilmagan; fikr bayonida takroriylik mavjud.	1
	matn qismlari orasida mutlaqo bog‘lanish yo‘q.	0
Matn uslubi[2]	matn uslubi mavzuga mos, uslubdan chekinish uchramaydi.	3
	matn uslubidan qisman chetlashish kuzatiladi, 1–3 o‘rinda uslubiy xatoliklar uchraydi.	2
	matn uslubidan chetlashish kuzatiladi, 4–5 o‘rinda uslubiy xatoliklar uchraydi.	1
	matn uslubi mavzuga mos emas, olti va undan ortiq o‘rinda uslubdan chekinish uchraydi.	0
Savodxonlik[3]	matnda imloviy xatolar uchramaydi yoki birgina imloviy xato uchraydi, yoki 1-2 o‘rinda punktuatsion xato kuzatiladi.	3
	matnda 2–3 o‘rinda imloviy xatolik kuzatiladi yoki 3-6 o‘rinda punktuatsion xatolik uchraydi.	2
	matnda 4–5 o‘rinda imloviy yoki 7–9 o‘rinda punktuatsion xato uchraydi.	1
	matnda 5 tadan ortiq imloviy yoki 9 tadan ortiq punktuatsion xato uchraydi.	0

[2] Esse publitsistik uslubda yozilishi kerak. Uslubiy xatolar, g‘alizliklar, uslubdan chekinishlar hisobga olinadi.
[3] Imloviy va punktuatsion savodxonlik tekshiriladi. Izoh: bitta imloviy xato ikkita punktuatsion xatoga teng. Tasodifiy xatolarni hisobga olmaysiz. Tasodifiy xato – bir so‘zni uch marta yozgan: ikkitasi to‘g‘ri, biri xato. Shunday paytda uni xato hisoblamaysiz.

Yozma ish natijalarini bahoga aylantirish jadvali

BALL	BAHO
11–12 ball	**“5”**
8–10 ball	**“4”**
6–7 ball	**“3”**
0–5 ball	**“2”**

OG‘ZAKI NUTQNI BAHOLASH MEZONLARI

(asosiy talablar)

Mezonlar	*Deskriptorlar*	*Ball*
Og‘zaki nutq mazmuni va yaxlitligi	mavzu yaxshi tushunilgan holda to‘liq yoritilgan; mavzuga aloqador shaxsiy fikr-mulohazalar bildirilgan; nutq to‘g‘ri tartiblangan: kirish, asosiy qism va xulosadan iborat.	3
	mavzu yetarlicha yoritilgan, shaxsiy fikr-mulohaza bildirishda kamchiliklar bor, mavzudan chetlashish kuzatiladi; kirish va xulosadan yoki asosiy qism va xulosadan iborat.	2
	mavzu yuzaki yoritilgan, mavzuga aloqador shaxsiy fikr-mulohaza bildirilmagan; kirish yoki xulosa, yoki asosiy qismdan iborat.	1
	gapirilmaganda.	0
Ravonlik	nutqda ikki-uch o‘rinda to‘xtalish yoki ma’nosiz birlikdan foydalanilganda.	3
	nutqda to‘rt-olti o‘rinda to‘xtalish yoki ma’nosiz birlikdan foydalanilganda.	2
	nutqda yetti-to‘qqiz o‘rinda to‘xtalish yoki ma’nosiz birlikdan foydalanilganda.	1
	nutqda to‘qqizdan ortiq o‘rinda to‘xtalish yoki ma’nosiz birlikdan foydalanilganda.	0

Adabiy til me'yorlaridan chekinish[1]	nutqda bir-ikki o'rinda adabiy tildan chekinish kuzatilganda.	3
	nutqda uch-besh o'rinda adabiy tildan chekinish kuzatilganda.	2
	nutqda olti-to'qqiz o'rinda adabiy tildan chekinish kuzatilganda.	1
	nutqda to'qqizdan ortiq o'rinda adabiy tildan chekinish kuzatilganda.	0
Fikrning dalillanganligi	nutqda fakt va iqtiboslardan to'rt va undan ortiq o'rinda foydalanilganda.	3
	nutqda fakt va iqtiboslardan ikki-uch o'rinda foydalanilganda.	2
	nutqda fakt va iqtiboslardan bir o'rinda foydalanilganda.	1
	nutqda argumentlardan foydalanilmaganda.	0

OG'ZAKI NUTQNI BAHOLASH MEZONLARI

(qo'shimcha talablar)

Mezonlar	***Deskriptorlar***	***Ball***
Badiiy tasvir vositalaridan foydalanish	nutqda badiiy tasvir vositalari (maqol, ibora, tasviriy ifoda v. b.)dan uch va undan ortiq foydalanilganda.	1
	gapirilmaganda.	0
Nafas va hayajonni boshqarish	nutqda nafas va hayajonni boshqara olinganda.	1
	nutqda nafas va hayajonni boshqara olinmaganda.	0

[1] Birliklarni mazmuniy, grammatik jihatdan noto'g'ri va noo'rin qo'llash; sheva, jargon, varvarizm kabi so'zlashuv elementlaridan foydalanish tekshiriladi.

Noverbal vositalardan foydalanish	nutqda tana tili (qo‘l, yuz, tana harakati)dan foydalanilganda.	1
	nutqda tana tili (qo‘l, yuz, tana harakati)dan foydalanilmaganda.	0
Talaffuz va intonatsiyaga amal qilish	nutqda talaffuz va intonatsiyaga amal qilinganda.	1
	nutqda talaffuz va intonatsiyaga amal qilinmaganda.	0

Og‘zaki imtihon natijalarini bahoga aylantirish jadvali

BALL	BAHO
15–16 ball	**“5”**
11–14 ball	**“4”**
8–10 ball	**“3”**
0–7 ball	**“2”**


Eslatma. Agarda imtihon materiali biror-bir mavzuda shaxsiy qarashni (*masalan, “O‘qib oliy ma’lumotli bo‘lishni ma’qul ko‘rasizmi yoki shaxsiy biznes tashkil etishni?” kabi mavzularda*) ifodalashni talab qilsa, o‘quvchi bergan javob sizning qarashingizga mos kelmasa, uni o‘zingizdek fikrlashga majburlamang. Zamonaviy o‘qituvchining vazifasi mustaqil fikriga ega, o‘z qarashlarini himoya qila oladigan avlodni tarbiyalashdan iborat.

I BOB. MUHABBAT O‘ZI NIMA?

1-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ishlash, matn turlari, nutq uslublari, sinonimlar haqidagi bilimlarni rivojlantirish; fikrlarning to‘g‘ri va noto‘g‘ri ekanini aniqlash; hayotiy vaziyatlarga mustaqil munosabatni og‘zaki bayon eta olish ustida ishlash.

DARS JARAYONI



1.1-mashq. Matn asosida quyidagi ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

Sevgi, *muhabbat* va *ishq* so‘zlarining barchasi arab tilidan o‘zlashgan.

T N

Iqbol Mirzo va Muhammad Yusuf ijodidan keltirilgan parchalarda *sevgi* va *muhabbat* so‘zlari butkul boshqa-boshqa tushunchalarni anglatgan.

T N

Pirimqul Qodirov fikricha, muhabbat ikki tomonlama munosabatni anglatishi bilan sevgidan farqlanadi.

T N

MATN TURLARI

Matn – gaplardan tarkib topgan, mazmun va shakl jihatidan yaxlit murakkab birlik.
Matn ifoda shakliga ko‘ra yozma va og‘zaki; so‘zlovchilar soniga ko‘ra monologik va dialogik; hajmiga ko‘ra mikromatn va makromatn; ifoda maqsadiga ko‘ra hikoya matn, tasviriy matn va muhokama matn kabi turlarga bo‘linadi.

8

1.2-mashq. “Muhabbat nima?” matnining turini aniqlang.

yozma matn	og‘zaki matn
monologik matn	dialogik matn
mikromatn	makromatn

hikoya matn	tasviriy matn	muhokama matn

NUTQ USLUBLARI

Til nutq sharoiti, qo‘yilgan maqsad, qo‘llanish doirasi, muloqot qiluvchilarning kimligiga qarab turlicha voqelanadi. Bunda bir tushuncha har xil ifodalar, bir fikr turli sintaktik qurilmalar bilan beriladi. Tilning bunday ko‘rinishi nutq uslubidir. Tilda so‘zlashuv, publitsistik, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar farqlanadi. Bu uslublarda qo‘llanuvchi birliklar so‘zlashuv (***anaqa***), kitobiy (***o‘shal***) va betaraf (***bu, o‘sha***) birliklarga bo‘linadi.

I. Tashkiliy qism. Bunda salomlashish, yangi o‘quv yilining boshlanishi va Mustaqillik kuni bilan tabriklash juda muhim.

II. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Topshiriq. Matn bilan tanishing.

Matnni o‘qishga kirishishdan oldin quyidagi savollar asosida kirish suhbati o‘tkaziladi:

1. *Siz muhabbatni qanday tushunasiz?*

2. *Bu so‘zni eshitganingiz zahoti xayolingizda kim yoki nima gavdalanadi?*

3. *O‘zi muhabbatga ishonasizmi?*

Suhbatdan so‘ng matn bilan tanishish uchun o‘quvchilarga vaqt beriladi. Vaziyatga ko‘ra ixtiyoriylik yoki ketma-ketlik asosida ovoz chiqarib o‘qitish ham mumkin.

Matn bilan tanishilgach, kimga qaysi ma’lumot yangi bo‘lgani haqida so‘rab ko‘rish mumkin. Shuningdek, matn ostidagi rasmga izoh so‘raladi.


Shu o‘rinda matn rangli doira ichidagi raqamlar orqali mazmuniy qismlar (bloklar)ga ajratilgani, bir nechta so‘z siyohrang tusda ajratib ko‘rsatilgani, bu matn bo‘yicha nafaqat shu darsda, balki kelgusi darslarda ham topshiriqlar bo‘lishi mumkinligi ma’lum qilinadi.

1.1-mashq. Matn asosida quyidagi ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

Berilgan mashq yordamida fikrlarning to‘g‘ri va noto‘g‘ri ekanini aniqlash ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

Yechim:

Ma’lumot	Munosabat
Sevgi, *muhabbat* va *ishq* so‘zlarining barchasi arab tilidan o‘zlashgan.	Noto‘g‘ri
Iqbol Mirzo va Muhammad Yusuf ijodidan keltirilgan parchalarda “sevgi” va “muhabbat” so‘zlari butkul boshqa-boshqa tushunchalarni anglatgan.	Noto‘g‘ri
Pirimqul Qodirov fikricha, muhabbat ikki tomonlama munosabatni anglatishi bilan sevgidan farqlanadi.	To‘g‘ri



1.3-mashq. “Muhabbat nima?” matnida ajratib ko'rsatilgan so‘zlarni guruhlang.

1. So'zlashuvga xos so'zlar:
2. Kitobiy so'zlar:
3. Betaraf so'zlar:

TIL SANDIG‘I

TAQIM

Tizzaning orqa tomonidagi chuqurcha ***taqim*** deyiladi. Inson tanasining bu qismi ko'p tillarda nomga ega emas. Internetda tilga oid faktlar orasida “Tizzaning orqa qismi hech qaysi tilda nomga ega emas” degan jumlaga duch kelishimiz mumkin. Biroq bu fakt xabarchilari o'zbek (turkiy) tilidan bexabar ko'rinishadi. Bobolarimiz sochi uzun qizlarni ta'riflashda “sochi taqimiga tushar ekan” deyishgan; uloq (ko'pkari) o'yinida “uloqni taqimiga bosdi” degan ifoda hamon qo'llanadi.

Menimcha...

Ayrimlar tanlovda yoki biror ishni boshlashdan oldin tanga otib ko'rishadi yoki “tosh-qaychi-qog'oz” usulini qo'llashadi. Xorij filmlarida cho'p tortish yoki suv idishini aylantirish usulidan foydalanishganini ham ko'rgan bo'lsangiz kerak. Siz ham bu usullardan foydalanib turasizmi? Foydalangan bo'lsangiz, qanday holatda va nima maqsadda? Sizningcha, bu usullar bilan nimagadir erishish mumkinmi?

9

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. “Muhabbat nima?” matnidan quyidagi so'zlarning sinonimlarini toping. Notanish so‘zlar ma'nosini lug‘atdan ko‘rib oling.

banogoh | ko'ks | haqiqiy | iztirob | nolimoq | ilalabad | qator | qo'llanmoq | ne tong | tuzukkina | kirib kelmoq

1.2-mashq. “Muhabbat nima?” matnining turini aniqlang.

Berilgan mashq yordamida matn turlari bilan bog‘liq bilimlar mustahkamlanadi.

Mashq bajarilishidan oldin matn va uning turlari haqida qisqacha eslatma beriladi. Matn gaplardan tarkib topgan, mazmun va shakl jihatidan yaxlit murakkab birlik ekani, ifoda shakliga ko‘ra yozma va og‘zaki; so‘zlovchilar soniga ko‘ra monologik va dialogik; hajmiga ko‘ra mikromatn va makromatn; ifoda maqsadiga ko‘ra hikoya matn, tasviriy matn va muhokama matn kabi turlarga bo‘linishi aytiladi.

Yechim:

Matn tasnifi	Matn turi
ifoda shakliga ko‘ra	yozma matn
so‘zlovchilar soniga ko‘ra	monologik matn
hajmiga ko‘ra	makromatn
ifoda maqsadiga ko‘ra	muhokama matn

Darslikda nutq uslublari haqida ma’lumot berilgan nazariy qoidaga o‘quvchilarning e’tibori qaratiladi.

1.3-mashq. “Muhabbat nima?” matnida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni guruhlang.

Matndagi siyohrang tusda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar uch guruhga bo‘lib chiqiladi. Yozma ravishda bajarish tavsiya qilinadi.

Yechim:

So‘zlarning uslubiy xoslanishiga ko‘ra turlari	So‘zlar
So‘zlashuvga xos so‘zlar	shunaqami, aylandi-qoldi
Kitobiy so‘zlar	sohiblari, amin bo‘lamiz, doir, iztirob, bexos, sahroda
Betaraf so‘zlar	to‘lsa, kengroq

O‘quvchilarning e’tibori “Til sandig‘i” rukniga qaratiladi.
Vaziyatga ko‘ra, “Til sandig‘i”, “Menimcha” ruknlari uyda bajarish uchun berilishi mumkin.

III. Uyga vazifa berish.
“Mustaqil bajaraman” rukni ostida berilgan topshiriq uyda bajariladi.
Topshiriq. “Muhabbat nima?” matnidan quyidagi so‘zlarning sinonimlarini toping. Notanish so‘zlar ma’nosini lug‘atdan ko‘rib oling.

Yechim:

Berilgan so‘zlar	Berilgan so‘zlarning matndagi sinonimlari
banogah	bexos
ko‘ks	bag‘ir, ko‘krak
haqiqiy	-
iztirob	azob
nolimoq	yozg‘irmoq
ilalabad	mangu
qator	ayrim
qo‘llanmoq	ishlatilmoq
ne tong	ajab emas
tuzukkina	binoyidek
kirib kelmoq	o‘zlashmoq

IV. Darsni yakunlash.
Darsda muhokama qilingan mavzu yuzasidan xulosalar tinglanadi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki baholanadi. Kelgusi darsda ham ushbu matndan foydalanilishi eslatiladi. O‘quvchilarning dars bilan bog‘liq savollariga javob beriladi hamda dars yakunlanadi.

2-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ishlash; frazeologik iboralar va rasmiy uslub haqidagi bilimlarni rivojlantirish; muqobil variantli testlarni ishlash, ma’lumotnoma yozish, hayotiy vaziyatga mustaqil munosabatini og‘zaki bayon eta olish ustida ishlash.

DARS JARAYONI

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

2.1-mashq. “Muhabbat nima?” matni asosida quyidagi test savollarining to‘g‘ri javobini aniqlang.

O‘tgan darsda tanishilgan matn asosida berilgan ikkita testning to‘g‘ri javobini topish aytiladi. Har ikki test bo‘yicha A, B, C, D variantlarini necha kishi belgilagani qo‘llarni ko‘tarish usuli orqali taxminan aniqlanadi. To‘g‘ri javoblar e’lon qilinadi, boshqa variantlar nega to‘g‘ri emasligi yuzasidan o‘quvchilarning fikri tinglanadi.

Yechim:

Test raqami	To‘g‘ri javob	Izoh
1-test	B	Bundan bilinadiki, muhabbatga turli taqdir sohiblari har xil ta’rif berishar ekan. (1-qism)
2-test	C	Bu ma’lumotlarni o‘qiy turib bexos Majnunni eslagan bo‘lsangiz, ajab emas. Binoyidek Qays ishq domiga tushib, majnunga aylandi-qoldi. (3-qism)

2.2-mashq. Tilda fikrni ta’sirli ifodalash maqsadida bir-biriga zid tushunchalar yonma-yon qo‘llanadi (“tirik murda”, “yolg‘on haqiqat” kabi). “Muhabbat nima?” matnining 1-qismida ham shunday ifoda mavjud. Uni toping va izohlang. O‘zingiz ham shunday ifodaga misollar to‘qing.

Berilgan ifodalar fan tilida *oksyumoron* deyiladi. Bunda hokim va tobe so‘z mantiqan bir-birini zidlaydi. “Aybsiz aybdor”, “uylangan bo‘ydoq”, “yosh chol” kabi misollarni ham qo‘shimcha qilish mumkin. “Muhabbat nima?” matnining 1-qismidagi “totli azob” ham oksyumoronga misoldir. O‘quvchilardan ham shunday misollar tuzish talab qilinadi. Vaziyatga ko‘ra ularga yordam berish ham mumkin. Masalan, “Qanday olim?”, “Kim eshityapti?”, “Qanday bemor?” kabi savollar bersa bo‘ladi. Bunda mos ravishda “Bilimsiz olim”, “Kar eshityapti”, “Soppa-sog‘ bemor” kabi javoblar kutiladi.

2.3-mashq. Matndan quyidagi iboralar ma’nosiga mos so‘zlarni toping.

Frazeologik iboralar yodga olinadi. Matndan berilgan iboralarga sinonim bo‘la oladigan so‘zlar topiladi. Mashq yozma bajarilishi tavsiya qilinadi.

Yechim:

Ibora	So‘z
yodga olmoq	aytiladi
xamirdan qil sug‘urgandek	qolmoq (aylandi-qoldi)
almisoqdan qolgan	ko‘hna
bag‘ritosh	berahm
dunyo turguncha	mangu

2.4-mashq. Quyida berilgan ma’lumotnoma (og‘zaki nutqda “obyektivka” ham deyiladi) namunasi bilan tanishib chiqing.

Rasmiy uslub va ma’lumotnoma haqida qisqacha aytib o‘tiladi. Darslikdagi ma’lumot yetarli.

Berilgan ma’lumotnoma matni bilan tanishib chiqiladi. O‘quvchi ayni shu yoshida qaysi bandlarni javobsiz qoldirishi muhokama qilinadi.

2.5-mashq. O + D = S

“Menimcha” va “Til sandig‘i” ruknlari bilan tanishiladi. 2.5-mashqda berilgan topshiriq yuzasidan o‘quvchilar fikri tinglanadi. O‘quvchilar fikriga munosabat bildirilmaydi, muhokama va to‘g‘riroq fikrni tanlash ularning (yoki “o‘zlarining”) ixtiyoriga qoldiriladi. Fikr bildirishda ketma-ketlik va o‘zaro hurmat saqlanishi nazorat qilinadi.

“Mantiq vaqti” rukni bilan tanishish darsning qaysi qismida amalga oshirilishi yoki uyda bajarish uchun berilishi vaziyatga qarab hal qilinadi.

Yechim: “Я люблю вас”.

Izoh: “Yellow-blue bus” ifodasi “Я люблю вас”ga o‘xshash eshitiladi. Savol matnida ham “talaffuz jihatidan yaqin”likka urg‘u berilgan edi.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida berilgan topshiriq uyda bajariladi.

O‘quvchilar ma’lumotnoma matnini kelajakda (35 yoshda) o‘zlarini qanday kasb, daraja, oliy o‘quv yurtida ko‘rishlarini tasavvur qilib yozishlari kerak bo‘ladi.

V. Darsni yakunlash.

Darsda muhokama qilingan mavzu yuzasidan xulosalar tinglanadi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki baholanadi. Ularning dars bilan bog‘liq savollariga javob beriladi hamda dars yakunlanadi.

3-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish; ilmiy va badiiy uslub haqidagi bilimlarni mustahkamlash; matn tabdili ustida ishlash.

DARS JARAYONI

I. Tashkiliy qism.


II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Topshiriq. Quyidagi ikki matnni o‘qing. Ularning yozilish uslubiga e’tibor qarating.

O‘tgan darslarda nutq uslublari, xususan, rasmiy uslub haqida gaplashilgani eslatiladi. Bugun badiiy va ilmiy uslub tushuntirilishi ma’lum qilinadi.

Darslikda berilgan nazariy ma’lumotlar yetarli.



3.1-mashq. Birinchi matn ilmiy uslubning qaysi shaklida yaratilgan: sof ilmiy yoki ilmiy-ommabop shaklda? Javobingizni asoslang.

BADIIY USLUB

Badiiy uslub tilning bor imkoniyatini namoyish qila oladigan uslubdir. Bu uslubdagi matnlarda:
1) ko‘chma ma’nolar, bo‘yoqdor birliklar faol qo‘llanadi;
2) inversiya, parallellik, tavtologiya(ortiqcha takrorlar)dan ta’sirchanlikni oshirishda foydalaniladi;
3) ritorik so‘roqlar va his-hayajon gaplar uchraydi;
4) eskirgan so‘zlardan aniq maqsadlarda foydalanilishi mumkin;
5) muallifning yangi so‘z va ma’nolar ijod qilishi kuzatiladi.
Nasriy va she’riy badiiy asarlar, insholar badiiy uslubda yaratiladi.

TIL SANDIG‘I

XONIM KIM? BEGIM KIM?

Xotinlarni *falonchi xonim* yoki *begim* deb atash bor. Bu so‘zlardagi “-im” qo‘shimchasini egalik qo‘shimchasi deb tushunish bor. U holda nima uchun egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda *xon* bilan *bek* ayol kishiga aylanadi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Vaholanki, “xonim” va “begim” so‘zlaridagi “-im” qo‘shimchasi egalik qo‘shimchasi emas. Qadim turkiy tillarda *ona* ma’nosidagi “uma” so‘zi bo‘lgan. “Begim” va “xonim” so‘zlari tarkibidagi “-im” ana shu “uma” so‘zining ixchamlashganidir. Demak, aslida “xonim” “mening xonim” emas, *xon ona* va begim “mening begim” emas, *bek ona* degan ma’noda ekan.

Alibek Rustamiy

3.2-mashq. Ikkinchi matnda qo‘llangan quyidagi shakllarni hozirgi o‘zbek tili me’yorlariga ko‘ra yozib chiqing.

onglamadi | nuqtag‘a | o‘lturdi | holatka | yeshildi | shekillik | angravlanishig‘a | ipidan ninasigacha | uyg‘ong‘an | so‘chib

15

Ilmiy uslub ilm-fanga doir fikrlarni bayon etishga mo‘ljallangan. Bu uslubdagi matnlarda:

1) sohaga doir terminlar faol qo‘llanadi;

2) ta’rif-qoidalar keltiriladi;

3) bo‘yoqdor birliklar, ibora va maqollardan foydalanilmaydi;

4) murakkab jumlalar, kirish va kiritmali qurilmalar ko‘p uchraydi.

Ilmiy maqolalar, konferensiya tezislari, dissertatsiya, monografiya kabilar ilmiy uslubdagi matnlarga misol bo‘ladi.

Ilmiy ma’lumotlar mutaxassis bo‘lmaganlar – keng ommaga ilmiy-ommabop shaklda yetkaziladi. Bunda matn hammaga tushunarli bo‘lishi uchun:

1) terminlar, tushunarsiz birliklarga izoh beriladi;


2) ayrim o‘rinlarda ko‘chma ma’no, badiiy-tasviriy vositalardan foydalanishga ruxsat beriladi.

Ommabop nashrlardagi ilm-fanga doir maqolalar, bolalar ensiklopediyalari, maktab darsliklari shu shaklda yaratiladi.

Badiiy uslub tilning bor imkoniyatini namoyish qila oladigan uslubdir. Bu uslubdagi matnlarda:

1) ko‘chma ma’nolar, bo‘yoqdor birliklar faol qo‘llanadi;

2) inversiya, parallellik, tavtologiya (ortiqcha takrorlar)dan ta’sirchanlikni oshirishda foydalaniladi;



3.3-mashq. Ikkala matn asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

	Matn uslubi	Matn uslubiga xos birliklar	Notanish so‘zlar	Matnga mos sarlavha
1-matn				
2-matn				

Menimcha...

1-rasmdagi kitob varaqlayotgan bola qanday kishining timsoli deb o‘ylaysiz? Fikrlaringizni izohlang.

2-rasmda qanday kishilar tasvirlangan deb o‘ylaysiz? Fikrlaringizni izohlang.

1-rasm

2-rasm

16

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Quyidagi rasm asosida esse yozing.
Tavsiya etiladigan hajm: 120–150 ta so‘z.

3) ritorik so‘roqlar va his-hayajon gaplar uchraydi;

4) eskirgan so‘zlardan aniq maqsadlarda foydalanilishi mumkin;

5) muallifning yangi so‘z va ma’nolar ijod qilishi kuzatiladi.

Nasriy va she’riy badiiy asarlar, insholar badiiy uslubda yaratiladi.

Bu ma’lumotlar bilan tanishib bo‘lingach, matnlar o‘qiladi.

3.1-mashq. Birinchi matn ilmiy uslubning qaysi shaklida yaratilgan: sof ilmiy yoki ilmiy-ommabop shaklda? Javobingizni asoslang.

Yechim: ilmiy-ommabop uslubda.

Izoh: terminlar juda kam; badiiy-ta’sirchan so‘zlar (*mavjud, bas, olamshumul* kabi) uchraydi; tushunarli, ya’ni matnni tushunish uchun qaysidir soha mutaxassisi bo‘lish shart emas.

“Til sandig‘i” rukni bilan tanishiladi.

Tanishishdan oldin Afandining zolim shohga qarata “Xonimning amrlari bosh ustiga” degani, bunda “xonim” so‘zi “shohim” ma’nosida ham, ayol kishiga murojaatni ham bildirishi aytiladi. So‘ng o‘rtaga savol tashlanadi: qanday qilib bir so‘z erkakni ham, ayolni ham ifodalashi mumkin? “Bu savolga javobni darslikdagi matndan olamiz”, deb mutolaaga kirishiladi.

3.2-mashq. Ikkinchi matnda qo‘llangan quyidagi shakllarni hozirgi o‘zbek tili me’yorlariga ko‘ra yozib chiqing.

Mashq yozma bajariladi.

Yechim:

Berilgan so‘zlar	Berilgan so‘zlarning hozirgi o‘zbek tiliga tabdili
onglamadi	anglamadi
nuqtag‘a	nuqtaga
o‘lturdi	o‘tirdi
holatka	holatga
yeshildi	yechildi
shekillik	shekilli
angravlanishig‘a	angrayishiga
ipidan ninasigacha	ipidan ignasigacha

uyg‘ong‘an	uyg‘ongan
so‘chib	cho‘chib

3.3-mashq. Ikkala matn asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.
Bu mashqni darsda bajartirish ham mumkin, uy vazifasi sifatida berish ham mumkin.

Yechim:

1-matn	Ilmiy-ommabop	Baholash mezonlari, tana “tili”, potensial juft...	Potensial...	(o‘quvchilarning taklifi)
2-matn	Badiiy	Onglamadi, fursat, va, takrorlandi	Angravlanishig‘a...	(o‘quvchilarning taklifi)

“Menimcha” rukni bo‘yicha o‘quvchilarning fikrlari tinglanadi. O‘quvchilardan nutq so‘zlash jarayonida adabiy til me’yorlariga rioya etish talab qilinadi.

IV. Uyga vazifa berish.
“Mustaqil bajaraman” rukni ostida berilgan topshiriq uyda bajariladi.
Esse rejasiz, ommabop (publitsistik) uslubda yozilishi, 120–150 ta so‘zdan iborat bo‘lishi kerakligi uqtiriladi.

V. Darsni yakunlash.
Darsda muhokama qilingan mavzu yuzasidan xulosalar tinglanadi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki baholanadi. O‘quvchilarning dars bilan bog‘liq savollariga javob beriladi hamda dars yakunlanadi.

4-dars


Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish va yozma nutq bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ishlash; sinonimlar uslubiyati va argumentli esse haqidagi bilimlarni rivojlantirish; muqobil variantli testlarni ishlash, esse yozish, mustaqil munosabatini og‘zaki bayon eta olish ko‘nikmasi ustida ishlash.

DARS JARAYONI

I. Tashkiliy qism.
II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.
III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.
4.1-mashq. Birinchi matn asosida quyidagi test savollarining to‘g‘ri javobini aniqlang.
O‘tgan darsda tanishilgan matn asosida berilgan ikkita testning to‘g‘ri javobini topish aytiladi. Har ikki test bo‘yicha A, B, C, D variantlarini necha kishi belgilagani qo‘llarni ko‘tarish usuli orqali taxminan aniqlanadi. To‘g‘ri javoblar e’lon qilinadi, boshqa variantlar nega to‘g‘ri emasligi yuzasidan o‘quvchilarning fikri tinglanadi.

Yechim:

Test raqami	To‘g‘ri javob	Izoh
1-test	D	Bu jarayonda tana “tili”ning roli juda yuqori, aniqrog‘i, 55%. Bu shuni anglatadiki, miya potensial juftning tana harakatlarini tahlil qiladi va undan sizda qiziqish uyg‘otadigan qandaydir javob signallarini izlaydi. Insonning harakatlari sizga qanchalik mos kelsa, siz uni sevib qolishingiz ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.
2-test	D	Bu jarayonda tana “tili”ning roli juda yuqori, aniqrog‘i, 55%. Bu shuni anglatadiki, miya potensial juftning tana harakatlarini tahlil qiladi va undan sizda qiziqish uyg‘otadigan qandaydir javob signallarini izlaydi.



4-dars

Diqqat! Mashqlar darslikning uchinchi soatidagi matnlar asosida tuzilgan.

4.1-mashq. Birinchi matn asosida quyidagi testlarning to‘g‘ri javobini belgilang.

1-test. Tadqiqotga ko‘ra, yigitdagi qaysi jihat qiz uni yoqtirib qolishida ko‘proq rol o‘ynaydi?	
A	qizning savoliga javob berayotganda ovoz ohangida o‘zgarish sezilishi
B	nutq jarayonida zarur so‘zlarni topolmay qiynalishi
C	gapirayotib qizga yoqishi mumkin bo‘lgan so‘zlardan foydalanishi
D	gap orasida bir-bir yoqimli kulib qo‘yishi

2-test. Matnda qo‘llangan *tana “till” – ...*	
A	tashqi muhitdan inson tanasi orqali qabul qilingan signallar
B	o‘zganing tana tuzilishiga qarab u kishi haqida chiqarilgan xulosalar
C	tilning shakllanishida tana holatining ahamiyati
D	o‘zganing tana harakatini tahlil qilib olingan ma’lumotlar

4.2-mashq. Birinchi matnda yoritilgan ilmiy tadqiqotga munosabatingiz qanday? Uning natijasiga ishonasizmi? Nega?

Topshiriq. Matnni o‘qing. Muhabbat tushunchasi bilan bog‘liq sinonim so‘zlarning ma’no nozikliklari qayd etilgan o‘ringa diqqat qiling.

“Muhabbat” degan so‘z hamma tilda bor. Albatta, barcha tillarda bu so‘zning bir necha xil ifodasi ham bor. Ammo o‘zbek tilida “muhabbat” degan so‘z shu qadar rango-rang ma’nolarga egaki, hayratda qolasiz! *Yoqtirib qolmoq, ko‘ngil bermoq, moyil bo‘lmoq, xushtor bo‘lmoq, oshufta bo‘lmoq, dil bermoq, bedil bo‘lmoq, mubtalo bo‘lmoq, maftun bo‘lmoq, mahbub bo‘lmoq, oshiq bo‘lmoq, yaxshi ko‘rmoq, ishqi tushmoq, ishqi foniy, ishqi boqiy, sevgi, muhabbat, mehr* va hokazolar... Tabiiyki, bular orasida boshqa tillardan kirganlari ham bor. Biroq ularning barchasi – teng huquqli o‘zbek so‘zlari!

17

4.2-mashq. Birinchi matnda yoritilgan ilmiy tadqiqotga munosabatingiz qanday? Uning natijasiga ishonasizmi? Nega?

Matndagi ma’lumot yuzasidan o‘quvchilar fikri tinglanadi. O‘quvchilar fikriga munosabat bildirilmaydi, muhokama va to‘g‘riroq fikrni tanlash o‘quvchilar ixtiyoriga qoldiriladi. Fikr bildirishda ketma-ketlik va o‘zaro hurmat saqlanishi nazorat ostiga olinadi. Adabiy til me’yoriga amal qilish va fikrni asoslab, dalillab berish talab etiladi.

Topshiriq. Matnni o‘qing. Muhabbat tushunchasi bilan bog‘liq sinonim so‘zlarning ma’no nozikliklari qayd etilgan o‘ringa diqqat qiling.


O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub matn o‘qiladi. Shu matn misolida sinonimlar orasidagi ma’no nozikliklari tushuntirib ketiladi.

4.3-mashq. *Yaxshi ko‘rmoq* o‘rniga *sevmoq, oshiq bo‘lmoq* so‘zlarini qo‘llab bo‘lmaydigan holatlarga misollar keltiring va izohlang.

Yechim:

Ovoz chiqarib kitob o‘qishni yaxshi ko‘raman.

“Dadajon” deganingda yaxshi ko‘rib ketaman-da.



ARGUMENTLI ESSE

Bunday esseda muallif biror masalada o'z nuqtayi nazarini fakt va dalillar bilan qo'llab-quvvatlaydi. Avval har ikki tomon uchun faktlar keltiradi, yakunda kuchli dalillar bilan o'z pozitsiyasini himoya qiladi.

Menimcha...

4.5-mashq. Xo'janazar Huvaydoning mashhur bayti bor:

"Muhabbatdan muhabbat bo'ldi paydo,
Muhabbatsiz kishidan qoch, Huvaydo".

Siz baytning birinchi misrasini qanday tushundingiz?

TIL SANDIG'I

QITMIR

Qilig'i birovlarning g'ashiga teguvchi, asabini o'ynovchi kishilarni qitmir deymiz. "Qitmir odam ekan", "Yana qitmirlik qilyapti", "Qitmir savol berdi" deganda shu ma'no nazarda tutiladi. Arabchadan kirib kelgan bu so'z, aslida, xurmo danagini qoplab turuvchi yupqa pardani anglatadi. Shuningdek, manbalarda Daqyonus zulmidan qochgan "G'or egalari"ning iti ham Qitmir nomi bilan berilgan. Darvoqe, Daqyonus haqida "Daqyonusdan qolgan" iborasi tahlilida ma'lumot berilgan edi.

Mansur Siddiqov

19

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Tanishilgan namuna va ma'lumot asosida argumentli esse yozing. Quyidagi mavzulardan birini tanlashingiz yoki o'zingiz mavzu topishingiz mumkin.

Nima deb o'ylaysiz: televideniyeda dorilar reklamasi berilishi kerakmi yoki yo'q?	Maktab uchun bir xil kiyim tanlanishiga qanday qaraysiz?
Ayrimlar laboratoriyalarda tadqiqot uchun hayvonlardan foydalanishga qarshi ekanini aytishadi. Siz qanday fikrdasiz?	Boylar va kambag'allar bir xil soliq to'lashini to'g'ri deb bilasizmi?
Shaxmat olimpiada o'yinlari sirasiga kiritilishi kerakmi yoki yo'q?	"Samsung" yoki "Ayfon"?

Esse hajmi 170–250 so'zni tashkil qilsin.

4.4-mashq. Quyida berilgan argumentli esse bilan tanishib chiqing.

Avval argumentli esse haqida ma'lumot beriladi.

Bunday esseda muallif biror masalada o'z nuqtayi nazarini fakt va dalillar bilan asoslaydi. Avval har ikki tomon uchun faktlar keltiradi, yakunda kuchli dalillar bilan o'z pozitsiyasini himoya qiladi.

Keyin matn bilan tanishiladi.

"Menimcha" va "Til sandig'i" ruknlari bilan darsda tanishish yoki ularni uy vazifasi sifatida berish o'qituvchining ixtiyorida.

IV. Uyga vazifa berish.

"Mustaqil bajaraman" rukni ostida berilgan topshiriq uyda bajariladi.

Topshiriq. Tanishilgan namuna va ma'lumot asosida argumentli esse yozing. Quyidagi mavzulardan birini tanlashingiz yoki o'zingiz mavzu topishingiz mumkin.

Berilgan 6 ta mavzudan birini tanlab yoki boshqa mavzu topib, shu asosda argumentli esse yozish mumkin. Essedagi so'zlar soni 170 tadan kam va 250 tadan ortiq bo'lmasligi shart. Esse rejasiz, ommabop (publitsistik) uslubda yozilishi lozim.

V. Darsni yakunlash.

Darsda muhokama qilingan mavzu yuzasidan xulosalar tinglanadi. O'quvchilarning darsdagi ishtiroki baholanadi. Ularning dars bilan bog'liq savollariga javob beriladi hamda dars yakunlanadi.

5-dars

Darsning maqsadi. Matnni o'qib tushunish va yozma nutq bilan bog'liq ko'nikmalarni rivojlantirish ustida ishlash; antonimlar uslubiyati, o'xshatishlar va maktub yozish haqidagi bilimlarni rivojlantirish; mustaqil munosabatini og'zaki bayon eta olish ko'nikmasi ustida ishlash.

DARS JARAYONI

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

5.1-mashq. Ota-onaning inson hayotidagi o'rni qanday? Buni namunadan foydalanib tushuntiring. Nutqingizda antonimlarni qo'llang.



5-dars

5.1-mashq. Ota-onaning inson hayotidagi o'rni qanday? Buni namunadan foydalanib, tushuntiring. Nutqingizda antonimlarni qo'llang.

Namuna. Men ota-onani bulutga qiyoslayman: bulutdan tushgan yog'in bilan o'simliklar unadi, ko'karadi; yog'in bo'lmasa, o'simliklar quriydi, yer qaqraydi.

20

Topshiriq. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning onasi vafoti munosabati bilan musofirlikda yozilgan xotirasi bilan tanishing.

Onajonim!!! Volidayi mehribonim!!!

Sizdan ajrab qolish musibati hammamiz uchun **og'ir**. Har kim o'zidan o'tganini o'zi biladi. Bu musibat Sizning qariyb yarim asrlik umr yo'ldoshingiz, bizning Qiblagohimizga esa o'ziga xos, boshqacha ta'sir qilibdi. Umrlarining ko'p qismi mo'min-musulmonlarning janozasini o'qish, dafnlarida qatnashish bilan o'tgan bu zot Sizning janozangiz o'qilishi va dafningiz paytida ishtirokchilarga murojaat qilib: "Xaloyiq, birodarlar, guvoh bo'linglar, men marhumadan **ming marta** roziman!" – debdilar. Sizni yo'qotganlariga ko'p **o'rtanibdilar**. Yaqin kishilariga: "Onamdan ajrab ham yetimlikni sezmagan ekanman, otamdan ajrab ham yetimlikni sezmagan ekanman. Endi esa o'zimni haqiqiy yetim sezmoqdaman", – deb yig'labdilar. **Uzoq** muddat masjidga ham bora olmay, **xastalanib qolibdilar**. Ha, mo'min inson vafot etsa, yaqinlari yaxshi bir odamlaridan ajrab qolganlari uchun ana shunday qayg'u chekadilar...

Ota-onaning inson hayotidagi o'rni haqida gapirish qiyin emas, biroq qiyoslar bilan, antonimlardan foydalanib nutq yaratish birmuncha mushkul. O'quvchilarga namuna o'qib beriladi va shu asosda nutq yaratish topshirig'i beriladi. Rasmdan foydalanib jumla tuzilsa, yanada yaxshi.

Topshiriq. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning onasi vafoti munosabati bilan musofirlikda yozgan xotirasi bilan tanishing.

Xotira matni bilan tanishiladi. Raqam bilan belgilangan qism (blok)lar va siyohrang tusda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor qaratiladi.

5.2-mashq. Matn asosida quyidagi savollarga javob bering.

Matn yuzasidan 6 ta savolga javob beradi.

Yechim:

1. Matnning 3-qismida xotiraning yozilish sababi keltirilgan.

2. Ayoli bilan qariyb 50 yil yashagan; masjid imomi bo'lgan, janozalarni o'qigan; ayoli vafotidan chuqur qayg'uga botgan, qiynalgan.

3. Ayoliga qattiq bog'lanib qolganini, umrida ilk bor o'zini haqiqiy yetimdek his qilayotganini ma'lum qilgan.

4. Chunki o'tmishdagi solihlarning onaga marsiyasiga duch kelmagan. Yo'qolib ketgan yoki umuman yozilmagan bo'lishi mumkin.

5. Oldingidek samarali ijod qila olmay qoldi ("Oddiy holatlarda bir kunda o'n-o'n ikki sahifa yozish men uchun hech gap emas edi. Hozir esa bir kunda bir sahifa ham yoza olmay qoldim").

6. "Yozmoqchi edim" so'zini takrorlash orqali muallif ta'sirchanlikni oshirishga erishgan. Bu usulni muallif atayin qo'llagan, shunday ekan, ortiqcha takror haqida gap bo'lishi mumkin emas.

5.3-mashq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga jumladagi ma'nosidan kelib chiqib antonim bo'la oladigan so'z va iboralarni toping.

Dastlab antonimlarning qo'llanishi, ta'sirchanlik va tushunarlilikni ta'minlashdagi o'rni haqida ma'lumot bering. Darslikdagi ma'lumot yetarli.

Antonimlar, ya'ni o'zaro zid ma'noli birliklardan fikrni tushunarliroq ifodalash, ta'sirchanlikni oshirish maqsadida ham foydalaniladi. "Ilm bilan hayot charog'on" gapining mazmunini "Ilmsiz hayot zulmatdir" jumlasi orqali ham berish mumkin va ikkinchi holatda ilmning ahamiyati, hayotdagi o'rni ta'sirliroq ifodalanmoqda. Bir qator maqollarimizda antonimlardan xuddi shu maqsadda foydalanilgan: 1. To'g'ri bo'lsang, o'sib borib gul bo'lasan; egri bo'lsang, o'sib borib kul bo'lasan. 2. Yaxshidan bog' qoladi, yomondan – dog'.


Bu maqollarning birinchi qismi umumiy mazmun uchun kifoya qilsa-da, ikkinchi qism orqali ta’sirchanlikni oshirishga erishilgan.

Keyin mashqni ishlashga kirishadi.

Yechim:

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar	Antonimlar
og‘ir	oson, yengil
ming marta	bitta ham, hecham, aslo
o‘rtanibdilar	shodlanibdilar
uzoq	biroz
xastalanib qolibdilar	sog‘ayib ketibdilar
oson	qiyin
o‘tgan	kelgusidagi
ep bilib	loyiq ko‘rmay
hech gap emas	qiyin, mushkul
(yig‘imni) bosa olmayman	yig‘lay olmayman
purnur	qorong‘i
qabul aylasin	rad etsin

“Mantiq vaqti”



5.2-mashq. Matn asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. Matnning qaysi qismida xotiraning yozilish sababi keltirilgan?
2. Matnga asoslanib muallifning otasi haqida ma’lumot bering.
3. Matnning 1-qismida otaning xaloyiqqa murojaati mazmunini tushuntirib bering.
4. Muallif nima uchun yashab o‘tgan solihlarning o‘z onasiga bag‘ishlab yozgan ishlari bilan tanish emas?
5. Onasining vafoti haqida eshitgan muallif hayotida nimalar o‘zgardi?
6. Matnning 3-qismi oxirida muallif nega ketma-ket bir necha jumlani bir xil so‘z bilan yakunlagan? Bundan qandaydir maqsad ko‘zlanganmi yoki buni ortiqcha takror sifatida baholash kerakmi?

ANTONIMLARNING QO‘LLANISHI

Antonimlar, ya’ni o‘zaro zid ma’noli birliklardan fikrni tushunarliroq berish, ta’sirchanlikni oshirish maqsadida ham foydalaniladi. *Ilm bilan hayot charog‘on* gapining mazmunini *Ilmsiz hayot zulmatdir* jumlasi orqali ham berish mumkin va ikkinchi holatda ilmning ahamiyati, hayotdagi o‘rni ta’sirliroq ifodalanmoqda. Bir qator maqollarimizda antonimlardan xuddi shu maqsadda foydalanilgan:

1. To‘g‘ri bo‘lsang, o‘sib borib gul bo‘lasan; egri bo‘lsang, o‘sib borib kul bo‘lasan.
2. Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan – dog‘.

Bu maqollarning birinchi qismi umumiy mazmun uchun kifoya qilsa-da, ikkinchi qism orqali ta’sirchanlikni oshirishga erishilgan.

22

5.3-mashq. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga jumladagi ma’nosidan kelib chiqib antonim bo‘la oladigan so‘z va iboralarni toping.

Mantiq vaqti

Siz topishingiz kerak bo‘lgan so‘zlar o‘zaro sinonim bo‘lib, birinchisi – o‘zbekcha (turkiy) so‘z, ikkinchi esa fors-tojik tilidan o‘zlashgan.

Negadir birovni maqtashda, olqishlashda birinchi so‘zdan, qarg‘ashda esa ikkinchi so‘zdan foydalanamiz.

Darsimiz mavzusidan uzoqlashmagan holda har ikki so‘zni ham toping.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Onangizga/otangizga maktub yozing.

Maktubingizda dil izhoringiz, minnatdorchiligingiz, uzringiz, maqsadlaringiz va shu kabilar bo‘lishi mumkin.

Tavsiya etiladigan hajm: 160–200 ta so‘z.

Maktubni xatjildga solib onangizga/otangizga taqdim qiling.

Yechim: ota, padar.

Izoh: ota – turkiy, padar – fors-tojikcha so‘z. Olqishlashda “Otangga rahmat!” deymiz, aksincha vaziyatda esa “Padaringga la’nat” deymiz.

Matndagi ma’lumot yuzasidan o‘quvchilar fikri tinglanadi. Fikrlarga munosabat bildirilmaydi, muhokama va to‘g‘riroq fikrni tanlash o‘quvchilar ixtiyoriga qoldiriladi. Fikr bildirishda tartib va o‘zaro hurmat saqlanishi nazorat qilinadi. Adabiy til me’yorlariga amal qilish va fikrni asoslab berish talab etiladi.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida berilgan topshiriq uyda bajariladi.

Topshiriq. Onangizga/otangizga maktub yozing.

Maktub yozishda darslikda qayd etilgan talablarga amal qilish kerakligi uqtiriladi.


V. Darsni yakunlash.

Darsda muhokama qilingan mavzu yuzasidan xulosalar tinglanadi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki baholanadi. Ularning dars bilan bog‘liq savollariga javob beriladi hamda dars yakunlanadi.

6-dars

JAMIYATNING BIR BO‘LAGIMAN

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish va og‘zaki nutq bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ishlash; uslubiy xatolar haqidagi bilimlarni rivojlantirish; rasm asosida mustaqil nutq tayyorlash ustida ishlash.



II BOB

JAMIYATNING BIR BO‘LAGIMAN

6-dars

6.1-mashq. Savollarga javob bering.

1. Jamiyatda yashash kishiga qanday talablarni qo‘yadi?
2. Jamiyatdan ayro yashashning nimasi yomon?
3. Robinzon Kruzoning kimsasiz oroldagi hayotida jamiyat ichida yashayotgan kishida bor nimalar yetishmagan deb o‘ylaysiz?

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

HIKIKOMORI

1 Yaponiya hozirda eng ko‘p hikikomori yoki qisqacha hikki deb ataluvchi shaxslar yashaydigan mamlakat sanaladi. Xo‘sh, hikkilar kimlar?

Hikkilar o‘z ixtiyorlari bilan jamiyatdan uzilgan, ijtimoiy aloqalardan deyarli uzoq yuradigan, o‘qishni ham, ishni ham tashlab qo‘ygan odamlardir.

Bugunga kelib Yaponiyada 800 000 dan ortiq (Yaponiya Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 1 millionga yaqin) hikki istiqomat qiladi. Ularning o‘rtacha yoshi o‘ttizni tashkil etadi.

2 Hikki umrini oddiy, deyarli bir xil ssenariyda o‘tkazadi. U o‘zining jonajon xonasida uxlaydi, kompyuter, telefon yoki televizor bilan “ishlaydi”, maxsus anonim forumlarda suhbatlashadi, anime tomosha qiladi, komikslar o‘qiydi, ijod qiladi yoki shunchaki yolg‘izlik va jimjitlikdan rohatlanadi.

3 Hikikomoriga aylanib qolish sababi hammada ham bir xil emas: bunga kimdadir shaxsiy fe’l-atvor, kimdadir sotsiofobiya va yana kimdadir tushkunlik yoki autistik spektrning buzilishi sabab bo‘ladi. Ijtimoiy hayotdagi muammolar, masalan, o‘qish yoki ishdagi zo‘ravonlik (bulling) fonida hikkilar sohiliga o‘tib olganlar ham uchraydi. Bir narsani unutmaslik kerak: shunchaki mana shu turmush tarzini yoqtirib, qulay hisoblab tanlaganlar ham talaygina: ular “Hech narsaga javobgarmasman, qaror qabul qilishim ham shart emas, axir qarindoshlarim va ishsizlik nafaqasini to‘laydigan davlat menga g‘amxo‘rlik qilyapti-ku” degan qarash bilan yashaydilar.

4 Hikkilar uchun haqiqiy hayot tunda – hamma uxlagandan keyin boshlanadi. Xona sharoitida nimani xohlashsa, shuni amalga oshirib vaqt o‘tkazishadi. Ular

23

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

6.1-mashq. Savollarga javob bering.

1. Jamiyatda yashash kishiga qanday talablarni qo‘yadi?

2. Jamiyatdan ayro yashashning nimasi yomon?

3. Robinzon Kruzoning kimsasiz oroldagi hayotida jamiyat ichida yashayotgan kishida bor nimalar yetishmagan deb o‘ylaysiz?

Ushbu savollarga o‘quvchilarning javobi tinglanadi. Bu orqali mavzuga kiriladi. Jamiyatdan o‘zini olib qochishning salbiy oqibatlari haqidagi matn bilan tanishiladi.

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

“Hikikomori” matni bilan tanishiladi. Raqamlangan qismlar (bloklar) va siyohrang tusda ajratilgan so‘zlar yuzasidan topshiriq bajarilishi eslatiladi.

6.2-mashq. Savollarga javob bering.

1. *O‘zbekistonda ham hikkilar bor deb o‘ylaysizmi?*

2. *Hikkilar hayot tarzining jamiyatga qanday xavfi bor deb o‘ylaysiz?*

3. *“Hikikomori” atamasini o‘zbekcha qanday nomlash mumkin?*

Savollarga erkin va asosli javob berish, nutq jarayonida adabiy me'yorlarga amal qilish talab etiladi. 3-savolga nisbatan matnda qo'llangan "xonanishin" so'zidan tashqari okkazional yasalmalar ham qabul qilinadi, ya'ni yangi so'z ijod qilishga ruxsat beriladi. "Xonasevar", "ko'chasuymas", "yolg'izhayot" kabi so'zlar yasalishi mumkin.


6.3-mashq. Matnni tushunishda quyidagi so'z va birikmalardan qaysilari sizga xalal berdi? Ularning ma'nosini internetdagi izlash xizmatlari yordamida aniqlang.

Berilgan so'zlar	Ma'nosi
ijtimoiy aloqalar	jamiyat a'zolari bilan o'rnatilgan munosabatlar
bir xil ssenariy	voqealarning bir xil davom etishi
anonim forumlar	ijtimoiy tarmoqlarda shaxsini yashirgan holda olib boriladigan muloqot maydonlari
anime	asosan yapon animatsiyasi namunalariga nisbatan qo'llanuvchi termin
komikslar	bir voqeani hikoya qiluvchi rasmlar tizimi
bulling	birovni xo'rlash, haqoratlash, unga nisbatan zo'ravonlik qilish
fenomen	kamdan kam kuzatiladigan, favqulodda voqea-hodisa
sotsiofobiya	ijtimoiy munosabatlarda xato qilib qo'yish yoki salbiy oqibat yuzaga kelishidan qo'rqish
autistik spektrning buzilishi	kishilar bilan muloqot qilishda muammolarga duch kelish
agorafob	keng, ochiq joylardan qo'rquvchi kishi
xonanishinlik	ko'chaga chiqmay, doim uyda o'tirish
nodavlat tashkilotlar	davlat tasarrufida bo'lmagan tashkilotlar
yapon mentaliteti	yapon millatiga xos an'ana, qarash va e'tiqodlar majmui
kunchiqar yurt	Yaponiyani anglatuvchi tasviriy ifoda

6.4-mashq. Nazariy ma'lumotlarda keltirilgan 7 ta jumladagi uslubiy xatoni sinfdoshlar bilan to'g'rilang va daftarga ko'chiring.

Avval uslubiy xatolar haqida ma'lumot beriladi. Darslikdagi ma'lumot va misollar yetarli.

Birliklarni (qo'shimcha, so'z, iboralarni) qo'llashga doir me'yorlarning buzilishi oqibatida uslubiy xato kelib chiqadi. Uslubiy xatoning ko'rinishlariga misollar:



TIL SANDIG'I

MUNCHOQ

Ayollar bo'yniga taqadigan munchoqni yaxshi bilasiz...

"Kitob at-tuhfa"da ***munchoq*** so'zi ***bonchuq*** shaklida beriladi va ayni shu shaklda munchoq so'zining tub ildizini ko'rish mumkin. Ya'ni ***bonchuq*** so'zi ***bo'yinchiq*** so'zining o'zgarganidir.

Tilimiz tabiatida ***b*** tovushi bilan ***m*** tovushining almashib turishi hodisasi ko'p kuzatiladi. Masalan, ***buni*** so'zini goho ***muni*** deymiz. ***Murch*** so'zi aslida ***burch*** bo'lgan. Xuddi shu kabi tilimizda ***bo'yin*** so'zi ***mo'yin*** ham deyiladi. Bu hozirgacha ba'zi shevalarimizda bor. Yana bir narsaga e'tibor qilish kerak: hozirgi imlomizga ko'ra biz ***munchoq*** deb yozamiz, lekin ko'p hollarda bu so'z ***mo'nchoq*** deb talaffuz qilinadi va shu shaklda asliga yaqin bo'ladi.

Xullas, ***munchoq*** so'zi "mo'yinga – bo'yinga taqiladigan taqinchoq" ma'nosidan kelib chiqqan.

"Boboso'z izidan"

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Ushbu rasmga diqqat bilan qarang. Rasm orqali muallif nima demoqchi ekanini tushunishga harakat qiling. Unda ochib berilgan illat haqida nutq so'zlashga tayyorlaning.

Nutqingiz quyidagi qismlardan iborat bo'lsin:

Kirish. Bu qismda qaysi illat haqida so'zlab bermoqchiligingiz haqida ma'lumot bering, uni qisqacha tavsiflang. Nutqni noan'anaviy kirishdan ham boshlashingiz mumkin. Bunda mavzuni e'lon qilgunga qadar biror kichik voqea yoki iqtibos keltirib o'tsangiz bo'ladi.

Asosiy qism. Bu qismda illatning qay ko'rinishlarda namoyon bo'lishi, jamiyat inqirozidagi roli haqida gapirasiz; o'z fikrlaringizni bildirasiz.

Xulosa. Bu qism so'ngso'zlar va chorlovlar asosiga quriladi. Nutq so'ngida tinglovchilarga tashakkur bildirib qo'yish ham lozim.

1. Choyxonada uchta do‘stlarim bilan o‘tirdik. (qo‘shimchani o‘rinsiz qo‘llash)
2. Kitobni bitta varag‘i yo‘q ekan. (qo‘shimchani yanglish qo‘llash)
3. Ozg‘ingina, suluv yigit ekan. (sinonimlarni yanglish qo‘llash)
4. Qishloqqa – bobomni yoqlashga ketyapman. (paronimlarni yanglish qo‘llash)
5. Sen haqingda sendan so‘ray qolay degandim. (keraksiz takror)
6. U qaytmaydi: bu yerlardan butkul oyoq uzatgan. (iborani yanglish qo‘llash)
7. U nafaqat kitdan, balki akuladan ham katta ekan. (mantiqiy xato)

Keyin mashqni ishlashga kirishadi.

Yechim:

1. Choyxonada uchta do‘stim bilan o‘tirdim.
2. Kitobning bitta varag‘i yo‘q ekan.
3. Ozg‘ingina, kelishgan yigit ekan.
4. Qishloqqa – bobomni yo‘qlashga ketyapman.
5. Sen haqingda o‘zingdan so‘ray qolay degandim.
6. U qaytmaydi: bu yerlardan butkul oyoq uzgan.
7. U nafaqat akuladan, balki kitdan ham katta ekan.

6.5-mashq. Quyidagi gaplarni uslubiy xatoni bartaraf etgan holda ko‘chiring.

1. Men va Sodiq teatrga bordim.
2. Har bir xabarlar nazoratdan o‘tadi.
3. Menimcha, sen o‘qishga aniq kirasan.
4. “Xamsa” – Navoiyning shox asari.
5. X asrga mos yodgorliklar bilan tanishdik.

Yechim:

1. Men va Sodiq teatrga bordik.
2. Har bir xabar nazoratdan o‘tadi.
3. Menimcha, sen o‘qishga kirasan./ Sen o‘qishga aniq kirasan.
4. “Xamsa” – Navoiyning shoh asari.
5. X asrga xos yodgorliklar bilan tanishdik.

6.6-mashq. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning paronimini aniqlang. Aniqlagan so‘zingizga mos ma’noni quyidagilar orasidan toping.

Diqqat! Ma’nolardan ikkitasi ortiqcha.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar	Paronimi	Mos ma’no
uxlaydi	uhlaydi	ruhiy horg‘inlikni ifodalash
o‘qish	uqish	anglash, tushunib yetish
o‘tkazishadi	o‘tqazishadi	ko‘chatni yerga qadash
mijoz	mizoj	tana va xulqning o‘ziga xosligi
abadiy	adabiy	adabiyot va yozuvchilikka oid
afzal	abzal	ot anjomi
hol	xol	tanadagi dog‘cha
sobiq	sodiq	sadoqatli, vafo qiluvchi

“**Til sandig‘i**” rukni bilan vaziyatga qarab darsda yoki uyda tanishish mumkin.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida berilgan topshiriq uyda bajariladi.

Topshiriq. Ushbu rasmga diqqat bilan qarang. Rasm orqali muallif nima demoqchi ekanini tushunishga harakat qiling. Unda ko‘rsatilgan illat haqida nutq so‘zlashga tayyorlaning.

O‘quvchilarga rasm asosida bir daqiqalik nutq tayyorlash topshiriladi. Nutqni darsda ijro etish yoki uyda gadjet xotirasiga audioyozuv tarzida muhrlab, o‘qituvchiga jo‘natish ham mumkin.

Rasmda odamlar aynan kamera qarshisidagi tilanchiga sadaqa bergani tasvirlangan. Bunda kishilarning odamlar ko‘zi uchun harakatlanishi, riyo ko‘rsatib berilgan.

V. Darsni yakunlash.

Darsda muhokama qilingan mavzu yuzasidan xulosalar tinglanadi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki baholanadi. Ularning dars bilan bog‘liq savollariga javob beriladi hamda dars yakunlanadi.

7-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish va yozma nutq bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish; muqobil variantli testlar ustida ishlash, turli xalqlarga xos odat va tartiblarga baho bera olish; sinonimlar uslubiyati haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

7.1-mashq. “Hikikomori” matni asosida quyidagi test savollarining to‘g‘ri javobini aniqlang.

Dastlab o‘tgan darsda “Hikikomori” matni bilan tanishilgani, bugun matn qanday tushunilganini test savollari orqali sinab ko‘rilishi ma’lum qilinadi.

Har uch test bo‘yicha A, B, C, D variantlarini necha kishi belgilagani qo‘llarni ko‘tarish usuli orqali taxminan aniqlanadi. To‘g‘ri javoblar e’lon qilinadi, boshqa variantlar nega to‘g‘ri emasligi yuzasidan o‘quvchilarning fikri tinglanadi.

Test raqami	To‘g‘ri javob	Izoh
1-test	D	“Hikki umrini oddiy, deyarli bir xil ssenariyda o‘tkazadi. U o‘zining jonajon xonasida uxlaydi, kompyuter, telefon yoki televizor bilan “ishlaydi”...” (2-qism)
2-test	C	“Hikikomoriga aylanib qolish sababi hammada ham bir xil emas...” (3-qism) “Ehtimol, kunchiqar yurtda hikikomorining ildiz otishi ko‘pchilikning o‘smir yoshidagi farzandlarini to‘liq ta’minlash uchun yetarlicha shart-sharoitga egaligi bilan bog‘liqdir”. (7-qism)
3-test	C	“Samarali yakun topgan muolajalar tahlili diqqatni tortmay qo‘ymaydi...” (8-qism)

Topshiriq. Turli jamiyatlarga xos odat va tartiblar bilan tanishib chiqing.
Oltita mikromatn bilan tanishiladi.

7.2-mashq. Yuqoridagi odat va tartiblarga munosabat bildiring. Ulardan qay birini bizning jamiyatga ham tatbiq qilish kerak deb o‘ylaysiz? Fikringizni asoslang va og‘zaki bayon eting. Gapirish chog‘ida adabiy til me’yorlariga amal qiling.
O‘quvchilar o‘z ixtiyorlari bilan odat va tartiblarga munosabat bildirishlari mumkin. Ular fikrini asoslayaptimi, qarshi fikr bildirishda sinfdoshiga madaniyat bilan muomala qilyaptimi, adabiy til me’yorlarini buzmayaptimi – shular nazorat qilinadi.

7.3-mashq. Odat va tartiblar haqidagi matnlarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning sinonimlarini aniqlang. Diqqat! 6 ta so‘z ortiqcha.
Mashq yozma bajariladi.

Yechim:

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar	Berilgan so‘zlarning sinonimi
hech gap emas	mumkin
taqdim etiladi	namoyish etiladi
xos	tegishli
kuzatish	tomosha qilish
qo‘llanadi	ishlatiladi
qabul qilishadi	tushunishadi

Sinonimlar uslubiyati (qaysi so‘z qanday vaziyatda nimaga nisbatan qo‘llanishi) haqida ma’lumot beriladi.

Darslikda berilgan nazariy ma’lumotlar yetarli.

Sinonimlarning ma’nosi yaqin bo‘lsa-da, ammo bir xil emas. Ular turli jihatlariga ko‘ra farqlanadi:

1. Kambag‘al – yo‘qsil; bo‘sh – latta. (*bo‘yoqning kuchli-kuchsizligiga ko‘ra*)

2. Jilmaymoq – tirjaymoq. (*bo‘yoqning ijobiy-salbiyligiga ko‘ra*)


3. Ruxsat – izn; bermoq – taqdim qilmoq. (*uslubiy xoslanishiga ko‘ra*)

4. Osmon – gardun; dushman – yog‘iy. (*davriy xoslanishiga ko‘ra*) Bundan tashqari, sinonimlar nutqda qanday ma’noda kela olishi, qaysi so‘zlar bilan birika olishiga ko‘ra ham farqlanadi. *Osmon* so‘ziga *samo, ko‘k* so‘zlari ma’nodosh, biroq “*Bozorda narxlar osmon ekan*” jumlasida *samo* va *ko‘k* so‘zlarini qo‘llab bo‘lmaydi. Bu jumlada *osmon* so‘zining ma’nodoshlari *baland*, *qimmat* hisoblanadi. “*Buncha osmon bo‘lmasa bu bola*” gapida *osmon – mag‘rur* sinonimligini ko‘rishimiz mumkin. Bulardan xulosa qilishimiz mumkinki:

1) bir so‘z turli ma’nosi bilan har xil so‘zlarga sinonim bo‘lishi mumkin;

2) so‘zning sinonimi nutqda (jumla, matn ichida) oydinlashadi;

3) bir so‘z ko‘chma ma’noda boshqa turkumdagi so‘zga sinonim bo‘lishi mumkin.



7.4-mashq. “Hikikomori” matnidan olingan quyidagi gaplarda ajratilgan so‘zlar qavs ichidagi qaysi so‘z bilan almasha oladi?

1. Hikki umrini oddiy, deyarli **bir xil** ssenariyda o‘tkazadi. (*zerikarli*, *ayni*, *oddiy*)
2. Bir narsani unutmaslik kerak: shunchaki mana shu turmush tarzini yoqtirib, qulay hisoblab tanlaganlar ham **talaygina**... (*har qancha*, *qanchadir*, *bir qancha*)
3. Hikkilar uchun **haqiqiy** hayot tunda – hamma uxlagandan keyin boshlanadi. (*tabiiy*, *rosmana*, *odatiy*)
4. Yaponiyada hikikomori muammosiga yechim topish va uni hal qilishga davlat **miqyosida** e’tibor qaratiladi. (*darajasida*, *dasturida*, *homiyligida*)
5. Albatta, bu yapon fenomeni boshqa mamlakatlarda ham **uchrab turadi**... (*ko‘p*, *mavjud*, *xos*)
6. Hikkilarni davolash uchun odatda ota-onalarning o‘zlari **harakat qilib** ko‘rishadi. (*hal qilib*, *urinib*, *boshlab*)

7.5-mashq. Jamiyatimizga xos quyidagi odat va tartiblarga munosabat bildiring. Sinfda ularga “kerak” va “kerak emas” bahosini beruvchilar sonini aniqlang va natijalarni xattaxtaga yozing.

T/r	Jamiyatimizdagi odat va tartiblar	“Kerak” (nafar)	“Kerak emas” (nafar)
1.	saharda yangi kelinning ko‘cha supurishi		
2.	ota uyining kenja farzandga qolishi		
3.	sinfxonadagi old partalarda a’lochilar o‘tirishi		
4.	chaqaloqni beshikka belash		
5.	tilanchilarga pul berish		
6.	maktab uchun yagona xoskiyim joriy qilinishi		

30

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Rasm asosida tasviriy matn tuzing va yozing.

Matn quyidagi qismlardan iborat bo‘lsin:
Kirish. Bu qismda matnda qanday jarayon tasvirlangani haqida ma’lumot berasiz.
Asosiy qism. Bu qismda rasmdagi detallar mantiqiy izchillik bilan tasvirlab chiqiladi. Rasmda yo‘q narsa haqida yozilmaydi.
Xulosa. Bu qism 1-2 ta gapdan iborat bo‘lib, unda rasmdagi jarayon yoki rassomning mahorati haqidagi xulosangiz yoritiladi.

So‘zlar soni 80–120 ta oralig‘ida bo‘lsin.

7.4-mashq. “Hikikomori” matnidan olingan quyidagi gaplarda ajratilgan so‘zlar qavs ichidagi qaysi so‘z bilan almasha oladi?

1. Hikki umrini oddiy, deyarli **bir xil** ssenariyda o‘tkazadi. (*ayni*)

2. Bir narsani unutmaslik kerak: shunchaki mana shu turmush tarzini yoqtirib, qulay hisoblab tanlaganlar ham **talaygina**... (*bir qancha*)

3. Hikkilar uchun **haqiqiy** hayot tunda – hamma uxlagandan keyin boshlanadi. (*rosmana*)

4. Yaponiyada hikikomori muammosiga yechim topish va uni hal qilishga davlat **miqyosida** e’tibor qaratiladi. (*darajasida*)

5. Albatta, bu yapon fenomeni boshqa mamlakatlarda ham **uchrab turadi**... (*mavjud*)

6. Hikkilarni davolash uchun odatda ota-onalarning o‘zlari **harakat qilib** ko‘rishadi. (*urinib*)

7.5-mashq. Jamiyatimizga xos quyidagi odat va tartiblarga munosabat bildiring. Sinfda ularga “kerak” va “kerak emas” bahosini beruvchilar sonini aniqlang va natijalarni xattaxtaga yozing.

Xattaxtaga quyidagidek jadval chiziladi:

	“kerak”lar soni	“kerak emas”lar soni
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
6.		

Qaysi odatlar ovoz berish orqali “kerak”, qaysilari “kerak emas” ekani aniqlanadi. Tomonlardan bir nafar vakil o‘z tanlovini asoslab berishi kerak. Qarshi dalil va fikrlarga ham imkon berish tavsiya etiladi. Vaqt e’tibori bilan faqat bitta odat yoki tartib muhokama qilinishi, hatto bu mashq kelasi darsga qoldirilishi ham mumkin. Bu borada o‘qituvchining ixtiyori hal qiluvchi o‘rin tutadi.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida berilgan topshiriq uyda bajariladi.

O‘quvchilarga tasviriy matn haqida tushuncha beriladi.

Tasviriy matn – rasmda o‘z aksini topgan shaxs, narsa, joy, jarayon va hokazolarni so‘z bilan tasvirlash mahsuli. Bunday matnlarda rasmda ifodalanmagan narsalarga to‘xtalinmaydi, lekin asosli xulosalarga ruxsat beriladi. Masalan, tabiatning ko‘rinishiga qarab fasl haqida, libosga qarab millat haqida xulosa chiqarish mumkin.

Tasviriy matn ham kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi. Kirish va xulosa qismlari odatda 2-3 jumladan oshmaydi.

Darslikda berilgan rasmda arafa oshi tarqatilish jarayoni aks etgan. O‘quvchilar o‘z matnlarida jarayonga, joy va kishilar ko‘rinishiga to‘xtalishadi.

Topshiriq shartiga ko‘ra, matndagi so‘zlar soni 80 tadan kam, 120 tadan ko‘p bo‘lmasligi shart.

V. Darsni yakunlash.

Darsda muhokama qilingan mavzu yuzasidan xulosalar tinglanadi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki baholanadi. Ularning dars bilan bog‘liq savollariga javob beriladi hamda dars yakunlanadi.

8-dars


Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish va yozma nutq bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish, eski o‘zbek tiliga doir matnni tanish so‘zlar orqali tushunish ko‘nikmasini shakllantirish; eskirgan so‘zlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.
II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.
III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Topshiriq. Mahmudxo‘ja Behbudiying 1915-yilda “Oina” jurnalida chop etilgan maqolasini o‘qib chiqing. Eskirgan so‘zlar va qo‘shimchalarga e’tibor qarating.

Dastlab Behbudiy haqida shu kunga qadar ega bo‘lingan ma’lumotlar yodga olinadi. Uning yurtimiz jadidlari yetakchisi, ilk dramaturgik asar (“Padarkush” fojiasi) muallifi ekani, ta’lim va xalq dunyoqarashini kengaytirish yo‘lidagi xizmatlari eslanadi.



Bir do‘konchi, bir gulkor, bir faqirhol, bir kosib uchun bu to‘y va ta’ziyalar o‘lumdan qatig‘durki, muning uchun bechora har kun o‘lur. Har kun o‘lgon ila-da qutulmas. O‘zidan so‘ngra ahli ayolig‘a bu yo‘qsullik va bu musibatni meros qo‘yar.

...Bizg‘a lozimki, to‘y va ta’ziyalarni kichik qilib va holimizcha harakatda bo‘lub, kelar zamonamizni o‘ylayluk. Valloh, xor-u zor-u munqariz bo‘lmoq ertag‘a oftobni chiqishidek muqarrardur.

...Din uchun, masjid va maktab uchun aqcha, sarvat, davlat, somon kerakdur. To‘y va ta’ziyag‘a sarf qilinaturg‘on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo‘lig‘a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar. Yo‘q, hozirgi holimizg‘a davom etsak, din va dunyog‘a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydur.

Maqola qisqartirish bilan berildi.

8.1-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Maqolada ko‘tarilgan masala bugun ham ahamiyatlimi? Nima uchun?

2. Muallif keraksiz odatlarni deb isrof qilinayotgan mablag‘ni nimalarga sarflash lozimligini aytadi?

3. Maqola yozilganiga bir asrdan ko‘proq vaqt bo‘libdi. Shu vaqt ichida muammo kichraydimi yoki yiriklashdimi? Javoblaringizni izohlang.

32

ESKIRGAN SO‘ZLAR

Til ham vaqt ta’sirida o‘zgaradi: unda ham eskirish va yangilanish jarayoni ro‘y beradi. So‘zlar asosan ikki sababga ko‘ra eskiradi, ya’ni umumiste’moldan chiqib ketadi:

1) bu so‘zlar orqali nomlangan tushuncha yo‘q bo‘lib ketishi;

2) bu so‘zlar o‘rnida boshqa so‘z(lar) faol qo‘llanib, unga ehtiyojning yo‘qolishi.

Bugun *palaxmon*, *kanizak*, *jizya*, *hudaychi*, *jallod*, *qutidor* kabi so‘zlar (tarixiy so‘zlar) birinchi sababga ko‘ra; *mujgon*, *dudoq*, *ilig*, *g‘ani*, *sarvat*, *gardun* kabi so‘zlar (arxaik so‘zlar) esa ikkinchi sababga ko‘ra umumiste’molda qo‘llanmaydi. Ular o‘rnida *kiprik*, *lab*, *qo‘l*, *boy*, *boylik*, *osmon* so‘zlari ishlatiladi.

Ko‘hna (eskirgan) so‘zlardan hozir ham ma’lum maqsadlarda foydalaniladi. “Navoiy” (Oybek), “Yulduzli tunlar” (Pirimqul Qodirov) kabi qator tarixiy asarlarda davr ruhini berish uchun, ilmiy asarlarda esa xronologik mantiq talabi bilan ishlatiladi. Ayrim arxaik shakllardan esa she’riyatda foydalanib turiladi. *Mujgon*, *yog‘iy*, *erur*, *ila*, *vale*, *-dur*, *-chun*, *-la*, *-mak* kabi birliklarni XXI asr she’riyatida ham uchratish mumkin.

Keyin Behbudiy davridagi til (eski o‘zbek tilining so‘nggi bosqichi) hozirgi tilimizga yaqin bo‘lsa-da, biroq ba’zi jihatlari unda yozilgan asarlarni tushunishga xalal berishi ta’kidlanadi. “Bizni kemiruvchi illatlar” maqolasi haqida ham shunday deyish mumkinligi, biroq bir-ikki so‘zni tushunmay ham, qolgan tanish so‘zlar yordamida jumlaning ma’nosiga yetish mumkinligi aytiladi.

Matn darsda o‘qiladi.

8.1-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Maqolada ko‘tarilgan masala bugun ham ahamiyatlimi? Nima uchun?


2. Muallif keraksiz odatlarni deb isrof qilinayotgan mablag‘ni nimalarga sarflash lozimligini aytadi?


3. Maqola yozilganiga bir asrdan ko‘proq vaqt bo‘libdi. Shu vaqt ichida muammo kichraydimi yoki yiriklashdimi? Javoblaringizni izohlang.

Darslikda berilgan uch savol yuzasidan o‘quvchilar fikri tinglanadi. Fikr asosli bo‘lishi nazoratga olinadi.


1- va 3-savolga o‘quvchilar bugungi davrdan kelib chiqib javob berishadi.
2-savolga javob: ilm va din uchun.

Eskirgan so‘zlar haqida ma’lumot beriladi. Darslikdagi ma’lumotlar yetarli.










34

Mustaqil bajaraman

Siz ko'rib turgan rasmda jirafa olma va shisha idish tasvirini chizmoqda. Jirafaning ijod mahsuliga qarab atrofimizdagi qanday odamlar nishonga olingani haqida fikr yuriting.

Topshiriq. Jamiyatimizdagi "jirafalar" kimlar va ular nimasi bilan xavfli ekani haqida so'zlab bering. Og'zaki matningiz bir daqiqadan oshmasligiga erishing. Uyda audiomatn tayyorlang. Audiomatnni telefon yoki planshet xotirasiga yozib, o'qituvchingizga jo'natishingiz ham mumkin.



Til ham vaqt ta'sirida o'zgaradi: unda ham eskirish va yangilanish jarayoni ro'y beradi. So'zlar asosan ikki sababga ko'ra eskiradi, ya'ni umumiste'moldan chiqib ketadi:

1) bu so'zlar orqali nomlangan tushunchaning yo'qolishi;

2) bu so'zlar o'rnida boshqa so'z(lar) faol qo'llanib, unga ehtiyojning yo'qolishi.

Bugun *palaxmon, kanizak, jizya, hudaychi, jallod, qutidor* kabi so'zlar (tarixiy so'zlar) birinchi sababga ko'ra; *mujgon, dudoq, ilig, g'ani, sarvat, gardun* kabi so'zlar (arxaik so'zlar) esa ikkinchi sababga ko'ra umumiste'moldan chiqqan.

Ular o'rnida *kiprik, lab, qo'l, boy, boylik, osmon* so'zlari ishlatiladi.

Ko'hna (eskirgan) so'zlardan hozir ham ma'lum maqsadlarda foydalaniladi.

"Navoiy" (Oybek), "Yulduzli tunlar" (Pirimqul Qodirov) kabi qator tarixiy asarlarda davr ruhini berish uchun, ilmiy asarlarda esa xronologik mantiq talabi bilan ishlatiladi. Ayrim arxaik shakllardan esa she'riyatda foydalanib turiladi. *Mujgon, yog'iy, erur, ila, vale, -dur, -chun, -la, -mak* kabi birliklarni XXI asr she'riyatida ham uchratish mumkin.

8.2-mashq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga mos ma'nolarni aniqlang.
***Diqqat!* Ikkita ma'no ortiqcha va ularga mos so'zlarni matndan toping.**

Yechim:

Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlar	Berilgan so'zlarning sinonimi
jonxarosh	jonni tirnalovchi
qattol	o'ldiruvchi, qotil
o'lukxona	o'lik chiqqan xonadon
sag'ir	yetim
mushtipar	ojiz, zaif
xayrot	yaxshiliklar

sharrot	yomonliklar
g‘ani	boy, davlatmand
varisa	merosxo‘r
benavo	bechora, sho‘rlik
munqariz	qarzdor
sarvat	boylik

“**Til sandig‘i”** ruknidagi ma’lumot bilan tanishiladi.

8.3-mashq. “Bizni kemirguvchi illatlar” matnidan olingan quyidagi gaplarning bir qismi ajratib berilgan bo‘lib, siz shu qismni bugungi adabiy me’yorlar bo‘yicha yozib chiqing.

Topshiriqni yozma bajarish tavsiya etiladi.

Yechim:

1. Bizni kemirguvchi illatlar deganda zaxm-u maraznimi gumon etarsiz? – … kasallikni tushunasizmi?

2. Biz na uchun Xudo va rasulni so‘zig‘a va o‘zimizni naf’imizg‘a amal qilmaymiz? – … nega Xudo va rasulning so‘ziga …

3. Har kun o‘lgon ila-da qutulmas. – … o‘lib ham …

4. Bizg‘a lozimki, to‘y va ta’ziyalarni kichik qilib va holimizcha harakatda bo‘lub, kelar zamonamizni o‘ylayluk. – … ahvolimizdan kelib chiqib harakat qilib …

8.4-mashq. Quyidagi rasmlar orqali jamiyatimizdagi qanday illatlar ko‘rsatilgan? Har bir rasmga nom qo‘ying. Nomlashda imkon qadar qisqalikka intiling.

Og‘zaki bajariladi.

Rasm raqami	Illat
1.	Ikkiyuzlamachilik
2.	Ismlarni buzib aytish
3.	Vaqtni isrof qilish
4.	Daraxtlarni yo‘q qilish
5.	Poraxo‘rlik
6.	Manfaatparastlik; xalq boyligini talon-toroj qilish

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida berilgan topshiriq uyda bajariladi.

Rasmdagi jirafa – hayotga o‘z qarichi bilan baho beruvchi, masalaga biryoqlama yondashuvchi kishilarning timsoli. O‘quvchilar rasmni boshqacha talqin qilsa ham, so‘zlashiga qo‘yib beriladi. Zero, topshiriqdan bosh maqsad og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirishdir.

V. Darsni yakunlash.

Darsda muhokama qilingan mavzu yuzasidan xulosalar tinglanadi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki baholanadi. Ularning dars bilan bog‘liq savollariga javob beriladi hamda dars yakunlanadi.

9-dars

Darsning maqsadi. O‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirish; informativ matnlar asosida fikrni og‘zaki adabiy tilda ifodalash; bosh harflar imlosi hamda inkor shakllari uslubiyatiga doir bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Yangi mavzuga **9.1-mashqda** berilgan savollar asosida ma’rifiy daqiqalar bilan kirishiladi.
Savollar:
1. Ismingiz qanday ma’noni bildiradi?
2. Ismingizni kim qo‘ygan? Sizga nega shunday ism qo‘yishgan?
3. Ismingiz o‘zingizga yoqadimi? Uni o‘zgartirish haqida o‘ylab ko‘rganmisiz?
Munozara yakunida quyidagi topshiriqni bajarish tavsiya etiladi.

Topshiriq. Fikrni to‘ldiring: “Ism ham husn, chunki...”

Namuna. Asrlar mobaynidan shakllanib, sayqal topib, turmush tarzimizga singib ketgan urf-odatlarimiz, an’analarimiz bilan bir qatorda kundalik muloqotda tilga olinadigan ismlar ham avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy-ma’naviy merosimiz hisoblanadi. Negaki ismlarda millatning yuzi, e’tiqodi, ma’naviy darajasi aks etib turadi. Ko‘pgina yosh bolalar ismini qisqartirib chaqirishadi yoki insonni biror laqab bilan chaqirish odatlari ham bor. Xoh yosh bola bo‘lsin, xoh katta kishi bo‘lsin, nomini qisqartirib aytish yaxshi emas. Xususan, yosh bolalarga bunday muomala qilish ularning tarbiyasiga aks ta’sir qiladi. Shu ma’noda kishining nomini qisqartirib chaqirish mumkin emas. Inson dunyoga kelganida qo‘yilgan ismni o‘z holicha saqlash o‘zligini saqlash bilan barobardir.

9.2-mashqdan ism qo‘yish bilan bog‘liq odatlar o‘rin olgan. Ma’lumotlar bilan tanishib chiqilarkan, o‘rtaga savol tashlanadi:

9.4-mashq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi so‘zlarning mos shaklini qo‘yib ko‘chiring.

1. Bulutlar orasidan ... ko‘rindi. Yer ... atrofida aylanadi. *(Quyosh, quyosh)*

2. Bizning ...da uy-joy biroz qimmat. Men O‘zbekiston ...si fuqarosiman. *(Respublika, respublika)*

3. Menga ... adabiyoti juda yoqadi. Uch chaqirimdan so‘ng yana ... tomonga qarab yurdik. *(Sharq, sharq)*

4. Yaqinda “...lik” filmini tomosha qildim. Asarim Yerga bir ...lik adashib qo‘nishidan boshlanadi. *(Mars, mars)*

9.5-mashq. Matnlar bilan tanishing. Inkor shaklini hosil qiluvchi vositalarga ahamiyat bering. Ular o‘rtasidagi farqni tushuntiring.

1-matn

Mening ismim – Tuflibek. Hozirgacha ismimdan uyalaman. Aslida, tagli-tubli bo‘lsin deb Tubli ismini qo‘yishgan ekan, lekin hujjatga Tufli bo‘lib tushibdi. Ismimni o‘zgartirmay qo‘ymayman. Temur yoki Tolib ismini tanlasam kerak.

2-matn

Mening ismim – Tog‘ay. Marhum amakimning ismini menga qo‘yishgan. Bu ism bilan oldin tog‘asinikida tug‘ilganlarni nomlashgan ekan. Tanadagi tog‘aylarga aloqasi bor-yo‘qligini bilmayman. Tog‘ay Murodga hurmatim sababli ismimni o‘zgartirmoqchi emasman.

37

9.6-mashq. Ismni o‘zgartirish haqidagi ma’lumot bilan tanishib chiqing. Ismingizni o‘zgartirish fikri tug‘ilganda qaysi ismni tanlagan bo‘lar edingiz? Nega?

16 yoshga to‘lgan fuqaro o‘z ismini (familiyasini, otaismini) o‘zgartirish uchun yashab turgan joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo‘limiga (FHDYga) ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Ariza bilan pasport yoki ID-karta (shaxsiy guvohnoma) nusxasi, tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasini, 3x4 o‘lchamli suratini ham taqdim qiladi. Ushbu hujjatlarni FHDY bo‘limi mudiri tasdiqlagach, hududiy ichki ishlar bo‘limiga tekshiruvga jo‘natiladi. Ichki ishlar bo‘limi qarshi emasligini bildiruvchi xulosani taqdim etgach, fuqaroga FHDY tomonidan yangi guvohnoma, avvalgi ism-familiyasi o‘zgartirilgani to‘g‘risida ma’lumotnoma beriladi.



Agar fuqaro o‘z ismidan *-bek*, *-jon*, *-xon*, *-bonu*, *-bibi*, *abdu-* qo‘shimchalarini, familiyasidan *-ov(a)*, *-ev(a)*, *-yev(a)* qo‘shimchalarini, otaismidan *-yevich*, *-ovich*, *-yevna*, *-ovna*, *-iy*, *-zoda* qo‘shimchalarini yoki *qizi*, *o‘g‘li* so‘zlarini

1. Yon-atrofingizda, qo‘ni-qo‘shnilaringiz, qarindosh-urug‘laringiz orasida shu kabi ismlar uchraydimi?

2. Bunday ismlar qaysi odat, niyat, vaziyat yoki irim bilan bog‘liq ekanini bilasizmi?

Muhokama **9.3-mashqdagi** savollar bilan davom ettiriladi:

1. Vaziyatga qarab qo‘yiladigan yana qanday ismlarni bilasiz?

Javob: Ashur (muharram oyida ashuro kunida tug‘ilgan), Ozod (yaqinlaridan kimdir mahbuslikdan yo biror ko‘ngilsizlikdan qutulganda), G‘olib, Muzaffar (9-may kuni tug‘ilgan yoki qaysidir orzuga yetishganda), Murod, Samar (niyat vojib bo‘lganda), Umida, Xotima (o‘g‘il farzand ko‘rish niyatida).

2. Siz “vaziyat talab qiladigan” ismlarga qanday qaraysiz?

Javob: ism yakka shaxsga atab qo‘yilishi bilan individuallik kasb etadi, odamlar orasida, jamiyatdagi qo‘llanishi bilan esa umummilliy xarakterga ega bo‘ladi. “Vaziyat talab qiladigan” ismlarda ham ota-onaning ezgu orzu-umidlari, farzandiga bo‘lgan mehr-muhabbati o‘z aksini topgan. Masalan, *Anora, Nortoji*, *Tojimurod* ismlarini qo‘yish bilan farzanddagi qizil xol (nor)ning kichrayishiga, yo‘q bo‘lib ketishiga umid qilganlar.

3. Siz tanigan-bilganlar orasida kamyob ismli kishilar bormi? Misol keltiring.

Javob: Mirshakar, Hijod, Shamsiqamar...

Xulosa uchun. Xalqimiz nafaqat moddiy boyliklari, balki madaniy merosi va ma’naviy mulki bilan ham haqli ravishda faxrlanadi. Demak, o‘zbek ismlari ham ma’naviy mulk va madaniy boylik sifatida e’zozlanishi, lozim bo‘lsa, himoyalanishi zarur.

Nazariy ma’lumot **9.4-mashq** bilan mustahkamlanadi.

Yechim:

1. Bulutlar orasidan quyosh ko‘rindi. Yer Quyosh atrofida aylanadi.

2. Bizning respublikada uy-joy biroz qimmat. Men O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiman.

3. Menga Sharq adabiyoti juda yoqadi. Uch chaqirimdan so‘ng yana sharq tomonga qarab yurdik.

4. Yaqinda “Marslik” filmini tomosha qildim. Asarim Yerga bir marslik adashib qo‘nishidan boshlanadi.

9.5-mashq og‘zaki tarzda “Zinama-zina” usulida bajariladi.

1-ish. Ikkala matn o‘qiladi.

2-ish. O‘quvchilar xulosa chiqaradilar.

Ming afsuski, oramizda ismi noqulayligidan, xato yozilganidan xijolat bo‘lib yuradiganlar ham oz emas. Ota-onaning farzand oldidagi majburiyatlaridan biri – unga chiroyli ism tanlashdir. Ilgari odamlar bu masalaga anchayin e’tiborsiz bo‘lishgan. Endilikda esa ayrim ota-onalar farzandi uchun seriallar, o‘qigan kitoblari yoki o‘zini ta’sirlantirgan voqea-hodisalarda uchraydigan har xil ismlarni tanlashadi. Bu esa vaqti kelib farzand qalbida norozilik tuyg‘usini uyg‘otishi mumkin. Shuningdek, hayotda kuzatiladigan ba’zi holatlar tufayli ota-onalarning o‘zlari ham farzandining ismi-sharifini o‘zgartirishni istab qoladilar. Ba’zi davlatlarda ism-familiyasining to‘g‘ri yozilishi va aytilishini talab qilish huquqi qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan. Masalan, inglizlar ism-familiyasini noto‘g‘ri aytgan odamni sudga berishga haqli. Biz esa noto‘g‘ri yozilgan ismlarga hech bir e’tirozsiz ko‘nikib ketaveramiz. Aslida esa ismlarning noto‘g‘ri yozilishiga ham, noto‘g‘ri aytilishiga ham aslo ko‘z yumib bo‘lmaydi.

3-ish. Har bir matnda inkor ma’nosining ifodalanishiga diqqat qilinadi.

Yechim:

1. Ismimni o‘zgartir**ma**y qo‘y**ma**yman. (Fe’lning bo‘lishsizlik shaklini ham ko‘makchi, ham yetakchi fe’l tarkibida takror qo‘llash orqali *albatta o‘zgartiraman* ma’nosidagi qat’iy tasdiq ifodalangan)

2. Tanadagi tog‘aylarga aloqasi bor-yo‘qligini bil**ma**yman. (Bo‘lishsizlik shakli inkor ma’nosini hosil qilgan)

3. Tog‘ay Murodga hurmatim sababli ismimni o‘zgartirmoqchi **emas**man. (Fe’l tarkibida *-moqchi* qo‘shimchasi mavjud bo‘lgani sababli *emas* so‘zi yordamida inkor shakli hosil qilingan)


Inkor shakli uslubiyatiga doir quyidagi jadvaldan foydalanish tavsiya etiladi.

Inkorni ifodalovchi morfologik vositalar	**Uslubiy ma’nosi**	**Misol**
1. Fe’lning bo‘lishsizlik shakli *-ma, emas, yo‘q* so‘zlari		
So‘zlashuv, badiiy, publitsistik uslublarda (ayniqsa, ritorik so‘roq gaplarda)	tasdiq, tasdiqni kuchaytirish	Rahimov g‘animga tashlangan chog‘da Alpomish shiddatin payqamagan kim?! (A. Oripov) (“*hamma payqagan*” ma’nosida)
Fe’l tarkibida *-moq, -moqda, -moqchi* kabi qo‘shimchalar mavjud bo‘lganda	bu fe’lga qo‘shila olmaydi	Kelmamoq?, kelmamoqda?, kelmamoqchi?
Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari tarkibidagi ham yetakchi, ham ko‘makchi qismga qo‘shilishi mumkin	qat’iy tasdiq	1. Dushmanni yengmay qo‘ymaydi (“*albatta yengadi*” ma’nosida); 2. Hech kim bilmay qolmaydi. (“*albatta hamma biladi*” ma’nosida).
2. Na..., na... yordamchisi		
Inkor bog‘lovchisi sifatida ham, inkor yuklamasi sifatida ham qo‘llanganda	kuchli va qat’iy inkor; emotsional-ekspressivlik	Dasturxonda na non qoldi, na choy. (“*hech narsa qolmadi*” ma’nosida)

3. Ohang		
So‘zlashuv va badiiy uslublarda	inkor ma’nosi	Bir kuni egarga o‘ngarib, opqocha-man-ketaman, – dedi o‘tni tizzasi-ga bosib. – Topib bo‘ptilar keyin! (M. Mansur) (“*topa olmaydilar*” ma’nosida)

“Aqliy hujum” metodi orqali *muammoli vaziyat* yaratiladi.

Hayotda o‘z ismidan uyaladigan, iymanadigan odamlar ham uchraydi (*masalan, To‘panisa, Tulupbek, Anqaboy*), ba’zilarga esa ota-onasi tarixiy vaziyatga ko‘ra ism qo‘yishgan (*masalan, Lizm – leninizm, Mels – Marks, Engels, Lenin, Stalin nomlari qisqartmasi*), ayrim fuqarolar milliy-tarixiy an’analarimizga mos kelmaydigan familiya, ism va ota ismlarini o‘zgartirishni istashadi (masalan, *Djurayev, Gulyam, Toxtaxadjayev* kabilarni *Jo‘rayev, G‘ulom, To‘xtaxo‘jayev* tarzida). Ismni o‘zgartirib bo‘ladimi?



Mantiq vaqti

So‘nggi yillarda ommalashgan bu ism – qizlar ismi. 6 harfdan iborat. Agar 1-harfini olib tashlasak, qizlarga qo‘yiladigan boshqa ism hosil bo‘ladi. Qolgan 5 ta harfdan oxirgisini olib tashlasak, o‘tmishdagi lavozimlardan birining nomi paydo bo‘ladi. Qolgan 4 ta harfdan birinchisini olib tashlasak, ayrim erkak ismlarining boshlanmasi kelib chiqadi. Qolgan 3 harfdan oxirgisini olib tashlab, notalardan birini hosil qilamiz. Ushbu 6 harfli ismni toping.

Mustaqil bajaraman

1-topshiriq. Jadvaldagi xorij ismlari o‘zbek tilida qanday shaklda qo‘llanishini aniqlang.

Isaak	
Avraam	
Maykl	
Gabriel	
Iakov	
Jesus	
Iosif	
Solomon	

39

2-topshiriq. Jadvalda berilgan ismlarning qaysi shakli to‘g‘ri? Topshiriqni bajarishda ismlar haqidagi kitoblardan foydalaning. To‘g‘ri shaklni daftarga ko‘chiring.

Shohruh	Shoxruh	Shohrux	Shoxrux
Aslbek		Asilbek	
Bekzod		Bekzot	
Hasanxo‘ja	Xasanxo‘ja	Hasanho‘ja	Xasanho‘ja
Abdisalom		Abdusalom	
Mayram		Maryam	
Isxoq	Ishoq		Is’hoq

Yechim: O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni 15-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z millatidan qat’i nazar, o‘z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar”, deb belgilab qo‘yilgan.

9.6-mashqda ism o‘zgartirishning qonuniy jihatlari bayon qilingan. Informativ matn bilan tanishib chiqqan o‘quvchilarga *“Ismingizni o‘zgartirish fikri tug‘ilganda qaysi ismni tanlagan bo‘lar edingiz? Nega?”* deb murojaat qilinadi. Albatta, o‘quvchilar javobi orasida zamonaviy ismlar ham, milliy-diniy ismlar ham bo‘lishi tabiiy. Bu masalada **9.7-mashq**dagi jadval yordamga keladi. Davlat xizmatlari agentligi bergan statistik ma’lumotlar bilan tanishiladi. Ushbu ma’lumotlar asosida aksar yurtdoshlarimiz ism qo‘yishda diniy-ma’naviy qadriyatlarga urg‘u berishayotgani aytib o‘tiladi.

Savol: sizningcha, 2-, 3-o‘rinlarni qaysi ismlar band qilgan?

Javob: 2-, 3-o‘rinlarni *Mustafo, Abdulloh, Imronbek; Muslima, Imona, Mubina* kabi ismlar band qilgan.

“Mantiq vaqti” ruknidagi jumboqning javobi: Samira. (*Zamira* emas, chunki savolda zamonaviy ism so‘ralgan).

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida ikkita topshiriq berilgan.

1-topshiriq yechimi: Isaak – Is’hoq, Avraam – Ibrohim, Maykl – Mikoyil, Gabriel – Jabroil, Iakov – Yoqub (Ya’qub), Jesus – Iso, Iosif – Yusuf, Solomon – Sulaymon.

2-topshiriq yechimi: Shohrux, Asilbek, Bekzod, Hasanxo‘ja, Abdusalom, Maryam, Is’hoq.

V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsda o‘zlari uchun qanday yangilik olganlarini qisqacha bayon qilishadi. Bunda, albatta, ism bilan bog‘liq odatlar va qadriyatlarga alohida urg‘u beriladi. Shuningdek, bosh harflar imlosi yuzasidan olgan bilimlari haqida ta’kidlab o‘tishadi.

10-dars

Darsning maqsadi. Insonning jamiyatdagi o‘rni haqidagi informativ matnlar bilan tanishish va tahlil qilish; o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirish; olmoshning uslubiy imkoniyatlariga doir bilimlarni kengaytirish; lug‘at bilan ishlash va grammatik savodxonlikni shakllantirish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.


Yangi mavzuga kirishishdan oldin “Fikrlar jangi” uyushtiriladi: *Inson hayotga nima uchun keladi?*

O‘quvchilar turli mulohazalarni o‘rtaga tashlaydilar. Eng muqobil fikrlarga diqqat qilinadi, biroq boshqa fikrlar ham rad etilmasligi zarur. Bu usul orqali o‘quvchilarda fikr bildirish va uni muhokama qilish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Barcha fikrlar tinglangach, darslikdagi “Prussiyalik onalar allasi” she’ri tinglanadi. Shundan so‘ng matn tahliliga o‘tiladi.

Nima uchun alla, qo‘shiq emas? Onalar allasiga yurt ertasidan umidvorlik, orzu-niyatlar, armon-anduhlar singib ketgan. Qadimda prusslar ham Vatan ozodligi, erki uchun dushmanga qarshi ayovsiz jangga kirganlar. Shubhasiz, qanchadan qancha er yigitlar halok bo‘lgan. Shular orasida sarkarda ham bor. Uning yengilishiga nima sabab bo‘ldi?

Voqealar zanjirini hosil qilamiz:

bir dona mix deb butun bir xalq qul bo‘ldi...
bola-yu qari tahqirlandi
shahar zabt etildi
lashkar mag‘lub bo‘ldi
sarkarda halok bo‘ldi
sarkarda otdan yiqildi
taqachiga bitta mix yetmadi



10.2-mashq. Quyida berilgan jumlalardan birini tanlang va davom ettiring. Hayotda har bir kasbning o'z o'rni borligini mantiqan asoslang, misollar keltiring.

Hayotda farroshlarning muhim o'rni bor...

Uy bekalarining xizmatlarini ham yuqori baholashimiz kerak...

Sartaroshlar xizmatisiz hayotni tasavvur qilish qiyin...

Tarjimonlar hamisha kerak bo'lgan...

Obodonlashtirish xodimlari mehnatini qadrlashimiz lozim...

OLMOSHLARNING QO'LLANISHI

Olmoshlar nutqimiz ravon bo'lishida, muallifning ijobiy yoki salbiy munosabatini yaqqolroq ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi misollarga e'tibor qarating:

1. Shoir chekinmadi, **u** chekinishi mumkin emas edi. *(ortiqcha takrorning oldini olish)*
2. Sizda ham ayb bor – **O'zlarida** ham ayb bor. *(kesatish)*
3. Men ham qarab turmayman – **Biz** ham qarab turmaymiz. *(kamtarlik)*
4. Yana **anavining** gapiga kirdingmi? *(hurmatsizlik, mensimaslik)*
5. Aka, **siz** ham biroz dam oling. *(hurmat)*
6. Sizlarga aytilgan edi – **Senlarga** aytilgan edi. *(hurmatsizlik)*
7. Qorbolani o'zim yasadim – Qorbolani **men o'zim** yasadim. *(ta'kid)*

41

TIL SANDIG'I

KIMSAN

Yaqin o'tmishda ham bolaga nima ism qo'yishga ikkilanilgan paytda uni Kimsan deb atashgan. Va bu odat uzoq o'tmishdan meros sifatida ko'riladi. Rostdan ham shundaymikin? Bobolarimiz ism topishga qiynalib bolani "Sen kimsan o'zi?" ma'nosidagi so'z bilan atab yuborishaverganmi?

Eshqobil Shukur o'zining "Boboso'z izidan" kitobida Kimsan ismining izidan tushadi va quyidagilarni yozadi:

"So'rab-so'rab Makkani topishibdi deganlariday, Kimsanning kimligini "Navoiy asarlari lug'ati"dan aniqladik. Unda izohlanishicha, *kimsan (kimson)* – oltinga o'xshash sariq yaltiroq modda (bronza), uni maydalab narsalarga oltin tusli bo'yoq berish uchun ishlatishgan ekan.

Ki, kimsandin oltunni farq aylagay,
Qizil tobadin kunni farq aylagay. (Navoiy)

Demak, "Kimsanboy" shunchaki "kimsan" emas, u – oltin bo'lmaganda ham, oltinga o'xshash sariq yaltiroq modda".

10.1-mashqni bajarishda "Aqliy hujum" uyushtiriladi. "Prussiyalik onalar allasi" she'rida xalqning mag'lubiyatiga **nima** sabab bo'lgani aytilmoqda: temirchi (taqachi)ning mas'uliyatsizligimi yoki jamiyatda temirchilarga yetarli e'tibor berilmaganimi?

Ayb kimda?!

Taqachining e'tiborsizligidami?

Yoki mix taqchilligidami?

Qo'shin otboqarlari qayerga qaragan?

Sarkarda ham otini tayyorlab jangga chiqmaydimi?

Xulosa:

Bitta noto'g'ri qo'yilgan g'isht, bitta chirigan yog'och ertaga butun bir imoratning qulab tushishiga sabab bo'lishi mumkin. Demak, mix – har birimizning javobgarligimiz. Har bir kishi millat va mamlakat taqdiriga ta'sir ko'rsata oladi.

10.2-mashqda jumlalar berilgan. Sinf beshta guruhga bo'linadi va har bir guruh bittadan fikrni davom ettiradi. Bunda har bir kasb – xoh u farroshlik bo'lsin, xoh bankirlik bo'lsin – hayotimizda o'z o'rniga egaligi mantiqan asoslanadi.

Olmoshlarning qo'llanishi

Olmoshlar nutqimiz ravon bo'lishida, muallifning ijobiy yoki salbiy munosabatini yaqqolroq ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi misollarga e'tibor qarating:

1. Shoir chekinmadi, u chekinishi mumkin emas edi. (ortiqcha takrorning oldini olish)
2. Sizda ham ayb bor. – O'zlarida ham ayb bor. (kesatish)
3. Men ham qarab turmayman. – Biz ham qarab turmaymiz. (kamtarlik)
4. Yana anavining gapiga kirdingmi? (hurmatsizlik, mensimaslik)
5. Aka, siz ham biroz dam oling. (hurmat)
6. Sizlarga aytilgan. – Senlarga aytilgan edi. (hurmatsizlik)
7. Qorbolani o'zim yasadim. – Qorbolani men o'zim yasadim. (ta'kid)

"Til sandig'i" rukni ostida berilgan ***"Kimsan"*** so'zining ma'nosi lug'at daftariga ko'chiriladi.


10.3-mashqdagi matn sinfda o'qiladi. Ajratib ko'rsatilgan olmoshlar qanday maqsadda qo'llangani haqida fikr yuritiladi. "*Siz* ham, *sen* ham bir og'izdan chiqadi", "Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin" maqollari asosida matn mazmuni yuzasidan fikr almashiladi.

Yechim:

Hech bir (bo'lishsizlik), sen (murojaat), o'zlaridan (hurmat ko'rsatish), anavi (mensimaslik), har bir (ta'kid), shuginaning o'zi (ajratib ko'rsatish), allaqaysi (noaniqlik), birov (noaniqlik), nima uchundir (gumon), hamma (jamlash), o'zingizga (ta'kid).

10.4-mashq yechimi:

O‘sha kungi voqeani **birov** bilmasin.	O‘sha kungi voqeani **hech kim** bilmasin.
Qolaver biz bilan: **birov** seni haydayaptimi?	Qolaver biz bilan: **kimdir** seni haydayaptimi?
Biz tirikmiz-ku, bo‘tam, **birov**lardan qarz olishing nimasi?!	Biz tirikmiz-ku, bo‘tam, **o‘zga**lardan qarz olishing nimasi?!
“**Birov**larga atirimizning hidi yoqmas emish”,– dedi Obidov xotiniga shama qilib.	“**Xotinim**ga atirimizning hidi yoqmas emish”, – dedi Obidov xotiniga shama qilib.



so'zi. Ular o'zbek xalqining tiynati qandayligini ko'rsatadi. O'zbekning ruhiyatini teran bilgan G'afur G'ulom ham shuni ko'zda tutib, o'z she'rida "Bir og'iz shirin so'z – nondek arzanda" deb yozgan edi. Shunday ekan, mayli, bug'doy noningiz **o'zingizga** siylov, ammo bug'doy so'zingizni darig' tutmang...

Zuhriddin Isomiddinov

10.4-mashq. Quyidagi gaplarda ***birov*** **so'zi qanday vazifalarda kelyapti? Uni qaysi so'z bilan alishtirish mumkin?**

1. O'sha kungi voqeani birov bilmasin.
2. Qolaver biz bilan: birov seni haydayaptimi?
3. Biz tirikmiz-ku, bo'tam, birovlardan qarz olishing nimasi?!
4. "Birovlarga atirimizning hidi yoqmas emish", – dedi Obidov xotiniga shama qilib.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. "Mening hayotdagi vazifam" mavzusida esse yozing.

Esseda kirish, asosiy qism va xulosa bo'lishi, mavzu doirasidagi fikrlar misollar bilan quvvatlanishi kerak. So'zlar soni 120–140 oralig'ida bo'lishiga erishing. Kelajak haqidagi tasavvurlaringizni aniqroq ifodalang.

43

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostidagi topshiriq vazifa qilib beriladi.


“Mening hayotdagi vazifam” mavzusida esse yozing. Esseda kirish, asosiy qism va xulosa bo‘lishi, mavzu doirasidagi fikrlar misollar bilan quvvatlanishi kerak. So‘zlar soni 120–140 ta oralig‘ida bo‘lishiga erishing. Kelajak haqidagi tasavvurlaringizni aniqroq ifodalang.

V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsda o‘zlari uchun qanday yangilik olganlarini qisqacha bayon qilishadi. Bunda, albatta, insonning jamiyatdagi o‘rni, hayotdagi vazifasi alohida tilga olinadi. Fikrni ifodalashda olmoshlardan o‘rinli foydalanish yuzasidan olingan bilimlar haqida ham aytib o‘tiladi.

11-dars

Darsning maqsadi. Shaxs huquqlari va burchlari haqidagi informativ matnlar bilan tanishish va tahlil qilish; o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish; fikrni og‘zaki ifodalashda ravonlikni saqlash; atamalardan o‘rinli foydalanish; imloga doir bilimlarni oshirish.



ATAMALAR

Atama (termin, istiloh) – fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos so'z. Atamaning qo'llanishi chegaralangani boshqa soha kishisi uchun tushunarsiz degani emas. Masalan, *to'g'ri chiziq*, *gap*, *so'z turkumi*, *tezlik* atamasi ko'pchilik uchun tushunarli. Atama ko'pincha umumiste'moldagi so'zdan ma'lum bir ma'noning maxsuslashuvi asosida hosil bo'ladi. Masalan, *fojia*, *ega*, *ot*, *qo'shish*, *ayirish* – umumiste'moldagi so'zlar, lekin ular fanga atama bo'lib o'tgan.

Atamalarning ikki xili farqlanadi:

a) ilmiy atamalar;

b) kasb-hunarga doir atamalar.

Ilmiy atamalar ma'lum bir fan-texnika, san'at, madaniyatga tegishli bo'lsa, kasb-hunarga oid atamalar esa turli kasb-hunar egasi nutqida qo'llanuvchi so'zlardir.

11.2-mashq. Yuqorida berilgan matndan huquqshunoslik sohasiga oid atamalarni ajratib yozing.

11.3-mashq. Testning javobini toping.

1887-yilning 7-yanvarida 300 nafar eng taniqli adib, shoir, musavvir, bastakor birlashib, shahar munitsipalitetiga me'mor Gustav Eyfel yangicha uslubda barpo ettirayotgan minoraning qurilishiga qarshi *protest* yo'llaganlar. Ular orasida kichik Aleksandr Dyuma, Sharl Guno, Gi de Mopassan va boshqalar bo'lgan.

Berilgan matndagi *protest* so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A	tashakkurnoma
B	norozilik bayonoti
C	ayblov xati
D	madhiya

45

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Hikoyat matni bilan tanishiladi. Uni audio shaklida eshittirish ham mumkin. “Debat” usulida matn mazmuni tahlil qilinadi. Bunda o‘rtaga savollar tashlanadi, o‘quvchilar bir necha javob variantlarini beradilar. Hukmlarning eng maqbullari inobatga olinadi va xulosa chiqariladi. Muammoli savollar va xulosaviy javoblar quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

1. Podshohning hovuzni suv bilan emas, balki sut bilan to‘ldirish haqidagi hukmida qanday ma’no bor? – Xalqimiz orasida qadimdan sutga halollik ramzi sifatida qarash bor. Bu borada “sut haqi”, “ona sutiday halol” iboralari qo‘llanishi bejiz emas. Podshohning ham hovuzni aynan sut bilan to‘ldirish haqidagi hukmi aslida odamlarning vijdoni pokligini sinashga qaratilgan, ya’ni muallif har bir insonning qalbi sutdek pok bo‘lishi zarurligini aytmoqchi.

2. Hikoya qahramonining *“Men suv quysam, qolganlarniki bilan bilinmay ketadi. Sut quyganim bilan biror narsa o‘zgarib qolarmidi?”* degan fikridan uning fe’l-atvoriga qanday baho berasiz? – “Birniki mingga, mingniki tumanga”, – deydi xalq. Qahramonimiz yelkasidagi mas’uliyat yukini boshqalar gardaniga yuklab, javobgarlikdan qochadigan, hayotini faqat bugungi kundangina iborat deb biladiganlar toifasidan. Aynan shu kabi loqaydlik, bepisandlik jamiyatda adolatsizlikni keltirib chiqaradi.

3. Muallif “Biz ko‘pincha huquqimizni talab qilamiz-u, majburiyatlarimizni unutib qo‘yamiz” deganda nimani ko‘zda tutgan? – Darhaqiqat, ko‘pchilik huquqini talab qiladi, ammo burch masalasida sarkash. Mana misollar: xazonni yoqib, hovlisini toza tutmoqchi bo‘lgan odam tabiatga, qolaversa, yon qo‘shnilariga tutun qanchalik zarar berishini bilmaydimi? Yoki jamoat transportida telefonda baland ovozda suhbatlashib ketish boshqalarning huquqini

buzish bilan barobarligini o‘ylab ko‘rganmizmi? Ko‘cha darvozasi oldini to‘sib, yo‘lakni panjara bilan o‘rab olganlar o‘zgalar haqiga xiyonat qilayotganlarini biladilarmi? Demak, o‘z huquqimizni talab qilayotganimizda boshqalar huquqiga zarar yetkazmaslikka burchli ekanimizni ham unutmasligimiz kerak.

11.1-mashq. Matn uchun sarlavha namunalari:
Birniki mingga, mingniki tumanga
Suv to‘la hovuz
Halollik sinovi
Huquq va majburiyat
Mas’uliyat


Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Faraz qiling: siz huquqshunossiz. Fuqarolardan tushgan quyidagi murojaatlarga internet yordamida yozma javob tayyorlang.

1 Milliy valyuta – so‘mga putur yetkazmaslik, uni asrab-avaylash, unga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo‘lish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?

2 Men chet el fuqarosiman, O‘zbekistonga faqat ishlash uchun ko‘chib keldim. Ayting-chi, menga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining qoidalari tatbiq etiladimi?

3 Savdo do‘konlarida qaytim sifatida xaridorlarga gugurt, konfet, saqich va boshqa mayda mahsulotlarni berish mumkinmi?

47

Deduksiya, ya’ni umumiylikdan natijadorlikka, xulosa chiqarishga borish tamoyili asosida avval **11.2-mashqni** bajarib, keyin nazariy ma’lumotga o‘tish tavsiya qilinadi. Bu yo‘l bilan quyi sinflarda o‘rganilgan bilim mustahkamlanadi. Matnda huquqshunoslik sohasiga doir ushbu atamalar qo‘llangan: *xalq, jamiyat, mas’uliyat, insoniyat, huquq, majburiyat.*

So‘zlar daftarga yoziladi, imlosiga diqqat qilinadi. Shundan so‘ng nazariy ma’lumot beriladi.

11.3-mashq. Testning javobi: B. Norozilik bayonoti.

Qo‘shimcha ma’lumot. Fransuz adibi Gi de Mopassan keyinchalik minoraning ikkinchi qavatida joylashgan restoranda doimiy nonushta qilgan ekan. Faqat shu yerdangina u Eyfel minorasini ko‘rmasligi mumkin edi.

Test matnidan me’morchilik bilan bog‘liq atamalarni ham aniqlasa bo‘ladi: *me’mor, yangicha uslub, barpo ettirayotgan, minora, qurilish.*

11.4-mashqda berilgan *tenglik* va *adolat* tushunchalari bilan bog‘liq rasm asosida o‘quvchilar o‘z munosabatlarini yozma shaklda ifodalab, uni tengdoshlariga asoslab berishlari talab etiladi.

Namuna: odatda *tenglik* tushunchasiga demokratiyaning eng ustuvor talabi, adolatli jamiyatning asosiy tamoyili sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida ham: “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy

mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar", deb mustahkamlab qo'yilgan. *Adolat* tushunchasi esa jamiyat a'zolarining xilma-xil munosabatlarda bir-birining izzat-nafsiga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga amal qilishni, fuqarolar g'amini yeyishni anglatadi. Xulosa shuki, tenglik juda muhim, ammo u adolatga asoslanishi lozim.

"Til sandig'i" ruknida berilgan ***"Nafsi hakalak otmoq"*** matni o'rganiladi. *Hakalak otmoq* birikmasi va *nafsi hakalak otmoq* iborasining ma'nolari lug'at daftariga yoziladi. Mazkur iboraning mavzuga bevosita aloqadorligiga diqqat qaratiladi. Halollik odamiylikning bosh belgisi ekani aytilib, ta'lim va tarbiya birligi ta'minlanadi.

IV. Uyga vazifa berish.

"Mustaqil bajaraman" rukni ostidagi topshiriq internet yordamida bajarilishi tavsiya qilinadi.

Yechim:

1. Milliy valyuta – so'mga putur yetkazmaslik, uni asrab-avaylash, unga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo'lish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

Milliy valyutamiz – respublikamiz iqtisodiy mustaqilligining ramzlaridan biri hisoblanadi. O'z yurtini hurmat qilgan har bir fuqaro uning pul birligiga ham hurmat bilan qarashi va uning muomaladagi nufuziga putur yetkazmasligi lozim.

2. Men chet el fuqarosiman, O'zbekistonga ko'chib keldim va bu yerda ishlamoqchiman. Ayting-chi, menga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining qoidalalari tatbiq etiladimi?

Mehnat kodeksining 11-moddasiga muvofiq, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida ishlayotgan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham tatbiq etiladi.

3. Chakana savdo do'konlarida qaytim sifatida xaridorlarga konfet, gugurt, saqich va boshqa mayda mahsulotlarni berish mumkinmi?

O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 21-moddasiga asosan sotuvchi (ijrochi) iste'molchini haq evaziga qo'shimcha tovarlar sotib olishga yoki qo'shimcha xizmatlardan foydalanishga qistashga, shuningdek, ko'rsatilmagan xizmatlar uchun haq olishga haqli emas.


Qo'shimcha ma'lumot. Topshiriq uchun bosh rasm bejiz tanlanmagan. Qadim yunon mifologiyasida adolat ma'budasi Femida qo'lida tarozi va qilich, ko'zlari bog'liq (ko'r) holda tasvirlanadi. Tarozi — o'lchov va adolatning qadimiy ramzi. Yaxshilik va yomonlik, ayb va begunohlik adolat tarozisida tortiladi. Adolat amallarni to'g'ri tortishni ham nazarda tutadi. Qilich esa adolatning muqarrarlik belgisi, oliy haqiqat ramzi sanaladi. Ko'zi bog'liqlik — xolislik ramzi. Adolat odamlar orasidagi farqni ko'rmaydi, faqat haq so'zni so'zlaydi, degan ma'noda ko'rdir.

V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o'quvchilar bugungi darsda huquq va burchni anglash, adolat va halollik haqida olgan yangi ma'lumotlarini bayon qiladilar. Atamalarni to'g'ri qo'llash, nutq odobiga rioya qilish va savodli yozish muhimligi yuzasidan ham fikr bildiradilar.

12-dars

Darsning maqsadi. Mualliflik huquqi haqidagi informativ matn bilan tanishish va uni tahlil qilish; o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, ravon fikr bilan munosabat bildirish; fikrni tartiblash (kirish, asosiy qism, xulosa), yozish uchun tanlangan mavzu yuzasidan material to‘plash; undosh tovushlar talaffuzi va imlosiga doir bilimlarni oshirish.



2. Erta tongda toqqa chiqamiz.
Ushbu gapda imloviy xato kuzatiladi.

T N

3. Asardan muallifning ism-familiyasini va olingan manbani ko‘rsatgan holda, ilmiy tadqiqotlarda, ta’lim va o‘quv nashrlarida, axborot maqsadlarida iqtibos olishga ruxsat beriladi.
Ushbu gapda talaffuzi va imlosi farq qiluvchi undoshlar qatnashgan so‘zlarni topib, yozing.

TIL SANDIG‘I

SAPCHA HAQIDA GAPCHA

So‘zlashuvda va badiiy uslubda “Boshingni sapchadek uzib tashlayman” degan tahdidli gap ishlatib turiladi. Sapcha aslida ***pishib yetilmagan kichkina qovun*** degani. Oldin tilimizda faol ishlatilgan.

Juda ko‘p tushunchalar, narsalarning otini unutdik, ishlatmay qo‘ydik. Bitta-yarim yoshi ulug‘ kishining yoki tili boy odamning gapida uchraydigan bunaqa topildiq so‘zlarni qulog‘imiz yotsirab qabul qiladigan bo‘lib qoldi. Izohli lug‘atda keltirilgan misollarga e’tibor bersangiz, *sapcha* so‘zi XX asr o‘rtalarida va undan keyin ham jonli tilda qo‘llanganiga ishonch hosil qilasiz:

– *Qovun tushiradiganlarga yordamlashaman, sapcha berishadi, – dedi Otaboy.*
(G‘. G‘ulom, “Shum bola”)

“*Boshni sapchadek uzib tashlamoq*” iborasida nega aynan ***sapcha*** so‘zi ishlatilgan? Qovunning poyasi bodring poyasiga o‘xshash. Har ikki ekinning mevasi oson uziladi. Ters qayirsangiz, “tirs” etib uzilib ketadi. Nega qovun emas, sapchaga o‘xshatilgan? Bunga sapcha kichikroq bo‘lgani, bosh hajmiga to‘g‘ri kelishi sabab. Bunda tahdid qilinayotgan kishini yerga urish, boshini pishmagan qovunga o‘xshatish orqali aql-idrokida nuqson borligiga ishora qilish ma’nosi ham bo‘lishi mumkin.

Orif Tolib

50

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Yangi mavzuga kirishishdan avval sinfga savol tashlanadi va “Fikrlar jangi” uyushtiriladi.

Savol. Bir asarni bir necha mamlakatlarda turli rejissyorlar tomonidan suratga olish; ikki-uch xil tilda, ba’zan bir tilning o‘zida bir necha qo‘shiqni bitta musiqadan foydalanib ijro etish; taniqli rassomlarning ijodidan nusxa tayyorlash; mashhur imoratlar (Eyfel minorasi, Misr piramidalari, Londondagi Big Ben minorasi)ning nusxasini boshqa mamlakatlarda ham barpo etishga urinishlar keyingi paytda juda ko‘paydi. Bu holatning yaxshi va yomon tomonlari bormi?

O‘quvchilar savol yuzasidan o‘z fikrlarini bildirishi va uni asosli himoya qilishi zarurligi qayd etiladi. Kimlardir bu holatning yaxshiligi, hammada ham sayohatga borish imkoniyati yo‘qligi sabab dunyoning mo‘jizaviy imoratlaridan o‘z mamlakatida bahramand bo‘lish mumkinligi, filmlar va qo‘shiqlar borasida raqobatning yuzaga kelishi haqida yoqlab gapiradi; kimlardir bu kabi holatlar o‘g‘rilik ekanini aytib, ijoddan to‘xtash, yangilikka intilmaslikni qoralab fikr bildiradi. O‘qituvchi tomonidan barcha mulohazalar tinglanadi, lekin inkor qilinmaydi.

Xulosa. Yuqorida aytilgan holatlar ba’zan janjallar chiqishiga, nizolarning sudlarda ko‘rilishiga sabab bo‘lyapti. Bunday vaziyatlarni tartibga solishning huquqiy tomoni mavjud. Bugun biz ana shu masalaga diqqat qaratamiz.

Darslikdagi Mualliflik huquqi matni o‘qiladi. O‘quvchilar olgan ma’lumotlarini adabiy tilda izohlab beradilar. Bunda **12.1-mashq**dagi savollardan foydalanish mumkin.


1. “Mualliflik huquqi” deganda nimani tushundingiz?
2. Nima uchun mualliflik huquqining buzilishi dolzarb masalaga aylandi?

3. Sizningcha, mualliflik huquqini kimlar buzadi? Buning asosiy sababi nimada deb o‘ylaysiz?

Qo‘shimcha ma’lumot. Vazirlar Mahkamasining “Mualliflik huquqi obyektlarining elektron nazorat nusxalarini yagona bazada saqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori qabul qilindi. Hujjatga muvofiq, 2023- yil 1- apreldan boshlab mualliflik huquqi obyektlarining elektron nazorat nusxalari majburiy tartibda yagona bazada saqlanadi.

Yagona bazada quyidagi mualliflik huquqi obyektlarining elektron nazorat nusxalari saqlanadi:

- adabiy asarlar (adabiy-badiiy, ilmiy, o‘quv, publitsistik va boshqa asarlar);
- drama va ssenariy asarlari;
- matnli yoki matnsiz musiqa asarlari;
- musiqali drama asarlari;
- xoreografiya asarlari va pantomimalar;
- audiovizual asarlar;
- rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, dizayn asarlari va tasviriy san’atning boshqa asarlari;
- manzarali-amaliy va sahna bezagi san’ati asarlari;
- arxitektura, shaharsozlik va bog‘-park barpo etish san’ati asarlari;
- fotografiya asarlari va fotografiyaga o‘xshash usullarda yaratilgan asarlar;
- geografiya, geologiya xaritalari va boshqa xaritalar, geografiya, topografiya va boshqa fanlarga taalluqli tarhlar, eskizlar va asarlar;
- barcha turdagi elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, shu jumladan, har qanday dasturlash tilida va har qanday shaklda, chunonchi, boshlang‘ich matn hamda obyekt kodida ifodalanishi mumkin bo‘lgan amaliy dasturlar va operatsiya tizimlari;
- “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasida belgilangan talablarga javob beradigan boshqa asarlar.



12.2-mashq. Imlo bo‘yicha ishlanadi. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar daftarga ko‘chiriladi hamda ularning talaffuzi va yozilishi izohlanadi.

Tartib (talaffuzda *tartip*), fan (talaffuzda *pan*), tatbiq (talaffuzda *tadbig‘*), obyekt (talaffuzda *abyekit*), daxlsiz (talaffuzda *daxilsis*), haqini (talaffuzda *haqqini*), maqsad (talaffuzda *maxsat*), tadqiqot (talaffuzda *tatqiqot*), iqtibos (talaffuzda *ixtibos*), muallif (talaffuzda *malip*), ijtimoiy (talaffuzda *ishtimoyiy*).

12.3-mashq. Testlar javobi:

1. To‘g‘ri (rivojlanish, ishga)

2. To‘g‘ri (*toqqa* emas, *tog‘ga*)

3. Muallif, ism-familiya, manba, ko‘rsatgan, tadqiqot, nashr, maqsad, iqtibos.

“Til sandig‘i” ruknidagi ***“Sapcha haqida gapcha”*** matni bilan tanishib chiqiladi.

12.4-mashq yechimi:

Rashod Nuri Guntekin. “Choliqushi”

Abdulla Qodiriy. “O‘tkan kunlar”

O‘tkir Hoshimov. “Ikki eshik orasi”

Said Ahmad. “Qorako‘z Majnun”

Chingiz Aytmatov. “Oq kema”

Uilyam Shekspir. “Otello”

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” ruknida “Ko‘chirmakashlik illati” mavzusida ijodiy matn tuzish tavsiya qilingan.

Matn tuzishda quyidagilarga amal qiling:

– ko‘chirmakashlikning paydo bo‘lishi sababini izohlang;

– ko‘chirmakashlik qanday oqibatlarga olib kelishi haqidagi mulohazalaringizni bayon eting;

– ko‘chirmakashlikni yo‘qotish uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz?

– fikrlaringizni adabiy til me’yorlariga amal qilib yozing.

V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan va ular uchun yangilik bo‘lgan ma’lumotlar yuzasidan fikr bildiradilar.

13-dars

Darsning maqsadi. Gender tengligi haqidagi informativ matn bilan tanishish, uni anglash va tahlil qilish; o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish; matnga sarlavha tanlash; undosh tovushlar talaffuzi va yozilishi, yonma-yon kelgan undoshlar imlosiga doir bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni


I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Tanlangan mavzu bugungi hayotimizda eng dolzarb muammolardan birini qamrab olgan. Kundalik hayotda, ayniqsa, teleko‘rsatuvlarda “Gender tengligi” masalasi tez-tez ko‘tarilyapti.

Darslikda berilgan informativ matn bilan tanishib chiqiladi. **13.1-mashq**dagi savollar asosida matn mazmuni yuzasidan munozara uyushtiriladi. Bunda, albatta, qarama-qarshi fikrlar ham bo‘lishi nazarda turiladi.



13.1-mashq. Matn asosida savollarga og‘zaki javob bering.

1. Gender tengligi deganda nimani tushundingiz?
2. Gender notengligi qaysi vaziyatlarda, ayniqsa, ko‘p namoyon bo‘ladi?
3. Gender tengligini sharqona anglash bo‘yicha mulohazalaringizni ayting

YONMA-YON KELADIGAN UNDOSHLARNING IMLOSI

1) *baland*, *Samarqand*, *poyezd*; *do‘st*, *artist*, *g‘isht* kabi so‘zlarda ***d***, ***t*** tovushi ba’zan aytilmasa ham, yoziladi;
2) *metall*, *kilogramm*, *kilovatt*, *kongress* kabi o‘zlashma so‘zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so‘zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo‘shilsa, so‘z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall + lar = metallar*, *kilogramm + mi = kilogrammi* kabi.

13.2-mashq. Quyidagi matn asosida jadvalni to‘ldiring.

Ma’lumki, Amir Temur hukmronlik qilgan yillarda Movarounnahrga chet ellardan ko‘plab sayyohlar, elchilar tashrif buyurgan. Kunlarning birida o‘zga yurtlik mehmonlardan biri ko‘chadan o‘tib ketayotib har bir darvoza tagidagi bo‘sh idishlarni ko‘rib hayron bo‘libdi va: “Bular nima uchun?” – deb so‘rabdi. Shunda bir erkak quyidagi javobni bergan ekan: “Bizning jamiyatimizda ayollarning og‘ir yuk ko‘tarib yurishi erkaklar uchun uyatli holdir. Ko‘chadan o‘tib ketayotgan har bir erkak ushbu idishlarni suv bilan to‘ldirib qo‘yishni o‘zining burchi deb biladi”.

Tarkibida juft undoshlar mavjud so‘zlar	Tarkibida qator kelgan undoshlar mavjud so‘zlar

13.3-mashq. Quyidagi rasmlarni solishtirib, ularga mos sarlavha topib, yozing.

1. Gender tengligi deganda nimani tushundingiz?

Gender tengligi shaxslarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, sport munosabatlarida, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, yoshi kabi ijtimoiy ko‘rsatkichlaridan qat’i nazar, inson huquqlaridan bir xilda foydalana olishini, ularning huquq hamda imkoniyatlari tengligini anglatadi.

2. Gender notengligi qaysi vaziyatlarda ayniqsa ko‘p namoyon bo‘ladi?

Gender notengligi ayniqsa oilada, bola tarbiyasida, kasb tanlashda, ishga joylashishda ko‘p kuzatiladi. Masalan, uy ishlari, farzand tarbiyasi faqat ayol kishining vazifasi deb qarash; maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachiligi uchun erkaklarni ishga olishni g‘ayrioddiy deb baholash; yigitlarni ota-ona xohishi bilan majburan uylantirish; ota-onalar majlislariga asosan onalarning kelishi; yuqori lavozimlarga ko‘proq erkaklarni ishga qabul qilish; nikoh vaqtida ayollarning turmush o‘rtoqlari familiyasini qabul qilishi; ota-onalar ayniqsa o‘g‘il farzandlarini qattiq tergashi va kaltaklashi; tikuvchi, dizayner, modelyerlik kasbini tanlagan yigitlarni mazax qilish; sport bilan shug‘ullanishda jinslarni ajratish; ba’zi xonadonlarda kelinga xizmatkordek munosabatda bo‘lish; muddatli harbiy xizmatga chaqirishdagi cheklov kabi masalalar. Muhokama uchun o'rtaga tashlanishi mumkin.

3. Gender tengligini sharqona anglash bo‘yicha mulohazalaringizni ayting.

1-fikr. Gender tengligi deganda ko‘pchilik ayol va erkak kishining huquq jihatidan teng bo‘lishini tushunadi. Qadimdan bizda ayol kishi ko‘proq uyga mas’ul qilingan. Doim uyda bo‘lishi, turmush o‘rtog‘ining xizmatini qilishi va farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishi kerakligi aytiladi. Pul topish, ro‘zg‘orni to‘ldirish va oilani boqish erkaklar zimmasiga yuklangan.

2-fikr. Erkak o‘z ishini qilishi lozim, ayol o‘z ishini. Jinsiga, xususiyatlariga va imkoniyatlariga qarab ularga vazifa yuklatilgan. Shuning uchun huquqlar orasida ham biroz farq

TIL SANDIG‘I

YOG‘ BO‘LMASA, CHALPAK QIL, UN BO‘LMASA — PATIR

Bu maqol xalq o‘rtasida yuradigan bir latifadan kelib chiqqan.

Bir maqtanchoq odam o‘z odatiga ko‘ra choyxonada maqtanib o‘tirgan ekan, bolasi kelib: “Dada, uyda yog‘ tamom bo‘libdi, yog‘ olib berarkansiz”, – debdi. Shunda dadasi: “Bor, oyingga ayt, yog‘ bo‘lmasa, chalpak qilsin!” degan ekan. O‘g‘li shunda: “Iye, dada, chalpak qilishga uyda un yo‘q-ku”, – debdi. Haligi odam atrofdagilarga sir boy bermaslik, o‘z mavqeyini saqlash uchun: “Un bo‘lmasa, patir qila qolsin”, – degan ekan, choyxonadagi odamlar xoxolab kulib yuborishibdi.

Mazkur maqolni mana shunday quruq maqtanchoq odamlarga nisbatan istehzo bilan aytadilar.

“O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati”dan

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing. Matn va hayotiy kuzatuvlaringiz asosida xulosalaringizni yozing.

TARBIYANING ZAMONI



Emdi ochiq ma’lum bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go‘zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga “Birinchi, uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur”, – deb javob bersak, bir kishi deyurki, “Qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo‘li to‘qmoq onalarmi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar”, – der. Mana bu so‘z kishining yuragini ezar, bag‘rini yondurar. Otasiga nima dersiz desak, “Qaysi ota? To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o‘zlarini o‘qitmak, tarbiya qilmak lozimdur”, – der. Mana bu so‘zni eshitgach, umid qo‘llari qo‘ltuqg‘a urilur.... Mana bu so‘z bizlarni tarbiyadan mahrum, huquqning na ekanin bilmaganlig‘imizni bildirur.

Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur.

Abdulla Avloniy

bo‘ladi. Agar ikkalasi bir xil huquqqa ega bo‘lsa, ikkalasiga bir xil vazifa yuklanadigan bo‘lsa, ularni ikki jinsga ajratishdan ma’no qolmaydi. Ayol kishi zohiran ko‘p narsalardan mahrum qilingandek ko‘rinadi. Lekin bu aslida ayolning muhofazasi uchundir. “Erkaklar bilan huquqlarimiz teng ekan”, deb ayollar erkaklardan ustun bo‘lib, ularga o‘z gapini o‘tkazmoqchi bo‘lishsa avvalo o‘zlariga ziyon bo‘lishi mumkin.

3-fikr. Qizlar oliy ta’limga kontrakt shartnomasi asosida qabul qilinsa, ba’zi ota-onalar kontrakt pulingni to‘laguncha, shu pulga sarpongni qilib beramiz, deyishadi. O‘g‘il farzandlarga esa bunday deyishmaydi.

4-fikr. Muqaddas dinimizda ayollarni xo‘rlamaslik, jannat onalar oyog‘i ostiga ekani, qiz tarbiyalaganlarning jannatga tushishi haqida ko‘p ta’kidlanadi.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi undoshlar talaffuzi va imlosida qanday farq borligi izohlanadi.

Yechim:

Rivojlanish ((rivojlanish: sirg'aluvchi j bilan)), ijtimoiy (ishtimoiy), iqtisodiy (ixtisodiy), to‘qnashuv (to‘xnashuv), mansublik (mansuplig), reproduktiv (reproduktif), ishtirok (ishtirog), tiriklayin (tiriglayin), shafqatsiz (shavqatsis), falokat (palokat), arab (arap), xabar (xavar), farosatli (parosatli), mansab (mansap), kafolat (kapolat), avlod (avlot).

Yonma-yon keladigan undoshlar imlosi

1) *baland, Samarqand, poyezd; do‘st, past, artist, g‘isht* kabi so‘zlarda *d, t* tovushi ba’zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o‘zlashma so‘zlar oxirida bir undoshday tuyilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so‘zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo‘shilsa, so‘z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar=metallar*, *kilogramm+mi=kilogrammi* kabi.

Yonma-yon kelgan undosh tovushlar asosan o‘zlashma so‘zlarda kuzatiladi. Bunday so‘zlarni bo‘g‘inga ko‘chirish imlosi quyidagicha:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko‘chiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga koʻchiriladi: *silin-drik, kon-stitutsiya* kabi.

Nazariy maʼlumot **13.2-mashq** asosida mustahkamlanadi.

Bajarish tartibi:

1. Matn bilan tanishib chiqiladi. Undagi masala kundalik hayotga qay darajada mos kelish-kelmasligi “Gender tengligi” tushunchasiga bogʻlab yana bir bor izohlanadi.
2. Jadval toʻldiriladi.

Eslatma: jadvalni toʻldirayotganda yonma-yon undoshlar soʻzning asos qismida, qator undoshlar esa bir boʻgʻin tarkibida kelishiga diqqat qaratiladi.

Yechim:

Tarkibida juft undoshlar mavjud soʻzlar	**Tarkibida qator kelgan undoshlar mavjud soʻzlar**
Movarou**nn**ahr, sa**yy**oh	Hu**km**ronlik, yu**rt**lik, bu**rch**

13.3-mashqni bajarishdan oldin sarlavha haqida maʼlumot berish tavsiya qilinadi. Shundan soʻng esa rasmlar taqqoslanib, bildirilgan fikrlar orasidan unga mos sarlavha topib, yoziladi.

Sarlavha – yarim maqola

Sarlavha uning ostidagi matnning mohiyatini koʻrsatadigan soʻz yoki jumladir. Shuning uchun badiiy asar yoki gazeta-jurnal maqolalariga aniq, oʻziga xos sarlavha tanlanishi lozim. Uni tanlash ham mahorat talab qiladi, chunki sarlavha matnning oʻqishli boʻlishini taʼminlaydi. Shuning uchun koʻpchilik ijodkorlar mazmunli, oʻziga jalb qiladigan sarlavha topishga intiladi.

Sarlavhalar asosan uch vazifani bajaradi. Bular: maqolani nomlash, maqolaning mazmunini bildirish hamda reklama qilish vazifalaridir. Matnga mazmunli, ixcham sarlavha tanlangani maʼqul. Aksincha, mazmunga uncha mos boʻlmagan, uzundan uzoq jumlalardan iborat nom oʻquvchini zeriktirishi tabiiy. Garchand maqola dolzarb, mazmunli boʻlsa-da, ammo unga mos, jarangdor nom tanlanmasa, oʻquvchi bu maqolani oʻqimasdan, bir chetga surib qoʻyadi. Matn mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda, oʻziga xos maʼno beradigan, tezda oʻziga jalb qiladigan sarlavhalar esa oʻquvchi eʼtiborini tortib, oʻqishga undaydi. Masalan, “Spirtsmenlar”, “Yoʻl boʻlsin, yoʻlovchi?”, “Vitamin foydali(mi)?” “Suv kimniki?” kabi.

Rasmlar uchun sarlavha namunalari:

Kimga oson?

Oilaviy ahillik

Kichik gʻamxoʻrlikning ulkan savobi

Tanlang: televizor yo ona!

“Til sandig‘i” ruknida berilgan **“Yog‘ bo‘lmasa, chalpak qil, un bo‘lmasa – patir”** maqolining kelib chiqish tarixi va ma’nosi bilan tanishiladi. Ushbu maqolning yuqoridagi rasmga bog‘liq joyi bor-yo‘qligi izohlanadi (*Uy yumushlarini ayollarga chiqargan, deb fikr yuritadigan ba’zi erkaklar kunini choyxonada ulfatchilik bilan o‘tkazadi, ammo ro‘zg‘orni to‘ldirib qo‘yishni unutadilar).*

IV. Uyga vazifa berish.

O‘quvchilar Abdulla Avloniy qalamiga mansub “Tarbiyaning zamoni” maqolasini diqqat bilan o‘qib, unda tilga olingan mavzuning bugun ham dolzarbligi yuzasidan asosli xulosa tayyorlashlari kerak.

V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsda olgan ma’lumotlari, o‘zlashtirgan bilimlari bo‘yicha o‘z xulosalarini bir jumla bilan bayon qilishlari tavsiya etiladi. Masalan, “Mening oiladagi vazifam”, “Odamiylik yosh va jins tanlamas”, “Jamiyatni harakatga keltiruvchi avlod bo‘la olamizmi?”, “Farzandlik burchim” , “Oilada mehnat taqsimoti”, “Oila byudjetiga kim javobgar?” kabi.

14-dars

Darsning maqsadi. Shaxs mas’uliyati haqidagi muhokama matn bilan tanishish, uni anglash va tahlil qilish; o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish; matn mavzusiga mos epigraf tanlash va tezis yozish; unlilar talaffuzi va imlosiga doir bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Aksar hollarda ma’lumot berish maqsadidagi informativ (ma’lumot yetkazuvchi) matnlarga duch kelamiz. Mazkur dars mashg‘uloti uchun muhokama matni tanlanadi. Aynan muhokama matnida muayyan bir masala atroflicha ko‘rib chiqiladi, uning turli tomonlariga nazar tashlanadi va munosabat bildiriladi. Shuningdek, matnning ushbu turi boshqalarni ham muhokamaga chorlaydi. Darslikdan *mas’uliyat* tushunchasi doirasida fikrlar bildirilgan matn o‘rin olgan. O‘quvchilar topshiriqni “Zinama-zina” usulida bajaradilar.

1-ish. Matn o‘qiladi. O‘quvchilarning tushunganligi savollar yordamida aniqlanadi. Ular adabiy tilda ravon so‘zlashlari kerak.

Savollar:

Mas’uliyat deganda nimani tushunasiz?

Hayotimizda ham “birgina buralmagan murvat”ga duch kelamizmi?

2-ish. Matnga sarlavha topiladi.

Namunalar:

Mas’uliyat va mas’uliyatsizlik

Birgina buralmagan murvat qilmishi

Mas’uliyatsizlik oqibati

Sen menga tegma, men senga tegmayman(mi)?



Ishonchdan mas’uliyatgacha necha qadam?

3-ish. Matn ostidagi savollar asosida “Tezislar taqdimoti” uyushtiriladi. Javoblar uchun ma’lum vaqt belgilanadi. O‘quvchilarning fikr-mulohazalari mavzu doirasidan va vaqt chegarasidan chiqib ketmasligi hisobga olinadi.

Shu o‘rinda o‘quvchilarga tezis haqida tushuncha berib o‘tish maqsadga muvofiq.

Tezis (yunoncha *“qoida”, “isbot”*) – ilmiy asar, maqola, referat va shu kabilardagi asosiy g‘oyaning qisqa va lo‘nda ifodasi bo‘lib, isbotlanishi lozim bo‘lgan hukmdir.

Nazariy bilimni o‘quvchilarga **14.1-mashqni** bajarish davomida yetkazish, so‘ng umumiy xulosa sifatida darslikda berilgan ma’lumot bilan tanishish mumkin.

Mashq yechimi:

kilometr (kilametir), samolyot (samalyo‘t), voqea (voqiya), rusumli (rusimli), layner (laynir), mavzu (movzi), bilan (blan), aviahalokat (avyahalokat), talafot (talofat), yumush (yumish), soat (soxot, sog‘at), unutib (unitib), tushunib (tushinib – bu so‘z ba’zan *chunip* tarzida ham talaffuz qilinadi).

Yonma-yon keladigan unlilar imlosi

1) unlilar orasiga ba’zan **y** undoshi qo‘shib aytilsa ham, yozilmaydi:
a) **ia:** *material, milliard, radiator, tabiat, shariat* kabi;
b) **io:** *biologiya, million, stadion, radio* kabi;
d) **ai:** *mozaika, ukrain, said, maishat* kabi;
e) **oi:** *alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila* kabi;
f) **ea:** *teatr, okean, laureat* kabi;
2) **ae, oe** unlilari so‘z ichida kelganda, ikkinchi unli **y** tarzida aytilsa ham, asliga muvofiq **e** yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

14.2-mashq. Rasmlarga diqqat qilinadi. Xato so‘z va birikmalar lotin alifbosida to‘g‘rilab yoziladi.

Yechim:

1. Velosiped avtobus o‘rnini bosa oladimi?
2. Samarqand nonlari
3. Baxtli bo‘linglar!
4. Eng kuchli professional elektr kompaniyasi.

TIL SANDIG'I

MENDAN KETGUNCHA, EGASIGA YETGUNCHA

Variantlari: “Qo'ldan ketguncha, egasiga yetguncha”, “Bizdan ketguncha, uyiga yetguncha”.

Bu maqollarni ko'zbo'yamachilik, mas'uliyatsizlik bilan naridan beri ish qilib, “usti yaltiroq, ichi qaltiroq” narsa tayyorlab, tezroq pulini undirish niyatida bo'lgan kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo'llaydilar.

14.5-mashq. Mavzular va epigraflarni moslashtirib, daftaringizga yozing.

	Mavzu	Epigraf
1	Tabiat va inson	Yoshlikda bilgani – toshga yozgani, Qarilikda bilgani – muzga yozgani. *(Maqol)*
2	So'z qadri – inson qalbining kaliti	E'zozlar, ardoqlar uchun tashakkur, Asli siz oftobim, men ziyosiman. Tonglaringiz kulsin dorilamon, hur, Baxtim shul – o'zbekning Zulfiyasiman. *Zulfiya*
3	Vafo va sadoqat kuychisi	Tabiat – ezgulik va go'zallikning bevosita ifodasi. *Asqad Muxtor*
4	Vaqt qadri	So'zning o'zida shaxs zimmasidagi zalvarli yuk bor. Elchi – adolat va ezgulik yo'lida haq so'zni aytishga burchli inson. *Erkin Vohidov*

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Matnni o'qing. Unga mos sarlavha toping va qisqacha xulosangizni yozing.



Burgut o'z farzandlariga qanday qilib ota tanlaydi?

Bu jarayon judayam hayratlanarli kechadi. U daraxt yoki biror butadan kichik shoxcha sindirib oladi, uni tumshug'ida tutgancha balandga ko'tariladi va shu holda aylana boshlaydi. Atrofida nar burgutlar yig'ilib parvoz etadi. Shu payt u tumshug'idagi shoxchani tushirib yuboradi va kuzatadi. Burgutlardan biri shoxchani tutib olib, ohistalik bilan unga olib kelib topshiradi. U esa shoxchani olib, uni yana tashlab yuboradi. Burgut yana tutib oladi va unga qaytaradi. U esa yana tashlab yuboradi...

Murojaat uchun:
operator: _____;
rahbar: _____.

O‘quvchilar yaqin atrofdan shu kabi yozuvlarga misol keltiradilar. O‘qituvchi fikrlar asosida xulosa qiladi.

Xulosa. Ommaviy axborot vositalari, reklama bannerlari, e’lonlar, peshtaxtalar, mahsulot quti va o‘ramlari – qayoqqa qaramang, xato yozilgan so‘zlarga ko‘zingiz tushadi. Til – millatning asosiy belgisi, uning nomus-ori. Ona tiliga bepisandlik va mas’uliyatsizlikni millatga xiyonat deb baholash lozim.

14.3-mashq “Davom ettir” usulida bajariladi.

Namuna:

1. Qachonki inson oilasi oldidagi burchini anglab yetsa, *u o‘z ishiga vijdonan va sidqidildan yondashadi.*

2. Agar biror kishi muhim ishlarni bajarish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olsa, *u martaba yukini ham muvaffaqiyat bilan ko‘tara oladi.*

3. Siz uchun aziz bo‘lganlarning baxti, farovonligi va xavfsizligi uchun *javobgarlikni his qilishingiz evaziga kelgusida qadr topasiz.*

4. Hayotda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish va yaqinlaringizga yordam berish uchun *juda ham ko‘p narsa kerak emas, bir-biringizni tushunishni o‘rganing.*

14.4-mashqdagi matnda qo‘shnichilik mas’uliyati to‘g‘risida fikr yuritiladi. Qadimdan qo‘ni-qo‘shnilarga ham mehr-oqibatli bo‘lish, qo‘shni haqini ado etish kabi odatlar qon-qonimizga singib ketgan qadriyatlar sanaladi. Qo‘shni nochor qo‘shnisiga yeganidan yedirib, kiyganidan kiydirishi kerak. Har ehtiyojini bitirishi kerak. Har xususda qo‘shni qo‘shnining ko‘nglini olishi, molini, jonini, sha’nini, or-nomusini o‘zinikidan ziyodaroq ko‘rishi zarur.

“Til sandig‘i” ruknida ***“Mendan ketguncha, egasiga yetguncha”*** maqolining mazmun-mohiyati o‘rganiladi. Maqolning o‘rganilayotgan mavzuga mosligi izohlanadi. Ayniqsa, sifatsiz mahsulotlarning sotuvga chiqarilishi, muddati o‘tib eskirgan oziq-ovqatlarning peshtaxtadan olib qo‘yilmasligi bo‘yicha o‘quvchilar mulohaza yuritadilar.

14.5-mashq. Mavzular va epigraflarni moslashtirib, daftarga yozish topshiriladi.

Epigraf *(yunoncha ustki yozuv)* – adabiy asar yoki uning biror qismi (bobi)ning tepasiga yozib qo‘yilgan va shu asar yoki qism (bob) mazmunini ifodalaydigan, asosiy yo‘nalishini belgilab beradigan teran ma’noli ibora, maqol, matal, hikmatli so‘z, qo‘shiq, she’r yoki o‘zga bir manbadan olingan parcha.

Jahon adabiyotida epigraf XV asr boshlarida paydo bo‘lgan. Epigraf iqtibos yoki ko‘chirmaning barcha xususiyatlariga ega bo‘lib, asosiy matnga o‘ziga xos kirish vazifasini o‘taydi. Ularsiz ba’zan badiiy asarning mohiyatini anglash mumkin bo‘lmay qoladi *(O‘zME)*.

Mashqning yechimi:

	Mavzu	**Epigraf**
1	Tabiat va inson	Tabiat – ezgulik va go‘zallikning bevosita ifodasi. *Asqad Muxtor*
2	So‘z qadri – inson qalbining kaliti	So‘zning o‘zida shaxs zimmasidagi zalvarli yuk bor. Elchi – adolat va ezgulik yo‘lida haq so‘zni aytishga burchli inson. *Erkin Vohidov*
3	Vafo va sadoqat kuychisi	E’zozlar, ardoqlar uchun tashakkur, Asli siz oftobim, men ziyosiman. Tonglaringiz kulsin dorilamon, hur, Baxtim shul – o‘zbekning Zulfiyasiman. *Zulfiya*
4	Vaqt qadri	Yoshlikda bilgani – toshga yozgani, Qarilikda bilgani – muzga yozgani. *Maqol*

IV. Uyga vazifa berish.

Burgutlarning o‘ziga juft tanlashi haqida qiziqarli matn berilgan. O‘quvchilar matnni o‘qiydilar. Unga mos sarlavha topib, xulosalarini yozadilar.

V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsda olgan ma’lumotlari, o‘zlashtirgan bilimlari bo‘yicha o‘z xulosalarini bayon qilishlari tavsiya etiladi.

15-dars

Mustahkamlash darsi

Darsning maqsadi. Nutqiy kompetensiyalar: o‘qib tushunish, yozish, tinglab tushunish, so‘zlash hamda lingvistik kompetensiyalar: lug‘at va grammatik savodxonlik bo‘yicha takrorlash va mustahkamlash.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. O‘tilgan mavzularni mustahkamlash.


“Ixtirochi avtogigantlarga qarshi” matni o‘qiladi.

15-dars

MUSTAHKAMLASH

Topshiriq. Matnni o‘qib chiqing.

IXTIROCHI AVTOGIGANTLARGA QARSHI



Oynaartkichlar avtomobillarning muhim qismlaridan bo‘lib, uning “otasi” amerikalik Robert Kyorns sanaladi. Biroq olim ixtironi o‘ziniki qilib olishi uchun juda uzoq yelib-yugurishiga to‘g‘ri keladi. Bu voqea mualliflik huquqi uchun kechgan eng mashhur kurashlardan biri bo‘lib tarixga kirgan.

1953-yilda Robert uylanadi. To‘y bazmida shampan shishasini ochish chog‘ida bir ko‘zini shikastlab oladi: shisha tiqini uning ko‘ziga kelib urildi. Shundan so‘ng Robert avtomobilni boshqarishda qiyinchilikka duch kela boshlaydi. Ayniqsa, yomg‘irli kunlarda unga havas qilib bo‘lmasdi.

1962-yilda olim yomg‘irli kunda avtomobil boshqaradi. O‘sha paytlarda avtomobil oynasini artuvchi maxsus cho‘tkalar to‘xtovsiz harakatlanar va bu haydovchiga noqulaylik keltirib chiqarar edi. O‘sha onda Robert Kyorns oynaartkichlar inson kipriklari singari, ya’ni to‘xtab-to‘xtab ishlashi kerakligini anglab yetadi. Uyiga kelib, yerto‘lasiga kirib ketadi va olamshumul ixtiroga qo‘l uradi. 1964-yilda yangicha oynaartkichga patent oladi.

Tabiiyki, ixtirochi bu yangiligi ortidan katta mablag‘ga ega bo‘lishni ham maqsad qiladi. Axir o‘n minglab transport vositalarida endi Robert Kyorns yasagan oynaartkichdan foydalanilishi kutilmoqda. Olim ishga kirishadi: o‘z ixtirosi haqida o‘sha paytdagi yirik avtomobil kompaniyalariga xabar jo‘natadi, ishlash prinsipini tushuntiradi, shartnoma tuzishga rozi ekanini bildiradi. Biroq barcha takliflariga rad javobini oladi.



1969-yildan avtomobillar Kyorns ixtiro qilgan oynaartkichlar bilan chiqa boshladi. Olimning taklifini rad etgan kompaniyalar bu ishga muallif ruxsatisiz qo‘l urishgan edi. Ixtirochi darrov avtokompaniyalarga murojaat qildi – ular olimni eshitishni xohlashmadi. Bir necha yillik sarsongarchilikdan so‘ng Robert Kyorns “Ford”, keyinroq “Kraysler” kompaniyalari ustidan sudga arz qildi. “Ford” kompaniyasi bilan 12 yil, “Kraysler” bilan 10 yil davom etgan sud jarayonlari Robert Kyorns g‘alabasi bilan yakunlandi. Uzoq yillik sudlashuvda ixtirochi tom ma’noda yolg‘iz harakatlandi. Aksar advokatlar bu ishda ishtirok

63

Savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi va ularning tushunganlik darajasi aniqlanadi:

1. Oynaartkichlarning vazifasini nima uchun muhim deb bilasiz?

2. Qiyinchilikdan qutulish, muammoni hal qilish yo‘lini topish uchun inson qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak, deb o‘ylaysiz?

3. Ixtirochi olgan tovon puli summasi davlatimiz valyutasida qancha bo‘ladi? Hisoblab ayting.

4. Yurtimiz avtosanoatida mualliflik huquqini olgan ixtirolar haqida eshitganmisiz?

15.1-mashq. “Ixtirochi avtogigantlarga qarshi” matni asosida savollar beriladi.

Savollar:

1. Yirik kompaniyalar ixtirochining shartnoma tuzish taklifini nega rad etishdi?

2. Nima deb o‘ylaysiz: mualliflik huquqi uchun uzoq vaqt kurashish oilani, vaqtni yo‘qotishga arziydimi? Siz Kyorns o‘rnida qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

15.2-mashqda matn asosida tuzilgan testlarning javobi:

1. C. *Kyornsga qadar avtomobillar oynasini artuvchi moslama bo‘lmagan.*

2. B. *Matn ommabop (publitsistik) uslubda yozilgan.*

15.3-mashq. “Ixtirochi avtogigantlarga qarshi” matnidan olingan gaplarda ajratib ko‘rsatilgan birliklar sinonimi bilan almashtirib yoziladi. Bunda tanlangan so‘z fikr mazmuniga mos kelishi talab qilinadi.

Yechimi:


Biroq olim ixtironi o‘ziniki qilib olishi uchun juda **uzoq** yelib-yugurishiga to‘g‘ri keladi.	Biroq olim ixtironi o‘ziniki qilib olishi uchun juda **ko‘p** yelib-yugurishiga to‘g‘ri keladi.
1953-yilda Robert uylanadi. To‘y bazmida shampan shishasini ochish chog‘ida bir ko‘zini **shikastlab oladi**.	1953-yilda Robert uylanadi. To‘y bazmida shampan shishasini ochish chog‘ida bir ko‘zini **jarohatlab oladi**.
O‘sha paytlarda avtomobil oynasini artuvchi maxsus cho‘tkalar **to‘xtovsiz** harakatlanar va bu haydovchiga **noqulaylik keltirib chiqarar edi.**	O‘sha paytlarda avtomobil oynasini artuvchi maxsus cho‘tkalar **tinimsiz** harakatlanar va bu haydovchiga **qulay emas edi**.
1969-yildan avtomobillar Kyorns ixtiro qilgan oynaartkichlar bilan **chiqa boshladi**.	1969-yildan avtomobillar Kyorns ixtiro qilgan oynaartkichlar bilan **ishlab chiqarila boshlandi.**

Axir o‘n minglab transport vositalarida endi Robert Kyorns yasagan oynaartkichdan foydalanilishi **kutilmoqda**.	Axir o‘n minglab transport vositalarida endi Robert Kyorns yasagan oynaartkichdan foydalanilishi **ko‘zda tutilmoqda (nazarda tutilmoqda, orzu qilinmoqda).**
Aksar advokatlar **bu ishda** ishtirok etishdan bosh tortishdi, kamiga, bu ishlardan charchagan turmush o‘rtog‘i ham uni **tashlab ketdi**.	Aksar advokatlar **mazkur jarayonda (ushbu jarayonda, sud ishida)** ishtirok etishdan bosh tortishdi, kamiga, bu ishlardan charchagan turmush o‘rtog‘i ham uni **tark etdi.**

15.4-mashqni bajarish uchun sinf ikki guruhga bo‘linadi. “Bu so‘z – bizniki” usulida birinchi guruh faqat to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni, ikkinchi guruh noto‘g‘ri so‘zlarni to‘g‘rilab yozadi. To‘g‘rilangan so‘zlar “Imlo lug‘ati” bilan solishtiriladi.

To‘g‘ri yozilgan so‘zlar: muomala, bo‘ysunish, metallar, mabodo, tarjimayi hol, nes-nobud bo‘lmoq, naqarot, no‘xat, davomat, boloxona, urushqoq, dasturilamal.

To‘g‘rilangan so‘zlar: masxara, pasport, dimog‘li, odamzod, ohanrabo, orziqib, chanqovbosdi, milodiy, mutlaqo, noshud, daromad, poyabzal, dabdurustdan, baynalmilal.



etishdan bosh tortishdi, kamiga, bu ishlardan charchagan turmush o'rtog'i ham uni tashlab ketdi. Biroq hech kim va hech narsa olimni oxirigacha kurashishdan qaytara olmadi. Uzoq davom etgan kurashdan so'ng ixtirochi sud hukmi bilan "Ford"dan 10 ming, "Kraysler"dan esa 30 ming dollar miqdoridagi tovon pulini qabul qilib oldi.

Mansur Siddiqov

15.1-mashq. "Ixtirochi avtogigantlarga qarshi" matni asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. Yirik kompaniyalar ixtirochining shartnoma tuzish taklifini nega rad etishdi?
2. Nima deb o'ylaysiz: mualliflik huquqi uchun uzoq vaqt kurashish oilani, vaqtni yo'qotishga arziydimi? Siz Kyorns o'rnida qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

15.2-mashq. "Ixtirochi avtogigantlarga qarshi" matni asosida quyidagi testlarning to'g'ri javobini belgilang.

1-test. Matn mazmuniga zid fikrni aniqlang.	
A	Kyorns o'z ixtirosini yaratishda inson a'zosi ishlash prinsipidan ilhomlangan.
B	Sudma-sud yurishlar Kyorns oilasi parokanda bo'lishiga ham sabab bo'ldi.
C	Kyornsga qadar avtomobillar oynasini artuvchi moslama bo'lmagan.
D	Mualliflik huquqini buzgan avtokorxonalar ixtirochiga tovon puli to'lashga majbur bo'lishdi.

2-test. Matn qanday uslubda yozilgan?	
A	adabiy so'zlashuv uslubida
B	ommabop (publitsistik) uslubda
C	badiiy uslubda
D	sof ilmiy uslubda

15.3-mashq. "Ixtirochi avtogigantlarga qarshi" matnidan olingan gaplarda ajratib ko'rsatilgan birliklarni sinonimi bilan almashtirib, ko'chiring.

1. Biroq olim ixtironi o'ziniki qilib olishi uchun juda **uzoq** yelib-yugurishiga to'g'ri keladi.
2. 1953-yilda Robert uylanadi. To'y bazmida shampan shishasini ochish chog'ida bir ko'zini **shikastlab oladi**...
3. O'sha paytlarda avtomobil oynasini artuvchi maxsus cho'tkalar **to'xtovsiz** harakatlanar va bu haydovchiga **noqulaylik** keltirib chiqarar edi.
4. 1969-yildan avtomobillar Kyorns ixtiro qilgan oynaartkichlar bilan **chiqa boshladi**.
5. Axir o'n minglab transport vositalarida endi Robert Kyorns yasagan oynaartkichdan foydalanilishi **kutilmoqda**.
6. Aksar advokatlar **bu ishda** ishtirok etishdan bosh tortishdi, kamiga, bu ishlardan charchagan turmush o'rtog'i ham uni **tashlab ketdi**.

64

Qo‘shimcha topshiriq. Lug‘at bilan ishlanadi. “Tushunchalar tahlili” usulidan foydalanib *ohanrabo, poyabzal, dasturulamal* so‘zlarining ma’nosi va imlosi izohlanadi.

Ohanrabo (forscha) – temirni tortuvchi 1) magnit; 2) *ko‘chma* o‘ziga tortuvchi, maftun etuvchi; fusunkor.

Bu so‘zni *ohangrabo* tarzida yozish xato sanaladi.

Poyabzal (forscha) – oyoq kiyimi, oyoq jihozi. Bu so‘zni *poyafzal* tarzida qo‘llash xato hisoblanadi.

Dasturilamal (forscha – *yo‘l-yo‘riq, yo‘riqnoma, ko‘rsatma*) 1) yo‘l-yo‘riq, ishonchli yo‘llanma; 2) nizom, ustav.

Bu so‘zni ba’zan *dasturulamal* tarzida ham qo‘llashadi.

IV. Uyga vazifa berish.

Uyga shunday vazifa berish mumkin: *“Har bir odamning orzu-istaklari bor. Ixtirochilik qobiliyati esa kimdadir yashirin, kimdadir oshkora namoyon bo‘ladi. Siz qanday ixtiro qilishni xohlar edingiz? Unga mualliflik huquqini olish uchun harakat qilarmidingiz? Shu haqida kichik matn tayyorlab keling”.*

V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilarga nazorat ishiga alohida tayyorgarlik ko‘rish uqtiriladi.

MEN VA BOSHQALAR

19-dars


Darsning maqsadi. O‘quvchilarda nutqda birliklardan oqilona foydalanish, nutqning sofligini buzuvchi birliklardan foydalanmaslik hamda “shaxs meni” tushunchasining mazmun-mohiyatini anglash ko‘nikmasini shakllantirish; o‘rganilayotgan nutqiy vaziyatda o‘zini qanday tutish, qanday til birliklaridan foydalanish kerakligini o‘rgatish; yaxlit bo‘lmagan matnni o‘qib tushunish, talqin qilish, baho berish va unga og‘zaki yoki yozma tarzda munosabat bildirish layoqatini shakllantirish; nutqning sofligini buzuvchi birliklar haqidagi bilimlarni rivojlantirish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.



19.1-mashq. Quyidagi gaplarda “men” so‘zi qanday ma’noda kelganini aniqlang. Uni qaysi so‘z bilan alishtirish mumkin?

1. Har bir inson o‘z “men”ini topishi kerak.
2. Saidni raqiblari emas, “men”i halok qildi.
3. Gapingga kirmasa, menga ayt: aqlini kiritib qo‘yaman.
4. – Olimov.
   – Kasal ekan, – dedi kimdir.
   – Hasanova.
   – Men, – dedim qo‘limni ko‘tarib.

NUTQ SOFLIGINI BUZUVCHI BIRLIKLAR

Jamiyatning har bir vakili davlat tilini bilishi lozim. Biz nafaqat o‘zbek tilidagi nutqni tushunishimiz, balki sof adabiy tilda so‘zlay olishimiz ham kerak. Quyida adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi vositalarga misollar berilgan:

1. Man amaqimni himoya qimimanmi? *(sheva so‘zlari)*
2. Ikkala avtomobilni ham “shapka”siz oldim. *(ko‘cha so‘zlari, jargon)*
3. Endi foydasi yo‘q, uje kech qoldik. *(varvarizm)*
4. Menga qara, megajin, bu yerga hiding ham kelmasin. *(vulgarizm)*

Nutqning sofligiga putur yetkazuvchi vositalardan adiblar badiiy asar qahramonining hududiy tegishliligini, xulq-atvorini, madaniy saviyasini haqqoniy ko‘rsatish maqsadida foydalanishadi. Shuningdek, ommabop matnlarda varvarizmlar ta’sirchanlikni oshirish uchun qo‘llanadi. Bunda ular qo‘shtirnoq ichida beriladi.

67

19.2-mashq. Nutq sofligini buzuvchi birliklarga misollar yozing.

1. Sheva so‘zlari:
2. Jargon so‘zlari:
3. Varvarizmlar:
4. Vulgarizmlar:

Qadrli o‘qituvchi, o‘quvchilaringizga quyidagi savolni bering va javoblarini eshiting. Fikrlarini bo‘lmang hamda ularni dars muhitiga olib kiring.

1. Shaxs “men”i deganda nimani tushunasiz? Fikrlaringizni og‘zaki bayon eting.

2. Inson o‘z “men”ini hammadan ustun qo‘yishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?


Topshiriq. Quyida rasmi keltirilgan tarixiy shaxslar haqida nimalarni bilasiz? Bilganingizni sinfdoshlar bilan o‘rtoqlashing.

Ushbu topshiriq maqsadi – o‘quvchilarda bir umumiy mazmun ifodalangan turli matnlarni tushunish, mazmuniy bog‘liqlikni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ushbu topshiriqda o‘quvchilar berilgan she’riy matnlarni diqqat bilan o‘qib chiqib, undagi qahramonlarning umumiy tomonini topishlari lozim.

Ularning umumiy tomoni – xudbinligi, faqat o‘z manfaatini o‘ylashi.

O‘quvchilarga **19.1-mashq** bajartiriladi, berilgan gaplardagi **men** so‘zining ma’nosini izohlash so‘raladi.

Ushbu mashq maqsadi – o‘quvchilarda “men” so‘zining turli ma’nolarini tushunish, farqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.



Mantiq vaqti

1943-yili yurtimizda misli ko'rilmagan qashshoqlik hukm surdi. Xalq to'yib ovqatlana olmas edi. Bir yoqda urush. Urushga bormaganlar bor-budini frontga jo'natayotgan paytlar.

Yaqindagina o'g'lonini frontga jo'natgan 10-15 oila ayollari bir xonadonga yig'ilib o'zlarini biroz ovutgan bo'lishardi. Boshqalar o'z uyida, bu 10-15 oila esa bir xonadonda farzandlari haqiga duo qilish uchun to'planishar edi.

Doim yig'inlarga mezbon bo'ladigan oila xonadonida 10-15 ta oila uchun aziz bir narsa bor edi. O'sha narsani bir necha so'z bilan aytib bering.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. "O'zim haqimda" nomli nutq tayyorlang.

Nutqingiz kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'lishiga, nutqning sofligiga putur yetkazuvchi vositalardan xoli chiqishiga erishing.

Og'zaki matnda qiziqishlaringiz, boshqalardan farq qiluvchi jihatlaringiz, hozirga qadar sinfdoshlaringiz bilmaydigan tomoningiz yoritilishi mumkin. O'zingizga nisbatan tanqidiy munosabatingiz aks etishi ham maqsadga muvofiq.

Tavsiya etiladigan vaqt: 2 daqiqa.

1. *Har bir inson o'z* ***"men"ini*** *topishi kerak.*

Meni – o'zligi, asliyati.

2. *Saidni raqiblari emas,* ***"men"i*** *halok qildi.*

Meni – xudbinligi, egoistligi.

3. *Gapingga kirmasa,* ***menga*** *ayt: aqlini kiritib qo'yaman.*

Menga – o'zimga (ta'kid ma'nosida).

4. *– Olimov.*

– Kasal ekan, – dedi kimdir.

– Hasanova.

– ***Men,*** *– dedim qo'limni ko'tarib.*

Men – so'zlovchi birinchi shaxs (kishilik olmoshi).

Bilim berish.

"Nutqning sofligini buzuvchi birliklar" mavzusi turli metodlardan foydalanib tushuntiriladi.

O'quvchilarga **19.2-mashq** bajartiriladi. Ushbu mashq maqsadi – o'quvchilar nutqini nazorat qilish, ularda jonli nutq sofligini buzuvchi birliklarda tiyilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ushbu mashqda o'quvchidan jonli nutq sofligini buzuvchi birliklarga misollar yozish so'raladi.

1. Sheva so'zlari: ...

2. Jargon so'zlari: ...

3. Varvarizmlar: ...

4. Vulgarizmlar: ...

O'quvchilardan **"Mantiq vaqti"** ruknida berilgan topshiriqni bajarish so'raladi. Ushbu topshiriq maqsadi – o'quvchilarning mantiqiy mushohadasini, tushunish qobiliyatini rivojlantirish.

Javob: *10–15 ta oila o'g'lonlari tishlagan non o'sha xonadonda osig'liq turardi.*

Izoh. *Qashshoqlik hukm surgan, deyildi. Hatto urushga otlangan o'g'longa tishlatish uchun non ham yo'q edi. Qaysi oilada non topilsa, hamma shu nonni tishlagan va o'sha non saqlanadigan xonadonga ayollar yig'ilishgan.*

IV. Uyga vazifa berish.

"Mustaqil bajaraman" rukni ostida uyga topshiriq berilgan. "O'zim haqimda" nomli nutq tayyorlang.

Nutqingiz kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'lishiga, nutqning sofligiga putur yetkazuvchi vositalardan xoli chiqishiga erishing.

Og‘zaki matnda qiziqishlaringiz, boshqalardan farq qiluvchi jihatlaringiz, hozirga qadar sinfdoshlaringiz bilmaydigan tomoningiz yoritilishi mumkin. O‘zingizga nisbatan tanqidiy munosabatingiz aks etishi ham maqsadga muvofiq.


Tavsiya etiladigan vaqt: 2 daqiqa.

V. Darsni yakunlash.

Darsda nimalarni o‘rgandik? Bu qismda o‘quvchilardan **19-darsda** qanday lingvistik bilimlarga ega bo‘lganlari hamda qaysi tushunchaning mazmun-mohiyatini o‘zlashtirganlari so‘raladi va javoblar umumlashtiriladi.

20-dars

Darsning maqsadi. Nutqda kirish va kiritmalardan o‘rinli foydalanish; o‘rganilayotgan nutqiy vaziyatda o‘zini qanday tutish, qanday til birliklaridan foydalanish kerakligi bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish; yaxlit matnni o‘qib tushunish, talqin qilish, baho berish va nutqiy vaziyatga munosabatini og‘zaki yoki yozma bayon etish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash; birliklarning ma’nolarini tushunish, ularni o‘rinli qo‘llash, kirish va kiritmalar haqidagi bilimlarni rivojlantirish.



20.1-mashq. Testlarni bajaring.

1-test. Matnda xalqning eng katta boyligi sifatida nima ko‘rsatiladi?	
A	milliy madaniyat
B	ijtimoiy tenglik
C	yosh avlod
D	bobolar merosi

2-test. Ommaviy madaniyat janridagi ijodiy asarlarda axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik targ‘ib qilinishining sababi nima?	
A	shu asar savdosi orqali ko‘proq daromadga ega bo‘lish
B	buni o‘zlariga xos uslub sifatida ko‘rsatishga urinish
C	tanqid va taqiqlar ortidan mashhurlikka erishish istagi
D	asarni yaratishga sarflanadigan mablag‘ni tejashga harakat

20.2-mashq. Mavzu doirasida quyidagi savollarga javob bering.

1. Yurtimiz yoshlari orasida ham “ommaviy madaniyat” ta’siriga tushib qolayotganlar bormi?
2. “Ommaviy madaniyat” qanday ko‘rinishlarda qadriyatlarimizga ta’sir qiladi?
3. Yoshlarning bu illatlar domiga tushib qolmasligi uchun qanday choralar ko‘rish kerak deb o‘ylaysiz?

70

Menimcha...

Ayrimlar *“ommaviy madaniyat”* tushunchasi noto‘g‘ri nomlanganini, uni *olomon madaniyati* deyish to‘g‘ri ekanini aytishadi. Bu ikki birikmani til nuqtayi nazaridan o‘qituvchingiz bilan birgalikda tahlil qiling. Shu qarashga munosabat bildiring.

KIRISHLAR VA KIRITMALARNING QO‘LLANISHI

Kirishlar gapda muallifning fikrga munosabatini ko‘rsatadi. Fikrga taxmin, ishonch, tasdiq, inkor, hayrat kabi munosabatlarni ifodalaydigan, shuningdek, fikrning tartibi, dalillanishi, xulosalanishini ko‘rsatadigan kirishlar mavjud. Doim vergul bilan ajratiluvchi bu birliklardan to‘g‘ri foydalanish jumlaning ta’sirchanligini oshiradi.

Misollar:

1. Bizga turli xil takliflar bilan chiqishdi, **tabiiyki**, hammasini rad etdik.

2. Sinfdoshlarimga, **xususan**, Anvar va Nozimaga o‘z minnatdorchiligimni bildirib qolaman.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.


O‘quvchilarga quyidagi savolni bering va fikrlarini eshiting.

Ommaviy madaniyat deganda nimani tushunasiz? Fikrlaringizni og‘zaki bayon eting.

O‘quvchilardan matnni diqqat bilan o‘qib chiqish talab etiladi. Ajratib ko‘rsatilgan birliklar ma’nosiga diqqat qilish so‘raladi. Ushbu topshiriq maqsadi – o‘quvchilarda matndagi birliklar ma’nosi va vazifasini, matnda yashirin ifodalangan ma’lumotni, matn qismlarini, matning umumiy ma’nosini tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

O‘quvchilarga **20.1-mashq** bajartiriladi, testlarning to‘g‘ri javobi toptiriladi.



20.1-mashq. Testlarni bajaring.

1-test. Matnda xalqning eng katta boyligi sifatida nima ko‘rsatiladi?	
A	milliy madaniyat
B	ijtimoiy tenglik
C	yosh avlod
D	bobolar merosi

2-test. Ommaviy madaniyat janridagi ijodiy asarlarda axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik targ‘ib qilinishining sababi nima?	
A	shu asar savdosi orqali ko‘proq daromadga ega bo‘lish
B	buni o‘zlariga xos uslub sifatida ko‘rsatishga urinish
C	tanqid va taqiqlar ortidan mashhurlikka erishish istagi
D	asarni yaratishga sarflanadigan mablag‘ni tejashga harakat

20.2-mashq. Mavzu doirasida quyidagi savollarga javob bering.

1. Yurtimiz yoshlari orasida ham “ommaviy madaniyat” ta’siriga tushib qolayotganlar bormi?
2. “Ommaviy madaniyat” qanday ko‘rinishlarda qadriyatlarimizga ta’sir qiladi?
3. Yoshlarning bu illatlar domiga tushib qolmasligi uchun qanday choralar ko‘rish kerak deb o‘ylaysiz?

70

Menimcha...

Ayrimlar *“ommaviy madaniyat”* tushunchasi noto‘g‘ri nomlanganini, uni *olomon madaniyati* deyish to‘g‘ri ekanini aytishadi. Bu ikki birikmani til nuqtayi nazaridan o‘qituvchingiz bilan birgalikda tahlil qiling. Shu qarashga munosabat bildiring.

KIRISHLAR VA KIRITMALARNING QO‘LLANISHI

Kirishlar gapda muallifning fikrga munosabatini ko‘rsatadi. Fikrga taxmin, ishonch, tasdiq, inkor, hayrat kabi munosabatlarni ifodalaydigan, shuningdek, fikrning tartibi, dalillanishi, xulosalanishini ko‘rsatadigan kirishlar mavjud. Doim vergul bilan ajratiluvchi bu birliklardan to‘g‘ri foydalanish jumlaning ta’sirchanligini oshiradi.

Misollar:

1. Bizga turli xil takliflar bilan chiqishdi, **tabiiyki**, hammasini rad etdik.

2. Sinfdoshlarimga, **xususan**, Anvar va Nozimaga o‘z minnatdorchiligimni bildirib qolaman.

1-test topshirig‘i matnda ochiq ifodalangan ma’lumotni tushunish, aniq ma’lumotni qidirib topa olish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan.

1-testning to‘g‘ri javobi – C.

2-test topshirig‘i matnda yashirin ifodalangan ma’lumotni tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan.

2-testning to‘g‘ri javobi – A.

O‘quvchilarga **20.2-mashq** bajartiriladi. Ushbu mashq maqsadi – o‘quvchilarda og‘zaki nutqni rivojlantirish.

Siz ushbu mashqda o‘quvchi ***fikrini asosli ifoda eta olishi yoki eta olmasligiga va adabiy tilda bayon qilish darajasiga*** baho berasiz.

Quyidagi savollarga og‘zaki javob berish talab etiladi.

1. Yurtimiz yoshlari orasida ham “ommaviy madaniyat” ta’siriga tushib qolayotganlar bormi? Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

O‘quvchilar o‘z tengqurlari orasida “ommaviy madaniyat” iskanjasiga tushib qolgan yoshlar haqida va buning sababi to‘g‘risida mulohazalarini adabiy tilda og‘zaki tarzda bayon etadilar.

2. “Ommaviy madaniyat” qanday ko‘rinishlarda qadriyatlarimizga ta’sir qiladi?

O‘quvchilar “ommaviy madaniyat”ning qadriyatlarimizga ta’siri haqida o‘ylab ko‘radilar va fikrlarini adabiy tilda og‘zaki tarzda bildiradilar.

3. Yoshlarning bu illatlar domiga tushib qolmasligi uchun qanday choralar ko‘rish kerak deb o‘ylaysiz?

O‘quvchilar yoshlar “ommaviy madaniyat” qurboni bo‘lib qolmasligi uchun o‘z yechimlarini taqdim etadilar. Fikrlarini dalillarga tayanib, adabiy tilda og‘zaki bayon etadilar.

Birgalikda bajaramiz. O‘quvchilar o‘qituvchisi bilan birgalikda **“Menimcha...”** ruknidagi topshiriqni bajarishadi. Ushbu topshiriq maqsadi – o‘quvchilarda mantiqiy mushohadani rivojlantirish, til birliklari ifoda imkoniyatlarini farqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Bunda tilning ifoda imkoniyati haqida mushohada yuritishadi. “Ommaviy madaniyat” tushunchasi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri nomlangani haqida mulohaza yuritadilar. Balki, bu tushunchani “olomon madaniyati” deb atash to‘g‘ri bo‘lishini o‘ylab ko‘rishadi.

Bilim berish.

“Kirishlar va kiritmalar” mavzusi turli metodlardan foydalanib, kontekst orqali tushuntiriladi.

O‘quvchilarga **20.3-mashq** bajartiriladi. Ushbu mashq maqsadi – o‘quvchilarda kirish va kiritmalarning kontekstdagi ma’no-mazmunini anglash, farqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Siz ushbu mashqda o‘quvchidan matnda qo‘llangan kirishlarning ma’nosini tushganini so‘raysiz.

Bundan tashqari – *fikrga ishonch ma’nosini beradi.*
Xususan – *fikrni dalillash ma’nosini beradi.*
Albatta – *fikrga ishonch ma’nosini beradi.*
Demak – *fikrni xulosalash ma’nosini beradi.*

O‘quvchilarga **20.4-mashq** bajartiriladi. Bu topshiriq orqali ularda kirish birliklardan nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasi rivojlantiriladi. Topshiriq quyidagicha davom ettiriladi.

*1. **Darhaqiqat,** “Ilhaq” filmi xalqaro maydonda ham yaxshi kutib olindi.*

O‘quvchilar **“Til sandig‘i”** rukni ostidagi matnni lug‘at daftariga ko‘chirib qo‘yishadi.

IV. Uyga vazifa berish.

Bunda o‘quvchilarga uyda **“Ommaviy madaniyat va milliylik”** mavzusida **3 daqiqalik** og‘zaki matn tayyorlash aytiladi. Matn tayyorlashda quyidagilarga e’tibor berilishi lozim:

– fikrlarni faktlarga tayanib ifodalash;
– fikrlarni tartibli ifodalash;
– og‘zaki adabiy til me’yorlariga amal qilish.

V. Darsni yakunlash.

Bu qismda o‘quvchilardan **20-darsda** qanday lingvistik bilimlarga ega bo‘lganlari hamda qaysi tushunchaning mazmun-mohiyatini o‘zlashtirganlari so‘raladi va javoblar umumlashtiriladi.

21-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish, matnda ifodalangan ma’lumotlarga nisbatan o‘z munosabatini ifodalash, berilgan mavzu yuzasidan o‘z nuqtayi nazarini bildira olish, matn qismlarini, unda qo‘llangan birliklarning ma’no va vazifalarini tushunish, matnning asosiy g‘oyasini anglash; ko‘plik qo‘shimchalarini nutqda qo‘llash kabi nutqiy va lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.
II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.
III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat etiladi:

1. Egoistlar deganda kimlarni tushunasiz? Nega ayrim insonlar egoist bo‘lishadi?
2. Nima deb o‘ylaysiz, inson o‘z “men”ini ustun qo‘yishi to‘g‘rimi? To‘g‘ri bo‘lsa, qay vaziyatda?
3. O‘z “men”ini hammadan ustun qo‘ygan insonlarning kishilar o‘rtasidagi o‘rni haqida mulohaza yuriting.

Berilgan savollar asosida suhbat tashkillashtiriladi, shundan so‘ng o‘quvchilarning e’tibori darslikda berilgan matnga qaratiladi. Matnni hamma ichida o‘qiydi, bundan tashqari, biror o‘quvchiga matnni ovoz chiqarib, ifodali o‘qish topshirig‘i beriladi.

Matn o‘qib chiqilgach, matn mazmuni bilan bog‘liq quyidagi savollar beriladi:


1. Matnning asosiy mavzusi nimadan iborat?

2. Matn manbasiga e’tibor qarating, matn mazmuni va manbasining o‘zaro bog‘liqligi nimadan iborat?

3. Matnni o‘qishdan oldingi tasavvurlaringiz hamda keyingi xulosalaringizni o‘zaro taqqoslang. Fikrlaringizni asoslashga harakat qiling.

21.1-mashq. Matn asosida berilgan test topshiriqlarni bajaring.
Testlarning to‘g‘ri javoblari:

Test tartib raqami	1	2	3	4	5
To‘g‘ri javobi	B	A	A	B	C



2-test. Fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.
Banting ham, Makleod ham ularga mukofot olib kelgan ixtiroda o'z hissalari ko'proq ekanini ta'kidlashgan.

A	To'g'ri
B	Noto'g'ri

3-test. Fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.
Banting bildirgan munosabat Makleodnikidan ko'ra keskinroq edi.

A	To'g'ri
B	Noto'g'ri

4-test. Rohatda yashash, ko'ngilxushlikni hayot mazmuni deb bilish – ...

A	egoizm
B	gedonizm
C	egosentrizm
D	altruizm

5-test. Matnning qaysi qismida Yevropadagi mavjud qadriyatlar inqirozining sababi keltirilgan?

A	1-qismda
B	2-qismda
C	3-qismda
D	4-qismda

21.2-mashq. Shaxslarga munosabatda ahamiyat berish kerak bo'lgan jihatlar mavjud. Quyidagi toifadagi odamlar bilan suhbat qurishda nimalarga e'tibor berish kerak deb hisoblaysiz?

qarshi jins vakillari | nogironligi borlar
boshqa millat vakillari | chet el fuqarolari
g'iybatchi, ig'vogar kishilar | asabi tarang, tajang kishilar

74

1-test topshirig‘ida matn asosida berilgan fikrning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekani so‘ralmoqda. Bu topshiriq maqsadi – matnda qo‘llangan vositalarga o‘quvchilar e’tiborini qaratish, ularning qo‘llanishidan ko‘zlangan maqsadni anglash ko‘nikmasini rivojlantirish.


E’tibor qaratsak, *keltirilgan fikr mutaxassislarga oid bo‘lib, ajralish uchun sudga murojaat qilganlarning* ***barchasi emas, aksariyati*** *oilaning barbod bo‘lishida boshqalarni ayblaydi.*

2-test topshirig‘ida matn asosida berilgan fikrning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekani so‘ralmoqda. Bu topshiriq maqsadi – o‘quvchilarda matnda berilgan vaziyatni tushunish, talqin qilish, matn qismlaridan to‘g‘ri xulosa chiqara olish ko‘nikmasini rivojlantirish.

E’tibor qaratsak, *Banting ham, Makleod ham nutqida qo‘lga kiritilgan yutuqda o‘zining hissasi ko‘proq ekanini urg‘ulashga harakat qilishgan.*

3-test topshirig‘ida matn asosida berilgan fikrning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekani so‘ralmoqda. Bu topshiriq maqsadi – o‘quvchilarda matnda berilgan jumlalarning vazifasini tushunish, matndagi vaziyatga to‘g‘ri baho bera olish ko‘nikmasini rivojlantirish.

E’tibor qaratsak, matnda Banting ommaviy chiqishlaridan birida laboratoriyani boshqarayotganda Makleod yordam berishdan ko‘ra ko‘proq xalaqit berganini ta’kidlagani, Makleod esa nutqida biror-bir o‘rinda sherigini tilga olmagani keltirilgan. Bu esa bizga *Banting bil-*



21.3-mashq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi egalik qo'shimchalari qanday vazifa bajarayotganini aniqlang va quyidagi guruhlarga joylashtiring.

1. Tegishlilikni bildiradigan shakllar: ...
2. Ish bajaruvchining shaxsini ko'rsatadigan shakllar: ...
3. Xoslikni ifodalovchi shakllar: ...

KO'PLIK QO'SHIMCHASINING QO'LLANISHI

Ko'plik qo'shimchasi *(-lar)* o'nga yaqin ma'noni ifodalay oladi.
Misollar:
1. Odamlar nima deydi? *(sof ko'plik)*
2. Tog'amlar keldilar. *(hurmat)*
3. Bu kishi oqsuyaklar: biz gapirsak, boshlari og'rib qoladi. *(kinoya)*
4. Bolangiz Jamshidlarnikida ekan. *(jamlash)*
5. Bu qizlardan kelgusida Nodiralar, Zulfiyalar chiqadi. *(ko'plik+o'xshatish)*
6. Boshlarim og'rib ketdi. *(kuchaytirish)*
7. Do'konga borib, suvlardan olib kel. *(ko'plik+tur)*

Sof ko'plik ma'nosi son vositasida ifodalanganda *-lar* yozilmaydi: 12 ta bola, 5–6 ta bola, o'ntacha bola kabi.

21.4-mashq. Quyidagi gaplarda ko'plik qo'shimchasi qanday vazifa bajarayotganini aniqlang.

1. Yog'lardan ko'ring, aka, yoqqanini olaverasiz.
2. Ma'ruzani eshitib uyqularim kelib ketdi.
3. Bugun iftorlikka Anvarlar kelishar ekan.
4. Biznikilar yutishadi, meni aytdi deysan.

75

Menimcha...

Savolda nazarda tutilayotgan kinoqahramon hammangizga tanish.
Unda regeneratsiya juda tez kechishini ham bilasiz.
Tabiatdagi kichik mavjudotga nisbatan qilingan kichik shafqatsizlikni ham kechirmasligidan xabardorsiz.
Uning parvozdagi halokatidan so'ng o'sha yerda ko'p narsa o'zgarib ketganiga ham g'oyibona guvohsiz.
Savol: uning ismi nima?

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zgalarning aldoviga uchragan odamlar haqida ma'lumot to'plab, og'zaki bayon qiling.

dirgan munosabati Makleodnikidan ko'ra keskinroq ekanini dalillaydi.

4-test topshirig'i maqsadi – o'quvchilarda matnda keltirilgan birlikning ma'no-mazmunini to'g'ri tushunish ko'nikmasini rivojlantirish.

E'tibor qaratsak, matnda gedonizm *"shaxs va uning xulq-atvor motivlarida birgina istak – nimadandir lazzatlanish, qoniqish olish va o'zidagi ichki ruhiy iztiroblardan xoli bo'lishga intilish ustuvorligidir"*, deya izohlanadi. Bu esa *rohatda yashash, ko'ngilxushlikni hayot mazmuni deb bilish – gedonizmdir*, deyishimizga asos bo'ladi.

5-test topshirig'ida matn qismini tushunish so'ralmoqda. Bu topshiriq maqsadi – o'quvchilarda matnni mazmuniy bloklarga ajratish, matn qismining umumiy mazmunini tushunish ko'nikmasini rivojlantirish.

E'tibor qaratsak, matn 4 qismga ajratilgan. Matning 3-qismida Patrik Byukenenning "G'arbning o'limi" kitobidan keltirilgan ma'lumotlarda Yevropadagi mavjud qadriyatlar inqirozining sababi bayon etilgan. Bu esa bizga to'g'ri javob C varianti ekanini dalillaydi.

21.2-mashq. Shaxslarga munosabatda ahamiyat berish kerak bo'lgan jihatlar mavjud. Quyidagi toifadagi odamlar bilan suhbat qurishda nimalarga e'tibor berish kerak deb hisoblaysiz?

– *qarshi jins vakillari;*
– *boshqa millat vakillari;*
– *chet el fuqarolari;*
– *nogironligi borlar;*
– *g'iybatchi, ig'vogar kishilar;*
–*asabi tarang, tajang kishilar.*

Mazkur topshiriq orqali har bir shaxs bilan muomala qilishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini albatta inobatga olish kerakligi, shunga mos leksik birliklardan foydalanish zarurligi ta'kidlanmoqda. Masalan, *g'iybatchi, ig'vogar* kishilar bilan imkon qadar qisqa muloqot qilish yoki suhbatlashmaslik, ular oldida o'zgalar haqida na ijobiy, na salbiy munosabat bildirmaslik, ig'vogarning boshqa biror-bir kishi haqida aytgan fikrini tasdiqlamaslik shart. Hattoki g'iybatchilarning o'zgalar haqida bildirgan salbiy fikriga sukut saqlab, javob qaytarmasligingiz ham sizni aybdorga, "dedi-dedilar" ostida qolishingizga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois ular bilan dildan suhbat qurish to'g'ri emas, bu suhbat sizga ortiqcha asabiylik keltirishi shubhasiz.

Demak, qadrli o'qituvchi, yuqorida keltirilganlar va boshqa toifadagi odamlar bilan muloqot qilishning o'ziga xosliklari haqidagi bilimlar bilan o'quvchingizni qurollantiring.

21.3-mashq. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi egalik qo‘shimchalari qanday vazifa bajarayotganini aniqlang va quyidagi guruhlarga joylashtiring.

Mazkur topshiriqda o‘quvchilardan egalik qo‘shimchalari kontekstda qanday ma’no anglatishi hamda vazifa bajarishi so‘ralmoqda. O‘quvchilar matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni o‘ziga tobelangan so‘z bilan o‘qib, ularning qanday vazifa bajarayotganini aniqlashadi.

Topshiriq javobi esa quyidagicha bo‘ladi:

Tegishlilikni bildiradigan shakllar	Ish bajaruvchining shaxsini ko‘rsatadigan shakllar	Xoslikni ifodalovchi shakllar
kitobida soni	kechishini kelib qolganligi gapirayotganida erishganligi	bir-birlarining xulqidan mukofotiga

Bilim berish.

“Ko‘plik qo‘shimchasining qo‘llanishi” mavzusi turli metodlardan foydalanib kontekst orqali tushuntiriladi.

21.4-mashq. Quyidagi gaplarda ko‘plik qo‘shimchasi qanday vazifa bajarayotganini aniqlang.

1. Yog‘lardan ko‘ring, aka, yoqqanini olaverasiz.

Ushbu gapda *-lar* qo‘shimchasi sanalmaydigan otlarga qo‘shilib, tur-nav, xilmaxillik ma’nosini ifodalagan. Ya’ni “Xilma-xil yog‘larni ko‘ring, yoqqanini olaverasiz”, deyilmoqda.

2. Ma’ruzani eshitib uyqularim kelib ketdi. *(kuchaytirish – Ma’ruzani eshitib juda uyqum keldi.)*

3. Bugun iftorlikka Anvarlar kelishar ekan. *(umumlashtirish – Bugun iftorlikka Anvarlar – Anvar va uning yaqinlari kelishar ekan.)*

4. Biznikilar yutishadi, meni aytdi deysan. *(kuchaytirish-ta’kidlash – Bizning jamoa aniq yutadi.)*

Birgalikda bajaramiz. O‘quvchilar o‘qituvchisi bilan birgalikda **“Menimcha...”** rukni ostidagi topshiriqni bajarishadi. Bunda mashhur kinoqahramonning o‘zgalar uchun, hatto jonivorlar uchun qayg‘urishi, jonkuyarligi, beg‘uborligi bilan bog‘liq xarakter xususiyatlari berilgan. Uning kimligini topish so‘ralmoqda.

Izoh. *Sochlari darrov o‘sib qolishi – regeneratsiya, arini o‘ldirgani uchun Raisning ketmoni uchmasligi – tabiatga kichik shafqatsizlikni ham kechirmasligi.*

Javobi: Abdullajon.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga vazifa berilgan. O‘quvchilar ijtimoiy tarmoqlarda o‘zgalarning aldoviga uchragan odamlar haqida ma’lumot to‘plab, og‘zaki matn tayyorlab kelishadi.

V. Darsni yakunlash.

O‘qituvchi berilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarning darsdan olgan fikrlarini so‘raydi. O‘quvchilarning faolligiga o‘z munosabatini bildirib, darsni yakunlaydi.

22-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish, matnda ifodalangan ma’lumotlarga nisbatan o‘z munosabatini ifodalash, berilgan mavzu yuzasidan o‘z nuqtayi nazarini bildira olish, matnning asosiy g‘oyasini anglash; ayrim so‘zlar izohi bilan tanishish, parazit so‘zlar, ularning madaniy nutq tuzishga ko‘rsatadigan ta’siri haqida ma’lumot berish, adabiy tildan foydalanish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat etiladi:

1. Ruhiyat deganda nimani tushunasiz? Ruhiy tarbiya deganda-chi?

2. Nima deb o‘ylaysiz, qanday insonlar ruhiy tarbiyaga muhtoj?

3. Ruhiyatni tarbiya qilish vositalari haqida nimalarni bilasiz?

4. Matn uchun berilgan rasmga e’tiboringizni qarating, u nima haqida bo‘lishi mumkin.


Berilgan savollar asosida suhbat tashkillashtiriladi, shundan so‘ng o‘quvchilarning e’tibori darslikdagi matnga qaratiladi. Matnni hamma ichida o‘qiydi, bundan tashqari, biror o‘quvchiga matnni ovoz chiqarib, ifodali o‘qish topshirig‘i beriladi.

Matn o‘qib chiqilgach, matn mazmuni bilan bog‘liq quyidagi savollar beriladi:

1. Matnning asosiy mavzusi nimadan iborat?

2. Matn manbasiga e’tibor qaratting, matn mazmuni va saytning o‘zaro bog‘liqligi nimadan iborat?

3. Matnni o‘qishdan oldingi tasavvurlaringiz hamda keyingi xulosalaringizni o‘zaro taqqoslang. Fikrlaringizni asoslashga harakat qiling.



22.3-mashq. Matnni o‘qing va testlarni bajaring.

Ilm egallashga harakat qilish har bir mo‘min va mo‘mina uchun farzdir. Hadisi sharifda aytilishicha, bir soatgina ilm o‘rganish bir kechalik nafl ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro‘zadan afzaldir. Ilm doim sening hamrohing bo‘lib, adashishingdan va qoqilishingdan asraydi. Ilm olish ko‘r-ko‘rona bo‘lmasligi kerak, duch kelgan narsani o‘rganaverish yaramaydi. Shu bilan birga, ilm olishga qancha erta harakat qilsang, shuncha ko‘p muvaffaqiyatga erishasan. Bir ulamo aytgan ekan: “Ilm o‘rgan, u sening yoshlik paytlaringda to‘g‘ri yurishingni ta’minlaydi. Katta bo‘lganingda buyuk shaxsga aylanishingga asosiy sababchi bo‘ladi”.

Har bir ilmning o‘z sharafi va ulug‘vorligi bor. Xoh diniy, xoh dunyoviy (kimyo, geografiya, hisob, tibbiyot kabi) bo‘lsin, hammasining o‘z o‘rni, o‘z ahamiyati bor. Barcha ilmlarni mukammal egallab olishning iloji yo‘q, shuning uchun ham eng kerakli, hayotda asqatadigan, ezgulikka xizmat qiladigan ilmlarni o‘rgangan ma’qul.

dtm.uz

79

1. Matn mazmunidan kelib chiqib, “yurishingni” so‘zining ma’nosini aniqlang.	
A	qadamlab bir joydan ikkinchi joyga jilmoq
B	kezmoq, sayohat qilmoq
C	borib kelmoq, qatnamoq
D	hayot kechirmoq, yashamoq

2. Qaysi javobda matn mazmuniga mos keladigan gap berilgan?	
A	Ilm olish uchun, albatta, oq-qoraning farqiga boradigan yoshga yetish kerak, shundan keyingina ilmni egallashning payida bo‘lish zarur
B	Ilm olishga yoshlikdan harakat qilish kerak, chunki yoshlikda olingan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir
C	Ilm o‘rgatuvchi o‘z ilmiga amal qilmasa ham, boshqalarga ilm o‘rgata olsa bas
D	Ilm olish uchun kerakli mablag‘ni qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham topa olish kerak, agar bu mablag‘ni topa olmasang, ilm olishga intilma

22.1-mashq. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriqda o‘quvchilarning berilgan jumla bilan bog‘liq mulohazalari tinglanadi hamda ularda matn mazmuni asosida o‘qib tushunish, mulohaza qilish bilan bog‘liq ko‘nikmalar shakllantiriladi. O‘quvchilar jumlaga nisbatan o‘z mulohazalarini ifodalar ekan, ularning nutqi kuzatiladi, o‘z fikrlarini bildirishda so‘z tanlash, matnda berilgan atamalardan o‘rinli foyda-

3. Matnda quyidagi qaysi fikrlar ilgari surilgan?	
1	Ilm egallash nafl ibodat qilishdan ortiq ekanligiga urg'u berilgan.
2	Matnda foydali ilmlarni egallash insonni noto'g'ri yo'llarga kirib ketishdan asrashi haqida aytilgan.
3	Inson dunyodagi barcha ilmlarni mukammal egallab olmog'i shart.
4	Matnda ilm olish ayol va erkak uchun farzdir degan g'oya ham ilgari surilgan.
A	1, 2, 4.
B	2, 3, 4
C	2, 3.
D	1, 2, 3.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. She'rni o'qing. O'zingiz va yon-atrofingizdagilar nutqida ishlatiladigan o'rinsiz birliklar ro'yxatini tuzing.

80

NUTQ HAQIDA

Har so'zida "bu", "anu",
"Haligi", "so'ng", "anaqa",
"Bu-bu" deydi – nima bu?
"Unaqa"si qanaqa?

Tiliga kelib qolgan
So'zdan qayta olmasa,
"Bu" qo'shmasdan savolga
Javob ayta olmasa.

Gohi qovushmay so'zi,
Gapidan to'xtab qolsa.
Yaxshi bilsa ham o'zi,
Zo'rg'agina "3" olsa.

O'zingiz o'ylab ko'ring,
Nima bu, qanaqasi?
Qachon qolar O'tkirning
"Nima", "bu", "anaqasi"?

Odatlanganman, deding,
To'g'ri, hamma gap shunda.
Lekin axir, o'z tiling
O'zingga bo'ysunsin-da.

To'g'ri, aniq gap tuzib,
Javob bergin so'roqqa.
Xizmat qilsin har so'zing
Fikringni to'latmoqqa.

Mazmun nomli mo'ljalga
So'z – otilgan o'q bo'lsin.
Nishonga tegmay qolgan
Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.

Do'stim O'tkirjon, buni
Yodingda tut har doim,
Otashin notig'ini
Minbarlar kutar doim.

Erkin Vohidov

lana olishlariga e'tibor qaratiladi. Kerakli tavsiyalar berib boriladi.

2-topshiriqning maqsadi matnda qo'llangan vositalarga o'quvchilar e'tiborni qaratish, ularning qo'llanishidan ko'zlangan maqsadni tushuntirish. Buning uchun o'qituvchi avval o'quvchilardan matndagi qaysi jumlalar fakt yoki dalil mazmunidagi ma'lumot ekanini so'raydi. Shundan so'ng ularning matn mazmunini yuzaga chiqarishdagi vazifasi haqida suhbat olib boriladi.

3-topshiriqda o'quvchilarning berilgan mavzuga nisbatan shaxsiy munosabati so'raladi. O'qituvchi o'quvchilarga o'z fikrlarini matnda berilgan ma'lumotlar bilan asoslash yoki bog'lash, izohlash kerakligini eslatib turishi lozim.

4-topshiriqda berilgan birliklarning mazmuni muhokama qilinadi, ushbu birliklardan qanday vaziyatda foydalanish mumkinligi haqida so'raladi.

22.2-mashq. Quyida berilgan parchalarni o'qing. Ularda yashirin ifodalangan hukm haqida o'z fikringizni og'zaki bildiring.

Berilgan parchalarning har biri alohida o'qitiladi. Har bir parcha yuzasidan alohida suhbat olib boriladi. O'qituvchi bir nechta o'quvchilarning fikrini tinglashi lozim. O'quvchilar matnda ifodalangan asosiy xulosani anglay olmasalar, qo'shimcha savollar berish orqali ularni yo'naltirib turishi tavsiya etiladi. Talabgor o'quvchilarning hammasi tinglanmaguncha o'qituvchi aytilgan fikrlarga nisbatan munosabatini ifodalamasligi lozim. O'qituvchi matn mazmuniga nisbatan o'z fikrini aytishda qat'iy hukm usulidan foydalanmasligi kerak.

O'quvchilarning e'tibori "Til sandig'i" rukniga qaratiladi.

22.3-mashq. Matnni o'qing va testlarni bajaring.

O'quvchilar matn mazmuni bilan tanishishadi. Shundan so'ng matn uchun tayyorlangan o'qib tushunishga oid topshiriqlarni bajaradilar.

1. Matn mazmunidan kelib chiqib, "yurishingni" so'zining ma'nosini aniqlang.

Ushbu testni bajarish orqali o'quvchi matnda qo'llangan ma'lum bir so'zning ma'nosini aniqlaydi, to'g'ri javobni belgilab bo'lganlaridan so'ng ayrimlaridan o'z javoblarini izohlash, noto'g'ri javoblarning nima uchun xato ekanini tushuntirib berish so'raladi.

To'g'ri javob: D.

2. Qaysi javobda matn mazmuniga mos keladigan gap berilgan?

Ushbu test topshirig'i ham o'quvchining matnni o'qib tushunish darajasini aniqlaydi, matnning mazmuniy tuzilishini tushunish (mavzuni, asosiy fikrni aniqlash, matnning maqsadini anglash) bilan bog'liq ko'nikmalar rivojlantiriladi.

To‘g‘ri javob: B.

3. Matnda quyidagi qaysi fikrlar ilgari surilgan?

Berilgan topshiriq yordamida o‘quvchilarda matn mazmuniga oid xulosalarni chiqarish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi. O‘quvchilar o‘z javoblarini izohlab berishlari mumkin.

To‘g‘ri javob: A

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan. O‘quvchilarga she’r matni bilan tanishib, o‘zi va yon-atrofdagi insonlar nutqida ishlatiladigan o‘rinsiz birliklar ro‘yxatini tuzishga oid tegishli ko‘rsatmalar beriladi.

V. Darsni yakunlash.

O‘qituvchi berilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarning darsdan olgan fikrlarini so‘raydi. O‘quvchilarning faolligiga munosabatini bildirib, darsni yakunlaydi.

23-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ishlash, ko‘chma ma’noli so‘zlar, ularning mazmuni va qo‘llanishidan ko‘zlangan maqsadni anglash; qo‘shma gaplar uslubiyati, ramziy ma’no, uning nutq ifodalashdagi o‘rni haqida ma’lumotga ega bo‘lish; rasm asosida fikrlash, o‘z fikrlarini dalillay olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Topshiriq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ko‘chma ma’nosi bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalaringizni bildiring.

Berilgan matnni o‘qish aytiladi, har bir o‘quvchi matnni alohida o‘qiydi. Ayrim o‘quvchilardan matnni ovoz chiqarib o‘qish so‘raladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning nutqini kuzatadi, o‘qish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolar belgilab olinadi. Mutolaa jarayoni tugaganidan so‘ng ushbu xatolar ustida ishlanadi.

Matn o‘qib chiqilgach, mazmuni bilan bog‘liq quyidagi savollar beriladi:

1. Matn sarlavhasi hamda mazmuni o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz?
2. Ramziy ma’no deganda nimani tushunasiz?
3. Matndan olingan quyidagi jumlani izohlang: **“E’tibor bersak, insonning hayoti ham mazkur ulfatlarning safariga o‘xshab ketadi”.**

O‘qituvchi aytilgan fikrlarni umumlashtirib, kerakli xulosalarni chiqarishga yordam beradi.

23.1-mashq. Matn asosida majoziy ma’nolardagi birliklarni o‘qituvchingiz yordamida toping va ularga mos izoh yozing.


Namuna: mehmonxona – dunyo, inson umri.

– yuqori qavat;

– 80 qavatli mehmonxona (inson yoshi);

– ko‘ngilochar tomosha;

– latifa;



23.1-mashq. Matn asosida majoziy ma'nolardagi birliklarni o'qituvchingiz yordamida toping va ularga mos izoh yozing.
Namuna: *mehmonxona – dunyo, inson umri.*

23.2-mashq. Quyidagi qo'shma gapning sinonimlarini hosil qiling va mazmunda o'zgarish sodir bo'lgan-bo'lmagani haqida so'zlang.

1. Ular daryo bo'yidagi sakson qavatli mehmonxonaning yetmish beshinchi qavatiga joylashishdi, chunki bundan pastda joy yo'q edi.

2. Xizmatchilardan liftni ishlatib berishni iltimos qilishdi, lekin foydasi bo'lmadi: lift avtomatik ravishda o'char ekan.

3. Pastda qolishning ham iloji yo'q, yetmish beshinchi qavatga zinapoya orqali piyoda chiqish esa azob.

QO'SHMA GAPLAR USLUBIYATI

Nutqda bir mazmunni har xil ifoda shakllari bilan berish mumkin. Bunda mazmunga turli ma'no bo'yoqlari yuklanadi. Shu bois ifoda shakllari nutq maqsadidan kelib chiqib tanlanadi. Masalan,

1. Zamon bilan hamnafas bo'lganlar boshqalardan bir qadam oldinda yurishadi. *(sodda gap)*

2. Zamon bilan hamnafas bo'ling, shunda boshqalardan bir qadam oldinda yurasiz. *(bog'lovchisiz qo'shma gap)*

3. Shuni bilingki, zamon bilan hamnafas bo'lganlar boshqalardan bir qadam oldinda yurishadi. *(ergash gapli qo'shma gap)*

4. Kimki zamon bilan hamnafas bo'lsa, u boshqalardan bir qadam oldinda yuradi. *(ergash gapli qo'shma gap)*

5. Zamon bilan hamnafas bo'ling va boshqalardan bir qadam oldinda yuring. *(bog'langan qo'shma gap)*

Demak, nutqda bog'langan, ergashgan hamda bog'lovchisiz qo'shma gaplar o'zaro ma'nodosh bo'lishi mumkin. Fikr ergash gapli qo'shma gaplar bilan ifodalanganda esa mazmun ta'sirli, bo'yoqdor bo'ladi.

23.3-mashq. Berilgan gaplarni qo'shma gapning turli shakllari orqali yozma ifodalang.
1. Yoshlikdagi xato ham foydadan xoli emas, faqat uni to qariguncha sudrab yurmasak bo'lgani. *(Gyote)*
2. Siz kim bilandir bahslashib, g'olib chiqishingiz mumkindir, lekin hech qachon o'sha insonning xayrixohligiga erisha olmaysiz. *(B. Franklin)*
3. Qadam tashlang, yo'l o'z-o'zidan paydo bo'ladi. *(S. Jobs)*
4. O'z xatosini tan olish shunday sifatki, nafsda xokisorlik kuchayib, kibr kuchsizlanadi. *(Bahouddin Naqshband)*

82

– jiddiy voqealar;

–"kalit pastda qolib ketdi" kabi birliklarga o'quvchilar e'tibori qaratiladi.

O'quvchilar ushbu birliklarga mos keluvchi izohlarni berishlari, ularni inson hayotining kechishi bilan bog'lagan holatda tushuntirishga harakat qilishlari kerak.

Yozuvchining matnni yaratishdan maqsadi haqida so'z boradi, o'quvchilar hikoyadan chiqarilgan umumiy xulosa haqida gapiradilar. Hikoya mazmuni asosida o'z hayotlarini tahlil qilib ko'rish so'raladi.

23.2-mashq. Quyidagi qo'shma gapning sinonimlarini hosil qiling va mazmunda o'zgarish sodir bo'lgan-bo'lmagani haqida so'zlang.

Topshiriqni bajarish orqali qo'shma gaplar, ularning uslubiyati bilan bog'liq bilimlar mustahkamlanadi, qo'shma gapni bog'lovchi vositalar, ularning qo'llanishi va vazifalari o'rtasidagi farq haqida so'z boradi.

Namuna:

1. Ular daryo bo'yidagi sakson qavatli mehmonxonaning yetmish beshinchi qavatiga joylashishdi, bunga sabab bundan pastda joy yo'q edi.

Daryo bo'yidagi sakson qavatli mehmonxonaning pastki qavatlarida joy yo'q edi, shuning uchun ular yetmish beshinchi qavatga joylashishdi.

2. Xizmatchilardan liftni ishlatib berishni iltimos qilishdi, biroq foydasi bo'lmadi, chunki lift avtomatik ravishda o'char ekan.

Lift avtomatik ravishda o'char ekan, shuning uchun iltimoslarga qaramay, xizmatchilar uni ishlatib bera olishmadi.

3. Pastda qolishning ham iloji yo'q, biroq yetmish beshinchi qavatga zinapoya orqali piyoda chiqish ham azob.

Yetmish beshinchi qavatga zinapoya orqali piyoda chiqish azob, pastda qolishning esa iloji yo'q.

Bilim berish.

"Qo'shma gaplar uslubiyati" mavzusi turli metodlardan foydalanib tushuntiriladi.

Qo'shma gaplar uslubiyati haqida quyidagi nazariy ma'lumot beriladi. Keltirilgan misollar, sodda gaplarni o'zaro bog'layotgan vositalarga e'tibor qaratiladi. Ergash gap hamda sodda gap mazmuni o'rtasidagi farq haqida suhbat olib boriladi.

23.3-mashq. Berilgan gaplarni qo'shma gapning turli shakllari orqali yozma ifodalang.

Olingan nazariy ma'lumot asosida topshiriq bajariladi. O'qituvchi gaplardan biri misolida topshiriqni bajarish yo'lini namuna sifatida ko'rsatib berishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilar tuzilgan gap aynan qo'shma gapning keltirilgan turidan boshqa turiga oid ekaniga e'tibor qaratishi lozim.



Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Matnni o'qing. Unga sarlavha toping. Matnda yashiringan ramzlarni aniqlab, o'z xulosangizni yozing.

Zulqarnayn yarim kecha o'z qo'shini bilan bir g'or yonidan o'tib borar ekan, "Oyog'ingiz ostida uchragan narsalardan olib keting", – deya amr qildi. Qo'shindagilardan bir guruhi: "Ko'p yurdik, juda charchaganmiz, endi kechasi bilan oyog'imiz ostidagi narsalarni ham yig'amizmi?" – deb hech nima olmadilar. Ikkinchi bir guruh: "Qo'mondonimiz aytgan ekan, biroz to'play qolaylik, buyruqqa qarshi chiqmaylik", – deb ozgina narsa oldilar. Uchinchi guruh esa: "Qo'mondon bejiz bunday demadi, bunda qandaydir hikmat bo'lishi kerak", – deya to'rvalarini qo'lga ilingan narsalar bilan to'ldirdilar.

Kun yorishganda qarasalarki, oltin konidan o'tishgan ekan. Oyoqlariga teggan narsalar oltin ekan. Buni bilganlarida esa hech narsa olmagan birinchi guruh: "Eh, nega olmadik-a! Nega qo'mondonimizning gapiga kirmadik? Bitta bo'lsa ham olsaydik", – deb pushaymon bo'ldilar. Ozgina olgan ikkinchi guruhdagilar: "Eh, yana ozgina olsak edi. Cho'ntaklarimizni, xaltalarimizni to'ldirsak bo'lar ekan",– deb qolishdi. Ko'p olgan uchinchi guruh esa: "Koshki keraksiz narsalarimizni tashlab yuborsaydik, hamma narsalarimizni tilla bilan to'ldirsaydik. Bundan ham ko'proq olib qolsaydik..." – deya xafa edilar.

Hikmat

Qanoat qo'rg'ondir – u yerga kirsang, nafs yomonligidan qutulasan; yuksaklikdir – unga ko'tarilsang, dushman va do'stga qaramlikdan xalos bo'lasan.

Alisher Navoiy

84

Namuna: *1. Yoshlikdagi xato ham foydadan xoli emas, faqat uni to qariguncha sudrab yurmasak bo'lgani. – Yoshlikdagi xato ham foydadan xoli emas, biroq uni qariguncha sudrab yurmaslik kerak.*

O'quvchilarning e'tibori "Til sandig'i" rukniga qaratiladi.

23.4-mashq. Rasmni tomosha qiling. "Aslida" tushunchasiga munosabat bildiring.

Darslikda keltirilgan rasm o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qilinadi. Unda ifodalangan ramziy ma'no, hayotiy haqiqat yoki chiqarish mumkin bo'lgan xulosalar haqida so'z boradi. O'quvchilar fikr bildirishda rasmda berilgan elementlarning har biri qanday ramziy ma'noni ifodalay olishi haqida gapiradilar. O'z nutqlarini "aslida" tushunchasi orqali ifodalashlari so'raladi.

IV. Uyga vazifa.

"Mustaqil bajaraman" rukni ostida uyga vazifa berilgan.

Topshiriq. Matnni o'qing. Unga sarlavha toping. Matnda yashiringan ramzlarni aniqlab, o'z xulosangizni yozing.

O'quvchilar matn bilan tanishadilar, matn mazmuni asosida uning ramziy ma'nosi haqida fikr yuritadilar. Ramziy ma'nodagi tushunchalarni daftarga alohida yozish aytiladi. Bundan tashqari o'quvchilar ushbu matn asosida chiqargan xulosalarini ham yozib kelishlari kerak.


V. Darsni yakunlash.

O'qituvchi berilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning darsdan olgan fikrlarini so'raydi. O'quvchilarning darsdagi faolligiga munosabat bildiradi, ayrim o'quvchilarni faollashtirish maqsadida uyda bajarib kelishlari uchun yakka tartibda qo'shimcha topshiriq berishi mumkin. Dars haqidagi umumiy xulosalar aytiladi hamda dars yakunlanadi.

24-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish, hikoya mazmuniga mos xulosalar chiqara olish; gap bo‘laklarining odatdagi va o‘zgargan tartibi haqida ma’lumot berish, ularni o‘zgartirishdan ko‘zlangan maqsadni anglash ustida ishlash, o‘z fikrini dalillay olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash.

Dars jarayoni



24.2-mashq. “Aldanib qolma!” matnidan gap bo‘laklari tartibi o‘zgargan jumla(lar)ni aniqlab, daftaringizga yozing. Odatdagi tartibga aylantirib ko‘ring va ma’noda qanday o‘zgarish yuz berganini izohlang.

GAP BO‘LAKLARI TARTIBI

Gap bo‘laklari tartibi ikki xil bo‘ladi: a) odatdagi tartib; b) o‘zgargan tartib.

Odatdagi tartibda ega (o‘z aniqlovchisi bilan) oldin, kesim gapning oxirida keladi: *Go‘zal xulq va boshqalarga yaxshilik qilish, farzandlarga yaxshi o‘rnak bo‘la olish saodat saroyining kalitidir. (Tohir Malik)*

O‘zgargan tartibda (bu inversiya ham deyiladi) bu qoida amal qilmaydi. Gap bo‘laklarining odatdagi o‘rni almashtirib berilishi nasrga nisbatan ko‘proq she’riyatda uchraydi. Bunda ijodkor ma’lum so‘zlarni ta’kidlash, ularning ta’sirchanligini oshirish maqsadida, bundan tashqari she’riyat talabi bilan so‘zlarning o‘rnini almashtiradi:

Ko‘pkariga kirganning
Halollik erur dardi. (Abdulla Oripov)

24.3-mashq. Berilgan gaplarni odatdagi tartib bo‘yicha yozing. Ularga javob berishga urinib ko‘ring.

1. Tatiydimi sizga shpargalka yordamida osongina olingan "5" baho?
2. Yerdan topib olgan pulni uch marta "Kimniki?" deb qo‘yib, sekingina cho‘ntakka "urib" ketgan tanishingizga berganmisiz tanbeh?
3. Halolmi, haromni ikki yaqiningizni yarashtirish uchun yolg‘on so‘zlaganlaringiz?
4. Olg‘irlik va ustomonlik bilan musobaqada qo‘lga kiritilgan g‘alabadan tinch uxlay olasizmi vijdoningiz qiynalmay?

86

24.4-mashq. Berilgan fikrni o‘qing. Unga o‘z munosabatingizni ikki-uch jumlada og‘zaki bildiring.

“Halol!” Kurashda raqibining ikki yelkasini hech qanday g‘irrom ishlatmasdan yerga tekkazgan polvonlar uchun, aslida, eng oliy mukofot shu birgina so‘z. “Halol” – bellashayotgan mardning ori, nomusi, g‘ururi. Hamma polvonlar shu kalomni eshitish orzusida maydonga tushadilar. “Halol” uchun kurashadilar.

Aslida, hayotning o‘zi kurash maydoni. Unda faqat mardlargina bo‘lmasligi aniq. Ushbu maydonda “halol lafz”, “halol luqma” degan tushunchalar ham bor. Lafzi, luqmasi halol bo‘lganlar yutqazmaydilar. O‘ylab ko‘ring-chi, siz necha marta g‘alaba qozongansiz?

Behzod Fazliddin

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Topshiriq. Matnni o‘qing. Hayotda shu kabi voqealarni ko‘rgan yo eshitganmisiz?

O‘quvchilar darslikda berilgan “Aldanib qolma!” matni bilan tanishtiriladi.

Matn mazmunini muhokama qilish uchun quyidagi savollar asosida suhbat olib boriladi.

1. Dastlabki tasavvurlaringiz asosida dehqon yo‘ldan o‘tib ketayotgan odamga “Aldanib qolma” deganida nimani nazarda tutyapti deb o‘ylaganingiz haqida gapiring.

2. Hikoyadagi dehqon qanday odam?

3. Notanish odamni o‘z so‘zlaringiz bilan ta’riflang, uning harakatlarini qanday baholash mumkin?

4. Atrofingizda ham shunday voqealar sodir bo‘lganiga guvohmisiz? Bunday holatga sizning munosabatingiz qanday?

24.1-mashq. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz? Quyidagi maqollardan qay bir(lar)i sizning xulosangizga mos keladi?

O‘qituvchi yuqoridagi suhbat asosida o‘quvchilardan qanday xulosa chiqarganlarini so‘raydi. Buning uchun o‘qituvchi mashqda keltirilgan xulosalarning har birini tahlil qilishni aytadi. Ushbu xulosalar qaysi maqollarga mos kelishi haqida suhbat olib boradi. Maqollarning xulosalarga mosligini aniqlash uchun yordam sifatida maqol mazmunini to‘g‘ri tushunishga oid qisqa ko‘rsatmalar berish mumkin. Berilgan mashq orqali o‘quvchilarda matn mazmunini anglash, matn mazmuni asosida kerakli xulosalarni chiqara olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Matnni o'qing. Unga matn mazmunidan kelib chiqib sarlavha toping.





1943-yilning 10-iyunida mojar jurnalisti Laslo Biro o'zining sharikli ruchkasiga patent oldi. Shu yili London dizayn muzeyiga tashrif buyuruvchilar mazkur yangilikni arzon narxi hamda katta qulayliklarga ega bo'lgani uchun dunyoning eng buyuk kashfiyoti deb tan oldilar, ammo bundan Biro emas, balki uddaburon tijoratchi katta foyda ko'rdi.

Kunlardan birida Argentinada aylanib yurgan amerikalik tijoratchi Milton Reynolds oddiy, ammo adolatsiz usulni qo'llab, Biro va "Eversharp"dan sharikli ruchkani yaratish texnologiyasini o'g'irlab ketdi. U ko'chadagi rastalardan bir nechta avtoruchka sotib oldi. Ish tajribasi Reynoldsga qo'lidagi kichkinagina va arzon narsa orqasidan katta miqdordagi daromad topish mumkinligini aytib turardi. "Qaynar qozon"dan tashrif buyurgan ayyor biznesmen mazkur mahsulot bor-yo'g'i ikki davlatda sotilishini bilib oldi. Dunyodagi eng katta bozorlarga ega bo'lgan AQSHdagi holat u uchun begona emasdi. Sharikli ruchkani "yankilar yurti"da o'z nomiga patentlashga erishgach, mahsulotni katta miqdorda ishlab chiqarishga kirishdi. Tez vaqt ichida u katta muvaffaqiyatga erishdi. Nyu York shahridagi "Jimbela" do'konida bir kunda 10 mingta avtoruchka sotilardi. Amerikalik tijoratchi xaridorlarni dastlab "Suv ostida yoza oladigan ruchkalardan oling!" shiori bilan o'ziga jalb etgani ham qiziq.

O'g'irlangan g'oya tufayli janob Milton Reynolds millionerga aylandi. Biro esa uni patentga egalik qilish huquqidan mahrum etish uchun sudga bergan bo'lsa-da, yakunda mag'lubiyatga uchradi.

Yevropalik jurnalist-kashfiyotchi xafa bo'lgani aniq. Uning mahsuloti esa "millionerlarni yaratish"ni an'anaga aylantirdi. 1958-yili fransuz Marsel Bik "BIC" nomli ruchka modellarini ishlab chiqarishga kirishdi. Bugungi kunda shu nomdagi korporatsiya AQSHdagi sharikli ruchka bozorining uchdan birini nazorat qiladi.

Nima bo'lganda ham, ruchkalar jamiyatning har bir voyaga yetgan vakili uchun hali uzoq vaqt eng yaqin yordamchilaridan biri bo'lib qoladi.

Saidjon Maxsumov,
ziyouz.com

87

24.2-mashq. "Aldanib qolma!" matnidan gap bo'laklari tartibi o'zgargan jumla(lar)ni aniqlab, daftaringizga yozing. Odatdagi tartibga aylantirib ko'ring va ma'noda qanday o'zgarish yuz berganini izohlang.

Gap bo'laklari va ularning tartibi bilan bog'liq nazariy bilimlar yodga solinadi, muayyan qoidalar asosida mashq bajariladi. Matn tarkibidan quyidagi gaplar ajratib olinadi va muhokama qilinadi. Muhokama so'ngida o'quvchilar gap bo'laklarining o'zgargan tartibi, ularni o'zgartirishdan ko'zlangan maqsadni tushunib olishlariga imkon berish kerak.

Yechim:

– Oldingmi yem? – so'rabdi dehqon.

Aslida: *– Yemni oldingmi? – deb so'rabdi dehqon.* (Ta'kidlash ma'nosi)

Aldashni eplaydigan odam emas ekan-ku o'sha baqqol, bir joyda mudrab o'tiribdi. Qaytaga bopladim uni! – O'sha baqqol aldashni eplaydigan odam emas ekan-ku, bir joyda mudrab o'tiribdi. (Ta'kidlash ma'nosi)

O'qituvchi mashq bajarilgandan so'ng o'quvchilarning e'tiborini darslikda berilgan gap bo'laklarining tartibi bilan bog'liq nazariy ma'lumotga qaratadi.

Bilim berish.

"Gap bo'laklari tartibi" mavzusi turli metodlardan foydalanib tushuntiriladi.

Qoida va yuqoridagi matnda berilgan gaplar orqali inversiya hodisasining amaliy ahamiyatini tushuntirib berishga harakat qilinadi.

24.3-mashq. Berilgan gaplarni odatdagi tartib bo'yicha yozing. Ularga javob berishga urinib ko'ring.

O'rganilgan qoida asosida bilimlarni amaliy jihatdan sinab ko'rish maqsadida berilgan gaplar odatdagi tartib bo'yicha yozdiriladi. Ularning shakli va mazmuni o'zaro taqqoslanadi, o'zgargan tartibdan ko'zlangan maqsad haqida so'z boradi.

Yechim:

1. Sizga shpargalka yordamida osongina olingan "5" baho tatiydimi?

2. Yerdan topib olingan pulni uch marta "Kimniki?" deb qo'yib, sekingina cho'ntakka "urib" ketgan tanishingizga tanbeh berganmisiz?

3. Ikki yaqiningizni yarashtirish uchun yolg‘on so‘zlaganlaringiz to‘g‘rimi, to‘g‘rimi?

4. Olg‘irlik va ustomonlik bilan musobaqada qo‘lga kiritilgan g‘alabadan vijdoningiz qiynalmay tinch uxlay olasizmi?

Topshiriq so‘ngida o‘qituvchi o‘quvchilarga odatdagi tartibda tuzilgan gaplarni berib, ulardagi qaysidir bir bo‘lakni alohida ta’kidlash yoki izohlash uchun gap bo‘laklari tartibini o‘zgartirishni so‘rashi mumkin.

Namuna:

– Nahot, shu do‘stingning bir og‘iz achchiq gapi seni shunchalar xafa qilgan bo‘lsa? – Nahot, xafa qilgan bo‘lsa seni shunchalar shu do‘stingning bir og‘iz achchiq gapi?

24.4-mashq. Berilgan fikrni o‘qing. Unga o‘z munosabatingizni ikki-uch jumlada og‘zaki bildiring.

Matn mazmuni muhokama qilinadi. Matnning birinchi xatboshisida keyingi xatboshi bilan qaysi jihatdan bog‘liqligi, muallifning “halol” so‘zining kurash bilan bog‘liq ma’nosini matnda keltirishdan maqsadi qanday ekani haqida so‘raladi. O‘quvchilarning bir nechtasi matnda ifodalangan mavzuga nisbatan o‘z munosabatini bildiradi. O‘qituvchi ular nutqini eshitar ekan, imkon qadar fikrlarning xilmaxilligiga, bir-birini takrorlamasligiga, iqtiboslar keltirilishi, fikrlarning asoslanganiga e’tibor qaratadi.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

Topshiriq. Matnni o‘qing. Unga matn mazmunidan kelib chiqib sarlavha toping.

Berilgan matn mazmuni bilan tanishish aytiladi, matn mazmuniga mos keluvchi sarlavha tanlash topshirig‘i beriladi. Sarlavha tanlashning bir nechta qoidalari yodga solinadi:

– sarlavhaning imkon qadar qisqa, ammo o‘quvchini o‘ziga jalb etadigan bo‘lishi;
– sarlavha matn mazmuni bilan mos kelishi;
– sarlavha matnning muayyan qismi bilan emas, umumiy mazmuni bilan bog‘liq bo‘lishi.

V. Darsni yakunlash.

O‘qituvchi berilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarning darsdan olgan xulosalarini so‘raydi. O‘quvchilarning faolligiga munosabat bildirib, darsni yakunlaydi.

25-dars

Darsning maqsadi. Fikrni og‘zaki adabiy tilda ifodalashda jargon va argo elementlaridan tiyilish, o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, ularga munosabat bildirish; yozma nutq bilan bog‘liq imlo va tinish belgilarining qo‘llanishiga oid bilimlarni rivojlantirish.

Dars jarayoni


I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Darslikdagi matn bilan tanishiladi va savol-javob o‘tkaziladi. *Savollar:*

1. Matnning asosiy mavzusi nima haqida?
2. Vaziyatga ikki tomondan baho berish (“jabrdiyda” novvoy va “yolg‘onchi” baqqol) holatlariga duch kelganmisiz?
3. Hikoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?
4. Matnda qanday shaxs otlari qo‘llangan? (*baqqol, novvoy, qozi, nozirlar, savdogar*)



3. Nabiy alayhissalomdan so‘rashdi:
— Mo‘min qo‘rqoq bo‘lishi mumkinmi?
— Ha, — dedilar.
— Baxil bo‘lishi mumkinmi?
— Ha, — dedilar.
— Yolg‘onchi bo‘lishi mumkinmi?
— Yo‘q, aslo! — dedilar. (*Imom Molik rivoyati*)

25.3-mashq. Eng mashhur yolg‘onlarni o‘qing. O‘zingiz ham shu yolg‘onlarni ishlatasizmi? Misollarni davom ettiring.
– Men shunday bo‘lishini bilar edim.
– O‘tirsangiz, osh pishayotgan edi...
– Orqasidan gapiryapman, shu yerda bo‘lsa, yuziga ham aytaman...
– Oxirgisini sizga sotyapman, bundan boshqa qolmadi...
– Men ham senga endi telefon qilmoqchi bo‘lib turgan edim.

25.4-mashq. Matnni o‘qing. Undan foydali ma’lumot oldingizmi? Hayotiy misollar bilan fikringizni adabiy tilda og‘zaki ifodalang.

10-15 yil avval internetda tanishishni xayolga keltirib bo‘lmas edi. Bugun buning aksi. Internet do‘st yoki qayliq topishning ommabop vositasiga aylangan. Huquqni muhofaza qilish organlariga murojaatlarning uchdan bir qismi “Facebook”, “VKontakte”, “Odnoklassniki” kabi ijtimoiy tarmoqlarda muhabbat izlab, jinoyatchilar to‘riga tushib jabrlanganlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ta’kidlanishicha, firibgarlar va zo‘ravonlar soxta akkauntlar ochib, tanishuv ilovalaridan mohirlik bilan foydalanishadi. Monitor ortida kim turganligi va uning qanday maqsadi borligini kim ham bilardi?

Xo‘sh, onlayn yolg‘onni fosh qilsa bo‘ladimi? Agar odam jonli ravishda uchrashishni yoki hech bo‘lmaganda aloqani “Skype” orqali muloqot yoki telefon suhbatiga aylantirishni xohlamasa, demak, bunday aloqani yolg‘on deb hisoblash mumkin. Sevgi va niyatlarning jiddiyligi haqidagi barcha kafolatlar oflayn tanishuv buzilganida bekor qilinadi. Uchrashishga kelishib, keyin esa uni bekor qilish – ekranning narigi tomonida firibgar borligi haqida yetarlicha signal. Jiddiy munosabatlar hech qachon sir bo‘lib qolmasligi kerak.

terabayt.uz

JARGONLAR

Jargon – kasbi, jamiyatdagi o‘rni, qiziqishi, yoshiga ko‘ra alohida guruhni tashkil etgan kishilarning ko‘pchilikdan ajralib turish, fikrni sir tutish maqsadida yoki qulaylik uchun qo‘llaydigan leksikasi. Dasturchilar jargoni (flesh – *fleshka*, vint – *vinchester*), yoshlar jargoni (ok – *juda yaxshi*, g‘isht – *xunuk*, uxlatmoq – *aldamoq*), o‘g‘rilar jargoni (stukach – *chaqimchi*, shinner – *sotqin*), otarchilar jargoni (qistir-qistir – *pul*, sezon – *to‘y mavsumi*) kabi.

89

25.1-mashqda berilgan hukmlardan matnga mos keladigan sarlavhani har bir o‘quvchi ixtiyoriy tanlashi va shu asosda xulosasini yozishi maqsadga muvofiq. Bu usul orqali o‘quvchilarda fikr bildirish va uni himoya qilish ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

25.2-mashqdagi hikmatli so‘zlar mazmuni qisqartirilgan holda qayta yoziladi.

Yechim:

1. Hatto go‘dakni aldagan kishi ham yolg‘onchidir.
2. Ilm moldan afzal: u seni himoya qiladi, uni tarqatganing sayin ko‘payaveradi.
3. Mo‘min kishi qo‘rqoq, baxil bo‘lishi mumkin, biroq aslo yolg‘onchi bo‘lmasligi lozim.

25.3-mashqda berilgan eng mashhur yolg‘onlar o‘qiladi. Shu o‘rinda *muammoli vaziyat* yaratiladi:


1. Siz ham yolg‘on ishlatasizmi? Nima uchun?
2. Yolg‘oningiz fosh bo‘lib qolganda uyalganmisiz yoki vaziyatdan oson qutulib ketganmisiz? Qanday qilib?

Misollar davom ettiriladi:

Meni ham taklif qilishgandi, lekin bormadim.

Men uchun muhimi qalb go‘zalligi, yuz go‘zalligi emas.

Semiz emassiz, anchagina ozibsiz.



2-test. Fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.
Banting ham, Makleod ham ularga mukofot olib kelgan ixtiroda o'z hissalari ko'proq ekanini ta'kidlashgan.

A	To'g'ri
B	Noto'g'ri

3-test. Fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.
Banting bildirgan munosabat Makleodnikidan ko'ra keskinroq edi.

A	To'g'ri
B	Noto'g'ri

4-test. Rohatda yashash, ko'ngilxushlikni hayot mazmuni deb bilish – ...

A	egoizm
B	gedonizm
C	egosentrizm
D	altruizm

74

5-test. Matnning qaysi qismida Yevropadagi mavjud qadriyatlar inqirozining sababi keltirilgan?

A	1-qismda
B	2-qismda
C	3-qismda
D	4-qismda

21.2-mashq. Shaxslarga munosabatda ahamiyat berish kerak bo'lgan jihatlar mavjud. Quyidagi toifadagi odamlar bilan suhbat qurishda nimalarga e'tibor berish kerak deb hisoblaysiz?

qarshi jins vakillari	nogironligi borlar
boshqa millat vakillari	chet el fuqarolari
g'iybatchi, ig'vogar kishilar	asabi tarang, tajang kishilar

Shuni o'ylab, tuni bilan uxlamadim.

Endigina uydan chiqaman degandim, mehmon kelib qoldi.

25.4-mashq “Menga so'z bering” usulida og'zaki bajariladi. O'quvchilar matn bilan tanishgach, o'z fikrlarini hayotiy misollar bilan adabiy tilda og'zaki ifodalashga urinadilar. Bu mashq yordamida o'quvchilarda huquqiy ong va madaniyat shakllanadi, kelgusi hayotlariga hushyor nazar tashlashga o'rganadilar. Mazkur mashq asosida “Imlo daqiqalari”ni o'tkazish tavsiya etiladi. Bunda e'tibor o'zlashma so'zlarga qaratiladi:

1) “Facebook”, “VKontakte”, “Odnoklassniki”, “Skayp” (sayt va dastur nomlari aslidek yoziladi);

2) akkaunt, monitor, telefon, oflayn, ekran, signal.

Bilim berish.

“Jargonlar” mavzusi turli metodlardan foydalanib tushuntiriladi.

Jargon va argo yuzasidan nazariy ma'lumot

Jargon – kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishi, yoshiga ko'ra alohida guruhni tashkil etgan kishilarning ko'pchilikdan ajralib turish, fikrni sir tutish maqsadida yoki qulaylik uchun qo'llaydigan leksikasi. Dasturchilar jargoni (flesh – fleshka, vint – vinchester), yoshlar jargoni (ok – juda yaxshi, g'isht – xunuk, uxlatmoq – aldamoq), o'g'rilar jargoni (stukach – chaqimchi, shinner – sotqin), otarchilar jargoni (qistir-qistir – pul, sezon – to'y mavsumi) kabi.

Ilmiy manbalarda jargon (fransuzcha, *buzilgan til*) biror ijtimoiy guruh tomonidan yaratilib, ularning maqsadlarini ifodalaydigan maxsus so'z va iboralar sifatida talqin etiladi. Yuqori tabaqa vakillari o'zlarini “quyi tabaqa” kishilaridan ustun ko'rsatish, “madaniyatli” ekanliklarini namoyish qilish, hiyla-nayranglarini yashirish maqsadida jargonlarni atayin tilga olib kirganlar, nutqlarini “bezamoqchi” bo'lganlar. Masalan, tashrifi hud etgaysiz (keling), tavaqqu' aylang (umid bilan kuting), tavajjuh aylang (qarang), oftobi olam (podsho), padari buzrukvor (ota) kabi. Jargonlar hozirgi tilimizda ham uchrab turadi. Bunda so'zlovchi nutqqa hazil tusini berish, kesatiq kabi maqsadlarni nazarda tutadi: qadam ranjida qildik, ichkilikka ruju qo'ygan kabi.

Argolar esa ma'lum bir ijtimoiy guruh ichida ishlatilib, faqat ularning o'ziga tushunarli bo'ladi. Masalan, loy, soqqa, mullajiring (pul), ko'ki (dollar), shumo qildi (o'g'irladi), stukach (chaqimchi) kabi. Argolar ma'lum toifa kishilari faoliyatiga bag'ishlangan asarlarda, personajlar nutqida qo'llanadi va bu bilan individ yaratiladi.

Jargon va argolar tilshunoslikda yonma-yon qo'llanadi.

25.5-mashq jadval shaklida berilgan. Gaplar o‘qiladi va taqqoslanadi. Birinchi ustunda ajratib ko‘rsatilgan so‘z va birikmalar ikkinchi ustundagi gaplar asosida qaysi guruh vakillari nutqiga xosligi aniqlanadi:

1. Talabalar nutqiga oid.
2. Bezorilar (“ko‘cha bolasi”) nutqiga oid.
3. O‘smir yigitlar nutqiga oid.
4. Qizlar nutqiga oid.
5. Haydovchilar nutqiga oid.

Gaplarni izohlash jarayonida bu kabi so‘z va birikmalarning nutq sofligiga putur yetkazishi, qolaversa, so‘zlovchining til madaniyatini belgilab berishi borasida o‘quvchilar fikri tinglanadi.

“Menimcha” rukni ostida berilgan **25.6-mashq**dagi mantiqiy jumboqning javobi quyidagicha: janob Smidtning qotili – oshpaz. Jinoyat kechki payt sodir etilgan, oshpaz esa bu vaqtda nonushta tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘lganini aytgan.

IV. Uyga vazifa berish

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan. O‘quvchilar matn bilan tanishib, yolg‘on va vijdon haqidagi mulohazalarini yozma bayon qiladilar.

V. Darsni yakunlash

Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsdan o‘zlari uchun qanday yangilik olganlarini qisqacha aytib o‘tishadi.

TILIM – BOYLIGIM

26-dars

Dars maqsadi. “So‘z latofati” va “So‘z xususida so‘z” asarlaridan olingan parchalar bilan tanishish va ularga dalillar asosida munosabat bildirish; o‘qilgan va tinglangan matnlarni tushunish, ulardagi ochiq va yashirin ma’lumotlarni fahmlash; so‘z yasovchi qo‘shimchalar uslubiyatini tahlil qilish hamda asos va qo‘shimchalar imlosiga doir bilimlarni mustahkamlash.

Dars jarayoni

so‘zlar yasaydi: *Bu dunyo asli bir* ***ko‘ngilzor*** *edi.* (B. Fazliddin) *Ne baxt,* ***Quyoshiston*** *ta’rifli diyor Nurli peshonamga bo‘libdi nasib.* (E. Vohidov). *G‘ururimga* ***g‘ururdosh*** *zamonga ming tashakkur.* (A. Oripov)

Nutqda ba’zan so‘z yasovchi qo‘shimchalarni yanglish va ortiqcha qo‘llash holatlari kuzatiladi. Masalan, *yog‘lik osh* emas, *yog‘li osh; befarosatsizlik* emas, *befarosatlik* yoki *farosatsizlik.*

26.2-mashq. Erkin Vohidovning “sodda kashfiyot”lari aks etgan matn bilan tanishib chiqing va o‘zaro fikr almashing. O‘zingiz har kuni foydalanadigan yasama so‘zlar ro‘yxatini tuzing.



So‘zni eshitamiz, so‘zlashni qotiramiz, lekin So‘z mag‘zini chaqish aksar xayolimizga kelmaydi. Nega shunday deymiz, deya o‘zimizga savol bermaymiz. Bu sinoat to‘la olam bamisoli olisdagi yulduzlardek noayon qolaveradi. ***Uzum yedim***, “***uzum***” ***dedim***, ***bilsam***, ***tokdan uzib yedim***, degandek, o‘z qo‘lim bilan ishkomdan uzum uzaturib, bu so‘zning ***uzmoq***dan olingani xayolimga kelgan edi. Axir ***ungan*** narsani ***unum***, ***g‘uj*** o‘sgan mevani ***g‘ujum***, jamiyat ***tuz***ilishini ***tuzum***, cho‘g‘ning ***qo‘r***idan qolgan kulni ***qurum***, deymiz. Og‘izga solib ***yut***ganimiz ***yutum***, tomoqdan ***qult*** etib o‘tgan suv ***qultum*** bo‘lganidek, ishkomdan ***uzib*** yeganimiz ***uzum*** bo‘ladi-da, deya o‘z sodda kashfiyotimdan suyungan edim.

Kuraydigan qurolimiz ***kurak***, ichki a’zo ***ichak***, gul tubida turadigan idish ***tubak*** – biz uni ***tuvak*** deymiz. Kaftni kaftga urish – olqish belgisi. Chiqqan tovush chapillasa ***chapak***, qarsillasa ***qarsak*** bo‘ladi. Buni anglash qiyin emas, lekin ko‘ksimizda gursullab urib turgan yurakni ***yurak*** deyish to‘g‘rimi yoki ***urak? Yurak*** yuradimi, uradimi? Ko‘krak-chi? Nega ko‘ksimizni shunday ataymiz? ***Ko‘ksim osmon*** degandek bu nom ***ko‘k***, ya’ni osmon bilan bog‘liqmi? Undoq desak, emikdosh ma’nosida keluvchi ***ko‘kaldosh*** so‘zidagi ***ko‘k*** o‘zagi nimani anglatadi? Qozoqlar akani ***ko‘ka*** deb chaqiradilar. Bu so‘zlarning ***ko‘krak***-ka aloqasi yo‘qmikan?.. Bunday jumboqlar yuzlab, minglab so‘zlarimiz zamirida yotibdi. Ular bizni qiynashi, uyqu bermasligi kerak, Mahmud Koshg‘ariy bobomizning kitobi yostig‘imiz ostida bo‘lmog‘i kerak.

93

26.3-Mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni tanlab, maqollarni ko‘chiring. Nima uchun aynan shu so‘zni tanlaganingizga izoh bering.

1. Muzdan suv tomar, ... (so‘zamol, so‘zshunos, so‘zchi)dan – bol.
2. ... (shirali, shirador, sershira) so‘zga quloq charchamas.
3. Har ... (yaltiragan, yiltillagan, yarqiragan) oltin emas.
4. Tekinxo‘r qopib yeydi, ... (mehnatchi, mehnatkor, mehnatkash) topib yeydi.
5. Aqli o‘tkirning so‘zi ... (chopag‘on, chopuvchi, chopqir).

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Darslikdagi atoqli tilshunos olim Alibek Rustamiyning “So‘z xususida so‘z” kitobidan olingan fikrlar bilan tanishiladi va savol-javob o‘tkaziladi.

Savollar:

1. *So‘z mas’uliyati* deganda nimani tushunasiz?
2. Muallif so‘zning bahosini qanday ta’riflaydi?
3. “*So‘z qiymatga emas, qadrga ega*” degan fikrni qanday tushundingiz?
4. Matndagi *so‘zshunos, so‘zchi* so‘zlari ma’nosida farq bormi?

Izoh: so‘zshunos – so‘z ilmi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis, tilshunos olim.

So‘zchi – farosat va fasohat bilan so‘zlovchi kishi.

Foydalanish uchun ma’lumot.

Behruz Boqiy bunday degan ekan: “Dunyoda menga ikki narsa xushdir: biri – dilga yoqadigan so‘z, ikkinchisi – so‘z yoqtiradigan dil. Shodon ko‘ngilli kishi shunday kishiki, uning dili so‘zdan fayz topa oladi. Yoqimli so‘z shunday so‘zki, u kishining diliga quvonch yetkaza oladi”.

Bayt:

Jon-u tanning quvvati yoqimli shirin so‘zdir,

Masihning nafasidan guvohlik berar yerga. *(Abdulbarakot Qodiriy)*

26.1-mashqdagi matnni proyektor orqali ko‘rsatib, “Tadqiqot” usulidan foydalangan holda quyidagi bosqichlarda tahlil qilish tavsiya etiladi:

1-qadam. Matn o‘qiladi (tinglanadi).

2-qadam. So‘zlar izohlanadi.

Va’z – so‘z, nutq, ma’ruza; murshid – boshlovchi, rahbar; muttaqiy – halol, ehtiyotkor, taqvodor; shaqiy – baxtsiz, gunohkor.

3-qadam. Matn mazmuni sharhlanadi.

Va’zxon shunday bo‘lishi kerakki, uning majlisiga bo‘sh kirgan odam to‘lib chiqsin, to‘la kirgan odam esa yengil tortib, xoli qaytsin. Voiz olim va halol ish ko‘ruvchi bo‘lsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo‘ladi. Agar u boshqalarga buyursa-yu, o‘zi qilmasa, uning so‘zlari hech kimga ta’sir etmaydi va foyda keltirmaydi. Voiz bilimdon, halol ish ko‘ruvchi, sidq-u sadoqat bilan faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs bo‘lishi bilan birga, xalqning ruhiyatini yaxshi biladigan, xalqning dardi bilan yashaydigan bo‘lishi kerak. Ana shundagina uning va’ziga yurak-bag‘ri g‘am-alamga, dard-u tashvishlarga to‘lib kirgan kishi dardlaridan forig‘ bo‘lib, ko‘ngli bo‘shab, yengil tortib chiqadi.

4-qadam. Muhokama qilish.

O‘quvchilarning so‘z odobi yuzasidan fikr-mulohazalari tinglanadi, so‘z tanlash va qo‘llashning muloqot chog‘idagi ahamiyati borasida kichik munozara uyushtiriladi. Bunday bahs natijasida o‘quvchilarda nutqiy vaziyatlarda chiroyli so‘zlash va suhbatdoshiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish fazilatlari shakllanadi.

Matn muhokamasi uchun o‘qituvchi savollar tashlab turib, ustalik bilan yo‘nalishni yangi mavzuga ulab yuborishi kerak.

Bilim berish.

“So‘z yasovchi qo‘shimchalar uslubiyati” mavzusi turli metodlardan foydalanib tushuntiriladi.

So‘z yasovchi qo‘shimchalar uslubiyati

So‘z yasovchi qo‘shimchalarning uslubiy ma’no nozikligi, asosan, sinonimlar qiyosida seziladi: mehnatkash – mehnatchi, jilvali – jilvakor – jilvagar, basavlat – sersavlat – savlatdor, suzuk – suzgun kabi. Yozuvchi yoki shoir tilning yashirin imkoniyatlaridan keng foydalanib, badiiy nutqda yangi so‘z va yangi iboralarni yaratadi. Masalan, G‘afur G‘ulomning *qopqa, sho‘xshanlashmoq, qoralmasin* so‘zlarini yaratishi bunga misol bo‘ladi:

Siz ko‘kning qopqasin qoqqan soatda,

Quyosh ko‘z uqalab uyg‘onar edi.

Yoki:

She’r shunday sho‘xshanlansin, bo‘lolmasin o‘xshashi,

Fikr kunday ravshanlansin, qoralmasin quyoshi.

(“Baxt tongotari” she’ridan)

Maqsud Shayxzodaning *nuriston, quyoshiston, nurobod, Toshkentnoma* kabi so‘zlarni yaratishi, Oybekning *miljinglamoq, jabrkor, jivillamoq, gavharshunos, korsiz, sohibtadbir, dard-dosh, ozlimasin, lashkargoh* kabi so‘zlari ham asarning badiiy-estetik qiymatini ta’minlovchi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Misollar:


Bu dunyo asli bir ko‘ngilzor edi. (B. Fazliddin)

Ne baxt, Quyoshiston ta’rifli diyor

Nurli peshonamga bo‘libdi nasib. (E. Vohidov)

G‘ururimga g‘ururdosh zamonga ming tashakkur. (A. Oripov)

Nutqda ba’zan so‘z yasovchi qo‘shimchalarni yanglish va ortiqcha qo‘llash holatlari kuzatiladi. Masalan, yog‘lik osh emas, yog‘li osh; befarosatsizlik emas, befarosatlik yoki farosatsizlik.



26.5-mashq. **“Bo‘sh o‘tirma, bosh qotir”.**

Fors donishmandlari fikricha, saltanatda har doim egri va qing‘ir ishlarni qiluvchi amaldorlar shoh yonidan joy olishgan. To‘g‘riso‘z va vijdonli insonlar esa doimo chetda qolib ketishgan.

Savol: donishmandlar o‘zlarining bu fikriga isbot sifatida nimani misol keltirishadi? Rasmlar orasidan javobni topib, izohlab bering.

95

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. **Berilgan fikrni diqqat bilan o‘qing. Agar rassom bo‘lsangiz, ona tilingizni qanday tasvirlagan bo‘lar edingiz? Tasavvuringizni qog‘ozda ifodalashga urinib ko‘ring.**

O‘zbek tilim boshqalarga qandoq, bilmayman, lekin men uchun dunyoda eng boy, eng go‘zal, eng barkamol til. O‘zbekcha gapirib tilim chiqqan, qo‘limga qalam olib, o‘zbekcha yozganman, qalbim sevinchlari va iztiroblarini o‘zbekchada qog‘ozga tushirganman. Unga mehrimni, minnatdorligimni izhor etib bir kitob yozsam, degan niyatim bor. Yozganlarim she’r bo‘lmasa-da, she’rdek o‘qilsa, deyman. Ona tilimning ko‘rki, barvasta qomati sahifalardan bo‘y ko‘rsatib tursa, deyman. Orzularim ko‘p. Qani edi parvozim orzularim qadar yuksak bo‘lsa...

Erkin Vohidov

26.2-mashq yozma bajariladi. Erkin Vohidovning “Soz latofati” kitobidan olingan parcha bilan tanishib chiqiladi va qisqacha savol-javob asosida mazmuni o‘rganiladi. “Bu so‘z – bizniki” usuli yordamida yasama so‘zlar ro‘yxati tuziladi va imlosi izohlanadi.

Un**um**, g‘uj**um**, tuz**um**, yut**um**, qult**um** (*so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida u unlisi kelsa, um- qo‘shimchasi qo‘shiladi);* kura**k**, icha**k**, tuba**k** (tuvak), chapa**k**, qarsa**k**, yura**k**.

Qo‘shimcha: uzuq, yutuq, so‘roq, taroq, bo‘yoq; anglamoq, yashamoq; issiq, sovuq, achchiq; pasaymoq, susaymoq.

26.3-mashq yechimi:

1. Muzdan suv tomar, *so‘zamoldan* — bol (*so‘zamol* va *bol* so‘zlarida tovushdoshlik, ohangdoshlik mavjud).

2. *Shirali* so‘zdan quloq charchamas (*shirali* so‘zi odatda keng qo‘llanadi).

3. Har *yaltiragan* oltin emas (so‘zlar ma’nosiga va tovushdoshlikka asoslanib tanlangan).

4. Tekinxo‘r qopib yeydi, *mehnatkash* topib yeydi (*mehnatkash* so‘zi keng qo‘llanadi).

5. Aqli o‘tkirning so‘zi *chopqir* (*o‘tkir* va *chopqir* so‘zlari ohangdoshlikka ega).

26.4-mashqda berilgan matn o‘qiladi. O‘quvchilar matnga munosabatlarini ikki jumlada ifodalab, asoslashlari talab etiladi.

Namuna:

Har bir so‘zni ehtiyotkorlik bilan tanlash va qo‘llash lozim. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari bu masalada hushyor bo‘lishlari shart, chunki birgina xato minglab odamda noto‘g‘ri tasavvur hosil bo‘lishiga olib keladi.

“Karandash – qora tosh, qalam tosh” kabi asli turkiycha so‘zlarimizga misollar: *utyug (dazmol), piket (bekat), izyum (uzum), kurgan (qo‘rg‘on), ochag (o‘choq), kazna (g‘azna)*.

“Til sandig‘i” ruknida berilgan **“Sheriklik oshni it yemaydi”** maqolining talqini batafsil o‘rganiladi. Shunga o‘xshash maqollar ham qo‘shimcha qilinishi mumkin. Masalan, *Usta ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar.* – Aslida ustaga shogird tushganlar hunarni ipidan ignasigacha o‘rganadilar, shu sababdan egallagan hunarlarini har usulda namoyish qila oladilar.

26.5-mashq. Boshqotirmaning javobi: *shaxmat*. Manfaatparast amaldorlar hukmdorga yaqin turishga urinadilar. Shaxmat taxtasida ham shu holat kuzatiladi.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan. O‘quvchilar Erkin Vohidovning orzusi aks etgan matn bilan tanishadilar. “Agar rassom bo‘lsam...” sarlavhasi ostida o‘z tasavvurlarini chizib kelishlari vazifa qilib beriladi.

V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsda o‘zlari uchun qanday yangilik olganlarini, xususan, o‘zbek tilining lug‘at boyligi, uning yashirin sirlari haqida o‘z mulohazalarini bayon etishadi.

27-dars

Dars maqsadi. Matnlar bilan tanishish va ularga dalillar asosida munosabat bildirish; o‘qilgan va tinglangan matnlarni tushunish, ulardagi ochiq va yashirin, “qog‘ozga o‘ralgan” ma’nolarni fahmlash; fikrni to‘g‘ri va ravon yetkazish; shevaga xos so‘zlar uslubiyatini tahlil qilish hamda imloga doir bilimlarni shakllantirish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Avvalo, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidan olingan parcha bilan tanishiladi. Matn mazmuni bilan kinofilm epizodining mutanosibligi, ya’ni suratda aks etgan suhbat jarayonidagi qaltis muhokama va obrazlar holati orqali parcha matn tavsifining qay darajada ochilganiga diqqat qaratiladi. Shundan so‘ng topshiriqlar bajariladi.

Yechim:

Ajratib ko‘rsatilgan birliklar	Ular ifodalayotgan tagma’nolar
manim ustimga mundog‘ tuhmat orttirishdan	menga tuhmat qilishdan
o‘zingizni quruqqa olasiz	o‘zingizni gunohsizdek tutasiz
yengil (muhokamalaring)	chuqur o‘ylanmagan (muhokamalaring)
qisqalig‘ingdir	aqlsizligingdir (aqli kaltaligingdir)
kesishimizdan	o‘ldirishimizdan
(aqling) oqsaydir	(aqling) yetmaydi
o‘lganning ustiga chiqib tepish	bir ko‘ngilsiz ish ustiga boshqa bir ko‘ngilsiz ishni qilish

Savol: muallif so‘zlarni “qog‘ozga o‘rash” orqali qanday maqsadni ko‘zlagan?

Javob: ajratib ko‘rsatilgan birliklar obrazlar o‘rtasidagi keskinlikni yumshatish, qolaversa, farzandning otaga va otaning farzandga odob bilan munosabatda bo‘lishini, ularning axloq doirasidan chiqmasliklarini aks ettirishga xizmat qilgan.

27.1-mashqdagi gaplar o‘qiladi. O‘zbek oilalarida turmush o‘rtoqlarini to‘ng‘ich farzand nomi bilan atash odati er-xotin o‘rtasidagi hurmatni kuchaytirgan. Shuningdek, ota va ona boshqalar oldida bir-birlarini ismi bilan chaqirishga andisha qilganlar. Matndagi Solih maxdum va Nigor oyimlar ham bir-birlariga bosh farzand nomi – Ra’no ismi bilan murojaat etadilar.

27.2-mashq yozma bajariladi. Sinf ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh “yumshoq” ifodali, ikkinchi guruh “qattiq” ifodali gaplarni ko‘chirib yozadi hamda izohlaydi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

“Yumshoq” ifodali gaplar va tagma’nosi		“Qattiq” ifodali gaplar va tagma’nosi	
1. “Bu kishi kimingiz?” – deb so‘ragan savoliga javob topishga ulgurmagan edim, o‘zi yordam qildi: – ***Ahliyatingizmi***? (Cho‘lpon)	xotiningizmi	Marg‘ilonliq ***xotin***ingizdan bolangiz bordir? – Yo‘q...	ayol, rafiqa
Bunga o‘xshagan ***bir kam yuzlar*** boplayapti-da jamiyatni. (Said Ahmad)	jinnilar	Tillani o‘marib ketgan anavi nusxani tusmollaganday-man. U yo uchkanalik Karim ***chillashir***, yo bo‘lmasa, ayritomlik Mamarajab ***bodi***. (Normurod Norqobilov)	ozg‘in sergap
– Birovning ***ojiza***siga olayganlarning ko‘zi chiqsin, – dedi yig‘lamsirab. (Odil Yoqubov)	xotin	– Birovning ojizasiga ***olayganlar***ning ko‘zi chiqsin, – dedi yig‘lamsirab. (Odil Yoqubov)	qaraganlar
– Bo‘lsa ham ***turmadi***mi, uylanganingizga ancha bo‘ldi shekillik? – ***Turmadi***.	yashamadimi o‘ldi	Uning yonida bo‘z yaxtak bog‘ichini osiltirib, handalakdek bo‘qog‘i bilan o‘ng tomog‘ini ziynatlagan o‘rta yashar yana bir ***“husni Yusuf”*** ko‘rinar edi. (Abdulla Qodiriy)	xunuk, badbashara
– O‘g‘lim urushda... ***bedarak ketdi,***— dedi Nazir ota. “O‘lgan” deb aytolmadi. (O‘lmas Umarbekov)	yo‘qoldi	– Albatta, albatta — ilib ketdi Sobirova opa. — Men ot minib tog‘-toshda yurganimda hozirgilar ***burnini artolmay yurar edi.*** O‘zingiz bilasiz-ku. (Shukur Xolmirzayev)	go‘dak edi, hech bir ishni uddalay olmasdi


27.3-mashq. Matnni o‘qib, shevaga oid so‘zlar “Bu so‘z – bizniki” usulida aniqlanadi va daftarga adabiy tildagi shakli bilan birga yoziladi.

Yechim: hoziram – hozir ham, choyimgayam – choyimga ham, ovqatimgayam – ovqatimga ham, jetadi – yetadi, o‘zimizdiki – o‘zimizniki, jurgan – yurgan, jil – yil, traktir-praktir – traktor-praktor, o‘rni-tuvi – o‘rni-tubi, jo‘q – yo‘q, toshib – tashib, cho‘kichminan – cho‘kich bilan, manovu – mana bu, qirdi – qirning, bovrini – bag‘rini, jigit – yigit, novud bo‘ldi – nobud bo‘ldi, shuytib – shunday qilib, sag‘al – sal, jer – yer, qogan – qolgan, nishoblik – nishablik, qarag‘in – qaragin, haliyam – hali ham.

Bilim berish.

“Shevaga xos so‘zlar” mavzusi turli metodlardan foydalanib tushuntiriladi.

Shevaga xos so‘zlar


TIL SANDIG‘I

PASHSHAMI YO CHIVIN?

Ba’zan bitta so‘zning o‘zi turli shevalarda turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, “pashsha” so‘zi adabiy til lug‘atida “yozgi qo‘sh pardaqanotli hasharot” (ruscha “муха”)ni bildiradi. Biroq ayrim shevalarda u chivin (ruscha “комар”) so‘zi o‘rnida ishlatiladi. *Ajal yetmay o‘lmas Boysunning xoni, Besabab chiqmaydi chivinning joni* (“Alpomish”) gapidagi ***chivin*** so‘zi ham, *“Atrofda g‘uv-g‘uv pashsha: oyoqlarga yopishadi, burun kataklariga suqiladi, quloqni uzadi”* gapidagi ***pashsha*** so‘zi ham kunduzi uchadigan hasharot ma’nosida qo‘llanadi. Unday bo‘lsa, kechasi chivinlarga qarshi tutiladigan doka-uyni nega “pashshaxona” deyishadi? Qaysi biri to‘g‘ri ekan-a?

Bunday shevalararo farqlarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Siz ham ana shunday shevalarda farqlanuvchi so‘zlardan qaysilarini bilasiz?

daryo.uz

27.5-mashq. O‘ylang, izlang va toping!

1. “Xato qilyapsiz!” mazmuni qaysi qatorda eng yumshoq ifodalangan?	
A	Siz kamchilikka yo‘l qo‘yyapsiz.
B	Fikringiz mutlaqo noto‘g‘ri.
C	Noo‘rin gapirmang.
D	Haqiqatdan uzoqlashyapsiz.

99

Shevaga oid birliklar adabiy til me’yorlaridan tashqarida, ular milliy til unsurlari sanaladi. Shuning uchun bunday unsurlar ilmiy, rasmiy va publitsistik uslublarda qo‘llanmaydi. Ammo ular oddiy (adabiy emas) so‘zlashuv va badiiy uslubda muayyan bir me’yorda ishlatiladi. Badiiy uslubda qo‘llangan shevaga oid unsurlar yozuvchining uslubiy-estetik maqsadiga xizmat qiladi.

Ma’lum bir hududda yashovchi kishilar nutqiga xos so‘z *shevaga xos so‘z* deyiladi: kallapo‘sh (Buxoro) – do‘ppi, g‘o‘z (Xorazm) – yong‘oq, mishiq (Farg‘ona) – mushuk.

Sheva so‘zi fanda *dialektizm* deb ham yuritiladi.

Badiiy adabiyot va kinofilmlarda mahalliy ruhni aks ettirish, asar qahramoni nutqini aniq berish maqsadida shevaga xos so‘zlardan foydalaniladi. Shuningdek, so‘zlovchining qaysi sheva vakili ekani ham nutqqa ta’sir etadi. Masalan, *“Adasi bilan oyisi qotib-qotib kulishdi”*.

Ba’zan dialektizmlar yengil kulgi uchun xizmat qilishi ham mumkin. Masalan, *“So‘zlaringiz mutti-mutti, bag‘rim yonib ketutti”*. (Qo‘shiqdan)

Ayrim so‘zlar adabiy tilda boshqa, shevada boshqa ma’noda ishlatiladi. Masalan, ***irkit*** so‘zi adabiy tilda kir, iflos degan ma’noda qo‘llansa, ayrim shevalarda ayronxalta, boshqasida esa beo‘xshov, qo‘pol ko‘rinishli ma’nosiga ega. Yoki ***lagan*** so‘zi Toshkentda osh suziladigan chinni tovoq, Samarqandda kir yuviladigan tog‘ora ma’nosida qo‘llanadi.

Sheva so‘zini uning adabiy tildagi muqobiliga sinonim sanamaslik lozim.

Demak, ijodkor badiiy asarda shevaga oid so‘zlarni qo‘llashi qahramonning muayyan hududga mansubligini ta’kidlash, mahalliy koloritni yaratish, hayotning realistik tasvirini chizishga yordam beradi. Shuningdek, shevadagi so‘z va adabiy tildagi so‘z ifodalagan tushunchalarda ayrim nozik farqlar mavjud bo‘lganda ham yozuvchi shevadagi so‘zni afzal ko‘rishi mumkin.

27.4-mashq. Berilgan matnlar qiyoslanib, shevaga xos so‘zlar lug‘ati tayyorlanadi.

Ayniqsa, shevaga xos so‘zlar qo‘llangan she’riy matnlarda xorazmcha o‘ynoqi ohang ustunligiga diqqat qaratiladi.



2. Rasmda yashiringan maqolni topib, uning ma'nosini izohlang.

100

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. She'rni o'qing. Shoirning "o'lmoq" so'zini nozik ifodalash uslubiga munosabatingizni bildiring. She'rda ifodalangan "o'lmoq" so'zining "yumshoq" va "qattiq" shakllarini ro'yxat qilib yozing.

KUY AVJIDA UZILMASIN TOR

Kuy avjida uzilmasin tor,
She'r yarmida sinmasin qalam.
Yashab bo'lmay umrini zinhor
Bu dunyodan ketmasin odam.

Qo'ldan tushib sinmasin qadah,
Lab tegganda to'kilmasin may.
To'xtamasin urib turgan qalb
Boshlab qo'ygan qo'shig'i bitmay.

Erkin Vohidov

"Til sandig'i" rukni ostida berilgan "Pashshami yo chivin?" matni asosida kichik munozara tashkil qilinadi. O'rtaga savol tashlanadi.

Bunday shevalararo farqlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Siz ana shunday shevalarda farqlanuvchi so'zlardan qaysilarini bilasiz?

Javob: so'ri (Farg'onada – supa, Toshkentda – ishkom), zangi (Xorazmda – narvon, Samarqandda – vayish), chinni (Andijonda – kosa).

27.5-mashqdagi boshqotirmalar javobi:

1. D.

2. Arpa-bug'doy osh bo'lar, oltin-kumush tosh bo'lar.

IV. Uyga vazifa berish.

"Mustaqil bajaraman" rukni ostida uyga topshiriq berilgan. O'quvchilar Erkin Vohidovning "Kuy avjida uzilmasin tor" she'ri bilan tanishadilar. Matndagi "o'lmoq" so'zining "yumshoq" va "qattiq" shakllarini ro'yxat qilib vazifa qilib beriladi.

Yechim:

1. "Yumshoq" ifodalar: qazo qilmoq, vafot etmoq, kuni bitmoq, o'tmoq, rihlat qilmoq, shahid ketmoq, jon bermoq, ko'z yummoq, abadiy uyquga ketmoq...

2. "Qattiq" ifodalar: o'lmoq, asfalasofilinga ketmoq, to'ng'iz qo'pmoq, yer yutmoq...


V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o'quvchilar bugungi darsda o'zlari uchun qanday yangilik olganlarini, xususan, so'zni ehtiyotkorlik bilan tanlash va qo'llash, nutqda sheva elementlaridan tiyilish haqida o'z mulohazalarini bayon etishadi.

28-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish, ochiq va yopiq shaklda berilgan ma’lumotlarni aniqlash, matn mazmuni asosida xulosalar chiqara olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar ustida ishlash; subyektiv munosabatni ifodalovchi shakllar, matnning asosiy qismlari, kirish qismi bilan bog‘liq bilimlarni mustahkamlash.

Dars jarayoni



28.4-mashq. Matnni o‘qing. Muallifning so‘z mas’uliyati ifodalangan asosiy fikriga mos maqollar topib, yozing.

So‘z so‘ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Tuzilgan jumlani yozuvchining o‘zigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozuvchilik aytmoqchi bo‘lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashilmovchilik solmaslikdadir.

Qalam – o‘qlog‘i, adabiyot – ketmon bozori emas. Yo‘sinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir so‘zdan jumlalar to‘qimoq fazilat sanalmaydi. So‘z qolip, fikr uning ichiga qo‘yilgan g‘isht bo‘lsin, ko‘pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo‘lib yotsin.

Abdulla Qodiriy

TIL SANDIG‘I

QULOG‘I TOM BITGAN: “TOM” NIMA?

Tilimizda uch xil **tom** so‘zi bor. Ikkitasining ma’nosi ko‘pchiligimizga yaxshi tanish: *uyning tomi*, *kitobning tomi (jildi)*. Sarlavhadagi iborada bu ikki *tom* so‘zi qatnashmagan. U boshqa bir omonim. U arab tilidan kirgan *tom* so‘zi bo‘lib, asliyatda *to‘la*, *to‘liq*, *butun; mukammal* ma’nosini bildiradi. O‘zbekchada *to‘la*, *to‘liq*, *butunlay*, *tamomila* ma’nolarida qo‘llanadi:

Tom ma’noda, *tom ma’nosi bilan* kabi iboralarda ham ana shu **tom** so‘zi ishlatilgan. Bunda *to‘liq*, *chin* ma’nosi nazarda tutiladi.

Qulog‘i tom bitmoq birikmasi quloq tamoman bitganini, eshitish qobiliyati yo‘qolganini bildiradi. Bu ibora bo‘yicha ba’zan “ehtimologiya” variantlari ham uchrab turadi: “*tom ostida qolgan odamning qulog‘i eshitmay qoladi*, *shuning uchun tom bitdi deyilgan*” deganga o‘xshash. Bu fikr xato, albatta.

Orif Tolib

28.5-mashq. Zehningizni ishga soling!

1. “Butun zamin-u osmon uyquga cho‘mgan. Bo‘ronlar tinib, to‘fonlar to‘xtagan lahzada ham “U” ziyrak turadi. “U” hamisha uyg‘oq”.
Ushbu jumlada yozuvchi Tohir Malik nimaga tarif bergan?

2. Rasmlarda yashiringan iboralarni yozma ifodalang.

104

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Berilgan mashq yordamida kirish suhbati o‘tkaziladi.

Topshiriq. Matnni o‘qing. Keltirilgan dalillar asosida bugungi savodxonlik darajasi borasida bahs-munozara uyushtiring.

Mazkur topshiriq matnni o‘qib tushinish, matnda keltirilgan tafsilotlarni asoslashga qaratilgan. Har bir o‘quvchi matnni alohida ichda o‘qishi uchun ma’lum vaqt beriladi. O‘qituvchi matnni diqqat bilan o‘qish kerakligini aytadi, shundan so‘ng matn mazmuni va tafsilotlarini asoslashga qaratilgan birliklar asosida savol-javob o‘tkaziladi.

28.1-mashq. Matndan qo‘shimcha qo‘shilishi bilan tarkibida o‘zgarish yuz bergan so‘zlarni topib, yozing va ularning imlosini izohlab bering.

Ushbu topshiriq asos va qo‘shimchalar imlosini tushunish, yozma savodxonlikni oshirishga qaratilgan. Dastlab o‘quvchilar bilan asos va qo‘shimchalar nima ekani, ularga oid bilimlar takrorlab olinadi, so‘ngra topshiriqni bajarish aytiladi.

Yechim: yarmi (yarim+i), o‘layotganligi (o‘layotganlik+i), xavfsizligi (xavfsizlik+i), egaligi (egalik+i), yashovchanligi (yashovchanlik+i), borligi (borlik+i), achchiq (achi+iq), emasligi (emaslik+i).

Bilim berish.

“Asos va qo‘shimchalar imlosi” mavzusi turli metodlardan foydalanib tushuntiriladi.

Darslikda berilgan nazariy qoida asosida asos va qo‘shimchalar imlosi haqida ma’lumot beriladi.

28.2-mashq. “Mening Dog‘istonim” asaridan olingan parchani o‘qing. Muallif nima demoqchi? Uning fikrlariga qo‘shilasizmi? Matndan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning imlosini izohlang.

O‘rganilgan nazariy qoida asosida mavjud bilimlar mustahkamlanadi. Matn tarkibidan shunday shakldagi so‘zlar aniqlanadi va yoziladi. So‘ngra matnda muallif maqsadini aniqlashga qaratilgan savollar bilan suhbat olib boriladi.

Yechim: yiroqqa (yiroq+ga), meni (men+ni), shunday (shu+day), bunday (bu+day), bo‘lmog‘i (bo‘lmoq+i).

28.3-mashq. She’rni o‘qing. Unda tilga olingan muammoning dolzarbligiga ahamiyat qarating. Siz ham shunday belgilardan foydalanasizmi? Sababini tushuntiring.

Mazkur topshiriq matnni o‘qib tushunish, she’rda qo‘llangan til birliklari orqali muallif nimaga ishora qilayotganini hamda matn mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilarga she’r matnini o‘qib chiqishlari aytiladi. So‘ngra hayotiy kuzatishlari asosida taqqoslab, tahlil qilinadi.

28.4-mashq. Matnni o‘qing. Muallifning so‘z mas’uliyati ifodalangan asosiy fikriga mos maqollar topib, yozing.

Ushbu topshiriq matnning umumiy mazmunini tushunish hamda kontekstga mos so‘z qo‘llashga qaratilgan. O‘quvchilarga matnni o‘qib chiqib, matn yuzasidan munosabat bildirish, so‘ngra muallifning fikriga mos maqol topib yozish aytiladi. Bu jarayonda frazeologik lug‘atlardan foydalanishga ruxsat beriladi.

LOYIHA TAYYORLASH

Topshiriq. Quyida sizga bir nechta neologizm – yangi so‘z taqdim qilinmoqda. Siz ularga o‘zbekcha muqobil topishingiz kerak. Loyihani bajarishda tanlagan so‘zingiz neologizmning ma’nosini qamrab olishiga, imkon qadar unga yaqin bo‘lishiga harakat qiling. Bir nechta variant taqdim etishingiz, izohli lug‘atda mavjud bo‘lmagan so‘z yasashingiz mumkin.

YANGI SO‘Z	SIZ TAKLIF QILGAN SO‘Z
lokatsiya	
fleshka	
onlayn	
oflayn	
bodikamera	
xeshteg	
skaner	
skrinshot	
parol	
masterklass	
QR-kod	
sayt	
chellenj	
startap	
fastfud	
yuzer	
trening	
blyutuz	

106

O‘quvchilarning e’tibori “Til sandig‘i” rukniga qaratiladi.

28.5-mashq. Zehningizni ishga soling!

1. “Butun zamin-u osmon uyquga cho‘mgan. Bo‘ronlar tinib, to‘fonlar to‘xtagan lahzada ham “U” ziyrak turadi. “U” hamisha uyg‘oq”. Ushbu jumlada yozuvchi Tohir Malik nimaga tarif bergan?

Mazkur topshiriq muallif maqsadini tushunish hamda ko‘rsatish olmoshi orqali ishora qilinayotgan birlikni topishga qaratilgan. O‘quvchilarga mantiqan o‘ylab, javob berish aytiladi.

Yechim: vaqt.

2. Rasmlarda yashiringan iboralarni yozma ifodalang.

Ushbu topshiriq o‘quvchilar tasvirni tushunishi hamda mantiqan o‘ylab, javob berishiga qaratilgan. O‘quvchilar rasmda ifodalangan ma’noni topib, aytishlari lozim.

Yechim:

1. *Tilning uchida turmoq.*
2. *Pashshadan fil yasamoq.*
3. *Burnidan ip o‘tkazmoq.*

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

Topshiriq. Matnni o‘qing va unda berilgan iboralarni izohi bilan birga daftaringizga yozing.

Mazkur topshiriq matnni o‘qib tushunish, unda qo‘llangan til birliklarining ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilarga matnda qo‘llangan iboralarni yozib, ma’nosini keltirishlari aytiladi.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

Topshiriq. Matnni o‘qing va unda berilgan iboralarni izohi bilan birga daftaringizga yozing.

LOYIHA TAYYORLASH

Topshiriq. Quyida sizga bir nechta neologizm – yangi so‘z taqdim qilinmoqda. Siz ularning o‘zbekcha muqobilini topishingiz kerak. Loyihani bajarishda tanlagan so‘zingiz neologizmning ma’nosini qamrab olishiga, imkon qadar unga yaqin bo‘lishiga e’tibor qiling. Bir nechta variant taqdim etishingiz, izohli lug‘atda mavjud bo‘lmagan so‘z yasashingiz ham mumkin.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, ijodiy yondashishiga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan so‘zlar bilan tanishib, ularga mos muqobil so‘zlarni topib, yozishlari aytiladi. Bu jarayonda lug‘atlar va internet saytlaridan foydalanishlariga ruxsat beriladi.

V. Darsni yakunlash.

O‘qituvchi berilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarning darsdan olgan xulosalarini so‘raydi. O‘quvchilarning faolligiga munosabat bildirilib, dars yakunlanadi.

29-dars

Mustahkamlash darsi

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish, ochiq va yopiq shaklda berilgan ma’lumotlarni aniqlash, matn mazmuni asosida xulosalar chiqara olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar ustida ishlash; subyektiv munosabatni ifodalovchi shakllar, matnning asosiy qismlari, kirish qismi bilan bog‘liq bilimlarni mustahkamlash.

Dars jarayoni



29-dars

MUSTAHKAMLASH

Topshiriq. Matnni o‘qing. Undagi faktlarni aniqlang.

DUNYO TILLARI HAQIDA QIZIQARLI MA’LUMOTLAR

Dunyoda so‘z jihatidan eng boy til arab va ingliz tillari hisoblanadi. Ingliz tili hisobida ikki yarim milliondan ortiq, arab tili hisobida esa uch yarim milliondan ortiq lug‘at boyligi bor. O‘zbek tili zaxirasi taxminan 1 400 000 – 1 600 000 atrofida so‘zga ega ekan. Bu ma’lumotlar, albatta, ijtimoiy sohalarga nisbatan olingan xolos. Tilshunoslik fanidan ma’lumki, qaysi tilda sinonimlar – ma’nodosh so‘zlar ko‘p bo‘lsa, o‘sha til eng boy til; shuningdek, qaysi tilda shakldoshlar – omonim so‘zlar ko‘p bo‘lsa, o‘sha til kambag‘al tillar sirasiga kiradi deb hisoblanadi. Masalan, Shimoliy qutbda yashaydigan eskimos qabilasiga mansub millat tilida “qor” so‘zining 20 xil sinonimi mavjud. Arab tilida esa “cho‘l” so‘zining 100 dan ortiq varianti bor.

Yer kurrasi bo‘ylab eng keng tarqalgan til esa ispancha hisoblanadi. Ispan tilining bu qadar ommalashib ketishiga, avvalo, mashhur sayyohlar, dengiz qaroqchilari va ispaniyalik mustamlakachilar sabab bo‘lgan. Hatto AQShning 50 ta shtatidan 23 tasida davlat tili ispan tili hisoblanadi.

M. Bobojonov

29.1-mashq. Fikrni o‘qing. Uning davomini hayotiy misollardan foydalangan holda adabiy tilda izchil bayon qiling.

Omad har bir insonning eshigini hech bo‘lmaganda bir marta chertadi. Afsuski, ko‘pchilik bu paytda yo internetda, yo televizor qarshisida o‘tirgani uchun eshitmay qoladi.

29.2-mashq. Matndan informatika sohasiga oid atamalarini aniqlang. Kompyuter texnologiyasida qo‘llanadigan o‘zbekcha so‘zlar ro‘yxatini tuzing.

Namuna: *gipermatn*, *diskyuritkich*, *sichqoncha*...

O‘zbek tadqiqotchilari “Leksik tahlil muhiti” dasturini yaratdi. Bu dastur “Server – Mijoz” texnologiyasiga asoslangan, uni global yoki lokal tarmoqda qo‘llash mumkin. Dasturiy tizimni ishlab chiqishda dasturlash tillari (PHP, CSS, jQuery, JavaScript, HTML, Ajax)dan biri tanlab olinadi, ma’lumotlar bazasi uchun esa MySQL dan foydalaniladi. Tizim foydalanuvchiga uch til (o‘zbek, ingliz, rus)da leksik ma’lumotlarni qidirish, izlab topish va ma’lumotlarning kerakli qismiga tez o‘tish imkonini beradi.

107

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Berilgan mashq yordamida kirish suhbati o‘tkaziladi.

Topshiriq. Matnni o‘qing. Undagi faktlarni aniqlang.


Mazkur topshiriq matnni o‘qib tushunish, matnda keltirilgan tafsilotlarni dalillaydigan til birliklarini topishga qaratilgan. Har bir o‘quvchi matnni alohida, ichida o‘qishi uchun ma’lum vaqt beriladi. O‘qituvchi matnni diqqat bilan o‘qish kerakligini aytadi, shundan so‘ng matn mazmuni va tafsilotlarini asoslashga qaratilgan birliklar asosida savol-javob o‘tkaziladi.

29.1-mashq. Fikrni o‘qing. Uning davomini hayotiy misollardan foydalangan holda adabiy tilda izchil bayon qiling.

Ushbu topshiriq o‘quvchilar erkin fikrlashi hamda fikrlarini adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda bayon etishiga qaratilgan. O‘quvchilarga fikrni o‘qib, munosabat bildirish aytiladi.

29.2-mashq. Matndan informatika sohasiga oid atamalarini aniqlang. Kompyuter texnologiyasida qo‘llanadigan o‘zbekcha so‘zlar ro‘yxatini tuzing.

Mazkur topshiriq atamalarni tushunish hamda unga oid til birliklarini aniqlab, muqobilini topishga qaratilgan. O‘quvchilarga matndan informatikaga oid atamalarni aniqlab, ularning ro‘yxatini tuzish aytiladi.



29.3-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan gap asosida bahs-munozara uyushtiring.

Zamonaviy manqurtlik

— Yer kurrasida nima gap? — so'radi o'zga sayyoraliklar sardori.
— Bordim. Bir xalqni ko'rdim. Ahvoli yaxshimas, — javob berdi boshqasi.
— Nega? Axborot ber-chi!
— Ota qo'ltelefonga yopishib qolgan; ona qo'ltelefon ichiga kirib ketgan; o'g'il qo'ltelefonga uylanyapti; qiz qo'ltelefonga erga tegyapti; miyasida telefon o'sib chiqqan avlod tug'ilyapti; butun xalq telefon vabosiga yo'liqqan.
— Qo'ltelefon degani nima o'zi? — hayratlandi sardor.
— Qurol bo'lsa kerak... **O'zini yeb bitirish uchun o'zlari o'ylab topgan qurol!** — javob berdi boshqasi.

Qo'chqor Norqobil

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Quyidagi SMS xabarning imlosini tuzating va yozing. Yozish madaniyati xususida o'z mulohazalaringizni bildiring.

Sava! Tuzumsan iwla qaley bugn oqwga borasami borsen maniyam bor qildrb qoy vawe iwm kop tezro jovop yoz.

108

30-dars Nazorat ishi
31-dars Nazorat ishi
32-dars Nazorat ishi tahlili

29.3-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan gap asosida bahs-munozara uyushtiring.

Ushbu topshiriq frazeologik birliklarni tushunish hamda kontekstdagi ma'nosini izohlashga qaratilgan. O'quvchilarning matnda keltirilgan iboraga oid munosabat tinglanadi.

IV. Uyga vazifa berish.

"Mustaqil bajaraman" rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

Topshiriq. Quyidagi SMS xabarning imlosini tuzating va yozing. Yozish madaniyati xususida o'z mulohazalaringizni bildiring.

Mazkur topshiriq matnni tahlil qilish, tanqidiy qarash hamda o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishga, unda qo'llangan til birliklarining ma'nosini tushunishga qaratilgan. O'quvchilarga matndagi xatolarni tuzatib yozish aytiladi.


V. Darsni yakunlash.

Chorak davomida o'qilgan va o'rganilganlarni mustahkamlash, ta'tilda mustaqil biror-bir asarni o'qib kelish.

33-dars

Darsning maqsadi. Nobel mukofoti haqidagi informativ matn bilan tanishish va uni tahlil qilish; o‘qilgan va tinglangan matnlardagi ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, qiyoslay olish va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish; fikrni to‘g‘ri va ravon yetkazish; yordamchi so‘zlarni qo‘llash, lug‘at bilan ishlash va savodxonlikka doir bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni



tadqiqotchilardan biri shoir haqida shunday yozadi: “U poeziyani zulmat qa’ridan olib chiqdi, shuningdek, baxtga eltuvchi yo‘l azob-uqubatlar, fidoyilik va qardoshlik muhabbati orqali o‘tadi, deb uqtirdi”.

Uzoq vaqt falajlikdan azob chekkan shoir 1907-yil 6-sentyabrda Shatney-Malabri shaharchasida vafot etadi. Uning qanday inson bo‘lganini asarlarida tarannum etilgan xayrli ishlarni nechog‘lik amalga oshirganidan ham bilsa bo‘ladi. Pryudom Nobel mukofoti uchun olgan pulini yosh shoirlarni rag‘batlantirishga sarflaydi. Taassuf ila tan olish kerakki, o‘z davrida adabiyot sohasida ham, olimlar doirasida ham, jamoatchilik ichida ham hurmatga sazovor bo‘lgan Syulli-Pryudomni bugungi kunda hatto vatani Fransiyada ham kam eslashlari achinarli hol, albatta.

Mahmadiyor Asadov, saviya.uz

33.2-mashq. Quyidagi test savollarining to‘g‘ri javobini toping.

1-test. Adabiyot bo‘yicha ilk Nobel mukofotining Syulli-Pryudomga berilgani ko‘pchilikni hayratlantirdi, chunki...	
A	Ko‘plar Shvetsiyada topshiriladigan mukofotning ilk sohibi ham shved adibi bo‘lishini kutgan edi.
B	O‘sha paytda shoir og‘ir kasal bo‘lib, taqdirlash marosimiga kela olmasligi ayon edi.
C	Zamondosh adiblar orasida Syulli-Pryudomdan ham munosibroq boshqa vakil bor edi.
D	Mukofotni Syulli-Pryudomga topshirish keyingi nomzodlarga katta talablar qo‘yilishiga olib kelishi mumkin edi.

2-test. Matnda ...ga nisbatan muallifning achinish munosabati aks etgan.	
A	Tolstoydek dahoning Nobel mukofotiga loyiq ko‘rilmagani
B	Syulli-Pryudom nomining hozirda juda kam yodga olinishi
C	Bugungi kunda Syulli-Pryudomdek shoirlar yetishib chiqmayotgani
D	Adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha Nobel mukofoti juda kech ta’sis etilgani

33.3-mashq. Matnda yordamchi so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan.

1. Qaysi ko‘makchi va bog‘lovchilarni boshqasi bilan almashtirish mumkin?
2. Yuklamalar so‘z va gaplarga qanday qo‘shimcha ma’no yuklamoqda?

110

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Yangi bob “Fan va texnologiyalar” deb nomlangan. Demak, kirish qismida fan va texnologiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikka urg‘u berilishi, kashfiyotlar uchun ta’sis etilgan nufuzli mukofotlar yodga olinishi tavsiya qilinadi.

Qo‘shimcha ma’lumot.

Eng nufuzli xalqaro mukofotlar

Abel mukofoti — har yili Norvegiya qiroli tomonidan ilmga qo‘shilgan yirik hissa uchun bir yoki undan ko‘p matematikka beriladigan mukofot.

Fields medali — 40 yoshga to‘lmagan matematiklarga Xalqaro matematika ittifoqi tomonidan beriladigan mukofot.

Qirol Faysal xalqaro mukofoti — har yili Podshoh Faysal jamg‘armasi homiylik qiladigan, ilm-fanga ijobiy hissa qo‘shgan erkaklar va ayollarga taqdim etiladigan xalqaro mukofot. Jamg‘arma besh yo‘nalish bo‘yicha mukofotlaydi: Islomga foyda keltirgan xizmatlari uchun; islomshunoslik; arab tili va arab adabiyoti; fan; tibbiyot.

Tang mukofoti – Tayvan tomonidan to‘rtta yo‘nalish: barqaror rivojlanish, biofarmatsevtika fanlari, sinologiya va qonun ustuvorligi yo‘nalishlarida ikki yilda bir marta beriladigan xalqaro mukofotlar to‘plami.

Oskar — AQSH kinematografiya akademiyasining har yili taqdim etiladigan eng nufuzli mukofoti.

Mukofotlar sanalayotgan payt qaysidir bir o‘quvchi Nobel mukofotini ham aytishi shubhasiz. O‘qituvchi shundan so‘ng **33.1-mashq**dagi savollar bilan asosiy mavzuga o‘tadi.

1. Nobel mukofoti haqida nimalarni bilasiz? Bu mukofot qaysi yo‘nalishlar bo‘yicha topshiriladi?

Nobel mukofoti (inglizcha: Nobel Prize) — buyuk ilmiy izlanishlar, inqilobiy ixtirolar yoki madaniyat va jamiyatning rivojiga katta hissa qo‘shganlik uchun har yili taqdim etiladigan eng nufuzli xalqaro mukofotlardan biri. Alfred Nobelning vasiyatiga ko‘ra, 1895-yilda tatbiq etilgan quyidagi besh yo‘nalish bo‘yicha mukofotlar mavjud:

fizika bo‘yicha Nobel mukofoti;

kimyo bo‘yicha Nobel mukofoti;

fiziologiya va tibbiyot bo‘yicha Nobel mukofoti;

adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti;

tinchlik bo‘yicha Nobel mukofoti.

1969-yildan boshlab iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti ham berila boshlandi.

Hozirgi vaqtda Nobel mukofotining qiymati 10 mln shved kronasi (1,3 mln $ atrofida)ga teng.

2. Nobel mukofotini qo‘lga kiritganlardan kimlarni taniysiz?

Albert Eynshteyn, Nils Bor, Mariya Kyuri, Ivan Pavlov, Pablo Neruda, Boris Pasternak, O‘rxon Pomiq, Anatol Frans, Romen Rollan, Ernst Heminguey, Mixail Sholoxov, Robindranath Thakur, Uilyam Folkner, Barak Obama, Teodor Ruzvelt, Mixail Gorbachyov kabi.

3. Markaziy Osiyodan ham kimdir bu mukofotga loyiq ko‘rilganmi?

Afsuski, Markaziy Osiyodan Nobel mukofotini laureatligini hech kim olmagan.

Taniqli turk olimi Aziz Sanjar (turkcha: Aziz Sancar) 2015-yilda kimyo bo‘yicha Nobel mukofotini Tomas Lindal va Pol Modrich bilan birgalikda “DNKni ta’mirlash mexanizmlari bo‘yicha tadqiqotlari uchun” oldi. 2021-yilda Aziz Sanjar O‘zbekistonning Samarqand davlat universiteti kimyo fakulteti talabalariga “Odam genomi, DNK reparatsiyasi xaritasi” mavzusida onlayn ma’ruzalar o‘qigan.

Darslikda berilgan matn, iloji bo‘lsa, tinglanadi. Matn asosida tuzilgan testlar javobi topiladi. **33.2-mashq** yechimi:

1-test. Adabiyot bo‘yicha ilk Nobel mukofotining Syulli-Pryudomga berilgani ko‘pchilikni hayratlantirdi*, chunki zamondosh adiblar orasida Syulli-Pryudomdan ham munosibroq boshqa vakil bor edi.*

2-test. Matnda *Syulli-Pryudom nomining hozirda juda kam yodga olinishiga* nisbatan muallifning achinish munosabati aks etgan.

Matnda yordamchi so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan. Ular guruhlab yoziladi:

bog‘lovchilar: *biroq, hamda, va, ila;*

ko‘makchilar: *bo‘yicha, orqali, uchun;*


yuklamalar: *hatto, ham.*

Quyi sinflarda yordamchi so‘zlar bo‘yicha o‘rganilgan bilimlarni savol-javob asosida takrorlash va mustahkamlash tavsiya qilinadi. So‘ng **33.3-mashq** bajariladi.

1. Qaysi ko‘makchi va bog‘lovchilarni boshqasi bilan almashtirish mumkin?

Namuna:

Biroq (*ammo, lekin*) butun dunyo adiblari ushbu mukofot jahonda asarlari eng ko‘p o‘qilayotgan ulug‘ rus adibi Lev Nikolayevich Tolstoyga berilishini kutayotgandi.



O'zbek olimi maishiy hayot tashvishlari bilan ovora bo'lib Puankare teoremasini isbotlashga kech qoldi.

T N

O'zbek olimini eng ko'p iztirobga solgan narsa Perelmandan biroz kech qolgani edi.

T N

33.5-mashq. Parchada ajratib ko‘rsatilgan gap mazmunidan o‘zbek olimining kasbini aniqlang. Buni qanday aniqladingiz?

TIL SANDIG‘I

YIL SO‘ZI

Har yili turli nashr va tashkilotlar yilning eng ommabop so‘zini e’lon qiladi. Britaniyaning “Kollinz” lug‘ati tomonidan quyidagi so‘zlar “Yil so‘zi” sifatida e’lon qilingan:

2016-yilda – “Breksit” (Brexit)

2017-yilda – “feyk xabar” (fake-news)

2018-yilda – “bir martalik” (single-use)

2019-yilda – “iqlim uchun kurash” (climate strike)

2020-yilda – “lokdaun” (lockdown)

2021-yilda – “NFT” (NFT – Non Fungible Token – almashilmas token)

Shuningdek, 2021-yilda “Oksford” lug‘ati “vaksina” (vax), “Kembrij” lug‘ati “qat’iyat” (perseverance), “Vebster” lug‘ati “vaksina” (vaccine) so‘zini “Yil so‘zi” deb e’lon qilgan.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Ushbu darsda tanishilgan matnlar asosida 5 ta test tuzing.

Test savollari mayda va keraksiz detallarni eslab qolishni emas, balki ma’lumotlarni tushunishni, qiyoslay olish va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqara olishni tekshirishga qaratilgan bo‘lsin.

A. B. C. D.

112

Uning “asarlarining o‘ziga xos badiiy obro‘si, xususan, yuksak g‘oyaviyligi, mukammalligi, shuningdek, iste’dod bilan samimiylikni ajoyib tarzda uyg‘unlashtirgani ***uchun*** *(sababli, tufayli, bois)*” mukofotga loyiq deb topilishi ushbu shoir ijodiga berilgan xolis bahodir.

“Sinchkovlik, kuzatuvchanlik ***hamda*** (*va*) ma’naviy ulug‘vorlik bilan yo‘g‘rilgan zakovat Syulli-Pryudomni boshqalardan ajratib turadi”.

2. Yuklamalar so‘z va gaplarga qanday qo‘shimcha ma’no yuklamoqda?

Hatto – kuchaytiruv-ta’kid ma’nosini, *ham* – ta’kid ma’nosini yuklagan.

33.4-mashqda Abduqayum Yo‘ldoshevning “Puankare” hikoyasidan olingan parcha bilan tanishib chiqiladi. O‘quvchilar parcha asosida xulosalarini daftarga yozadilar va o‘qib beradilar. Bu mashqni bajarish barobarida ta’lim va tarbiya birligi ta’minlanadi: vaqtni behuda sovurmaslik, har bir daqiqadan unumli foydalanish muhimligi uqtiriladi. Matn asosida testlar yechiladi:

1. O‘zbek olimi maishiy hayot tashvishlari bilan ovora bo‘lib Puankare teoremasini isbotlashga kech qoldi. – ***To‘g‘ri***.

2. O‘zbek olimini eng ko‘p iztirobga solgan narsa Perelmandan biroz kech qolgani edi. – ***Noto‘g‘ri*** . Olim o‘ziga zarur shart-sharoit yaratilmaganidan azoblandi (matndan: *“Men… men uydagilardan yashirinib ishlardim”*.)

33.5-mashq. O‘zbek olimi amaliy matematika sohasi bilan shug‘ullanadi. (matndan:

*Perelman **bizning sohada** nufuziga ko‘ra Nobel mukofotiga teng hisoblanadigan xalqaro “Filds medali” bilan taqdirlanibdi.*)

Savol: Siz ham Nobel mukofotini olishni istaysizmi? Qaysi sohada kashfiyot qilishni xohlar edingiz?

“Til sandig‘i” ruknida berilgan ***Yil so‘zi*** lug‘ati bilan tanishiladi.

Savol: Siz qaysi so‘zni “Yil so‘zi” sifatida tavsiya qilgan bo‘lar edingiz?

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan.
Topshiriq. Ushbu darsda tanishilgan matnlar asosida 5 ta test tuzing.
Test savollari mayda va keraksiz detallarni eslab qolishni emas, balki ma’lumotlarni tushunish, qiyoslay olish va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqara olishni tekshirishga qaratilgan bo‘lsin.

V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsda o‘zlari uchun Nobel mukofoti haqida yangilik olganliklarini, matndagi ochiq va yashirin ma’lumotlarni fahmlash va munosabatni adabiy tilda ravon ifodalash muhimligini bayon etishadi.

34-dars

Dars maqsadi. Nobel mukofoti laureatlari nutqlarining matni bilan tanishish va tahlil qilish; o‘qilgan va tinglangan matnlardagi ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, qiyoslay olish va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish; matn mazmuni asosida savollar tuza olish; minbarda nutq so‘zlash qoidalari bilan tanishish; lug‘at bilan ishlash va imloviy savodxonlikka doir bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni



34-dars

Topshiriq. Quyidagi ikki matn bilan tanishib chiqing.

1-matn

Nelson Mandelaning Nobel mukofotini qabul qilib olgan chog‘idagi nutqidan parcha

Nelson Mandela

Janubiy Afrika Respublikasi davlat arbobi, sobiq prezidenti.

Inson huquqlari uchun kurashgan, 27 yillik qamoq jazosi ham uni to‘xtata olmagan.

1993-yilda Tinchlik bo‘yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlangan.

Zoti oliylari, Oliynasab Qirollik xonadoni a’zolari, Muhtaram Nobel qo‘mitasi vakillari,

Muhtarama Bosh vazir Gru Harlem Bruntlann xonim, vazirlar, parlament a’zolari va elchilar, o‘rtoq laureat Frederik Villem de Klerk, qadrli mehmonlar, do‘stlar, xonimlar va janoblar!

Men ayni damda Norvegiyadagi Nobel qo‘mitasiga Tinchlik bo‘yicha Nobel mukofotiga loyiq ko‘rganlari uchun samimiy tashakkurimni izhor etaman...

Bu mukofotni pulga chaqib bo‘lmaydi. Buni ajdodlarimiz izidan ergashgancha bosib yurganimiz – Afrika tuprog‘i qatlamlaridagi nodir metallar va qimmatbaho toshlarning ulgurji bahosi deb tushunmaslik kerak.

Bu mukofotning qadri farzandlarimizning – har qanday jamiyatning eng zaif, ammo eng buyuk xazinasi bo‘lmish bolalarimizning kulgisi va salomatligi bilan o‘lchanadi. Bolalarimiz, hech bo‘lmaganda, ochiq qirlarda o‘ynashi, tuyqus paydo bo‘ladigan

113

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Yangi mavzuni hayotiy vaziyatga doir savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilib boshlash tavsiya qilinadi:

1. Siz ko‘pchilik oldida nutq so‘zlay olasizmi?

2. Nutq so‘zlash jarayonida sizni hayajon bosadimi?

3. Siz uchun fikringizni joyingizda turib aytish qulaymi yo minbarda (yozuv taxtasi oldida) turibmi?

4. Sinfdoshlaringiz qarshisida so‘zlayotganda o‘ng‘aysizlikdan qanday qutulish haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz?

Pedagogik tajribalardan ma’lumki, ayrim o‘quvchilar yozuv taxtasi oldida hayajonga tushib, yo so‘zlarini yo‘qotib qo‘yadilar, yo fikrlarini to‘liq yetkazib bera olmaydilar. Nima qilish kerak? Bugungi mavzu ana shu muammoni yoritadi. Dastlab darslikdagi Nobel mukofotini qabul qilib olish marosimida so‘zlangan nutq parchalari bilan tanishiladi. Matnlar audio shaklida eshittirilishi ham mumkin.


Matnlar yuzasidan savollar:

1. Har ikkala laureat o‘z nutqining kirish qismini qanday so‘z va birikmalar bilan boshlagan?

2. Nelson Mandela o‘ziga berilgan Nobel mukofotining qadr-qimmatini qanday baholaydi?

3. Ernest Heminguey mukofotni olishdagi kayfiyatini qanday izhor qiladi?

4. Ikki mashhur shaxs fe'l-atvorining o'ziga xos tomonlari qaysi so'z va iboralar orqali ochilgan? Matnlardan iqtibos keltirib asoslang (masalan, Ernest Heminguey nutqidagi *"hotamtoy Alfred Nobel"* kinoyasida yozuvchi shaxsidagi hazilga moyillik, qochirimlarga ustalik xislati aks etgan).



LOYIHA TAYYORLASH

Topshiriq. Tasavvur qiling: Stokgolmdasiz. Nobel mukofoti bilan taqdirlandingiz. Sizni minbarga nutq so'zlash uchun taklif qilishdi.
Avvalo, matnni tayyorlashga kirishing.
Qaysi yo'nalish bo'yicha Nobel laureati ekaningizdan kelib chiqib asosiy qismni shakllantiring.
Matnni qayta-qayta o'qing. Ko'zgu qarshisida turib yuz, qo'l ishoralarining holatini kuzating.
"Qirol nutqi" ("The King's Speech") filmini ko'rib, undagi maslahatlarga amal qilish tavsiya etiladi.
Adabiy til me'yorlariga rioya qiling.
Tavsiya etiladigan vaqt: 5 daqiqa.

116

5. Matnlar qanday yakunlangan? Qaysi birida jo'shqin ohang seziladi?

6. Tarjimonlar mahoratiga qanday baho berasiz? Qaysi tarjimon uslubi matnni tushunishingizda murakkablik qildi?

34.1-mashqdagi savol asosida o'quvchilarning asoslangan fikrlari tinglanadi. Shundan keyin nazariy ma'lumot beriladi.

Minbarda nutq so'zlash

Nutq so'zlash og'zaki matnni shunchaki yodaki aytib berish yoki o'qib berish emas. Avvalo, nutq mazmuniga mos tarzda kiyinish lozim. Ilmiy, xalqaro davralarda matnni qog'ozdan o'qib berish mas'uliyat belgisi sifatida qaraladi. Bu orqali vaqt ham tejaladi, aytiladigan ma'lumotlarning izchilligiga va yoddan ko'tarilmasligiga ham erishiladi.

Matn qismlari mazmuniga ko'ra yuz, qo'l ishoralaridan foydalanish, ovozni balandlatish, pastlatish, unga kayfiyat yoki g'amginlik ohangini qo'shish nutq ta'sirchanligini oshiradi. Masalan, davradagilar va alohida shaxslarga salom berish, minnatdorchilik bildirish chog'ida yuzni ular tomonga qaratish, tabassum qilish tavsiya etiladi.

Muhim so'zlar: ism, tashkilot nomi, termin, unvon kabilarning to'g'ri talaffuz etilishiga alohida e'tibor bering.

O'qituvchi shu o'rinda **"Qirol nutqi" ("The King's Speech")** tarixiy filmi haqida ma'lumot berishi va uni tomosha qilishni maslahat berishi maqsadga muvofiq (filmni internet tarmog'i orqali darsdan so'ng sinfdoshlar birgalikda ko'rishi juda yaxshi natija beradi.)

2010-yilda katta ekran yuzini ko'rgan mazkur kinoasarda Britaniya qiroli Georg (Jorj) VI ning hayoti haqida hikoya qilinadi. Qirol duduq bo'lsa-da, o'z nutqi ustida qattiq ishlaydi va natijada muvaffaqiyatli chiqish qiladi.

Dramatik sahnalarga boy “Qirol nutqi” tarixiy filmi Oskar mukofotining to‘rtta nominatsiyasi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritgan. Shuningdek, “Oltin globus” mukofotiga ham loyiq ko‘rilgan. Filmni suratga olish uchun 15 million dollar mablag‘ sarf qilingan va u ijodkorlariga 424 million dollar daromad keltirgan.

IV. Uyga vazifa berish.

Loyiha tayyorlash uyga vazifa qilib beriladi.

Topshiriq. Tasavvur qiling: Stokholmdasiz. Nobel mukofoti bilan taqdirlandingiz. Sizni minbarga nutq so‘zlash uchun taklif qilishdi.

Avvalo matnni tayyorlashga kirishing.

Qaysi yo‘nalish bo‘yicha Nobel laureati ekaningizdan kelib chiqib asosiy qismni shakllantiring.

Matnni qayta-qayta o‘qing. Ko‘zgu qarshisida turib yuz, qo‘l ishoralarining holatini kuzating.

Adabiy til me’yorlariga rioya qiling.

Tavsiya etiladigan vaqt: 5 daqiqa.


V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsdan olgan taassurotlarini aytib berishlari kerak. O‘rgangan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llashga va muvaffaqiyatga erishishga harakat qilishlari zarurligini ham izohlab ketadilar.

35-dars

Dars maqsadi. Kremniy vodiysi haqidagi informativ matn bilan tanishish va uni tahlil qilish; o‘qilgan va tinglangan matnlardagi ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish hamda to‘g‘ri xulosa chiqarish; fikrni dalillar asosida himoya qila olish; matn mazmuni asosida savollar tuza olish; lug‘at va imloviy savodxonlikka doir bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni



120

2-test. Matn mazmuniga ZID ma’lumotni aniqlang.	
A	Hududning tashkil topishida Stenford universiteti vakillari asosiy rolni o‘ynaganlar.
B	Silikon vodiysining asoschisi sifatida Stenford universiteti vakillaridan biri e’tirof etiladi.
C	Texnologiyalar parkini yaratish uchun Stenford universiteti hududni 51 yilga ijaraga oladi.
D	“Google” axborot tizimining asoschilari Stenford universitetida tahsil olishgan.

3-test. Matnning 2-qismida ajratib ko‘rsatilgan qismdagi uslubiy xatoni bartaraf qilish uchun...	
A	***bo‘sh*** so‘zini ***gektar*** so‘zidan keyinga olish kerak
B	***-dan*** qo‘shimchasini ***-ni*** shakliga almashtirish kerak
C	***tegishli*** so‘zi o‘rniga ***xos*** so‘zini ishlatish kerak
D	***olishga*** so‘zi tarkibidagi ***-ga*** qo‘shimchasi o‘rniga ***uchun*** so‘zini qo‘llash kerak

4-test. Matnning 2-qismida ajratib ko‘rsatilgan birlik qanday ma’noda qo‘llangan?	
A	tadqiqotchilarning ilm-fandan yiroqlashishlariga yo‘l qo‘ymaslik
B	tadqiqotchilarni xavf-xatardan himoya qilish
C	tadqiqotchilarning hayotini sug‘urtalash
D	tadqiqotchilar ketib qolishlarining oldini olish

5-test. Matnning qaysi qismida Silikon vodiysi aholisi tavsiflangan?	
A	2-qismida
B	4-qismida
C	1-qismida
D	3-qismida

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Sinf to‘rt guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga matnning raqamlangan bitta qismi topshiriladi. Guruhlar matn bo‘yicha quyidagi bosqichda ish olib borishlari maqsadga muvofiq:

1-bosqich. Matn bilan tanishish

Har bir guruh o‘ziga ajratilgan matnni diqqat bilan o‘qiydi.

2-bosqich. Izohli lug‘at tayyorlash

1-qismda:
“Silicon valley” – Kremniy vodiysi.

“Electronic News” – Elektronika yangiliklari” (gazeta nomi).

“Silicon” – kremniy elementining inglizcha nomi.

2-qismda:

Stenford universiteti – AQSHning Kaliforniya shtatida joylashgan, fan, texnologiya, biznes boshqaruvi va boshqa bir qancha sohalar bo‘yicha yetakchi o‘rinda turuvchi xususiy universitet.

“Hewlett-Packard Co”. – “Hewlett-Packard” kompaniyasi – shaxsiy kompyuterlar, noutbuklar, serverlar, printerlar, fotoapparatlar, kalkulyatorlar, tarmoq boshqaruvi dasturlari kabi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi axborot texnologiyalari korporatsiyasi.

Google – “Google LLC” – “*Alphabet*” kompaniyasiga tegishli transmilliy korporatsiya; “*Amazon*”, “*Apple*”, “*Meta*” va “*Microsoft*” kompaniyalari bilan birgalikda “Katta beshlik“ axborot texnologiyalari kompaniyalaridan biri hisoblanadi.



28.4-mashq. Matnni o'qing. Muallifning so'z mas'uliyati ifodalangan asosiy fikriga mos maqollar topib, yozing.

So'z so'ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Tuzilgan jumlani yozuvchining o'zigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozuvchilik aytmoqchi bo'lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashilmovchilik solmaslikdadir.

Qalam – o'qlog'i, adabiyot – ketmon bozori emas. Yo'sinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir so'zdan jumlalar to'qimoq fazilat sanalmaydi. So'z qolip, fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin.

Abdulla Qodiriy

TIL SANDIG'I

QULOG'I TOM BITGAN: "TOM" NIMA?

Tilimizda uch xil **tom** so'zi bor. Ikkitasining ma'nosi ko'pchiligimizga yaxshi tanish: *uyning tomi*, *kitobning tomi (jildi)*. Sarlavhadagi iborada bu ikki *tom* so'zi qatnashmagan. U boshqa bir omonim. U arab tilidan kirgan *tom* so'zi bo'lib, asliyatda *to'la*, *to'liq*, *butun; mukammal* ma'nosini bildiradi. O'zbekchada *to'la*, *to'liq*, *butunlay*, *tamomila* ma'nolarida qo'llanadi:

Tom ma'noda, *tom ma'nosi bilan* kabi iboralarda ham ana shu **tom** so'zi ishlatilgan. Bunda *to'liq*, *chin* ma'nosi nazarda tutiladi.

Qulog'i tom bitmoq birikmasi quloq tamoman bitganini, eshitish qobiliyati yo'qolganini bildiradi. Bu ibora bo'yicha ba'zan "ehtimologiya" variantlari ham uchrab turadi: "*tom ostida qolgan odamning qulog'i eshitmay qoladi*, *shuning uchun tom bitdi deyilgan*" deganga o'xshash. Bu fikr xato, albatta.

Orif Tolib

28.5-mashq. Zehningizni ishga soling!

1. "Butun zamin-u osmon uyquga cho'mgan. Bo'ronlar tinib, to'fonlar to'xtagan lahzada ham "U" ziyrak turadi. "U" hamisha uyg'oq".

Ushbu jumlada yozuvchi Tohir Malik nimaga tarif bergan?

2. Rasmlarda yashiringan iboralarni yozma ifodalang.

3-qismda:

"Apple Inc". – shaxsiy kompyuterlar, iPod audiopleyerlar va dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi korporatsiya.

AMD – "Advanced Micro Devices (AMD)" integral sxemalari ishlab chiqaruvchi kompaniya.

"Dolby Laboratories Inc." – ovoz tizimlari va raqamli videotexnologiyalarga ixtisoslashgan kompaniya.

"Intel" – elektron qurilmalar va kompyuter qismlari, yarimo'tkazgichlar, mikroprotsessorlar va boshqa qurilmalar ishlab chiqaruvchi korporatsiya.

"Juniper Networks" – internet provayderlar, telekommunikatsiya uskunalarini ishlab chiqaruvchi kompaniya.

"NVIDIA Corporation" – videoo'yinlar, vizualizatsiya, avtomobilsozlik sanoatida qo'llanadigan grafik protsessorlar ishlab chiqaruvchi kompaniya.

4-qismda:

Raqamli texnika davri – iqtisodiyot tarmoqlari va ishlab chiqarishga raqamli va mobil texnologiyalarni joriy etish hamda elektron hukumatni rivojlantirish davri.

3-bosqich. Matnni hikoya qilish

Har bir guruh o'ziga ajratilgan matnni boshqa guruhlarga adabiy tilda ravon so'zlab beradi.

4-bosqich. Savol-javob

Har bir guruh boshqa guruhga 2 tadan savol taqdim qiladi.

Namunalar:

1-guruh savollari:

1. *Silikon (Kremniy) vodiysi*ga kirib qolgan odam nima uchun o'zini fantastik kino qahramonidek tasavvur qiladi?

2. Xaritadan *Silikon (Kremniy) vodiysi* joylashgan hududni ko'rsatib bera olasizmi?

2-guruh savollari:

1. *Silikon (Kremniy) vodiysi* dastlab qanday maqsadda barpo etilgan edi?

2. Stenford universitetini bitirgan salohiyatli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash kabi dasturni mamlakatimizda ham tatbiq qilish qanday natija beradi deb o‘ylaysiz?

3-guruh savollari:

1. “O‘lim vodiysi” qay tarzda “Millionerlar vodiysi”ga aylandi?

2. Siz **Silikon vodiysi** kompaniyalari ishlab chiqqan qaysi dasturiy ta’minot va texnologiyalardan foydalanasiz?

4-guruh savollari:

1. Nima uchun **Silikon vodiysi**da kulgiga qolishdan qo‘rqmaydilar?

2. “Tafakkur bilan tafakkurning, sarmoya bilan sarmoyaning tinimsiz kurashi va raqobati” deganda nimani tushundingiz?

5-bosqich. Xulosa yozish

Har bir guruh matn asosida umumiy xulosa yozadi va boshqa guruhlarga o‘qib beradi. Bosqichma-bosqich ishlash orqali matn ketma-ketlikda tahlil qilinadi. Guruhlarda ishlash orqali har bir guruh boshqalariga fikrni to‘g‘ri va to‘liq yetkazishga, boshqalar ham shu matn qismining mazmunini anglay olishiga, nihoyasida esa to‘g‘ri qaror chiqarishga harakat qiladi.

35.2-mashqdagi testlar yechimi:

Test raqami	Test javobi	To‘g‘ri javobning izohi
1	B	Yarimo‘tkazgich qismlarini ishlab chiqarishdagi asosiy material ingliz tilida “silikon” deyiladi *(1-qism)*.
2	C	Texnologiyalar parkini yaratish uchun Stenford universiteti hududni yangicha texnologik ishlanmalar bilan shug‘ullanadigan kompaniyalarga 51 yilga o‘rtacha to‘lov bilan ijaraga berdi (*2-qism*).
3	A	Shunda universitet rahbariyati takomillashish uchun sarmoyani o‘ziga tegishli 3240 gektar bo‘sh hududdan olishga qaror qiladi (*bo‘sh* so‘zi *hudud* so‘zining aniqlovchisi bo‘lib keladi).
4	D	Salohiyatli tadqiqotchilarning boshqa hududlarga ishga ketib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, Kaliforniyaning o‘zida olib qolish va ularning iqtidoridan foydalanish maqsad qilingan edi.
5	B	Vodiyda tavakkal qilishdan, yangilik yaratish va uni hayotiy haqiqatga aylantirish uchun mablag‘ sarflashdan cho‘chimaydilar... Bu zaminda yuz berishi mumkin bo‘lgan va, ehtimol, bo‘lmagan narsalarga ham umid bilan qaraladi. Silikon vodiysidagi odamlar yaratilayotgan yuksak texnologiyalar hayotni ijobiy tomonga o‘zgartirishiga, insoniyatning kelajakdagi “Raqamli texnika davri” yorug‘ bo‘lishiga astoydil ishonadilar.

6	B	Bu yerda o‘zining aqlga sig‘mas g‘oyalari, takliflari va loyihalari bilan kulgiga qolishdan qo‘rqmaydigan insonlar juda ko‘p (*4-qism*).
7	B	Silikon vodiysi – dunyo IT industriyasida yetakchi markaz hisoblanadi. Barcha mashhur texnologik kompaniyalar Silikon vodiysidan startap oladi. Unga o‘xshash yuqori texnologiyalar markazini yaratishga urinish Buyuk Britaniya, Rossiya, Xitoy, Tayvan va Hindiston kabi mamlakatlarda jadallashdi. O‘zbekistonda ham “O‘zbek silikon vodiysi” – “Mirzo Ulugbek Innovation Center” o‘z ishini boshladi.

“Mantiq vaqti” ruknidagi savol mavzuga mos. Unda raqamlar o‘yini mavjud.

Javob: so‘na, to‘ng‘iz

Izoh: 1-guruh: Jo**bir** Ahmedov, **Bir**odar Abdurayimov (bir).

2-guruh: M**ikki** Maus, R**ikki**-tiki-tavi (ikki).

3-guruh: Tim**uch**in, Monika Bell**uch**chi (uch).

Shu qatorni davom ettirsak, 10-guruhdan tarkibida **“o‘n”** harflar ketma-ketligi mavjud so‘zlar o‘rin oladi. Tarkibida “o‘n” ishtirok etgan, s va t harflari bilan boshlanuvchi hayvon nomlari: s**o‘n**a, t**o‘n**g‘iz.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

Topshiriq. Matnni tushunishni baholash bo‘yicha 4 ta test tuzing.

Test savollari mayda va keraksiz detallarni eslab qolishni emas, balki ma’lumotlarni tushunish, qiyoslash va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqara olishni tekshirishga qaratilgan bo‘lsin.

4 ta testdan 2 tasi fikrning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlashga qaratilsin.

V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha qanday yangilik olganlarini bayon etishadi. Yurtimizda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida fikrlarini bildiradilar.

36-dars

Dars maqsadi. Kelajak kasblari, sun'iy intellektga munosabat haqidagi matnlar bilan tanishish; o'qilgan va tinglangan matnlardagi ochiq va yashirin ma'lumotlarni tushunish, ularni qiyoslash hamda munosabat bildirish; fikrni dalillar asosida adabiy tilda ravon va to'g'ri bayon qilish; zamon qo'shimchalari uslubiyati va imlosiga doir bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni


I. Tashkiliy qism.
II. Uy vazifasini tekshirish va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.
III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Yangi mavzuni boshlashdan oldin muammoli vaziyat yaratish tavsiya qilinadi. Buning uchun ikkita mavzu beriladi:

1. Men orzu qilgan kasb.

2. Men tanlagan kasb.

O'quvchilar shu ikki jumla mazmunini o'zaro qiyoslab, fikr bildirishlari lozim. Bildirilgan munosabatlar orasida har bir bola qaysidir kasbni orzu qilishi, biroq bu kasb u uchun armonga aylanib qolishi mumkinligi haqidagi fikr albatta uchraydi. ***"Orzu qilingan kasbni tanlangan kasbga aylantirish uchun nima qilish kerak?"*** degan savol o'rtaga tashlanishi va fikrlar ketma-ketligi klaster tarzida ifodalanishi mumkin:



Kasb tanlash masalasiga haqiqat ko'zi bilan qarash odatga aylangan. Innovatsiya texnologiyalari rivojlanishi bilan ayrim kasblar muomaladan chiqayotgani va o'rnini kompyuterlarga, robotlarga bo'shatib berayotgani iqtisodiyotning raqamlashtirilayotganidan dalolat. Demak, o'quvchilarga zamon talabiga mos, ehtiyoj yuqori kasblarni egallash tavsiya etiladi. Bugungi kunda tor doiradagi bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, bir necha soha doirasidagi bilimlarni egallash talabga aylanmoqda. **36.1-mashq**da berilgan kasb nomlari orasidan yo'qolib ketishi kutilayotgan yoki robotlar qo'liga o'tadigan kasblar ajratib olinadi: *kutubxonachilik, hisobchilik, haydovchilik, farroshlik, ofitsiantlik, sotuvchilik, qorovullik*.

36.2-mashqdagi rasmlar asosida o'quvchilar olimlar e'tirof etgan kelajak kasbi egalari nima bilan shug'ullanishi haqida tasavvur hosil qiladilar.



Virtual dunyo dizayneri – virtual dunyoni loyihalaydi, bezaydi hamda foydalanuvchilar uchun qulay va munosib muhitni yaratadi.

Koinot gidi – koinot bo‘ylab uyushtirilgan sayohatlar davomida kosmoturistlarni sayr qildiradi, ularga koinot haqida qiziqarli ma’lumotlar beradi, shuningdek, sayohatchilarning xavfsizligini ta’minlaydi.

Tana dizayneri – insonning tanasini o‘zgartirish, ichki va tashqi a’zolarni almashtirish, protezlarni biologik a’zodan farq qilmaydigan darajada qo‘yish bilan shug‘ullanadi.

Xotira terapevti – xotira blan bog‘liq muammolarni davolaydi, texnologik moslamalar yordamida o‘tmish xotiralari va kelajak tasavvurlarini videotasmaga tushiradi, inson ongidan tabiiy intellekt sifatida mukammal foydalanishni yo‘lga qo‘yadi.

Taym menejer – mavjud holatni to‘g‘ri baholaydi va muhim ishlarni ajratib olib, samaradorlikka qisqa vaqt ichida erishish bo‘yicha to‘g‘ri qaror chiqaradi.

Zamon qo‘shimchalarining qo‘llanishi

Ish-harakat ma’lum makon va zamonda ro‘y beradi. So‘zlovchi ish-harakat haqida tinglovchiga axborot bermoqchi, tinglovchidan axborot olmoqchi bo‘lganda zamon ko‘rsatkichlaridan foydalanadi. Zamon shakllari **nutqiy qurshov** ta’sirida turli ko‘chma ma’nolarda bir-birining o‘rnida ishlatiladi. Bunday **nutqiy holat** zamon ko‘chishi deyiladi.

Fe’l zamonlarining alohida-alohida qo‘shimchalari bo‘lsa-da, ularning qaysi zamonni ifodalab kelgani faqat matndan anglashiladi. *Misollar:*

1. Endi nima qil**di**k? (o‘tgan zamon kelasi zamon o‘rnida)

2. Indinga qishloqqa ket**yap**miz. (hozirgi zamon kelasi zamon o‘rnida)

O‘tgan zamonning *-di, -gan, -ib;* kelasi zamonning *-a/-y, -(a)r, -moqchi* qo‘shimchalari ma’nosiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Hozirgi zamon qo‘shimchalarida esa faqat uslubiy farq bor xolos. *-yap* eng faol, ommabop qo‘shimcha bo‘lgani holda *-moqda, -yotir* publitsistik va badiiy nutqqa xos shakllar sanaladi.

Kelasi zamonning *-gay, -ajak, -gu, -ur* shakllari ham faqat badiiy uslubda qo‘llanadi.

Imlosi

-yap shakli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda, *-ayap* holida talaffuz qilinsa-da, *-yap* yoziladi: *Juda chiroyli muomala qilyapsiz*. (P. Qodirov)

O'tgan zamonning *-di* shakli ba'zan *-ti* tarzida talaffuz qilinsa-da, asliga muvofiq yoziladi: *ketdi, o'qibdi.*

Darslikda berilgan topshiriqni o'qish bilan mavzu davom ettiriladi. Matn o'qilgach, sun'iy intellekt – robotlarning ijobiy va salbiy tomonlarini sanab o'tish mumkin. Masalan:

Ijobiy tomonlari: inson omili yo'qoladi, korrupsiyaga yo'l qo'yilmaydi, ishni masofaviy hal qilish imkoniyati mavjud, vaqt tejaladi, resurs tejaladi, maosh to'lanmaydi, ...



Ilon Maskning aytishicha, aqlli robotlar bir kunmas, bir kun odamzodni qirib tashlaydi. Uning xavflilik darajasi yadro qurolinikidan ham yuqori. Stiven Hoking esa oddiy robotlar foyda keltirayotgani rost, ammo ertaga ular o'zini o'zi takomillashtirishga tushsa, unda odamzod hech nima qilolmaydi, ularning evolyutsion tezligi bilan musobaqada yengilamiz, deya ogohlantirgan. Bill Geytsning fikricha, avvaliga ular bizga foyda keltiradi. "Bir necha o'n yillardan so'ng esa faqat zararini ko'ramiz. Unda kech bo'ladi. Ayrim odamlarning bundan xavfsiramasligiga tushunmayman", – deydi u.

36.3-mashq. Matnda olimlar robotlarning kelajakda insoniyat uchun xavfli bo'lishi haqida fikr yuritishgan. Ularning fikrlariga munosabat bildiring.

36.4-mashq. Quyidagi gaplarda qo'llangan fe'llarning zamon qo'shimchalarini izohlang.

1. U uyda bekor o'tiribdi.
2. Yakshanba kuni dam olish uchun tog'ga ketyapmiz.
3. Olim maqolasida robotlarning zararli tomonlari to'g'risida to'xtaladi.
4. Yur, ketdik, bu yerda qolishdan endi naf yo'q.
5. Qarasam, bobom men tomon kelmoqda.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Rasmda qanday xavf tasvirlangani haqida fikr bildiring. Uni ikki-uch so'z bilan nomlang.

124

Salbiy tomonlari: ishchi o'rni yo'qoladi, ta'mirlab turish kerak, ta'minoti elektr energiyasiga bog'liq, viruslar hujumi xavfi mavjud, hamdardlik hissi yo'q, dasturini o'zgartirish orqali vazifasiga zid ishlarni qilishi mumkin...

Muhokama **36.3-mashq** bilan davom ettiriladi. Matnda olimlar robotlarning kelajakda insoniyat uchun xavfli bo'lishi haqida fikr yuritishgan. Ularning fikrlariga munosabat bildirishda muammo aks etgan kinofilmlarni ham yodga olsa bo'ladi.

36.4-mashq asosida nazariy bilim mustahkamlanadi.

1. U uyda bekor o'tir**ibdi**. (o'tgan zamon ma'nosida)

2. Yakshanba kuni dam olish uchun tog'ga ket**yap**miz. (hozirgi zamon kelasi zamon o'rnida)

3. Olim maqolasida robotlarning zararli tomonlari to'g'risida to'xtal**adi**. (kelasi zamon o'tgan zamon o'rnida)

4. Yur, ket**di**k, bu yerda qolishdan endi naf yo'q. (o'tgan zamon kelasi zamon o'rnida)

5. Qarasam, bobom men tomon kel**moqda**. (hozirgi zamon o'tgan zamon o'rnida)

IV. Uyga vazifa berish.

"Mustaqil bajaraman" rukni ostida rasm berilgan.

Topshiriqni bajarish yuzasidan tavsiya. Rasmni diqqat bilan kuzatib, unga sarlavha topiladi. Rasmdan olingan taassurot ixtirolarning tabiat va insoniyat kelajagiga ta'siri haqida ikki-uch so'zdan iborat fikr bilan ifodalanadi.

Namunalar:
Ko‘zingizni oching: sayyoramiz xavf ostida!
Buyuk ixtirolardan nafasi bo‘g‘ilayotgan ona Yer.

V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar kelajak kasblari, kasb tanlashda zamonaviy texnologiyalar taraqqiyotini hisobga olish muhimligi haqida fikrlarini bayon qiladilar. Qanday nazariy bilimga ega bo‘lganlarini ham bildiradilar.

37-dars

Dars maqsadi. Tabiatdan ilhomlanib kashf etilgan ixtirolar haqidagi informativ matn bilan tanishish va uni tahlil qilish; o‘qilgan va tinglangan matnlardagi ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, ularga munosabat bildirish; nisbat qo‘shimchalarining qo‘llanishi va imlosiga doir bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Darslikda berilgan “Tabiat va ixtirolar” matni bilan tanishiladi. Har bir qismga uning mazmunini o‘zida aks ettirgan sarlavha topib yoziladi va o‘quvchilar shu bo‘yicha savol-javob qiladilar.

Namuna:

1. Buyuk ixtirolar ortida buyuk “josuslik” yotibdi.
2. Ari – daraxtdan qog‘oz tayyorlash usulining ixtirochisi.
3. Gologrаfiya – ko‘rshapalak ultratovush tizimidan aynan ko‘chirma.
4. Nilufargul xususiyatlari asosida yaratilgan bo‘yoq.
5. Jimyurarning qurilish siri.
6. “IBM” kompaniyasining qon oqimi prinsipiga asoslangan yangi texnologiyasi.
7. Yangi-yangi ixtirolar umidi.

37.1-mashq. Testlar yechimi:

1. C – o‘ta kuchli.

2. B – 6-qismda.

3. C – arxitektura.



37-dars

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

Tabiat va ixtirolar

1 Jonli tabiat ajoyib konstruktor, muhandis, dizayner, texnolog, buyuk me'mor, quruvchi, betakror meteorolog... Insoniyat qanday ixtirolar qilmasin, universal ustaxonada – tabiatda uning o'xshashi, prototipi topiladi. Buyuk ixtirolar ortida buyuk "josuslik" yotibdi.

2 Radar, qog'oz, internet, protivogaz, reaktiv raketalar... Bularning hammasi – tabiatdan ilhomlanish natijasi. Daraxtdan qog'oz tayyorlash usulini odamzod nimadan o'zlashtirgan deb o'ylaysiz? Aridan ekan! Arilar o'z uyasiga material sifatida uzoq yillik daraxt va to'nkalardan foydalanadi. Ari yog'och tolani qirib olishda va silliqlashda jag'ini; uni yumshatish, ma'lum shaklga keltirish va yopishtirishda so'laklarini ishga soladi. Mana shu jarayonlar bugun insonlar tomonidan amalga oshirilmoqda va sifatli qog'oz tayyorlanmoqda.

3 Kompyuter texnologiyalari va matematik modellashtirishning rivojlanishi olimlarga tabiatning ishoralarini tezroq va aniqroq ilg'ash imkonini berish bilan birga o'tmish olimlarining "sir"laridan ham voqif bo'lishga zamin hozirlaydi. Olimlar Eyfel minorasi boldir suyagimizning tuzilishidan ilhomlanib qurilganini ta'kidlashadi. Yoki bugungi uch o'lchamli kino va televideniye taraqqiyotini olaylik. Bu taraqqiyotga turtki bergan usul golografiya (to'lqinlar interferensiyasidan foydalanib buyumning fazoviy (hajmiy) tasvirini hosil qilish usuli) bo'lib, u 1971-yilda Dennis Gabor tomonidan kashf qilingan. Bugun buning sirini bilamiz: golografiya usuli ko'rshapalakning ultratovush tizimidan aynan ko'chirma ekan. Bu ko'chirma hozir ma'lumotlarni kodlashda, fizika va texnikaning turli sohalarida ham keng qo'llanmoqda.

4 Hindlar nilufargullar (lotuslar)ga bejiz ilohiy tus berishmagan. Axir ular eng iflos ko'lmak va botqoqlarda ham o'zini toza saqlay oladi. Bu suv o'simligi barglari yuzasining maxsus tuzilishi bilan bog'liq ekani aniqlandi. Barg yuzasi silliqdek ko'rinsa-da, aslida, mikroskopik ignalar bilan qoplangan bo'lib, ular suv tomchilarini pastga xuddi simob pufakchalari kabi "dumalatib yuboradi". Ignachalar tufayli yuzaga na suv, na gard yuqadi. Olimlar nilufargulning xususiyatlarini uzoq vaqt davomida o'rganib chiqdilar va natijada suv va g'uborni "qo'ndirmaydigan" bo'yoqni yaratdilar. Bunaqasi hatto g'ozda ham yo'q. U bilan bo'yalgan devorlarni har besh yilda bir marta, hatto kamroq yuvish mumkin: quritgandan keyin sirtlar bo'yoqning mikro tuzilishi tufayli umuman ifloslanmaydi.

5 Germaniyalik zoolog Gyotse XVIII asrda ajoyib jonzotni o'rganadi. Fanda "jimyurar", "tardigrad", "suv ayiqchasi" nomlari bilan ataluvchi yarim millimetrlik bu jonzot deyarli hamma joyda – tog' cho'qqilarida ham, dengiz tublari-yu Antarktida muzliklarida ham uchraydi. Olimlar uning kuchli radiatsiyada ham, kislorodsiz muhitda ham yashab

125

37.2-mashq. Tabiatdan ilhomlanib yaratilgan ma'lumotlarga namunalar.

Tabiatdagi ko'plab mavjudotlar noyob qobiliyatlari bilan odamlarni buyuk kashfiyotlar sari ilhomlantirgan. Qushlarning uchishi orqali samolyot ixtiro qilindi; baliqlar suzishini o'rganib, odamlar okean tubiga sho'ng'ishdi. Chumolilar inining tuzilishi ko'p qavatli binolarni qurish uchun andoza bo'ldi.


Turk olimi Elxon Oqsoy apalona chig'anog'ini o'rganib, uning zirhi ikki baravar mustahkamligini aniqlagan. Dengiz mavjudoti mikroskop orqali 300 000 marta kattalashtirib tekshirilganida ko'p narsa ayon bo'ldi. Uning zirhi g'ishtdan terilgan mustahkam devorga o'xshardi. Bu ko'p qavatli devor oqsil va kalsiy uglerodi qorishmasidan tayyorlangan g'ishtlardan "terilgan" bo'lib, inson qo'li yasagan chinnidan bir necha baravar mustahkam ekan. Bu namunadan ilhomlangan Elxon Oqsoy boron-karbil alyumin materialini kashf qilgan. Hozirda bu materialdan AQSHda tanklarning zirhini yasashda foydalanilmoqda.

O'rgimchak ini dunyodagi eng pishiq va mustahkam toladir. Tolaning diametri 1 mm dan sal kamroq bo'lsa-da, u xuddi shunday qalinlikdagi po'lat simdan besh baravar mustahkam ekan. Diatematus nomli o'rgimchak o'z tanasidagi bezlardan yetti xildagi tola ishlab chiqara oladi. Kimyoviy moddalar ishlab chiqaruvchi "Dyupon" firmasi ushbu o'rgimchak tolasidan material ishlab chiqib, unga "kevlar" deb nom bergan. Miltiqdan sekundiga 150 metr tezlikda uchib chiqqan o'q o'z qarshisidagi har qanday buyumni teshib o'tadi, ammo kevlarni tesha olmaydi. Hozirgi paytda kevlardan minalarga bardoshli poyabzal tayyorlashda, kema va samolyotsozlikda, kosmik sanoatda foydalanilmoqda.

Xulosa. Texnika va biomexanika orasida o‘zaro o‘xshashlik son-sanoqsiz. Masalan: gidravlik qurilma – o‘rgimchakka, ultratovushli lokator – ko‘rshapalakka, reaktiv dvigatel – kalmarga, ekskavator kovshi – ko‘rsichqon va yumronqoziq tishiga, sahrodagi eng qulay mexanizm – tuyaga, aniq barometr – qurbaqa va zulukka, tosh maydalovchi tegirmon – tovuq oshqozoniga, o‘ziyurar konveyer – ilonga, odimlovchi transport vositalari – ot, tuya, qush, odam va boshqa tirik mavjudotlarga o‘xshaydi.

Manba: https://cyberleninka.ru/ Ahmadjonova Mohiyat. “Hayvonlarning tuzilishidan andoza olgan ba’zi ixtirolar”

Nisbat qo‘shimchalarining qo‘llanishi



2-test. Matnning qaysi qismidagi tadqiqot amalga oshgudek bo'lsa, inson Quyoshdan ancha uzoqdagi sayyoralarda ham jon saqlab qolishi mumkin?

A	4-qism
B	6-qism
C	7-qism
D	5-qism

3-test. Matnda qaysi sohaga oid ixtiroga inson tana tuzilishi asos bo'lgani bayon qilingan?

A	tibbiyot
B	dizayn
C	arxitektura
D	robototexnika

37.2-mashq. Tabiatdan ilhomlanib yaratilgan yana qanday ixtirolarni bilasiz? Internetdan foydalanib bitta shunday ixtiro haqida ma'lumot to'plang va daftaringizga yozing.

127

NISBAT QO'SHIMCHALARI QO'LLANISHI

Nisbat qo'shimchalari qo'llanishida ko'pincha ikki holatda xatoga yo'l qo'yiladi. Majhul nisbat shaklidagi fe'l -ni qo'shimchali so'zlar bilan bog'lana olmaydi. *Kitobni o'tirib o'qiladi* gapida uslubiy xato mavjud. *Kitob o'tirib o'qiladi* deyish to'g'ri. *Qo'llaniladi, aytilinadi* kabi shakllarda ham uslubiy xato bor. *Qo'llanadi, aytiladi* shaklida yozish to'g'ri, chunki majhul nisbat qo'shimchasi bir so'zga faqat bir marta qo'shiladi.

37.3-mashq. Matnning 2–5-qismlarida ajratib ko'rsatilgan fe'llarning nisbatini aniqlang.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Matnni tushunishni baholash bo'yicha 4 ta test tuzing.
Test savollari mayda va keraksiz detallarni eslab qolishni emas, balki ma'lumotlarni tushunishni, qiyoslay olish va ulardan to'g'ri xulosa chiqara olishni tekshirishga qaratilgan bo'lsin.
4 ta testdan 2 tasi fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlashga qaratilsin.

Nisbat shakli – bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini ko‘rsatuvchi fe’l shakli.

Uslubiy belgilari. O‘zlik va majhul nisbat qo‘shimchasi shakldosh: *yuvildi* (majhul), *yopindi* (o‘zlik), *takrorlandi* (majhul). Ularni farqlash uchun *kim tomonidan?, nima tomonidan?* so‘roqlaridan biri berib ko‘riladi. Majhul nisbatdagi fe’l bu so‘roqni olgan so‘zga bog‘lanadi: *yuvildi* (kim tomonidan?), *poymol qilindi* (nima tomonidan?).

Ayrim fe’llarning o‘zlik yoki majhul nisbatda ekani matndan aniqlashadi:

Mirkomil xayolga berildi. – Mirkomilga mukofot berildi.

Salimjon imtihonga tayyorlandi. – Mehmonlar uchun joy tayyorlandi.

Fe’l yasovchi *-lash* murakkab shakli bilan yasalgan aniq nisbatdagi fe’llar shaklan birgalik nisbatga o‘xshaydi: *go‘zallashmoq, ommalashmoq, hazillashmoq, o‘rtoqlashmoq, tezlashmoq* kabi.

Nisbat qo‘shimchalari qo‘llanishida ko‘pincha ikki holatda xatoga yo‘l qo‘yiladi.

Majhul nisbat shaklidagi fe’l *-ni* qo‘shimchali so‘zlar bilan bog‘lana olmaydi:

Kitobni o‘tirib o‘qiladi gapida uslubiy xato mavjud. *Kitob o‘tirib o‘qiladi* deyish to‘g‘ri.

Qo‘llaniladi, aytilinadi kabi shakllarda ham uslubiy xato bor. *Qo‘llanadi, aytiladi* shaklida yozish to‘g‘ri, chunki majhul nisbat qo‘shimchasi bir so‘zga faqat bir marta qo‘shiladi.

37.3-mashq yechimi:

tayyorlash (aniq nisbat), ta’kidlashadi (birgalik nisbat), qo‘llanmoqda (majhul nisbat), aniqlandi (majhul nisbat), ko‘rinsa-da (o‘zlik nisbat), dumalatib yuboradi (orttirma nisbat), ifloslanmaydi (o‘zlik nisbat), kashf qilishgan (birgalik nisbat), yo‘qotadi (aniq nisbat).

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uy vazifasi berilgan.

Topshiriq. Matnni tushunishni baholash bo‘yicha 4 ta test tuzing.

Test savollari mayda va keraksiz detallarni eslab qolishni emas, balki ma’lumotlarni tushunish, qiyoslash va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqara olishni tekshirishga qaratilgan bo‘lsin. 4 ta testdan 2 tasi fikrning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlashga qaratilsin.


V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar tabiatning bir butunligi, buyuk ixtirolar zamirida tabiat sirlarini ilg‘ash qobiliyati yotgani haqida fikr almashadilar. Fe’llarning nisbat shakllari uslubiyati borasida olgan bilimlarini ham aytib o‘tadilar.

38-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ishlash, so‘zlarni qo‘shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish, atoqli va turdosh otlar imlosi haqidagi bilimlarni rivojlantirish; o‘z fikrlarini tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslagan holda esse yoza olish bilan bog‘liq yozma nutq malakalarini rivojlantirish ustida ishlash.

DARS JARAYONI



38.1-mashq. Nega ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ayrim qismlari bosh harf, qolganlari kichik harf bilan yozilganini izohlang.

38.2-mashq. Quyida berilgan fe'llardan qaysilari chiziqcha bilan yozilishini aniqlang va daftaringizga ko'chiring.

gullab yashnamoq	borib qaytmoq	unib o'smoq
yig'lab gapirmoq	yig'lab siqtamoq	qo'llab quvvatlamoq
so'rab topmoq	so'rab surishtirmoq	yelib yugurmoq

QO'SHIB, AJRATIB, CHIZIQCHA BILAN YOZISH

Qo'shma ot va sifatlar qo'shib yoziladi: ***karnaygul, ochko'z.***
Qo'shma ravish, son, fe'l va olmoshlar ajratib yoziladi: ***har kuni, o'n olti, olib keldi, hech kim.***
Birpas, birmuncha, ozmuncha, biroz ravishlari qo'shib yoziladi.
Juft, takror va yarimtakror so'zlar chiziqcha bilan yoziladi: ***hali-beri, xola-xola, qip-qizil.***
Juft so'z qismlari orasida *-u/-yu* bo'lsa, asoslar orasi ajratib yoziladi: ***yosh-u keksa, ota-yu ona.***
O'rtasida *-dan* bo'lgan takror so'zlar ajratib yoziladi: ***kundan kun, qizigandan qizidi.***
Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: ***sharshara, pirpira.***
Ayrim yuklama qo'shimchalar va *-la, -chun* ko'makchilari chiziqcha bilan yoziladi: ***aytdim-ku, sen-chi, meni-ya, sen-la, sen-chun.***
Qo'shimchalar qisqartma so'zlarga qo'shib, sonlardan esa ajratib yoziladi: ***O'zMUga, 8 ga, 10 ta.***
Sonlar so'z bilan ifodalanganda qo'shimchalar asosga qo'shib yoziladi: ***sakkizga, o'nta.***

129

38.3-mashq. Quyida berilgan ifodalar natijasi qanday yozilishini aniqlang va daftaringizga ko'chiring.

umum + insoniy	baxt + saodat	baxt + saodat + li
hay + hay + la	ketamiz + mi	ketsang + chi
shu + yoqqa	hech + nima	birdan + bir
so'z + ma +so'z	dum + dumaloq	liq + to'la

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Topshiriq. Matn bilan tanishing.

Matnni o‘qishni boshlashdan oldin quyidagi savollar asosida kirish suhbati o‘tkaziladi:

1. Innovatsiya va innovatsion rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiring.

2. Innovatsion rivojlanish vazirligi (hozirgi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi) haqida eshitganmisiz? Uning vazifasi nimadan iborat deb o‘ylaysiz?

3. Ushbu vazirlik o‘z vakolati doirasida qanday loyihalarni boshqarishi mumkin?

4. Siz ham o‘zingizning shaxsiy innovatsion g‘oyalaringiz va loyihalaringiz haqida o‘ylab ko‘rganmisiz?

Suhbatdan so‘ng matn bilan tanishish uchun o‘quvchilarga vaqt beriladi. Matnni o‘qib chiqqach, o‘tkazilgan suhbat hamda matn mazmuni asosida oldindan chiqarilgan xulosalarning qaysilari to‘g‘riligi, qaysilari ular uchun yangilik bo‘lgani haqida so‘rash maqsadga muvofiq.

Matn ostida berilgan rasmga e’tibor qaratiladi. Saytning umumiy shakli va undagi bo‘limlar haqida savollar beriladi. E’lon qilingan tanlov bilan bog‘liq ayrim g‘oyalar muhokama qilinishi tavsiya etiladi. Bunda o‘quvchilar ikki guruhga ajratiladi va quyidagi ijodiy topshiriqni bajaradilar. Har bir guruh o‘z loyihasini taqdim etadi, ekspert xulosasini esa keyingi guruh bildirishi kerakligi aytiladi.

Loyiha ishi

G‘oya: _____

Mazmuni: _____

Maqsad: _____

Vazifalar: _____

Ekspert xulosasi: _____

Afzalliklari: _____

Kamchiliklari: _____

38.1-mashq. Nega ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ayrim qismlari bosh harf, qolganlari kichik harf bilan yozilganini izohlang.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tahlil qilinadi. Ushbu mashqni bajarish orqali o‘quvchilarning atoqli va turdosh otlar imlosi bilan bog‘liq bilimlari rivojlantiriladi. O‘qituvchi yana boshqa misollarni keltirish orqali ushbu bilimlarni mustahkamlashi mumkin.

38.2-mashq. Quyida berilgan fe’llardan qaysilari chiziqcha bilan yozilishini aniqlang va daftaringizga ko‘chiring.

Berilgan mashq yordamida fe’llarning imlosi bilan bog‘liq bilimlar mustahkamlanadi.

Yechim:


Ajratib yoziladi	**Chiziqcha bilan yoziladi**
yig‘lab gapirmoq	gullab-yashnamoq
so‘rab topmoq	yig‘lab-siqtamoq
borib qaytmoq	so‘rab-surishtirmoq
	unib-o‘smoq
	qo‘llab-quvvatlamoq
	yelib-yugurmoq

Darslikdagi qo‘shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish haqidagi nazariy qoidaga o‘quvchilarning e’tibori qaratiladi, misollar asosida tushuntiriladi.

38.3-mashq. Quyida berilgan ifodalar natijasi qanday yozilishini aniqlang va daftaringizga ko‘chiring.

Ushbu mashq ham o‘quvchilarning imlo qoidalari bilan bog‘liq bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan. O‘qituvchi berilgan so‘zlarni uch guruhga ajratib yozishni so‘raydi.

Qo‘shib yozish	Ajratib yozish	Chiziqcha bilan yozish
umuminsoniy	shu yoqqa	so‘zma-so‘z
ketamizmi?	hech nima	baxt-saodat
hayhayla	liq to‘la	ketsang-chi
	birdan bir	baxt-saodatli
		dum-dumaloq



TIL SANDIG‘I

BIRPAS

“Biz bilan birpas o‘tiring”, deymiz. Umuman, birpas so‘zini biz ko‘p ishlatamiz. Lekin uning tarixini, kechmishini, sakkiz og‘a-inidan bir o‘zi qolganini, yetti aka-ukasi esa tarix to‘zonlarida yo‘q bo‘lib ketganini bilmaymiz. Qizig‘i shundaki, *birpas* so‘zidagi *pas* qismi tilimiz tarixida “kechaning sakkizdan biri” ma’nosini anglatgan…

Yaponlarda ham shunga o‘xshash holat – kechaning hayvonlar nomi bilan soatlarga bo‘linishi bor.

Kechaning uch pasig‘acha yo‘l yurdik. (“Boburnoma”dan)

“Boboso‘z izidan” kitobidan

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. “Mening ixtirom” nomli esse yozing.

Esse kirish, asosiy qism va xulosadan iborat shaklda, adabiy me’yorlarga amal qilgan holda yozilishi kerak.

Turmushimizni yengillashtiruvchi kichik yoki katta ixtiro o‘ylab toping. Bu ixtironing insonlarga foydasini tushuntiring. Va albatta unga nom qo‘ying (Nom o‘zingiz o‘ylab topgan so‘z ham bo‘lishi mumkin).

Tavsiya etiladigan hajm: 170–220 ta so‘z.

130

O‘quvchilarning e’tibori “Til sandig‘i” rukniga qaratiladi.

Bunda o‘quvchilarni matn bilan tanishtirishdan oldin ulardan “birpas” deganda qancha vaqt nazarda tutilishi haqida so‘rash mumkin.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida berilgan topshiriq uyda bajariladi.

Topshiriq. “Mening ixtirom” nomli esse yozing.

Darslikda berilgan ko‘rsatmalarga asoslangan holda esse yozish topshirig‘ini bajarish aytiladi. Essening tarkibiy qismlari haqida qo‘shimcha ma’lumot yodga solinishi maqsadga muvofiq. O‘qituvchi esseni baholashda qanday me’yorlarga e’tibor qaratishi haqida ma’lumot berishi kerak.


V. Darsni yakunlash.

Darsda muhokama qilingan mavzu yuzasidan xulosalar tinglanadi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki baholanadi. O‘quvchilarning mavzu bilan bog‘liq savollariga javob beriladi hamda dars yakunlanadi.

39-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish, matn asosida kerakli xulosalarni chiqara olish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish, matndagi asosiy va yordamchi ma’lumotlarni aniqlash, so‘z ma’nosining ko‘chishi haqidagi nazariy ma’lumot bilan tanishish.

DARS JARAYONI



39.2-mashq. Matn asosida quyidagi ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Ayrim insonlar boylik insonga zarar keltiradi deb bilishadi.

T N

Islom boy bo'lishni qoralamaydi.

T N

Mo'min-musulmonlar qancha boy bo'lsa, shuncha saxovatli bo'lishadi.

T N

132

MATNDAGI ASOSIY VA YORDAMCHI MA'LUMOTLARNI ANIQLASH

Matn tuzuvchi o'zining mulohazalarini ifodalashda asosiy va yordamchi detallar, tasvirlar, ma'lumotlardan foydalanadi. Bundan maqsad asosiy g'oyani to'ldirish, izohlash, batafsil ochib berishdir. Shu bois matnni tushunishda o'quvchi undagi ma'lumotlarni saralashi – asosiy va yordamchi axborotlarni ajrata olishi, fahmlashi lozim. Masalan, seriallarning insonga ta'siri haqidagi matnda ovchilar to'g'risidagi hikoya keltirilgan bo'lsa, bu yordamchi tasvir, ma'lumot hisoblanadi. Serialning psixologik, mafkuraviy ta'siri haqidagi faktlar esa asosiy ma'lumotlar bo'ladi.

39.3-mashq. "Boylik" matnida berilgan quyidagi so'zlarning sinonimlarini toping. Notanish so'zlar ma'nosini lug'atdan ko'rib oling.

boylik | faqirlik | nozik | o'rtada | qoralamoq | sahobiy | xatarli

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Berilgan mashq yordamida kirish suhbati o‘tkaziladi.

39.1-mashq. Savollarga javob bering.

1. Siz boylik deganda nimani tushunasiz?

2. Bu so‘zni eshitganingiz zahoti xayolingizda kim yoki nima gavdalanadi?

3. Asl boylik nima?

Berilgan savollar asosida nutqiy mavzu bilan bog‘liq suhbat olib boriladi. O‘quvchilarning mavzu yuzasidan fikrlari tinglanadi, o‘qituvchi suhbatni imkon qadar rivojlantirib borishi, ayrim savollarni berishi, shu asosda o‘quvchilarni kerakli xulosani chiqarishga tomon yo‘naltirishi kerak bo‘ladi. Buning uchun o‘qituvchi suhbatga oldindan tayyorlangan bo‘lishi, ayrim misollar yordamida chiqarilgan xulosalarni asoslay olishi zarur.

Topshiriq. Matnni o‘qib chiqing.

O‘quvchilar alohida yoki birgalikda ushbu matnni o‘qib chiqadi. Matn mazmuni muhokama qilinmasdan, to‘g‘ridan to‘g‘ri keyingi topshiriqlarni bajarishga o‘tiladi. Muhokama jarayoni hamma topshiriqlar bajarib bo‘lingach, olib boriladi.

39.2-mashq. Matn asosida quyidagi ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

Matnni o‘qib tushunish, matn asosida kerakli xulosalarni chiqara olish ko‘nikmalari mustahkamlanadi.


1. Ayrim insonlar boylik insonga zarar keltiradi deb bilishadi. – To‘g‘ri.

2. Islom boy bo‘lishni qoralamaydi. – To‘g‘ri.

3. Mo‘min-musulmonlar qancha boy bo‘lsa, shuncha saxovatli bo‘lishadi. – Noto‘g‘ri.

Bunda 3-xulosa matn mazmuni asosida keltirilmaganini aytish orqali nima uchun ushbu xulosaning noto‘g‘ri ekanligi tushuntiriladi. Uning matn mazmunidan tashqaridagina to‘g‘ri bo‘lishi mumkinligi alohida tushuntirilishi kerak.

Shundan so‘ng matndagi asosiy va yordamchi ma’lumotlar haqidagi nazariy qism muhokama qilinadi.



TIL SANDIG‘I

BOYLIK

1. Boy bo‘lish, boy mavqeyi; mol-mulkning yig‘indisi, majmui; mo‘llik. *Ota boyligi yerga singar, Mehnat boyligi – elga.* (Maqol)
2. Dunyo, davlat, mol-mulk. *Muhabbat boylikka boqmas.* (Maqol) *Ro‘zg‘or o‘lchov bilan, boylik tejov bilan.* (Maqol)
3. Tabiiy, moddiy resurslar majmui. *Yer osti boyliklari. Moddiy boyliklar. Tabiiy boyliklar. Qazilma boylik.*
4. Aqliy, ruhiy, ma’naviy faoliyat hosilasi, majmui. *Madaniy boylik. Ma’naviy boylik. Aqldan ortiq boylik yo‘q.* (Maqol)

"O‘zbek tilining izohli lug‘ati"dan

39.4-mashq. Quyidagi matn bilan tanishib chiqing. Undagi asosiy va yordamchi ma’lumotlarni aniqlab, jadvalga joylashtiring.

RIVOYAT

Xoja Ahror Valiy shogirdlariga saboq berayotgan edi. Shunda xizmatkorlaridan biri kelib: “Hazrat, karvoningizga zarar yetibdi”, – debdi. Shunda Xoja Ahror Valiy: “Alhamdulillah”, – deb dars o‘tishda davom etibdi. Birozdan so‘ng o‘sha xizmatkor qayta kelib: “Hazrat, boyagi xabar yanglish ekan. Anglashilmovchilik bo‘libdi. Savdo karvoningiz juda katta foyda bilan kelmoqda ekan”, – debdi. Hazrat yana: “Alhamdulillah”, – deb, ishida davom etibdi. Bundan hayratga tushgan shogirdlaridan biri so‘rabdi: “Ustoz, karvoningiz zararga uchrabdi”, desa ham, “Alhamdulillah” dedingiz, “Katta foyda bilan kelmoqda”, desa ham, ayni shu javobni berdingiz. Buning boisi ne?”

Xoja Ahror Valiy javob beribdi: “Karvoningizga zarar yetibdi” degan xabar kelganda, qalbimga qaradim. U bundan bezovta bo‘lmay, Olloh bilan band ekan. Keyingi xabar kelganda ham yana unga boqdim, qalbim bundan shodlanib ketmadi, Undan uzilib qolmadi. Shu bois “Alhamdulillah” dedim”.

Asosiy ma’lumotlar	Yordamchi ma’lumotlar

133

39.3-mashq. “Boylik” matnida berilgan quyidagi so‘zlarning sinonimlarini toping. Notanish so‘zlar ma’nosini lug‘atdan ko‘rib oling.

Ma’nodosh so‘zlar, ularning uslubiy jihatlari haqidagi bilimlar rivojlantiriladi. O‘qituvchi avval so‘zlarning ma’nodoshlarini topishni aytadi, shundan so‘ng topilgan so‘zlarni matndagi so‘z bilan almashtirib ko‘rishni so‘raydi. Ularning bir-birining o‘rnida qo‘llanish imkoniyatlari haqida kerakli xulosalar chiqariladi.

Yechim:

Boylik – ganj, xazina, davlat, dunyo, mol-mulk.

Faqirlik – yo‘qsillik, muhtojlik, kambag‘allik.

Nozik – ingichka, yengil, mayin.

O‘rtada – orasida, oraliqda.

Qoralamoq – ayblamoq, yomonlamoq.

Sahobiy – suhbatdosh, safdosh, tarafdor. Rasulullohni ko‘rib, imon keltirgan va musulmon holida vafot etgan kishi. Shuningdek, Rasulullоh davrlarida hali balog‘atga yetmagan bo‘lsa-da, gapga tushunib, unga javob bera oladigan imonli yosh bola ham sahobiy hisoblangan.

Xatarli – xavfli, tahlikali.

O‘quvchilarning e’tibori “Til sandig‘i” rukniga qaratiladi.

39.4-mashq. Quyidagi matn bilan tanishib chiqing. Undagi asosiy va yordamchi ma’lumotlarni aniqlab, jadvalga joylashtiring.

Berilgan topshiriq o‘quvchilarning matn mazmunini tahlil qilish, undagi asosiy mazmun va uni yuzaga chiqarishga yordam berayotgan qo‘shimcha ma’lumotlarni ajrata olish bilan bog‘liq ko‘nikmalarini mustahkamlash maqsadida bajariladi.

Yuqoridagi nazariy qism asosida matndan yordamchi va asosiy ma’lumotlarni aniqlash so‘raladi. Shu asosda jadval to‘ldiriladi.

Yechim:

Asosiy ma’lumotlar	Yordamchi ma’lumotlar
Xo‘ja Ahror Valiyning javobi	Xo‘ja Ahror Valiy shogirdlariga saboq berayotgani
	Shogirdlarining Xo‘ja Ahror Valiyga keltirgan xabari

O‘quvchilarning e’tibori ma’no ko‘chishi haqida keltirilgan nazariy ma’lumotga qaratiladi.

39.5-mashq. Rivoyatda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosi qaysi usulda ko‘chganini aniqlang.

Keltirilgan qoida asosida mashq bajariladi hamda o‘quvchilarning ma’no ko‘chishiga oid bilimlari mustahkamlanadi.

Yechim:

Shunda xizmatkorlaridan biri kelib: “Hazrat, karvoningizga (karvondagi mol-u mulkka) zarar yetibdi”, – debdi.

Xoja Ahror Valiy javob beribdi: “Karvoningizga zarar yetibdi” degan xabar kelganda, qalbimga qaradim (qalbning mavhum tushuncha ekani, unga qarab bo‘lmasligi haqida aytiladi)”.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

1-topshiriq. Matnni diqqat bilan o‘qing, moddiyatdan ustun turuvchi tushunchalar haqida fikr qiling.

O‘quvchilar matn bilan tanishishadi hamda mashq shartida berilgan vazifani bajaradilar. Yozma fikr ifodalash qoidalari haqida eslatma beriladi.

V. Darsni yakunlash.

O‘qituvchi darsning umumiy mazmuni haqida xulosasini aytadi, o‘quvchilarga ayrim savollar bilan murojaat etadi. O‘quvchilarning darsdagi faolligi baholanadi va dars yakunlanadi.

40-dars

Darsning maqsadi. Berilgan mavzu yuzasidan og‘zaki fikr ifodalash, o‘z fikrlarini dalillay olish; matnni o‘qib tushunish, unda ochiq va yopiq holatda berilgan ma’lumotlarni aniqlash, matn mazmuni asosida xulosalar chiqara olish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish; ma’nodosh so‘zlar, ularning uslubiy jihatlari, vulgarizm va varvarizmlar haqida nazariy ma’lumotlar bilan tanishtirish.


DARS JARAYONI

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Keltirilgan savollar asosida kirish suhbati o‘tkaziladi.



MATNNING MAQSADINI ANIQLASH

Matnning maqsadini aniqlash – juda murakkab jarayon. Muallif nazarda tutgan muhim g'oyani idrok etish – matn, uning qismlari, unda qo'llangan birliklarning mazmun-mohiyatini, ramzlarni to'g'ri tushunish bilan bog'liq. Shuningdek, matn tuzuvchining yashash makoni va vaqti ham bunda muhim hisoblanadi.

40.3-mashq. Quyidagi testlarni bajaring.

1-test. Yuqorida keltirilgan matnning asosiy maqsadi nima?	
A	Insonlarni boy-badavlat, saxiy bo'lishga undash
B	Qayerda qanday qilib pul topishni o'rgatish
C	Insonlarni qashshoq bo'lib qolmaslikka o'rgatish
D	Insonlarga pulning kuchini ko'rsatish

2-test. Yuqorida keltirilgan matnga tayanib qashshoqlikni keltirib chiqaradigan sabablarni sanang.

137

40.4-mashq. Ustozingiz bilan birga quyidagi so'zlarning sinonimlaridan farqini aniqlab, izohini daftaringizga yozing.

kambag'al | qashshoq | bechora | nochor | yo'qsil | faqir | qo'li kalta

VULGARIZM VA VARVARIZMLAR

Varvarizmlar biror tilda tarjimasi bo'la turib, o'rinsiz ishlatiladigan chet so'zlar guruhidir. Masalan: ***значит*** (**demak**), ***даже*** (**hatto**), ***остановка*** (**bekat**), ***свет*** (**chiroq**) kabi ruscha so'zlar; ***yes*** (**ha**), ***wow*** (**qoyil**) kabi inglizcha so'zlar bunga misol bo'la oladi.

Tilda so'kish, qarg'ash ma'nolarini ifodalaydigan so'zlar **vulgarizmlar** deyiladi. Masalan: ***yer yutkur***, ***oqpadar*** kabilar.

40.1-mashq. Savollarga javob bering.

1. Siz qashshoqlik deganda nimani tushunasiz?

2. Yo‘qsillikni nima keltirib chiqaradi?

3. Asl qashshoqlik nima?

O‘quvchilar savollarga javob berishda o‘tilgan darslardagi suhbatlarga tayanishlari mumkinligi eslatib o‘tiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning fikrini tinglaydi, shu asosda ularni yo‘naltirib boradi. Kerakli xulosalar chiqariladi, shundan so‘ng darslikda berilgan matnga e’tibor qaratiladi.

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

Matn qismlarga bo‘lingan holda o‘qiladi. Har bir qismni alohida o‘qish, uni qisqacha tahlil qilib ketish tavsiya etiladi. Matnning qismlari bilan bog‘liq xulosalar chiqarish uchun esa o‘quvchilar berilgan tavsiya bilan bog‘liq shaxsiy fikrlarini aytib ketishlari maqsadga muvofiq.

40.2-mashq. Matn asosida quyidagi ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

Keltirilgan xulosalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlash uchun matnni qayta o‘qib chiqish tavsiya etiladi. Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilarning matnda ochiq va yopiq shaklda berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish ko‘nikmasi mustahkamlanadi.

1. Pulni boshqarishni bilish insonni badavlat qilmaydi. – Noto‘g‘ri.


2. Pul to‘kis yashash uchun muhim emas. – Noto‘g‘ri.

3. Nochor, yo‘qsil yashashimizga boshqalar aybdor emas. – To‘g‘ri.

Shundan so‘ng darslikda berilgan nazariy qoidaga e’tibor qaratiladi, o‘quvchilar matnning maqsadini aniqlashda nimalarga e’tibor qaratish kerakligi haqida suhbat olib boradilar.

MATNNING MAQSADINI ANIQLASH

Matnning maqsadini aniqlash – juda murakkab jarayon. Muallif nazarda tutgan muhim g‘oyani idrok etish – matn, uning qismlari, unda qo‘llangan birliklarning mazmun-mohiyatini, ramzlarni to‘g‘ri tushunish bilan bog‘liq. Shuningdek, matn tuzuvchining yashash makoni va vaqti ham bunda muhim hisoblanadi.



40.5-mashq. Quyidagi gaplardan vulgarizm va varvarizmlarni aniqlang.

1. Uzr, vazifalarga uspet qilmadim.
2. Maktabimiz qoshida “education center” tashkil qilindi.
3. Messi vorotaga qaychi usulida gol urdi.
4. Tez orada hammaning og‘ziga tushgan vunderkind bilan uchrashamiz.
5. “E, battol! Xotini bilan yana it-mushuk bo‘pti, shekilli! Bu og‘iroyoq narsa bo‘lsa... Hah, eshak!”

TIL SANDIG‘I

O‘ZBEKCHASI BOR!

“bogatiy” – boy-badavlat	“umniy” – aqlli
“shedriy” – saxiy	“nabaro‘d” – aksincha
“meshayt qilmoq” – xalal bermoq	“uspet qilish” – ulgurish

40.6-mashq. So‘zlashuv nutqingizda ba’zan ishlatadigan varvarizm va vulgarizmlardan namunalar yozing. Uning nutqdagi o‘rni haqida fikr yuriting.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Matnni o‘qing. Uning bosh maqsadini aniqlang. Matnda qo‘llangan haqorat so‘zlarini toping.

138

Faqir kishi Janobi Haqqa noliy boshlabdi: “Ey Yaratgan egam, nega meni boshqa bandalaringdan kam ko‘rding, rizqimni kam qilib yaratding?!” Uning bu gaplarini bir yo‘lovchi eshitib qolibdi va so‘rabdi: “Birodar, tinchlikmi? Nimadan norizosan?!” Shunda haligi kishi: “Alloh menga ko‘p rizq ato etmadi, tinmay mehnat qilaman, biroq faqirlikdan chiqib keta olmayapman!” – debdi unga javoban. Yo‘lovchi biroz o‘ylanib turgach: “Mayli, senga besh ming tilla beraman, evaziga bitta ko‘zingdan voz kechasanmi?” – debdi. Faqir qattiq qo‘rqib ketib, ikki qadam orqaga chekinibdi: “Esing bormi? Qanday qilib besh ming tilla evaziga ko‘zimdan voz kechishim mumkin?!” Yo‘lovchi savdolashishda davom etibdi: “Unda bitta qo‘lingni beraqol. O‘n ming tilla beraman”. “Bo‘lmaydi, – jahllana boshlabdi faqir, – yuz ming bersang ham, qo‘limni bermayman!” “Mayli, unday bo‘lsa, shu o‘n mingga bitta barmog‘ingni ber!” – uni holi-joniga qo‘ymabdi yo‘lovchi. “Nega barmog‘imni sotarkanman?! Butun dunyoning moliga almashmayman barmog‘imni!” Uning bu gapini eshitgan yo‘lovchi maqsadga ko‘cha qolibdi: “Ey ahmoq, unda nega noliyapsan? Alloh senga qancha boylik berganini ko‘rmayapsanmi? To‘rt muchang sog‘, aql-u hushing joyida. Sen esa faqirlikdan nolib o‘tiribsan. Alloh bergan shuncha ne’matga shukur qilish kerak emasmi?!”

“Hidoyat” jurnalidan

40.3-mashq. Quyidagi testlarni bajaring.

1-test. Yuqorida keltirilgan matnning asosiy maqsadi nima?

O‘quvchilar matnni o‘qib, unda ifodalangan asosiy maqsadni to‘g‘ri anglab yetgan bo‘lishlari kerak. Buning uchun o‘zlari to‘g‘ri deb bilgan javob variantidan boshqa variantlar nima uchun xato ekani haqida o‘ylab ko‘rish so‘raladi. Hamma o‘z javobini belgilab bo‘lgach, belgilangan javoblar muhokama qilinadi.

To‘g‘ri javob – C.

2-test. Yuqorida keltirilgan matnga tayanib, qashshoqlikni keltirib chiqaradigan sabablarni sanang.

Ushbu topshiriq ham har bir keltirilgan tavsiyani sabab ko‘rinishida yozib berish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni mustahkamlashga qaratiladi. O‘quvchilar berilgan tavsiyalar asosida qashshoqlikni keltirib chiqaruvchi sabablar ro‘yxatini aytishlari va yozishlari kerakligi eslatiladi.

Yechim:

1. Shaxsiy byudjetni shakllantirishni bilmaslik.

2. Iqtisodiy savodsizlik.

3. Pul farovon hayotning muhim vositalaridan biri ekanini anglab yetmaslik.

4. O‘zi moddiy jihatdan ayrimlardan ko‘ra yaxshiroq darajada ekanini his qilish va shu fikr orqali o‘zini yupatib yashash.

5. Dangasalik.

6. Yengil hayotga, rohatga, kayf-safoga mukkasidan ketish.

7. Boshqalarni ayblash.

40.4-mashq. Ustozingiz bilan birga quyidagi so‘zlarning sinonimlaridan farqini aniqlab, izohini daftaringizga yozing.

Ma’nodosh so‘zlar, ularning uslubiyati bilan bog‘liq bilimlar mustahkamlanadi.

Yechim:

Qashshoq so‘zida belgi darajasi kuchli. **Faqir** oddiy so‘zlashuvda kam qo‘llanadi. Bu so‘zda belgi darajasi **kambag‘al** so‘zidagiga nisbatan kuchliroq. **Bechora** bu ma’noda kam ishlatiladi. **Yo‘qsil** eskirgan, so‘zlashuv tilida undan foydalanilmaydi, kitobiy tilda ham kam uchraydi.

Vulgarizm va varvarizmlar bilan bog‘liq nazariy qoidaga e’tibor qaratiladi. Shunday so‘zlarga misollar keltirish so‘raladi.

VULGARIZM VA VARVARIZMLAR

Varvarizmlar biror tilda tarjimasi bo‘la turib, o‘rinsiz ishlatiladigan chet so‘zlar guruhidir. Masalan: ***значит*** (**demak**), ***даже*** (**hatto**), ***остановка*** (**bekat**), ***свет*** (**chiroq**) kabi ruscha so‘zlar; ***yes*** (**ha**), ***wow*** (**qoyil**) kabi inglizcha so‘zlar bunga misol bo‘la oladi.

Tilda so‘kish, qarg‘ash ma’nolarini ifodalaydigan so‘zlar **vulgarizmlar** deyiladi. Masalan: ***yer yutkur***, ***oqpadar*** kabilar.

40.5-mashq. Quyidagi gaplardan vulgarizm va varvarizmlarni aniqlang.

Keltirilgan nazariy ma’lumot asosida berilgan gaplar tahlil qilinadi. Ushbu gaplar to‘g‘ri bo‘lishi uchun qanday shaklda berilishi kerakligi so‘raladi. 5-gapdagi vulgarizmlar aniqlanadi.

Yechim:

1. Uzr, vazifalarga uspet qilmadim. – Uzr, vazifalarga ulgurmadim.

2. Maktabimiz qoshida “education center” tashkil qilindi. – Maktabimiz qoshida o‘quv markazi tashkil qilindi.

3. Messi vorotaga qaychi usulida gol urdi. – Messi darvozaga qaychi usulida gol urdi.

4. Tez orada hammaning og‘ziga tushgan vunderkind bilan uchrashamiz. – Tez orada hammaning og‘ziga tushgan zukko bolajon bilan uchrashamiz.

5. “E, **battol!** Xotini bilan yana it-mushuk bo‘pti, shekilli! Bu og‘iroyoq narsa bo‘lsa… Hah, **eshak**!”

O‘quvchilarning e’tibori “Til sandig‘i” rukniga qaratiladi.

40.6-mashq. So‘zlashuv nutqingizda ba’zan ishlatadigan varvarizm va vulgarizmlardan namunalar yozing. Ularning nutqdagi o‘rni haqida fikr yuriting.

O‘quvchilar yon-atrofdagilar hamda o‘zlarining nutqida uchraydigan shunday so‘zlarga misollar keltiradi.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

Topshiriq. Matnni o‘qing. Uning bosh maqsadini aniqlang. Matnda qo‘llangan haqorat so‘zlarini toping.

Matnni diqqat bilan o‘qish kerakligi aytiladi. Uning bosh maqsadini alohida yozib kelish so‘raladi. Matnda qo‘llangan haqorat so‘zlari ro‘yxati tuziladi.


V. Darsni yakunlash.

Darsning borishi haqida umumiy xulosalar aytiladi, o‘quvchilarning darsda o‘rganilgan ma’lumotlar yuzasidan bergan savollari tinglanadi. O‘quvchilarning faolligiga munosabat bildiriladi hamda dars yakunlanadi.

41-dars

Darsning maqsadi. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, bunda nutqiy vaziyatlarda suhbat va munozara odobiga rioya qilgan holda og‘zaki muloqotga kirisha olish, har qanday mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish, mavzudan chetlashmagan holda fikr va g‘oyalarini taqdimot ko‘rinishida ifodalay olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalari mustahkamlanadi; kelishik qo‘shimchalari, ularning imlosi va qo‘llanishi bilan bog‘liq bilimlar mustahkamlanadi.

DARS JARAYONI



MUSTAQIL NUTQ

So‘zlovchi muayyan mavzu yuzasidan o‘zining shaxsiy fikr-mulohazalarini bayon etishi mustaqil nutq hisoblanadi. Uni ifodalashda quyidagilarni hisobga olish lozim:
– fikrlarni rejalashtirib olish;
– fikrlarni faktlarga va dalillarga tayanib ifodalash;
– aniqligi tasdiqlanmagan ma’lumot haqida gapirmaslik;
– hissiyotni boshqara olish;
– tinglovchining o‘ziga xos xususiyatlari – yoshi, kasbi, jinsi va boshqalarni hisobga olish;
– shaxsiy mulohazalar bayonida ***menimcha, bizningcha, tushunishimizcha*** kabi birliklardan foydalanish;
– samarali til birliklaridan foydalanish;
– til me’yorlariga amal qilish.
Mustaqil nutq tartiblariga amal qilish taqdimotlar, turli chiqishlar, shaxsiy fikrlarni himoya qilish samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

41.2-mashq. ***Boyib ketsangiz, nimalar qilasiz?*** Fikringizni mustaqil nutq tuzish tartiblariga amal qilgan holda og‘zaki bayon eting.

MUTOYIBA VAQTI

140

41.3-mashq. Quyidagi latifalarni o‘qing hamda mutoyibani keltirib chiqarayotgan omilni izohlang.

Afandidan o‘qituvchisi so‘rabdi:
— “O‘g‘irladi” so‘zi uzoq o‘tgan zamonda qanday bo‘ladi?
— “O‘g‘irlagan edi” bo‘ladi.
— Kelasi zamonda-chi?
— “Qamoqda” bo‘ladi, ustoz!

O‘qituvchi o‘quvchidan so‘rabdi:
— Shekspir nechanchi yilda tug‘ilgan?
— 1564-yilda.
— Xo‘sh... 1565-yilda nima bo‘lgan?
— Shekspir 1 yoshga to‘lgan.

41.4-mashq. Pulning kuchi...

Ikki guruhga bo‘lining. Bir guruh pulning ijobiy xislatlarini, boshqa guruh pulning salbiy tomonlarini argumentlar asosida ochib berishga harakat qiling.

Ijobiy tomoni	Salbiy tomoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Topshiriq. Savollarga javob bering.

Ushbu suhbatni boshlashdan oldin berilgan rasmga o‘quvchilarning e’tiborini qaratish maqsadga muvofiq. O‘quvchilardan rasmdagi shaxslar haqida bilganlarini aytib berish so‘raladi. Shundan so‘ng quyidagi savollar bilan suhbat davom ettiriladi:

1. Jadid bobolarimiz qanday inson bo‘lgan?

2. Sizningcha, zamonaviy boy kim?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi. O‘qituvchi jadidlar haqida qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim. O‘qituvchi fikrlarini hukm tarzida aytmaslikka e’tibor berishi kerak.

41.1-mashq. Quyida jadid bobolarimiz va zamonaviy boylarning amalga oshirgan ezgu ishlarini qiyoslash uchun jadval berilgan. Daftaringizga o‘z hududingizdagi boylarning ezgu ishlarini yozing.

O‘quvchilar jadvalni mustaqil to‘ldiradilar. Ularning bir nechtasi sinf taxtasi oldiga chiqadi va faktlarni boshqalar bilan birgalikda muhokama qiladi. Har bir o‘quvchi o‘zi keltirgan dalillarni asoslashi, ularni himoya qila olishi kerak. Bu jarayonda o‘quvchilarning nutqi o‘qituvchi tomonidan kuzatib turiladi. O‘quvchilar bir-birlarining fikrini tinglay olishlari, ularga qarshi fikr bildirilganda yoki ularning fikrini qo‘llab-quvvatlanayotganda qanday til birliklari va ohangdan foydalanish kerakligi bo‘yicha tavsiyalar berib borilishi maqsadga muvofiq.

Suhbat so‘ngida o‘qituvchi o‘quvchilarning e’tiborini mustaqil nutq haqidagi qoidaga qaratadi. Qoida asosida tavsiyalarga kimlar yaxshi amal qilgani, kimlar ushbu tavsiyalarga alohida e’tibor qaratishi lozimligi aytiladi. O‘quvchilar ushbu qoidalarga yana qanday tavsiyalarni kiritish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘radilar. O‘z tavsiyalarini og‘zaki tarzda aytadilar.

MUSTAQIL NUTQ

So‘zlovchi muayyan mavzu yuzasidan o‘zining shaxsiy fikr-mulohazalarini bayon etishi mustaqil nutq hisoblanadi. Uni ifodalashda quyidagilarni hisobga olish lozim:

– fikrlarni rejalashtirib olish;
– fikrlarni faktlarga va dalillarga tayanib ifodalash;
– aniqligi tasdiqlanmagan ma’lumot haqida gapirmaslik;
– hissiyotni boshqara olish;
– tinglovchining o‘ziga xos xususiyatlari – yoshi, kasbi, jinsi va boshqalarni hisobga olish;
– shaxsiy mulohazalar bayonida ***menimcha, bizningcha, tushunishimizcha*** kabi birliklardan foydalanish;
– samarali til birliklaridan foydalanish;
– til me’yorlariga amal qilish.

Mustaqil nutq tartiblariga amal qilish taqdimotlar, turli chiqishlar, shaxsiy fikrlarni himoya qilish samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

41.2-mashq. Boyib ketsangiz, nimalar qilasiz? Fikringizni mustaqil nutq tuzish tartiblariga amal qilgan holda og‘zaki bayon eting.

O‘quvchilarning nutqiy vaziyatlarda suhbat va munozara odobiga rioya qilgan holda muloqotga kirisha olish, har qanday mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish, mavzudan chetlashmagan holda fikr va g‘oyalarini taqdimot ko‘rinishida ifodalay olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalari ustida ish olib boriladi.

Yuqoridagi suhbat asosida og‘zaki nutq so‘zlashga tayyorlanish aytiladi. O‘quvchilarning bir guruhiga nazoratchi bo‘lish tavsiya etiladi. O‘quvchilar sinfdoshlarining nutqini kuzatib, yuqoridagi qoida asosida uni tahlil qiladilar. Har bir nutq egasiga kerakli tavsiyalar berib boriladi. Nazoratchilar vaqti-vaqti bilan almashtirib turiladi.

O‘quvchilarning e’tibori “Mutoyiba vaqti” rukniga qaratiladi.


41.3-mashq. Quyidagi latifalarni o‘qing hamda mutoyibani keltirib chiqarayotgan omilni izohlang.

Berilgan latifalar o‘qiladi, unda mutoyibani yuzaga keltirgan omillar haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilarning o‘zlari ham mustaqil shaklda latifa aytib, unda kulgiga sabab bo‘layotgan jumlalarni aniqlab, o‘z fikrlarini izohlab berishlari mumkin.

41.4-mashq. Pulning kuchi.

Ikki guruhga bo‘lining. Bir guruh pulning ijobiy xislatlarini, boshqa guruh pulning salbiy tomonlarini argumentlar asosida ochib berishga harakat qiling.

Ushbu topshiriq orqali ham o‘quvchilarning nutqiy vaziyatlarda suhbat va munozara odobiga rioya qilgan holda muloqotga kirisha olishi, har qanday mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olishi, mavzudan chetlashmagan holda fikr va g‘oyalarini taqdimot ko‘rinishida ifodalay olishi bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalari rivojlantiriladi.



Mantiq vaqti

Berilgan matndagi nuqtalar o'rniga qaysi so'zlarni qo'yish kerak? Jumboqning javobini topishga urinib ko'ring.

Bir mamlakatda Rostgo'ylar, Yolg'onchilar, rostgo'ylar va ... aralash yashaydigan Aralash qishloqlari bor ekan. Mos ravishda, birinchi qishloqda faqat rostgo'ylar, ikkinchisida faqat yolg'onchilar, uchinchi qishloqda esa har ikki toifa aralashib ... qilishar ekan.

To'satdan o't o'chirish ... siga qo'ng'iroq bo'libdi:
– Bizning qishloqqa o't ketdi!
– Siz qayerda yashaysiz?
– Aralash qishlog'ida.

Savol: o't o'chiruvchilar qaysi qishloqda yashaydi?

A	Yolg'onchilar, istiqomat, kompaniya; Aralash qishlog'ida.
B	Aldoqchilar, umrguzaronlik, ofis; Aralash qishlog'ida.
C	Yolg'onchilar, istiqomat, idora; Yolg'onchilar qishlog'ida.
D	Yolg'onchilar, istiqomat, idora; Rostgo'ylar qishlog'ida.

141

41.5-mashq. Nuqtalar o'rniga zaruratga qarab qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'ying.

Mamlakat ishi...(-ga, -da, -dan) nafi eng ko'p tegadigan toifa uch xildir: birinchi... (-dan, -si, -ga) bilimli, donishmand kishilar, turli kasb egalari bo'lsa, ikkinchi...(-dan, -si, -ga) botir, sheryuraklardir. Ular bo'ri – yov...(-ni, -ga, -da) qarshi kurash paytida asqatadi. Nihoyat, uchinchi guruh...(-dan, -ni, -ga) so'zamol kotiblar tashkil etadi. Dono, zakovatli kishilar qiyin muammolar...(-da, -ni, -ga) hal etishda yordamga keladi. Botirlar qo'li...(-da, -ni, -dan) qilich tutguday bo'lsa, yov titroq...(-ga, -ka, -qa) tushadi. Yozuvchi-kotib esa el ishi...(-ning, -ni, -da) osonlashtiradi. U... (-ni, -da, -dan) mash-aqqat tugunlari yechiladi.

Yusuf Xos Hojib

Topshiriq. Quyidagi hikmatlarni sharhlab, daftaringizga yozing.

- Sen dunyo ichida bo'l-u, biroq dunyo sening ichingga kirmasin. *(Hikmat)*
- Puli yo'q emas, maqsadi yo'q inson qashshoqdir. *(Suqrot)*
- Inson dunyoda boy bo'lish uchun emas, baxtli bo'lish uchun yashaydi. *(Stendal)*
- Boylik insonni o'zgartirmaydi, balki uning asl qiyofasini ko'rsatadi. *(Maqol)*

“Mantiq vaqti” rukni ostida berilgan topshiriq bajariladi.

O‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq bajariladi. O‘quvchilar matnni diqqat bilan o‘qiydi, kerakli javobni tanlaydi. O‘qituvchi dastlab noto‘g‘ri javobni belgilagan o‘quvchilardan o‘z javoblarini izohlab berishlarini so‘raydi. Oxirida esa to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilarga o‘z javoblarini tushuntirib berishlari kerakligini aytadi.

To‘g‘ri javob: C.

41.5-mashq. Nuqtalar o‘rniga zaruratga qarab qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘ying.

O‘quvchilarning kelishik qo‘shimchalari, ularning imlosi va qo‘llanishi bilan bog‘liq bilimlari mustahkamlanadi.

Yechim:

Mamlakat ishiga nafi eng ko‘p tegadigan toifa uch xildir: birinchisi bilimli, donishmand kishilar, turli kasb egalari bo‘lsa, ikkinchisi botir, sheryuraklardir. Ular bo‘ri – yovga qarshi kurash paytida asqatadi. Nihoyat, uchinchi guruhni so‘zamol kotiblar tashkil etadi. Dono, zakovatli kishilar qiyin muammolarni hal etishda yordamga keladi. Botirlar qo‘lida qilich tutguday bo‘lsa, yov titroqqa tushadi. Yozuvchi-kotib esa el ishini osonlashtiradi. Undan mashaqqat tugunlari yechiladi.

IV. Uyga vazifa berish.

Topshiriq. Quyidagi hikmatlarni sharhlab, daftaringizga yozing.

Nutqiy mavzu yuzasidan berilgan hikmatlar mazmunini sharhlash so‘raladi. Shu orqali o‘quvchilarning o‘tilgan mavzu bilan bog‘liq yakuniy xulosalari aniqlanadi va baholanadi.


V. Darsni yakunlash.

O‘tilgan mavzu bilan bog‘liq umumiy fikrlar tinglanadi, o‘rganilgan nazariy ma’lumotlar yodga solinadi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki haqida ma’lumot beriladi va dars yakunlanadi.

42-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish, ochiq va yopiq shaklda berilgan ma’lumotlarni aniqlash, matn mazmuni asosida xulosalar chiqara olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar ustida ishlash; subyektiv munosabatni ifodalovchi shakllar, matnning asosiy qismlari, kirish qismi bilan bog‘liq bilimlarni mustahkamlash.

DARS JARAYONI



144

42.1-mashq. Matn asosida tuzilgan quyidagi testlarni bajaring.

1-test. Jek Maning fikri asosida quyidagilarni moslashtiring

I. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlang.	a) 20 yoshda
II. O‘zingiz qoyillatadigan ish bilan shug‘ullaning.	b) 35 yoshda
III. Xato qilishdan qo‘rqmang.	c) 45 yoshda
IV. Ishingiz sermahsul bo‘lishiga erishing.	d) 55 yoshda

2-test. Jek Maning fikricha, kelajakda kimlar ko‘plab muvaffaqiyatga erishadi?

A	ko‘plab bilimlarga ega insonlar
B	tartib-qoidalarga doim amal qiluvchilar
C	ijodkor, noodatiy fikrlaydigan kishilar
D	o‘z kasbini sevadiganlar

3-test. Jek Ma muvaffaqiyatining asosiy siri nimada? Eslatma. Bir nechta to‘g‘ri javob bo‘lishi mumkin.

A	faqat o‘z kelajagini o‘ylashida
B	boshlagan ishini oxiriga yetkazishida
D	mashinadek mehnat qilishida
E	qilayotgan ishini sevishida
F	boshqalarning fikri bilan ish ko‘rishida
G	xatolaridan xulosa chiqarishida

4-test. Yuqoridagi matn mazmuniga eng mos maqolni aniqlang.

A	Qo‘rqqanga qo‘sh ko‘rinadi.
B	Yetti marta yiqilib, sakkiz marta tur.
C	Boy boyga boqar, suv soyga oqar.
D	Yosh keladi ishga, qari keladi oshga.

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Berilgan mashq yordamida kirish suhbati o‘tkaziladi.

Topshiriq. Matnni diqqat bilan o‘qing.

Har bir o‘quvchi matnni alohida ichda o‘qishi uchun ma’lum vaqt beriladi. O‘qituvchi matnni diqqat bilan o‘qish kerakligini, shundan so‘ng matn mazmuni va shakli bilan bog‘liq topshiriqlarni bajarishga kirishilishini aytadi.

42.1-mashq. Matn asosida tuzilgan quyidagi testlarni bajaring.

Ushbu topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilarning o‘qib tushunish, ochiq shaklda berilgan ma’lumotlarni aniqlash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalari ustida ish olib boriladi.


1-test. Jek Maning fikri asosida quyidagilarni moslashtiring.

Yechim:

I. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlang.
d) 55 yoshda
II. O‘zingiz qoyillatadigan ish bilan shug‘ullaning.
c) 45 yoshda
III. Xato qilishdan qo‘rqmang.
a) 20 yoshda
IV. Ishingiz sermahsul bo‘lishiga erishing.
b) 35 yoshda

2-test. Jek Maning fikricha, kelajakda kimlar ko‘plab muvaffaqiyatga erishadi?

Ochiq ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni aniqlash, kerakli xulosalarni chiqara olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.



SUBYEKTIV MUNOSABAT IFODALOVCHI SHAKLLAR

Tilimizda *-jon, -xon, -oy, -bek, -toy, -cha, -gina* kabi subyektiv munosabatni ifodalovchi qo'shimchalar bo'lib, ular nutqimizda birliklarga *hurmat, ta'kid, kesatiq* kabi turli ma'nolarni yuklaydi. Misollar: *Ukaxon, menga to'g'ri yo'nalishni ko'rsatib yuboring. Ukaginam, qachon odam bo'lasan?!*

42.2-mashq. Yuqoridagi matndan subyektiv munosabat ifodalangan o'rinlarni topib ko'chiring.

42.3-mashq. Yuqoridagi matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning sinonimlarini toping. Notanish so'zlar ma'nosini lug'atdan ko'rib oling.

samarali	kreativ	aql bovar qilmas	amin bo'lmoq	muvaffaq bo'lmoq	uddalay olmoq

YOZMA MATNNING KIRISH QISMINI SHAKLLANTIRISH

Yozma matn odatda uch qismga ajratiladi: kirish, asosiy qism, xulosa. Matn kirish qismini to'g'ri shakllantirish uning tushunilishini osonlashtiradi. Matnning kirish qismida mavzuga aloqador bo'lgan, qiyoslangan holatlar, uning ahamiyatliligi, zarurati bayon etiladi. Odatda hajman bir yoki ikki xatboshidan oshmaydi. Shuningdek, yozma matnlar turlarida bu talablar bir-biridan farq qilishi mumkin.

42.4-mashq. "Boy bo'lsam!" matni uchun kirish qismni shakllantiring.

TIL SANDIG'I

BURGAGA ACHCHIQ QILIB, KO'RPAGA O'T QO'YMA

Arzimagan narsalarga jahl qilib, yaqinlaringni ranjitma, ko'nglini qoldirma. Zarar keltiruvchi kichik narsalarni yo'q qilaman deb katta, muhim narsalardan ajralib qolma.

42.5-mashq. Jek Maning murojaati aks etgan matnda asosiy mazmunni ifodalayotgan fikrlarni ajratib, daftaringizga yozing.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Jek Maning murojaati aks etgan matn asosida 5 ta savol tuzing. Topshiriqlar yashirin ifodalangan ma'lumotni tushunishga yo'naltirilgan bo'lsin.

145

To'g'ri javob: C (ijodkor, noodatiy fikrlaydigan kishilar)

3-test. Jek Ma muvaffaqiyatining asosiy siri nimada?

Eslatma. Bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin.

Matnning bir necha qismida berilgan ma'lumotlarni aniqlash, ular asosida muhim fikrlarni ajrata olish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalar mustahkamlanadi.

To'g'ri javob: B (boshlagan ishini oxiriga yetkazishida), **E** (qilayotgan ishini sevishida), **G** (xatolaridan xulosa chiqarishida).

4-test. Yuqoridagi matn mazmuniga eng mos maqolni aniqlang.

Ikki xil shaklda berilgan ma'lumotlarni o'zaro bog'lay olish, matn mazmuniga xos xulosani maqola ko'rinishida ifodalay olish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish ustida ishlanadi.

To'g'ri javob: B (Yetti marta yiqilib, sakkiz marta tur).

Yuqoridagi testlarni bajarish jarayonida to'g'ri va noto'g'ri variantlar muhokama etiladi. O'quvchilardan o'z tanlovlarini asoslab berish so'raladi. To'g'ri javob variantlariga alohida izoh beriladi.

Darslikda berilgan nazariy qoida asosida subyektiv munosabat ifodalovchi shakllar haqida ma'lumot beriladi.

SUBYEKTIV MUNOSABAT IFODALOVCHI SHAKLLAR

Tilimizda *-jon, -xon, -oy, -bek, -toy, -cha, -gina* kabi subyektiv munosabatni ifodalovchi qo'shimchalar bo'lib, ular nutqimizda birliklarga *hurmat, ta'kid, kesatiq* kabi turli ma'nolarni yuklaydi. Misollar: *Ukaxon, menga to'g'ri yo'nalishni ko'rsatib yuboring. Ukaginam, qachon odam bo'lasan?!*

42.2-mashq. Yuqoridagi matndan subyektiv munosabat ifodalangan o'rinlarni topib, ko'chiring.

O'rganilgan nazariy qoida asosida mavjud bilimlar mustahkamlanadi. Matn tarkibidan shunday shakldagi so'zlar aniqlanadi va yoziladi.

Yechim: onajonim, yigitcha.

42.3-mashq. Yuqoridagi matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning sinonimlarini toping. Notanish so'zlar ma'nosini lug'atdan ko'rib oling.

Ma'nodosh so'zlar, ularning qo'llanishi bilan bog'liq bilimlar mustahkamlanadi. O'quvchilar matnda berilgan so'zlarning ma'nodoshlarini aniqlab, yozadilar.

Yechim:

samarador	foydali, sermahsul
kreativ	ijodiy
aql bovar qilmas	ishonib bo‘lmas, tasavvur qilib bo‘lmas
amin bo‘lmoq	ishonmoq, imoni komil bo‘lmoq
muvaffaq bo‘lmoq	muyassar bo‘lmoq, erishmoq
uddalay olmoq	eplay olmoq, bajara olmoq

O‘quvchilar darslikda berilgan nazariy qoida bilan tanishtiriladi. O‘qituvchi qoidaning mazmunini muayyan bir matn misolida tushuntirib berishi maqsadga muvofiq.

YOZMA MATNNING KIRISH QISMINI SHAKLLANTIRISH

Yozma matn odatda uch qismga ajratiladi: kirish, asosiy qism, xulosa. Matn kirish qismini to‘g‘ri shakllantirish uning tushunilishini osonlashtiradi. Matnning kirish qismida mavzuga aloqador bo‘lgan, qiyoslangan holatlar, uning ahamiyatliligi, zarurati bayon etiladi. Odatda hajman bir yoki ikki xatboshidan oshmaydi. Shuningdek, yozma matnlar turlarida bu talablar bir-biridan farq qilishi mumkin.

Masalan:

TINCHLIK – ENG QADRLI NE’MAT

Har yili 9-may – Xotira va qadrlash kuni yaqinlashganida ko‘z o‘ngimda bolalikning shirin xotiralari jonlanadi. O‘quvchilik yillarim edi... Yuqori sinfda o‘qiyotgan kezlarim. G‘alabaga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbirda boshlovchilik qilish menga topshirildi.	KIRISH
Tadbirlarimizga urush maydonlarida jasorat ko‘rsatgan bobolarimizni taklif etish odat tusiga kirgandi. Bu galgi tadbirimizga ham Sa’dullo bobo, Qodir bobo va Nabi bobolarning tashrifi davramizga o‘zgacha ruh bag‘ishlagandi. Ularning ko‘ksida shodalashib turgan orden va medallar bizda hayrat uyg‘otgan bo‘lsa, so‘zlagan xotiralari, pand-nasihatlari ularga bo‘lgan hurmatimizni yanada oshirgandi. Urush xotiralari haqida so‘zlagan Sa’dullo boboni hamma kiprik qoqmay tinglagani hali ham ko‘z o‘ngimda: “Ha, bolajonlarim, men urush dahshatini yaxshi bilaman. Dnepr yoqasida bo‘lgan qirg‘inda ne-ne safdoshlarimdan ajralganman...” Urushning dahshatini faqat ularning hikoyalaridangina emas, majruh qo‘llaridan, alamli ko‘zlaridan ham o‘qish mumkin edi. So‘zga chiqqan har bir bobo: “Tinchlik – eng qadrli ne’mat. Uning qadriga yeting, bolalarim!” deya so‘zini tugatardi.	ASOSIY QISM

Sa’dullo boboning so‘zlari keyinchalik ham anchagacha yodimda qoldi. Yillar o‘tib, “tinchlik” so‘zi qanday ma’no kasb etishini chuqurroq angladim. Bugun musaffo, ko‘m-ko‘k osmonimizga qarab tinchlik lug‘atdagi oddiygina so‘z emas, minglar joni tikilgan armon, biz uchun esa bebaho ne’mat ekanini o‘ylab, shukurlar qilaman.	XULOSA

Dilbar QOBILOVA,
Samarqand viloyati Narpay tumanidagi
22-umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

42.4-mashq. “Boy bo‘lsam!” matni uchun kirish qismni shakllantiring.

Berilgan topshiriqning asosiy maqsadi matn va uning tarkibiy tuzilishi, qismlari bilan bog‘liq nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan.

Yuqorida berilgan nazariy qoida va namuna asosida “Boy bo‘lsam!” matni uchun kirish qismi tayyorlanadi. Kirish qismi 4–5 ta gapdan iborat bo‘lishi kerakligi aytiladi.

O‘quvchilarning e’tibori “Til sandig‘i” rukniga qaratiladi.

42.5-mashq. Jek Maning murojaati aks etgan matnda asosiy mazmunni ifodalayotgan fikrlarni ajratib, daftaringizga yozing.

Darslikda berilgan matn yordamida matn va uni qismlarga ajrata olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Buning uchun o‘quvchilar avval matnning asosiy qismini aniqlab olishlari kerak, shundan so‘ng asosiy qismning mazmunini yuzaga chiqarishda muhim deb hisoblangan jumlalar aniqlanib, daftarga yoziladi.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

Topshiriq. Jek Maning murojaati aks etgan matn asosida 5 ta savol tuzing. Topshiriqlar yashirin ifodalangan ma’lumotni tushunishga yo‘naltirilgan bo‘lsin.

Matndagi yashirin ma’lumotlarni aniqlashga, ularning ifodalanish shakliga e’tibor qaratiladi.

O‘qituvchi matnda berilgan ma’lumotlar asosida savollardan biriga namuna yozib ko‘rsatadi.

Namuna: Matn muallifi “Hammamiz oddiy maktablarni tugatganmiz” deganda nimani nazarda tutmoqda?


V. Darsni yakunlash.

O‘qituvchi berilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarning darsdan olgan fikrlarini so‘raydi. O‘quvchilarning faolligiga nisbatan o‘z munosabatini bildirib, darsni yakunlaydi.

43-dars

Darsning maqsadi. Og‘zaki nutq, munozara jarayonida o‘z fikrlarini madaniy nutq qoidalariga rioya qilgan holda bildira olish, matnni o‘qib tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish; yozma matnning asosiy qismi hamda tinish belgilari (undov, so‘roq, nuqta)ning qo‘llanishiga oid nazariy ma’lumotlar bilan tanishtirish.

DARS JARAYONI



43-dars

43.1-mashq. Quyidagi savollarga og‘zaki javob bering.

1. Muvaffaqiyatlarga erishayotgan kishilarni bilasizmi? Ularning siri nimada deb o‘ylaysiz?
2. Sizningcha, muvaffaqiyat nima?
3. Xato qilganmisiz? Xatolaringizni to‘g‘rilash haqida o‘ylab ko‘rganmisiz?
4. Insonlar nega muvaffaqiyatsizlikka uchraydi?
5. Siz Jek Maning yoshlarga yo‘llagan murojaatidan qanday xulosa chiqardingiz?

Mantiq vaqti

Mazkur rasmdan nimani tushunishimiz kerak?	
A	Kimda pul, boylik ko‘p bo‘lsa, hammadan ustun bo‘ladi.
B	Kimki faqat kitob o‘qisa, hayotni to‘la-to‘kis fahmlay oladi.
C	Inson kitob o‘qimasa ham, hayotda o‘z o‘rnini topa oladi, muvaffaqiyatga erishadi.
D	Kimki moddiy va ma’naviy jihatni teng tuta olsa, u hayotni to‘liq idrok etadi.

YOZMA MATNNING ASOSIY QISMINI SHAKLLANTIRISH

Fikrni yozma bayon etishda matnning asosiy qismini to‘g‘ri shakllantirish juda muhim. Muayyan mavzu yuzasidan matn yozishga tayyorgarlik ko‘rish chog‘idayoq asosiy qismni to‘g‘ri shakllantirish uchun, avvalo, fikrlarni rejalashtirib olish, nimadan boshlab, nimada tugatishni oldindan aniqlashtirish, shaxsiy mulohazalar ishonchli va ta’sirchan chiqishi uchun mavzuga doir faktlar, iqtiboslar, maqollar, iboralardan foydalanish lozim. Asosiy qismda muhim ma’lumotlar, fikrlar, faktlar, mulohazalar tartibli bayon etiladi. Bu qism umumiy matnning beshdan uch qismini tashkil etishi mumkin. Asosiy qismda berilgan mavzuga, vaziyatga aloqador bo‘lmagan ma’lumotlarni bayon etish to‘g‘ri emas. Bu matnning sifatiga salbiy ta’sir etadi.

146

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

43.1-mashq. Quyidagi savollarga og‘zaki javob bering.

1. Muvaffaqiyatlarga erishayotgan kishilarni bilasizmi? Ularning siri nimada deb o‘ylaysiz?

2. Sizningcha, muvaffaqiyat nima?

3. Xato qilganmisiz? Xatolaringizni to‘g‘rilash haqida o‘ylab ko‘rganmisiz?

4. Insonlar nega muvaffaqiyatsizlikka uchraydi?

5. Siz Jek Maning yoshlarga yo‘llagan murojaatidan qanday xulosa chiqardingiz?

Ushbu suhbatning asosiy mazmuni muvaffaqiyatsizlik va buning sabablari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. O‘quvchilar o‘zlarining va atrofidagilarning xatti-harakatlarini tahlil qiladilar, shu asosda o‘z fikrlarini bildiradilar. Har bir savolning javobi bir necha nafar o‘quvchidan so‘raladi. Tinglangan barcha javoblar asosida umumiy xulosalar chiqariladi.

O‘quvchilarning e’tibori “Mantiq vaqti” rukni ostida berilgan topshiriqqa qaratiladi.

Ushbu topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri rivojlantiriladi. Topshiriq mazmuni muhokama qilinadi, qarama-qarshi fikr bildirgan o‘quvchilar o‘rtasida munozara jarayoni tashkil etilishi, bunda o‘z fikrini ifodalash, o‘z qarashlarini himoya qilishda muloqot madaniyatga rioya qilish lozimligi uqtiriladi. O‘quvchilar baholanganda ham aynan mana shu jihatga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq.

To‘g‘ri javob: D (Kim moddiy va ma’naviy jihatni teng tuta olsa, u hayotni to‘liq idrok etadi).

Jarayon tugagach, yozma matn va uning asosiy qismini shakllantirishga oid ma’lumotlarga e’tibor qaratiladi.

YOZMA MATNNING ASOSIY QISMINI SHAKLLANTIRISH

Fikrni yozma bayon etishda matnning asosiy qismini to‘g‘ri shakllantirish juda muhim. Muayyan mavzu yuzasidan matn yozishga tayyorgarlik ko‘rish chog‘idayoq asosiy qismni to‘g‘ri shakllantirish uchun, avvalo, fikrlarni rejalashtirib olish, nimadan boshlab, nimada tugatishni oldindan aniqlashtirish, shaxsiy mulohazalar ishonchli va ta’sirchan chiqishi uchun mavzuga doir faktlar, iqtiboslar, maqollar, iboralardan foydalanish lozim. Asosiy qismda muhim ma’lumotlar, fikrlar, faktlar, mulohazalar tartibli bayon etiladi. Bu qism umumiy matnning beshdan uch qismini tashkil etishi mumkin. Asosiy qismda berilgan mavzuga, vaziyatga aloqador bo‘lmagan ma’lumotlarni bayon etish to‘g‘ri emas. Bu matnning sifatiga salbiy ta’sir etadi.

Topshiriq. Quyidagi matnda asosiy mazmunni ifodalayotgan fikrlarni ajratib, daftaringizga yozing.

Ushbu topshiriq matn va uning tuzilishi bilan bog‘liq qoidalar bilan tanishtirish, bilimlarni mustahkamlashga qaratiladi.

Matn diqqat bilan o‘qiladi, uning asosiy mazmunini ifodalayotgan fikrlar ajratib olinadi, topshiriq yozma bajariladi. O‘quvchilar o‘zlari yozgan fikrlarni og‘zaki o‘qib berishlari, ushbu jumlalarni nima uchun tanlaganlarini izohlab berishlari kerak bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlarini aniqlashtirish uchun “Agar shu jumlani matn tarkibidan olib tashlasak, matn mazmunida qanday o‘zgarish bo‘ladi?” singari qo‘shimcha savollar bilan murojaat etadi.

O‘quvchilarning e’tibori “Til sandig‘i” rukniga qaratiladi.

Tinish belgilarining qo‘llanishi bilan bog‘liq qoidalar o‘rgatiladi, o‘quvchilardan ushbu qoidalarga mos keluvchi misollarni sinf taxtasiga yozish so‘raladi.

NUQTA (.), SO‘ROQ (?), UNDOV (!)

O‘zbek adabiy tilida tugallangan ohang bilan aytilgan gaplardan so‘ng nuqta, undov, so‘roq belgisi qo‘yilishi mumkin. Odatda darak va buyruq mazmunli gaplardan so‘ng nuqta, so‘roq mazmunli gaplardan so‘ng so‘roq va his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so‘ng undov belgisi qo‘yiladi.

Vazifani bajarib bo‘ldim. Vazifani bajarib bo‘ldingmi? Nihoyat, vazifani bajarib bo‘ldim!

1. Ism, ota ismi qisqartirilganda ularning birinchi harfidan so‘ng, nashriyot ishlarida, lug‘at va ma’lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so‘zlarning birinchi harfi yoki bo‘g‘inidan so‘ng hamda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so‘ng nuqta qo‘yilishi kuzatiladi. **Misollar**: *A. I. Islomov, H. Rahimov; sh.k.* (shu kabilar); *s.t.* (so‘zlashuv tilida), *G‘. G‘.* (G‘afur G‘ulom), *N.* (Navoiy); *2022.15.12.*


2. Gap yoki matn ichidagi birorta so‘z yoki jumla *mujmal, noaniq, tushunarsiz, izohtalab* bo‘lsa, undan so‘ng qavs ichida so‘roq qo‘yiladi; matn ichida *alohida ta’kidlangan, ajratib ko‘rsatilgan* so‘zlardan keyin esa qavs ichida undov qo‘yiladi. **Misollar**: *Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” qissasida (?) o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishi haqida hikoya qilinadi. “Boburnoma”da tarix, etnografiya, til, adabiyot, geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g‘oyat qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin.*

3. His-hayajon bilan aytilgan so‘roq gaplardan so‘ng so‘roq va undov ketma-ket qo‘yiladi. *Ha, ho‘kiz uylaringga eltib berilsinmi?!* (A. Qahhor)

4. Fikr o‘ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchta undov qo‘yiladi. *Axir borilsin, arz qilinsin-da!!!* (A. Qahhor)

43.2-mashq. Matndan olingan quyidagi gaplarda tinish belgilarining qo‘llanish sababini izohlang.

Tinish belgilari va ularning qo‘llanishi bilan bog‘liq qoidalar asosida o‘quvchilarning savodxonlik ko‘nikmalari mustahkamlanadi.



NUQTA (.), SO'ROQ (?), UNDOV (!)

O'zbek adabiy tilida tugallangan ohang bilan aytilgan gaplardan so'ng nuqta, undov, so'roq belgisi qo'yilishi mumkin. Odatda darak va buyruq mazmunli gaplardan so'ng nuqta, so'roq mazmunli gaplardan so'ng so'roq va his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so'ng undov belgisi qo'yiladi.

Vazifani bajarib bo'ldim. Vazifani bajarib bo'ldingmi? Nihoyat, vazifani bajarib bo'ldim!

1. Ism, ota ismi qisqartirilganda ularning birinchi harfidan so'ng, nashriyot ishlarida, lug'at va ma'lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so'zlarning birinchi harfi yoki bo'g'inidan so'ng hamda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so'ng nuqta qo'yilishi kuzatiladi. **Misollar**: *A. I. Islomov, H. Rahimov; sh.k.* (shu kabilar); *s.t.* (so'zlashuv tilida), *G'. G'.* (G'afur G'ulom), *N.* (Navoiy); *2022.15.12.*

2. Gap yoki matn ichidagi birorta so'z yoki jumla *mujmal, noaniq, tushunarsiz, izohtalab* bo'lsa, undan so'ng qavs ichida so'roq qo'yiladi; matn ichida *alohida ta'kidlangan, ajratib ko'rsatilgan* so'zlardan keyin esa qavs ichida undov qo'yiladi. **Misollar**: *Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" qissasida (?) o'zbek xalqining yaqin o'tmishi haqida hikoya qilinadi. "Boburnoma"da tarix, etnografiya, til, adabiyot, geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g'oyat qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.*

3. His-hayajon bilan aytilgan so'roq gaplardan so'ng so'roq va undov ketma-ket qo'yiladi. *Ha, ho'kiz uylaringga eltib berilsinmi?!* (A. Qahhor)

4. Fikr o'ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchta undov qo'yiladi. *Axir borilsin, arz qilinsin-da!!!* (A. Qahhor)

148

43.2-mashq. Matndan olingan quyidagi gaplarda tinish belgilarining qo'llanish sababini izohlang.

1. Men ko'p xatolar qildim! **2.** Eng muhimi, yiqilganingizda qayta tura oling. **3.** Sizlarga Harvardga 10 marta hujjat topshirganim haqida aytdimmi? **4.** Odamlar sizning ishingiz to'g'risida nima deyishi haqida o'ylamang.

43.3-mashq. Gaplardagi uslubiy, tinish belgilari bilan bog'liq xatoliklarni aniqlang va ularni tuzating.

1. Hozir, kuyovimga telefon qilaman, qamoqdan bo'shaganimizda Dyun bilan uchovimiz tushgan sur'atni olib keladi. *(Said Ahmad)* **2.** O'zing bilasan – biz erkaklar palov damlashga ayollarga nisbatan o'zimizni ustasi farang sanaymiz. *(Sunnatilla Anorboyev)* **3.** Bu voqea ikkovimizning gurkirab falak ota boshlagan beg'ubor o'smir qalbimizni hayajonga solgan, o'rtamizdagi sirli suhbat mavzusiga aylanib qolgan edi. *(Odil Yoqubov)* **4.** Karl yagona yashar, onasi yetti yil burun vafot etgan, otasi taniqli etnograf Gerhard Myuller, ko'p vaqtini arxeologik safarlarda o'tqazar, nega bir nemis oilasi o'zbek mahallasida turib qolganini hech kim bilmasdi. *(Uchqun Nazarov)* **5.** Yangi rahbar sinalmagan otni sirtidan o'tib, obro'sini tushirgisi kelmadi shekilli, shaytonga hay berib, alamini ichiga yutdi. *(Shodmon Otabek)* **6.** Suqrot bir boy bilan yo'lga chiqqan ekan. Yo'lda, qaroqchilar shu o'rtada izg'ib yuribdi, degan xabarni eshitib qolibdi. Boy:

– Obbo, tangri urdi! Ular meni tanib qolsa, nima bo'ladi! – desa, Suqrot:

– Obbo, xudo urdi! Ular meni tanimay qolsa, nima qilaman? – debdi.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. "Boy bo'lsam" mavzusida matn tuzing, matningizning asosiy qismini shakllantirishga alohida e'tibor bering.

43.3-mashq. Gaplardagi uslubiy, tinish belgilari bilan bog'liq xatoliklarni aniqlang va ularni tuzating.

Tinish belgilari va ularning qo'llanishi bilan bog'liq qoidalar asosida o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalari mustahkamlanadi.

1. Hozir kuyovimga telefon qilaman, qamoqdan chiqqanimizda Dyun bilan uchovimiz tushgan suratni olib keladi. (Said Ahmad) 2. O'zing bilasan, biz erkaklar palov damlashda ayollarga nisbatan o'zimizni ustasi farang sanaymiz. (Sunnatilla Anorboyev) 3. Bu voqea ikkovimizning gurkirab, palak ota boshlagan beg'ubor o'smir qalbimizni hayajonga solgan, o'rtamizdagi sirli suhbat mavzusiga aylanib qolgan edi. (Odil Yoqubov) 4. Karl yolg'iz yashar, onasi yetti yil burun vafot etgan, otasi, taniqli etnograf Gerhard Myuller ko'p vaqtini arxeologik safarlarda o'tkazar, nega bir nemis oilasining o'zbek mahallasida turib qolganini hech kim bilmasdi. (Uchqun Nazarov) 5. Yangi rahbar sinalmagan otning sirtidan o'tib, obro'sini tushirgisi kelmadi, shekilli, shaytonga hay berib, alamini ichiga yutdi. (Shodmon Otabek) 6. Suqrot bir boy bilan yo'lga chiqqan ekan. Yo'lda qaroqchilar shu o'rtada izg'ib yuribdi, degan xabarnieshitib qolibdi. Boy:

– Obbo, xudo urdi! Ular meni tanib qolsa, nima bo'ladi! – desa, Suqrot:

– Obbo, xudo urdi! Ular meni tanimay qolsa, nima qilaman? – debdi.

IV. Uyga vazifa berish.

"Mustaqil bajaraman" rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

Topshiriq. "Boy bo'lsam" mavzusida matn tuzing, matningizning asosiy qismini shakllantirishga alohida e'tibor bering.

O'quvchilarda matn tuzilishiga doir ma'lumotlar va matn yaratish bilan bog'liq yozma nutq ko'nikmalari mustahkamlanadi.

O'tgan hamda bugungi darsda o'rganilgan nazariy ma'lumotlar o'quvchilar yodiga solinadi. Kirish va asosiy qismni shakllantirishda nimalarga alohida e'tibor qaratish kerakligi tushuntiriladi.


V. Darsni yakunlash.

O'qituvchi berilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning darsdan olgan fikrlarini so'raydi. O'quvchilarning faolligiga nisbatan o'z munosabatini bildirib, darsni yakunlaydi.

44-dars

Darsning maqsadi. Og‘zaki nutqni rivojlantirish, muayyan mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini suhbat va munozara odobiga rioya qilgan holda bildira olish, mavzudan chetlashmagan holda fikr va g‘oyalarini taqdimot ko‘rinishida ifodalay olish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni mustahkamlash; nutqiy mavzu doirasidagi so‘zlar imlosi, ma’nodosh so‘zlar, og‘zaki nutqning xulosa qismini shakllantirishga oid ma’lumotlar bilan tanishtirish.

DARS JARAYONI



44.3-mashq. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida quyidagi savollarga og‘zaki javob bering.

- Ushbu filmlardan birortasini ko‘rganmisiz?
- Ushbu filmlarning eng kassabop filmga aylanishining boisi nimada deb o‘ylaysiz?
- Nega yurtimizda ham shunday kassabop filmlar suratga olinmagan?
- Bizda ham xalqaro darajada e’tirof etiladigan filmlar olish uchun nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?
- O‘zingiz yoqtirib ko‘radigan filmingiz haqida gapirib bering.
- Qaysi o‘zbek filmini yoqtirib tomosha qilasiz?
- Filmlar muvaffaqiyatli chiqishida til ifoda imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanishning ahamiyati haqida gapiring.

TIL SANDIG‘I

MA’NODOSH SO‘ZLAR

TUSHUNMOQ — ***biror ish-harakat, narsa-predmetning mazmunini, mohiyatini anglamoq***

Ma’nodoshlari: *anglamoq, fahmlamoq, idrok qilmoq, bilmoq, uqmoq, tuymoq, sezmoq, ilg‘amoq, farqlamoq, farqiga bormoq*

152

44.4-mashq. Quyida berilgan jumlalar qaysi filmdan ekanini toping. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zning sinonim(lar)ini aniqlab, yozing.

1. O‘g‘lim, **ovqatingni** yemaysanmi?
2. Obbo Oytovog‘-e, shuncha **halak qilding-a** odamni.
3. Vajohatimni ko‘rib, qanday ulug‘ zot bilan uchrashib qoldik deb o‘ylayotgan bo‘lsalaring kerak.
4. Bu dargohdan bironta odam **norizo bo‘lib** ketishi mumkin emas.
5. Birovga tuhmat qilish gunoh, **tag‘in** bilmadim...
6. Ishlamagan **tishlaydi**. O‘rgan, student!
7. Sizni hamma yomon ko‘radi: dadam, oyim, qishloqdagi odamlar, **magazinchi** G‘aybulla...

OG‘ZAKI NUTQNING XULOSA QISMINI SHAKLLANTIRISH

Fikrni og‘zaki ifodalayotganda xulosani qay tartibda bayon etish muhim hisoblanadi. Xulosa lo‘nda, ta’sirli hamda mazmundor bo‘lishi kerak. U keltirilgan dalillar, fikr bayonida ifodalangan faktlar, shaxsiy mulohazalar asosida hosil qilinadi. Xulosa *bir so‘z bilan aytganda, demak, umuman, qissadan hissa, xulosa qilib aytganda* kabi jumlalar bilan boshlanadi va hukm mazmunida bo‘ladi.

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Darslikda berilgan topshiriqlarni bajarishga kirishishdan oldin nutqiy mavzuga o‘quvchilarni olib kirish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Nima deb o‘ylaysiz, kinoning inson hayotidagi o‘rni qanday?

2. Nima uchun ushbu sohaga nisbatan *sanoat* degan tushunchani qo‘llaymiz?

Olib borilgan suhbatdan so‘ng o‘quvchilarning e’tibori darslikda berilgan birinchi topshiriqqa qaratiladi.

Topshiriq. Quyida rasmi berilgan mashhur insonlarni tanidingizmi? Ularni nima birlashtirib turadi?

O‘quvchilarning og‘zaki nutqi rivojlantiriladi, muayyan mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini suhbat va munozara odobiga rioya qilgan holda bildira olish bilan bog‘liq ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

O‘quvchilar avval rasmlarda keltirilgan shaxslarning nomlarini aytadilar. Ular bilan bog‘liq qanday ma’lumotlarni bilishlari haqida so‘raladi. Ular o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida so‘z boradi. Ushbu aktyor yoki aktrisalarning rollari, ular ijrosi bilan bog‘liq qisqa suhbat tashkillashtirilishi mumkin.


Topshiriq. Matnni o‘qib chiqing.

Matnda kino haqidagi mashhur insonlarning fikrlari keltirilgan bo‘lib, o‘quvchilar har bir fikrni alohida o‘qishi kerak. Ushbu fikrlar asosida munozara jarayoni tashkillashtiriladi. O‘qi-

tuvchi o‘quvchilarga “Nima deb o‘ylaysiz, ushbu fikr orqali muallif kino san’ati haqida nima demoqchi?”, “Siz ham muallifning fikriga qo‘shilasizmi?”, “Kinoning inson hayotiga ta’siri haqida nima deya olasiz?” kabi qo‘shimcha savollar bilan murojaat etadi.

44.1-mashq. Yuqorida keltirilgan iqtiboslar va o‘z kuzatishlaringiz asosida kino va teatr san’ati haqida fikrlaringizni og‘zaki bayon eting.

Berilgan nutqiy mavzu doirasida nutq tayyorlay olish, mavzudan chetlashmagan holda fikr va g‘oyalarini taqdimot ko‘rinishida ifodalay olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ish olib boriladi.



44.5-mashq. Yuqoridagilar asosida “kino” tushunchasiga o‘zingizning xulosaviy ta’rifingizni yozma bayon eting.

44.6-mashq. Berilgan jadvaldagi tirening qo‘llanish sababi va misollarini moslashtiring va daftaringizga ko‘chiring. O‘zingiz xulosa qiling.

QOIDA	MISOL
1. Dialoglardagi har bir gapning boshida qo‘llangan.	A. Mard bir o‘lar, nomard – ming.
2. Muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida qo‘llangan.	B. O‘zbekiston – Qozog‘iston qo‘shma korxonasi ishga tushirildi.
3. Asosiy gapdan so‘ng tartib bilan sanalgan so‘z, birikma va gaplar boshida qo‘llangan.	C. “Oddiylik – buyuklik belgisidir”, – deydi xalqimiz.
4. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilgani uchun ishlatilgan.	D. Quyidagi kitoblarni o‘qib chiqing: – Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi; – O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi.
5. Tenglik, taqqoslash ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar orasida qo‘llangan.	E. – Ertaga qaytasizmi, do‘stim? – Ha, safarimiz qariyapti.

153

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Siz rejissyor bo‘lsangiz, qanday film olgan bo‘lar edingiz? Shu filmning bir lavhasi uchun dialog shaklida ssenariy tuzing.

Fikrni ifodalayotganda quyidagilarga amal qilish so‘raladi:

– kino va teatr san’atining insoniyatga ta’sirini ochib bering;

– film va sahna asarlarini o‘zaro qiyoslang;

– fikringizni adabiy til me’yorlariga amal qilib ifodalang.

44.2-mashq. Quyidagi testlarni ustozingiz bilan birga bajaring.

Ushbu topshiriq nutqiy mavzu doirasida til birliklari imlosi bilan tanishish maqsadida bajariladi.

Yechim:

1. B (multfilm). 2. A (fotoapparat). 3. C (ssenariy) 4. C (plyonka) 5. B (proyektor).

Topshiriq. Eng kassabop filmlar haqidagi ma’lumotlarni o‘qing.

O‘quvchilarning o‘zlarini qiziqtirgan mavzu yuzasidan fikr ifodalay olishi, berilgan ma’lumotlarga nisbatan munosabat bildira olishi bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Topshiriqni bajarishga kirishishdan oldin “kassabop film” atamasi izohlanishi lozim. O‘quvchilar berilgan rasm va ma’lumotlar asosida o‘z fikrlarini aytadilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga ma’lumotlarni o‘zaro qiyoslashga qaratilgan savollar berishi mumkin. Masalan, “Eng kassabop film qaysi?” yoki “Ilk kassabop deb topilgan film nomini aniqlang”.

44.3-mashq. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida quyidagi savollarga og‘zaki javob bering.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida suhbat tashkillashtiriladi.

- Ushbu filmlardan birortasini ko‘rganmisiz?
- Ushbu filmlarning eng kassabop filmga aylanishining boisi nimada deb o‘ylaysiz?

• Nega yurtimizda ham shunday kassabop filmlar suratga olinmagan?

• Bizda ham xalqaro darajada e'tirof etiladigan filmlar olish uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?

• O'zingiz yoqtirib ko'radigan film haqida gapirib bering.

• Qaysi o'zbek filmini yoqtirib tomosha qilasiz?

• Filmlar muvaffaqiyatli chiqishida til ifoda imkoniyatlaridan o'rinli foydalanishning ahamiyati haqida gapiring.

O'quvchilarning e'tibori "Til sandig'i" rukniga qaratiladi.

44.4-mashq. Quyida berilgan jumlalar qaysi filmdan ekanini toping. Ajratib ko'rsatilgan so'zning sinonim(lar)ini aniqlab, yozing.

Ma'nodosh so'zlar, ularning uslubiy xususiyatlari bilan bog'liq bilimlar mustahkamlanadi.

1. O'g'lim, **ovqat**ingni yemaysanmi? ("Mahallada duv-duv gap" filmi) – taom, yegulik, xo'rak.

2. Obbo Oytovog'-ey, shuncha **halak qilding-a** odamni. ("Abdullajon" filmi) – azobga qo'ymoq, qiynamoq.

3. **Vajohat**imni ko'rib, qanday ulug' zot bilan uchrashib qoldik deb o'ylayotgan bo'lsalaring kerak? ("Shum bola" filmi) – ko'rinish, avzo.

4. Bu dargohdan bironta odam **norizo** bo'lib ketishi mumkin emas. ("O'tkan kunlar" filmi) – norozi.

5. Birovga tuhmat qilish gunoh, **tag'in** bilmadim... ("Shum bola" filmi) – yana.

6. Ishlamagan **tishlaydi.** O'rgan, student! ("Ы" operatsiyasi: sheriklar" filmi) – rohat ko'rmoq, qorni to'ymoq.

7. Sizni hamma yomon ko'radi: dadam, oyim, qishloqdagi odamlar, **magazinchi** G'aybulla... ("Suyunchi" filmi) – sotuvchi, do'kondor.

O'quvchilarning e'tibori darslikda berilgan nazariy ma'lumotga qaratiladi.

OG'ZAKI NUTQNING XULOSA QISMINI SHAKLLANTIRISH

Fikrni og'zaki ifodalayotganda xulosani qay tartibda bayon etish muhim hisoblanadi. Xulosa lo'nda, ta'sirli hamda mazmundor bo'lishi kerak. U keltirilgan dalillar, fikr bayonida ifodalangan faktlar, shaxsiy mulohazalar asosida hosil qilinadi. Xulosa *bir so'z bilan aytganda*, *demak*, *umuman*, *qissadan hissa*, *xulosa qilib aytganda* kabi jumlalar bilan boshlanadi va hukm mazmunida bo'ladi.

O'qituvchi nazariy ma'lumot bilan o'quvchilarni tanishtirar ekan, oldingi darslarda o'tilgan nazariy qoidalarni yodga soladi. Ya'ni og'zaki nutqdagi kirish, asosiy qism haqida, uning

mazmuni, hajmi bilan bog‘liq ma’lumotlar eslatiladi. Xulosa qismini shakllantirishda foydalaniladigan til birliklarini qo‘llagan holda muayyan mavzu yuzasidan xulosaviy fikrlarni namuna tariqasida keltirish maqsadga muvofiq.

44.5-mashq. Yuqoridagilar asosida “kino” tushunchasiga o‘zingizning xulosaviy ta’rifingizni yozma bayon eting.

Xulosaviy fikrni yozishga kirishishdan oldin o‘qituvchi kino bilan bog‘liq o‘rganilgan barcha ma’lumotlarni o‘quvchilar yodiga solishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilar yuqorida berilgan nazariy qoida yordamida o‘z fikrlarini yozma tarzda ifodalaydilar.

44.6-mashq. Berilgan jadvaldagi tirening qo‘llanish sababi va misollarini moslashtiring va daftaringizga ko‘chiring. O‘zingiz xulosa qiling.

Ushbu topshiriq tire va uning qo‘llanishi bilan bog‘liq bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlash maqsadida bajariladi.

Yechim:

QOIDA	MISOL
1. Dialoglardagi har bir gapning boshida qo‘llangan.	E. — Ertaga qaytasizmi, do‘stim? — Ha, safarimiz qariyapti.
2. Muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida qo‘llangan.	C. “Oddiylik – buyuklik belgisidir”, – deydi xalqimiz.
3. Asosiy gapdan so‘ng tartib bilan sanalgan so‘z, birikma va gaplar boshida qo‘llangan.	D. Quyidagi asarlarni o‘qib chiqing: – Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi; – O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi.
4. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilgani uchun ishlatilgan.	A. Mard bir o‘lar, nomard – ming.
5. Tenglik,taqqoslash ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar orasida qo‘llangan.	B. O‘zbekiston – Qozog‘iston qo‘shma korxonasi ishga tushirildi.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

Topshiriq. Siz rejissyor bo‘lsangiz, qanday film olgan bo‘lar edingiz? Shu filmning bir lavhasi uchun dialog shaklida ssenariy tuzing.

Dars davomida aytilgan fikrlar asosida har bir o‘quvchi o‘zi olmoqchi bo‘lgan film haqida o‘ylab ko‘radi, shu filmning muayyan bir qismiga oid dialog yozish topshirig‘ini bajaradi. Bunda tiredan foydalanish qoidalariga rioya qilish kerakligi yodga solinadi.


V. Darsni yakunlash.

O‘quvchilardan dars haqidagi xulosaviy fikrlari so‘raladi. Ular o‘rganilgan nazariy qoida asosida kerakli til birliklaridan foydalanib xulosaviy fikrlarini aytadi. O‘qituvchi ham o‘z xulosalarini aytib, darsni yakunlaydi.

45-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish, grafik ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni tushunish, unda ifodalangan g‘oya va xulosani anglay olish, ochiq ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni topish, voqea, sabab va oqibat o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlay olish, muallifning nuqtayi nazariga baho berish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish; internet manbalari bilan ishlash, ularda berilgan ma’lumotlarni tahlil qila olish, tanqidiy fikr ifodalashda qanday til birliklaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekani haqida ma’lumot berish.

DARS JARAYONI



45-dars

Topshiriq. Quyidagi rasmdan nimani tushundingiz?

154

45.1-mashq. Quyidagi so‘zlarni lug‘at daftaringizga ko‘chiring hamda ma’nosini ustozingiz bilan birga izohlang.

xuruj | ongosti | g‘ayriixtiyoriy | proyektor | kadr | bestseller

Topshiriq. Matnni diqqat bilan o‘qing.

25-kadr o‘zi nima?

Sir emas, hozir biz axborotlashgan makonda yashaymiz. Bugun siz uchun yangilik sifatida qabul qilingan hodisa zum o‘tmay atrofdagilar uchun yangilik bo‘lmay qolmoqda... Mazkur jadallashgan jarayonda internet va OAVning shaxs va jamiyatga ko‘rsatayotgan bosimi haqida ortiqcha to‘xtalib o‘tish esa o‘rinsizdek. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda insoniyat ulkan axborot xurujlari davrida yashashga mahkum. Boisi zamonaviy axborot xurujlarini kundalik turmushimizning deyarli hamma yerida: katta yo‘llar chetida ko‘zimizga tashlanadigan yaltiroq bannerlar, kunda televizorda ko‘rsa-

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Topshiriq. Quyidagi rasmdan nimani tushundingiz?

Topshiriq orqali grafik ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni tushunish, unda ifodalangan g‘oya va xulosani anglay olish bilan bog‘liq ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Darslikda berilgan rasmni kuzatish aytiladi, o‘quvchilar rasmni diqqat bilan kuzatishlari kerak. O‘qituvchi rasmda tasvirlangan mazmunni aniqlashtirish uchun quyidagi savollar asosida tahlil jarayonini tashkillashtiradi.


1. Rasmda kimlarni ko‘ryapsiz?

2. Odamlarni kim boshqaryapti?

3. Rasmda qo'shimcha detallarning o'rni qanday?

4. Rasmni falsafiy jihatdan tahlil qilib ko‘ring.

O‘quvchilarning javoblari asosida kerakli xulosalar chiqariladi, bunda rasmni hayotga bog‘lashga ko‘proq e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.



Topshiriq. Matn asosida quyidagi savollarga og'zaki javob bering.

1. 25-kadr deganda nimani tushundingiz?
2. 25-kadr ta'siriga tushganmisiz yoki shunday insonni ko'rganmisiz?
3. 25-kadr xurujidan himoyalanish uchun siz qanday tavsiya bera olasiz?

MATN MUALLIFINING NUQTAYI NAZARIGA BAHO BERISH

So'zlovchi yoki muallifning fikriga tinglovchi, o'qirman sifatida baho bera olish juda-juda muhim. Negaki eshitilgan, o'qilgan axborotlar asosida xulosaga kelinadi. Xulosaga kelishdan avval nutq egasining fikri to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini bilish lozim. Buning uchun, avvalo, fikrning xolis yoki noxolis, ko'p tomonlama yoki biryoqlama, obyektiv yoki subyektiv ekanini aniqlash lozim bo'ladi. Muayyan mavzu yuzasidan keltirilgan fikr faqat salbiy bo'lsa yoki faqat ijobiy bo'lsa ham, bunday fikr biryoqlama, noxolis bo'lib qoladi. Fikr ifodalovchi hamda o'zgalar fikrini tushunuvchi sifatida unutmaslik kerakki, tanganing ikki tomoni bor.

158

45.3-mashq. "25-kadr o'zi nima?" matni muallifining fikriga baho bering. Uning fikri biryoqlama, noxolis emasmi? Fikrlaringizni og'zaki bayon eting.

45.4-mashq. Quyidagi savolga yozma javob bering.

Internet tarmog'idagi duch kelgan (25-kadr effektidan foydalanilgan bo'lishi mumkin) videotasvirni ko'rish, audiomaterialni eshitish insonni har xil harakatlar, g'oyalarga moyilligini oshirishi mumkinligidan o'zingiz uchun qanday xulosa oldingiz? Xulosangizni yozma bayon eting.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Internetdan biryoqlamalik, noxolislikka yo'l qo'yilgan biror maqola topib, daftaringizga ko'chirib keling.

45.1-mashq. Quyidagi so'zlarni lug'at daftaringizga ko'chiring hamda ma'nosini ustozingiz bilan birga izohlang.

So'z ma'nolari va izohi bilan tanishish.

Xuruj – 1. To'satdan hujum qilish; hujum. 2. Issiq, sovuq, shamol, yomg'ir, o't, suv kabi tabiat kuchlarining hamlasi; avjiga chiqishi, kuchayishi. 3. Kasallikning kuchayishi. 4. Biror salbiy narsaga berilib ketish, ruju qilish.

Ongosti – ma'lum bir vaqtda ong faoliyatining markazi bo'lmasdan, ongli jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan faol psixologik jarayonlarning o'ziga xos xususiyati.

G'ayriixtiyoriy – kishi ixtiyori bilan bo'lmagan, ixtiyorsizlik bilan qilingan.

Proyektor – ekranda tasvirni kattalashtirib ko'rsatadigan optik moslama, proyeksion apparat.

Kadr – 1. Kinoplyonka yoki fotoplyonkadagi alohida-alohida suratlardan biri; bitta surat, yakka rasm. 2. Kinofilmning ayrim bir ko'rinishi, bitta epizodi.

Bestseller – eng ommalashgan, ko'p sotilgan kitob.

Topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing.

Darslikda berilgan matnlar ifodali o'qib chiqiladi. Bunda bir necha nafar o'quvchidan foydalanish mumkin. Ammo o'quvchilarning o'zlari ham matn mazmuni bilan alohida tanishishlari kerakligi aytiladi.

45.2-mashq. Matn asosida berilgan testlarning javobini toping.

1-test. "Piknik" nomli badiiy film yoz davomida muntazam namoyish etilishi natijasida "Coca-Cola" ichimligi savdosi 17% ga, popkorn savdosi esa 50% ga oshgan. Buning sababi nimada edi?

Ochiq ko'rinishda berilgan ma'lumotlarni topish, voqea, sabab va oqibat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlay olishga oid nutqiy ko'nikmalar rivojlantiriladi.

To'g'ri javob: B (filmdagi yashirin reklama ta'siri).

2-test. 25-kadr effektidan qanday maqsadda foydalanish mumkin?

1) mahsulotlar reklamasida; 2) vayronkor g'oyalar tarqatishda; 3) ezgulik targ'ibotida.

Matn mazmuni asosida xulosa chiqara olish, matnning turli qismlarida berilgan ma'lumotlarni bog'lay olishga oid nutqiy ko'nikmalar rivojlantiriladi.

To'g'ri javob: A (1, 2).

3-test. 25-kadr qay tarzda insonni boshqara oladi?

Ochiq ko'rinishda berilgan ma'lumotlarni o'qib tushunishga oid ko'nikmalar mustahkamlanadi.

To'g'ri javob: C (tasvirlar juda katta tezlikda ko'p marotaba takror ko'rsatilishi orqali).

O'quvchilarning e'tibori "Til sandig'i" rukni ostida berilgan ma'lumotga qaratiladi.

Topshiriq. Matn asosida quyidagi savollarga og'zaki javob bering.

Berilgan savollar asosida o'quvchilarning o'qib tushunish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalari mustahkamlanadi. Matnda berilgan ma'lumotlar muhokamasi tashkillashtiriladi.

1. 25-kadr deganda nimani tushundingiz?

2. 25-kadr ta'siriga tushganmisiz yoki shunday insonni ko'rganmisiz?

3. 25-kadr xurujidan himoyalanish uchun siz qanday tavsiya bera olasiz?

Suhbatdan so'ng darslikdagi berilgan nazariy qoida tushuntiriladi. Ushbu qoida asosida ayrim fikrlar muhokama qilinadi. O'qituvchi bir nechta misol yordamida fikr bildirishda yo'l qo'yiladigan xatolar haqida ma'lumot beradi. Bunda biror videomaterial yoki ijtimoiy tarmoqlardagi matnlardan foydalanishi mumkin.

MATN MUALLIFINING NUQTAYI NAZARIGA BAHO BERISH

So'zlovchi yoki muallifning fikriga tinglovchi, o'qirman sifatida baho bera olish juda-juda muhim. Negaki eshitilgan, o'qilgan axborotlar asosida xulosaga kelinadi. Xulosaga kelishdan avval nutq egasining fikri to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini bilish lozim. Buning uchun, avvalo, fikrning xolis yoki noxolis, ko'p tomonlama yoki biryoqlama, obyektiv yoki subyektiv ekanini aniqlash lozim bo'ladi. Muayyan mavzu yuzasidan keltirilgan fikr faqat salbiy bo'lsa yoki faqat ijobiy bo'lsa ham, bunday fikr biryoqlama, noxolis bo'lib qoladi. Fikr ifodalovchi hamda o'zgalar fikrini tushunuvchi sifatida unutmaslik kerakki, tanganing ikki tomoni bor.

45.3-mashq. "25-kadr o'zi nima?" matni muallifining fikriga baho bering. Uning fikri biryoqlama, noxolis emasmi? Fikrlaringizni og'zaki bayon eting.

O'rganilgan nazariy qoida asosida matn muallifining nuqtayi nazari baholanadi, unga munosabat bildiriladi.

Bunda o‘zbek tilining adabiy me’yorlariga rioya qilgan holda rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ta’sirchan va ravon so‘zlay olish hamda nutqiy vaziyatlarda suhbat va munozara odobiga rioya qilgan holda og‘zaki muloqotga kirisha olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

45.4-mashq. Quyidagi savolga yozma javob bering.

Internet tarmog‘idagi duch kelgan (25-kadr effektidan foydalanilgan bo‘lishi mumkin) videotasvirni ko‘rish, audiomaterialni eshitish insonda har xil harakatlar, g‘oyalarga moyillikni oshirishi mumkinligidan o‘zingiz uchun qanday xulosa oldingiz? Xulosangizni yozma bayon eting.

Topshiriqni bajarish orqali berilgan matn asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o‘z fikr va hissiyotlarini to‘g‘ri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi matn yoza olish ko‘nikmasi rivojlantiriladi. Baholash jarayonida aynan shu me’yorga asoslanish maqsadga muvofiq.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

Topshiriq. Internetdan biryoqlamalik, noxolislikka yo‘l qo‘yilgan biror maqola topib, daftaringizga ko‘chirib keling.

Internet manbalari bilan ishlash, ularda berilgan ma’lumotlarni tahlil qila olish bilan bog‘liq tavsiyalar beriladi. Tanqidiy fikr ifodalashda qanday til birliklaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekani haqida ma’lumot beriladi.


V. Darsni yakunlash.

O‘qituvchi berilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilar nimalarni o‘rganganini so‘raydi. O‘quvchilarning darsdagi faolligiga nisbatan o‘z munosabatini bildiradi, ayrim o‘quvchilarni faollashtirish maqsadida uyda bajarib kelish uchun yakka tartibda qo‘shimcha topshiriq berishi mumkin. Dars haqidagi umumiy xulosalar aytiladi hamda dars yakunlanadi.

46-dars

Darsning maqsadi. Matnni o‘qib tushunish, fikr va faktni farqlay olish, o‘z fikrlarini argumentlar bilan dalillay olish, matnda keltirilgan fikrlarga nisbatan munosabat bildirish hamda muallifning nuqtayi nazarini baholash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ishlash; yozma matnning xulosa qismini shakllantirish hamda qo‘shtirnoqning qo‘llanish o‘rinlari haqidagi nazariy ma’lumotlar bilan tanishish.

DARS JARAYONI



onalari bilan munosabatiga, ularning o‘qishi va fikrlashining chegaralanishiga, madaniy begonalashuvga, tilning buzilishiga, bolalik va beg‘uborlikning erta yo‘qotilishiga sababchi bo‘ladi. Masalan, Angliyadagi bir maktab-internatda 13–16 yosh toifasidagi bolalarni ikki guruhga bo‘lgan holda tadqiqot o‘tkazildi. Birinchi guruh 15 kun davomida hajviy va ijtimoiy dasturlarni, ikkinchi guruh esa zo‘ravonlik aks etgan dastur va seriallarni tomosha qildi. Qizig‘i shundaki, ushbu tadqiqot natijalari birinchi guruhdagi bolalarda bag‘rikenglik va kirishimlilik, ikkinchi guruhdagilarda esa, aksincha, jismoniy zo‘ravonlik, axloqiy buzilishga moyillik ortganini ko‘rsatdi.

kun.uz

46.1-mashq. Matnda keltirilgan beshta faktni yozing.

Namuna. *“Netflix” ma’lumotlariga ko‘ra, 2013-yilda “zombi” foydalanuvchilar soni qariyb 8,4 million kishini tashkil etgan.*

46.2-mashq. Quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. Ushbu matn kimlar uchun mo‘ljallanganini aniqlang hamda fikrlaringizni argumentlar bilan dalillang.
2. Muallifning seriallar haqidagi shaxsiy mulohazalaridan ayrimlari xolis va ishonchli ekaniga baho bering.
3. Muallif maqsadi hamda nuqtayi nazarini qanday usulda yetkazayotganini sharhlang.

TIL SANDIG‘I

SO‘ZLAR ETIMOLOGIYASI

adoq – adzoq – ayaq – oyoq
ko‘n** (teri) **+lak – ko‘ylak
ti-**(demoq)**+l– til
qo‘sh+ug‘ – qo‘shuq – qo‘shiq

46.3-mashq. Matndan olingan quyidagi gaplarda qo‘shtirnoq ishlatilishining sababini izohlang.

1. Hardiman Skott ta’kidlaganidek: “Siyosatchilar televideniyening qudratini yaxshi bilishadi va undan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga intilishadi”.
2. Xususan, seriallarda siyosiy qarashlar va mafkuraviy gegemonizm konsepsiyasi turli yashirin tashviq-da’vatlar, manipulyatsiyalar orqali “eksport” qilinadi.
3. Xo‘sh, “binge-racer” kim? Bunday odam dastur yoki serial qismlarini ketma-ket tomosha qilgan holda hatto tunlarini uyqusiz o‘tkazadi. Ya’ni uning ashaddiy giyohvanddan deyarli farqi qolmaydi.
4. Esingizda bo‘lsa kerak: “Ramayana” seriali namoyish etilganda aksar bolalar Ram va Lakshmanga aylanib, kamon-paykon bilan bir-birining ko‘zini chiqargan, “Jumong” namoyish etilganda esa o‘zicha qilich yasashga tushib ketgandi.

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Topshiriq. Matnni diqqat bilan o‘qing.

Matnni o‘qishga kirishishdan avval quyidagi savollar asosida kirish suhbati o‘tkazish mumkin:

1. Nima uchun ko‘pchilik bo‘sh vaqtini serial tomosha qilish bilan o‘tkazishni ma’qul ko‘radi?

2. Siz ham biror serialni qoldirmasdan ko‘rganmisiz?


3. Seriallarning hayotingizdagi o‘rni haqida gapiring.

Suhbatdan so‘ng darslikda berilgan matn bilan tanishish aytiladi. Matnni o‘qish jarayonida o‘quvchilarning nutqi kuzatiladi, nutqda uchraydigan xatolar qayd etib boriladi. Matn o‘qib tugatilgach, ushbu xatolar ustida ishlanadi.

46.1-mashq. Matnda keltirilgan beshta faktni yozing.

Fikr va faktni o‘zaro ajrata olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

O‘qituvchi o‘quvchilardan fikr va faktning farqi haqida so‘raydi. O‘quvchilarning javoblari asosida fikr va fakt uchun ta’rif hosil qilinadi. Shundan so‘ng topshiriqni bajarish jarayoniga kirishiladi. O‘quvchilar o‘zlari yozgan ma’lumotlarni boshqalarga o‘qib berishlari mumkin. Yozilgan faktlar muhokama qilinadi va baholanadi.



QO'SHTIRNOQ (“ ”)

1. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi. Masalan, “*Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa*”, – *degan edi Sa'diy Sheroziy.*

2. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar, kesatiq, piching va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo'shtirnoq ichida yoziladi. Masalan, ... *oradan yana bir necha oy o'tib, uchinchi marta sud bo'lgan. Bu safar Botirovning jinoyati o'n bir yillik qamoq bilan "taqdirlandi". (T. Malik)*

3. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo'shtirnoq ichida beriladi. Masalan, “*Ma'rifat*” *gazetasi.* “*Lison ut-tayr*” *haqida suhbatlashdik.*

4. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qo'shtirnoq ichida beriladi. *1993-yilning 2-sentyabr kuni "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.*

46.4-mashq. Quyidagi misollardan qo'shtirnoq tushirib qoldirilgan gaplarni aniqlab, tinish belgisini qo'yib daftaringizga yozing.

1. Ey odamzod, oxir o'lib, boshingga tushadurg'on ish shu. 2. Gyote shunday deb aytgan edi: Donishmandlik faqat haqiqatdadir. 3. Amir Temur mulohazakor, tadbirli shoh sifatida tarixda nom qozongan. 4. Ta'lim to'g'risidagi qonunda ta'lim turlari keltirilgan. 5. Jajji akademik jurnali ko'plab mushtariylariga ega edi. 6. Kundan kunga olomon madaniyati ta'siriga tushgan zombi avlodlar ko'payib bormoqda.

YOZMA MATNNING XULOSA QISMINI SHAKLLANTIRISH

Matnning muhim qismi **xulosasidir**. Xulosa berishda matn qismlari ma'nosiga tayaniladi. Tuzilgan matnning kirish qismida keltirilgan mavzuning zarurati, mazmuniy bog'langan o'xshatmalar, asosiy qismda izohlangan dalillar, bayon etilgan fikrlar, mulohazalar asosida xulosaga kelinadi. Matnning xulosa qismi odatda umumlashma, taklif, tavsiya, yechim sifatida bayon etiladi.

163

Mantiq vaqti

Deyl Karnegi unga shunday ta'rif beradi: “U hech qancha turmaydi, ko'p narsaga qodir emas. U hadya qilingan odam boy bo'ladi, hadya qilgan odam esa kambag'allashib qolmaydi. Uning davomiyligi bir lahza, ammo xotiramizda abadiy qoladi. Uni sotib olish, so'rab olish, o'g'irlab olish behuda. Chunki u chin dildan taqdim etilgandagina qadrli. “**U**” nima?”

A	ishonch
B	nigoh
C	tabassum
D	diydor

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Seriallarning hayotimizga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz? Mulohazalaringiz hamda “Seriallar va biz” matnida keltirilgan fikrlar va faktlarga tayanib matnning xulosa qismini shakllantiring.

46.2-mashq. Quyidagi savollarga yozma javob bering.

Berilgan topshiriqni bajarish orqali matnning maqsadi, o‘z fikrlarini argumentlar bilan dalillay olish, matnda keltirilgan fikrlarga nisbatan munosabat bildirish hamda muallifning nuqtayi nazarini baholash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

1. Ushbu matn kimlar uchun mo‘ljallanganini aniqlang hamda fikrlaringizni argumentlar bilan dalillang.

2. Muallifning seriallar haqidagi shaxsiy mulohazalaridan ayrimlari xolis va ishonchli ekaniga baho bering.

3. Muallif maqsadi hamda nuqtayi nazarini qanday usulda yetkazayotganini sharhlang.

O‘quvchilarning e’tibori “Til sandig‘i” rukni ostida berilgan ma’lumotga qaratiladi.

46.3-mashq. Matndan olingan quyidagi gaplarda qo‘shtirnoq ishlatilishining sababini izohlang.

Qo‘shtirnoq va uning qo‘llanish o‘rinlari haqidagi bilimlar mustahkamlanadi.

Yechim:

1. Hardiman Skott ta’kidlaganidek: “Siyosatchilar televideniyening qudratini yaxshi bilishadi va undan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga intilishadi”. (ko‘chirma gap bo‘lgani uchun)

2. Xususan, seriallarda siyosiy qarashlar va mafkuraviy gegemonizm konsepsiyasi turli yashirin tashviq-da’vatlar, manipulyatsiyalar orqali “eksport” qilinadi. (ko‘chma ma’noni ifodalash uchun)

3. Xo‘sh, “binge-racer” kim? Bunday odam dastur yoki serial qismlarini ketma-ket tomosha qilgan holda hatto tunlarini uyqusiz o‘tkazadi. Ya’ni uning ashaddiy giyohvanddan deyarli farqi qolmaydi. (boshqa tilga mansub, hali tilimizga yot birlik bo‘lgani uchun)

4. Esingizda bo‘lsa kerak: “Ramayana” seriali namoyish etilganda aksar bolalar Ram va Lakshmanga aylanib, kamon-paykon bilan bir-birining ko‘zini chiqargan, “Jumong” namoyish etilganda esa o‘zicha qilich yasashga tushib ketgandi. (serial nomi bo‘lgani uchun)

Topshiriq bajarib bo‘lingach, darslikda berilgan nazariy qoidaga e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar o‘zlari bajargan topshiriqning yechimi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlaydilar.

QO‘SHTIRNOQ (“ ”)

1. Ko‘chirma gap qo‘shtirnoqqa olinadi. Masalan, “*Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa*”, – *degan edi Sa’diy Sheroziy.*

2. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlar, kesatiq, piching va shu kabi ma’nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo‘shtirnoq ichida yoziladi. Masalan, ... *oradan yana bir necha oy o‘tib, uchinchi marta sud bo‘lgan. Bu safar Botirovning jinoyati o‘n bir yillik qamoq bilan “taqdirlandi”. (T. Malik)*

3. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo‘shtirnoq ichida beriladi. Masalan, “*Ma’rifat*” *gazetasi.* "*Lison ut-tayr*" *haqida suhbatlashdik.*

4. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qo‘shtirnoq ichida beriladi. *1993-yilning 2-sentyabr kuni “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.*

46.4-mashq. Quyidagi misollardan qo‘shtirnoq tushirib qoldirilgan gaplarni aniqlab, tinish belgisini qo‘yib, daftaringizga yozing.

Qo‘shtirnoq va uning qo‘llanish o‘rinlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

Yechim:

2. Gyote shunday deb aytgan edi: “Donishmandlik faqat haqiqatdadir”. 4. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda ta’lim turlari keltirilgan. 5. “Jajji akademik” jurnali ko‘plab mushtariylariga ega edi. 6. Kundan kunga olomon madaniyati ta’siriga tushgan “zombi” avlodlar ko‘payib bormoqda.

O‘quvchilarning e’tibori darslikda berilgan nazariy qoidaga qaratiladi. Qoida asosida ma’lum bir matnning xulosa qismi tahlil qilinishi maqsadga muvofiq.

YOZMA MATNNING XULOSA QISMINI SHAKLLANTIRISH

Matnning muhim qismi **xulosasidir**. Xulosa berishda matn qismlari ma'nosiga tayaniladi. Tuzilgan matnning kirish qismida keltirilgan mavzuning zarurati, mazmuniy bog'langan o'xshatmalar, asosiy qismda izohlangan dalillar, bayon etilgan fikrlar, mulohazalar asosida xulosaga kelinadi. Matnning xulosa qismi odatda umumlashma, taklif, tavsiya, yechim sifatida bayon etiladi.

Birinchi do‘st, birinchi muhabbat, yodda qolarli birinchi xato, haqiqat va yolg‘onni anglagan onlar, ota-onamizning mehrli nigohi, ustozlarimizning go‘zal tabassumi – bularning barcha-barchasi yoshligimizning oltin sahifalaridir. Yoshlik davrida qilingan barcha xatti-harakatlar kelajakning oltin mevasiga aylanadi. Albatta, bu harakatlar ezgu amallar bilan boyitilsa.	KIRISH
Keling, sizga bir savol beray. Agar sizga ikkinchi hayot, ikkinchi imkoniyat berilganda, uni qabul qilarmidingiz? O‘zgartirmoqchi bo‘lgan ishlaringiz bormi? “Ha” yoki “yo‘q”? Bu savolga 80 foiz kishi “Ha” degan javobni beradi. Ammo men bunga “yo‘q” degan bo‘lar edim. Nega? Bunga to‘rt sababni ayta olaman.	ASOSIY QISM

Birinchisi, men dunyodagi eng baxtli yoshlardan biriman. Chunki men ozod yurtning farzandiman. Ikkinchisi, men hech qachon ortga qaytmayman. Chunki ortga qaytishga, afsuslanishga sabab bo‘ladigan xatoga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilaman. Uchinchisi, siz ortingizga qaytishni xohlayapsizmi, demak, sizning yoshlikda orzu qilgan kasbingiz yoki orzu qilgan narsangiz bo‘lgan. Men esa orzu qilish bilangina kifoyalanmayman. Aksincha, o‘ylagan kasbim kelajagim uchun foydali bo‘lsa, uni egallash uchun harakatni yoshlikdanoq boshlayman. Va nihoyat – to‘rtinchisi. Ikkinchi imkon bu – hayot! Siz doimo haqiqiy hayotda o‘z o‘rningiz bo‘lishiga harakat qilishingiz kerak.	ASOSIY QISM
Ozod, tinch, osmoni musaffo yurtda voyaga yetayotgan biz – yosh avlodning kelajagi albatta porloq bo‘lishiga ishonaman! Bunday yoshlardan biri sizsiz, aziz tengdoshim!	XULOSA

Mantiq vaqti” rukni ostida berilgan topshiriq bajariladi.

O‘quvchilarning javoblari muhokama qilinadi, o‘z fikrini asoslab berish so‘raladi.

To‘g‘ri javob: C (tabassum).

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

Topshiriq. Seriallarning hayotimizga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun nima qilish kerak deb o‘ylaysiz? Mulohazalaringiz hamda “Seriallar va biz” matnida keltirilgan fikrlar va faktlarga tayanib matnning xulosa qismini shakllantiring.

Xulosaviy fikr ifodalashda qanday til birliklaridan foydalanish kerakligi haqida tavsiyalar beriladi.


V. Darsni yakunlash.

O‘quvchilardan dars haqidagi xulosaviy fikrlarni aytish so‘raladi. O‘rganilgan nazariy qoida asosida kerakli til birliklaridan foydalangan holda xulosaviy fikrlar aytiladi. O‘qituvchi ham o‘z xulosalarini aytib, darsni yakunlaydi.

47-dars

Darsning maqsadi. Bahs va bahslashish odobi, suhbatlashish odobi; o‘qilgan va tinglangan matnlarga argumentlar bilan munosabat bildirish; fikrni to‘g‘ri va ravon yetkazish; so‘zni tanlash va nuqtali vergulni qo‘llashga doir bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni



47-dars

47.1-mashq. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering.

1. *Seriallar ta'siriga tushib qolgan insonlarni bilasizmi? Buning sababini "Seriallar va biz" matni asosida izohlang.*

2. *Sizningcha, serial ko'rishga kimlar mukkasidan ketadi? Fikrlaringizni argumentlar bilan asoslang.*

3. *Serial ko'rishga mukkasidan ketish qanday oqibatlarga olib keladi? Fikrlaringizni hayotiy misollar bilan asoslang.*

BAHSLASHISH ODOBI

Bahs – muayyan mavzu yuzasidan shaxsiy mulohazalaringizni, qarashlaringizni himoya qilish, dalillash, ochib berish jarayoni. Fikringiz faktlarga (tasdiqlangan ma'lumotlar) boy bo'lsa, uni vazmin ifodalasangiz, bahs jarayonida ustun chiqishingiz mumkin. Bahs jarayonida quyidagilarga albatta e'tibor qaratish lozim:

- *raqib tarafni hurmat qilish;*
- *hissiyotni boshqarish;*
- *qisqa va mazmundor fikr ifodalash;*
- *raqib taraf fikr ifodalaganda uni bo'lmaslik, oxirigacha eshitish;*
- *raqib taraf keltirgan dalillardan o'zlariga qarshi foydalanish;*
- *yuqori ohangda fikr ifodalamaslik;*
- *fikrni nim tabassumda bayon etish va boshqalar.*

Umuman, bahs mulohazalarni oydinlashtiradi, har bir tushunchaning turli tomonlarini ochib berishda samarali hisoblanadi. Ammo bahsni tortishuvga, dahanaki janjalga aylantirib yubormaslik kerak, agar shunday ehtimol bo'lsa, fikr bayon etishdan to'xtagan afzal. Bahslashishdan maqsad kim ustunligini aniqlash emas, balki bilim va tasavvurlarni kengaytirishdir.

164

47.2-mashq. Ikki guruhga bo'linib, quyidagi fikrlar asosida bahs tashkillashtiring. Fikrlaringizni faktlar bilan asoslang.

BIRINCHI GURUH	IKKINCHI GURUH
Serial ko'rishning ijobiy ta'siri ko'proq.	Serial ko'rishning salbiy ta'siri ko'proq.

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

O‘tgan dars mavzusi **47.1-mashq** savollariga og‘zaki javob berish bilan davom ettiriladi. Javoblar “Seriallar va biz” matnidan fakt va argumentlar keltirish orqali asoslanishi tavsiya qilinadi.

Savol-javob namunasi:

1. Seriallar ta’siriga tushib qolgan insonlarni bilasizmi? Buning sababini “Seriallar va biz” matni asosida izohlang.

Yon-atrofimizdagi ko‘pchilik serial ta’siriga tez tushib qoladi. Bu holatning qanday sodir bo‘lishi “Serial va biz” matnida quyidagicha asoslanadi:

Aslida, barcha seriallarning mushtarak bir xususiyati bor: serialning har bir qismi odatda eng kulminatsion nuqtada yakunlanadi va “Keyingi qismda nima bo‘larkan?” degan savol tomoshabin miyasida aylanaveradi. Bu holda u keyingi qismni eng kamida bir kun, ba’zan esa haftalab yurak hovuchlab kutishiga to‘g‘ri keladi. Bunga esa hammaning ham sabri dosh bera olmasligi aniq va, tabiiyki, endi uyda, ko‘cha-ko‘yda va hatto ishxonada ham serial muhokama mavzusiga aylanadi. Ya’ni qiziqish maroqqa, maroq hayajonga, hayajon esa telbavor tutqunlikka aylanadi.

2. Sizningcha, serial ko‘rishga kimlar mukkasidan ketadi? Fikrlaringizni asoslang.

Serial ko‘rishga ayniqsa yoshlar mukkasidan ketyapti. Matndagi argumentlarga diqqat qilamiz:

“Tadqiqotlarga ko‘ra, bir kunda uch soat televizor qarshisida o‘tiradigan inson bir yilda 45 sutkani, aytaylik, u 75 yil umr ko‘rsa, shundan naq 9 yilini televizor ekraniga termilib o‘tkazadi.

Bugun yangi multimedia platformalarining umumlashtirilishi televideniye iste'moli o'rnini ham egallab bormoqda: endi ayrim odamlar har hafta serialning yangi qismi chiqishini kutish o'rniga butun bir mavsumni bittada tomosha qilib tugatib qo'ya qolyapti... "Netflix" ma'lumotlariga ko'ra, 2013-yilda bunday foydalanuvchilar soni qariyb 8,4 million kishini tashkil etgan. Agar bu raqam kundan kunga ortib borayotganini hisobga olsak, afsuski, bugun butun boshli "zombi" avlod yetishmoqda, deb aytish mumkin.

3. Serial ko'rishga mukkasidan ketish qanday oqibatlarga olib keladi? Fikrlaringizni hayotiy misollar bilan asoslang.

Serial ko'rishga mukkasidan ketish ham jismoniy, ham aqliy, ham ruhiy jihatdan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, tengdoshlarimiz bu tutqunlikning zararini tezda ilg'ab olishlari qiyin bo'ladi. Matndan dalil keltiramiz.

"...seriallar ... bolalarning o'z ota-onalari bilan munosabatiga, ularning o'qishi va fikrlashining chegaralanishiga, madaniy begonalashuvga, tilning buzilishiga, bolalik va beg'uborlikning erta yo'qotilishiga sababchi bo'ladi. Masalan, Angliyadagi bir maktab-internatda 13–16 yosh toifasidagi bolalarni ikki guruhga bo'lgan holda tadqiqot o'tkazildi. Birinchi guruh 15 kun davomida hajviy va ijtimoiy dasturlarni, ikkinchi guruh esa zo'ravonlik aks etgan dastur va seriallarni tomosha qildi. Qizig'i shundaki, ushbu tadqiqot natijalari birinchi guruhdagi bolalarda bag'rikenglik va kirishimlilik, ikkinchi guruhdagilarda esa, aksincha, jismoniy zo'ravonlik, axloqiy buzilishga moyillik ortganini ko'rsatdi.

O'quvchilar bahs-munozaraga chorlanadi. Buning uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Siz qaysi serialni tomosha qilyapsiz?

2. Ko'rayotgan serialingizning qanday tarbiyaviy tomoni bor?

3. Serialdagi "16+", "18+" kabi yosh ko'rsatkichlariga oilangizda amal qilinadimi?

4. Ota-onangiz bilan serial voqealarini muhokama qilasizmi?

5. Serial tomosha qilish til o'rganish, badiiy kitob o'qish, musiqa tinglash, rasm chizish kabi faoliyatingizni chegaralab qo'ymayotganiga aminmisiz?

Bahslashish odobi

Bahs – muayyan mavzu yuzasidan shaxsiy mulohazalaringizni, qarashlaringizni himoya qilish, dalillash, ochib berish jarayoni. Fikringiz faktlar (tasdiqlangan ma'lumotlar)ga boy bo'lsa, uni vazmin ifodalasangiz, bahs jarayonida ustun chiqishingiz mumkin. Bahs jarayonida quyidagilarga albatta e'tibor qaratish lozim:

– raqib tarafni hurmat qilish;

– hissiyotni boshqarish;

– qisqa va mazmundor fikr bildirish;

– raqib taraf fikrini bo'lmaslik, oxirigacha eshitish;

– raqib taraf keltirgan dalillardan o‘zlariga qarshi foydalanish;

– baland ovozda fikr bildirmaslik;

– fikrni nim tabassum bilan bayon etish va boshqalar.

Umuman, bahs mulohazalarni oydinlashtiradi, har bir tushunchaning turli tomonlarini ochib berishda samarali hisoblanadi. Ammo bahsni tortishuvga, dahanaki janjalga aylantirib yubormaslik kerak, agar shunday ehtimol bo‘lsa, fikr bayon etishdan to‘xtagan afzal. Bahslashishdan maqsad kim ustunligini aniqlash emas, balki bilim va tasavvurlarni kengaytirishdir.

47.2-mashq. Sinf ikki guruhga bo‘linib, quyidagi qarama-qarshi mavzu bo‘yicha bahs tashkil qilinadi. Fikrlar, albatta, faktlar va hayotiy misollar bilan asoslanadi.

Namuna:

Birinchi guruh – “Oqlovchilar” *Serial ko‘rishning ijobiy ta’siri ko‘proq.*	**Ikkinchi guruh – “Qoralovchilar”** *Serial ko‘rishning salbiy ta’siri ko‘proq.*
Turli millat urf-odatlari, an’analari bilan tanishiladi.	Kundalik hayotdan chalg‘itadi.
Muammoli vaziyatlardan chiqish bilan bog‘liq holatlar qiziqarli aks etadi.	Vaqtning barakasi ketadi.
Dunyoqarash kengayadi.	Foydali mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish chetga suriladi.
Bilmagan narsalarni o‘rganish mumkin.	Fikrlash chegaralanadi.

Suhbatlashish jarayonida so‘zni tanlash va to‘g‘ri qo‘llash ham juda muhim. Aks holda, noqulay vaziyatga tushib qolish mumkin. **“Til sandig‘i”** ruknidagi **adashtiruvchi so‘zlar** bilan tanishib, mazkur paronim so‘zlar lug‘at daftariga ko‘chiriladi. Shundan so‘ng tinish belgilariga oid yana bir ma’lumot beriladi.

Nuqtali vergul (;)ning qo‘llanishi

Nuqtali vergul quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarda oxirgi banddan tashqari har bir band so‘ngida qo‘llanadi. Misol:

Quyidagilar demokratiyaning asosiy tamoyillari hisoblanadi:
– xalqning erkin xohish-irodaga ega ekanligi;
– fuqarolarning teng huquqliligi;
– inson huquqlarining barcha narsadan ustuvorligi;
– hokimiyat organlarining saylab qo‘yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishga burchli ekanligi.


2. Uyushiq bo‘laklar guruhlanib, o‘zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda har bir guruhni ajratib turuvchi so‘zdan keyin qo‘llanadi. Masalan: *Bozordan olma, gilos, anor; kartoshka, piyoz, sabzi; qovun, tarvuz; guruch, mosh, no‘xat olib kel.*

3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda qo‘llanadi. Masalan: *Bir qarasangiz, qiziq-qiziq gaplarni aytib, odamlarni kuldirib o‘tiradi; bir qarasangiz, gung bo‘lib boshini egib oladi.*

Nazariy ma’lumot **47.3-mashq**ni yozma bajarish orqali mustahkamlanadi.

Yechim:

Asos	Misol
1. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarda oxirgi banddan tashqari har bir band so‘ngida qo‘llangan.	**B**. Uch oylik kurslarga taklif qilamiz: – buxgalteriya kursi; – video operatorlari kursi; – veb dasturlashga o‘qitish kursi.
2. Uyushiq bo‘laklar guruhlanib, vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so‘zdan keyin qo‘llangan.	**C.** Bog‘imizda qovun, handalaklar; olma, o‘rik, shaftolilar pishib yotibdi.
3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda qo‘llangan.	**A**.Yaxshini yomon dema, olishing bo‘lsa ham; yomonni yaxshi dema, yaqining bo‘lsa ham.



TIL SANDIG‘I

ADASHTIRUVCHI SO‘ZLAR

YONDOSH – YONDASH

YONDOSH. *Yonma-yon turgan.*
YONDASH. *Muayyan narsaga kirishmoq, aniq nuqtayi nazar bilan qaramoq.*

NAQ – NAQD

NAQ. *(yuklama) Xuddi, ayni Misol: Buqa naq arslondek o‘kirdi.*
NAQD. *Pulli, pul bilan. Misol: Biz faqat naqdga savdo qilamiz.*

NUQTALI VERGUL (;)

Nuqtali vergul quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi so‘ngida qo‘llanadi:

Quyidagilar demokratiyaning asosiy tamoyillari hisoblanadi:
– xalqning erkin xohish-irodaga ega ekanligi;
– fuqarolarning teng huquqliligi;
– inson huquqlarining barcha narsadan ustuvorligi;
– hokimiyat organlarining saylab qo‘yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishga burchli ekanligi.

2. Uyushiq bo‘laklar guruhlanib, o‘zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda har bir guruhni ajratib turuvchi so‘zdan keyin qo‘llanadi:

Bozordan olma, gilos, anor; kartoshka, piyoz, sabzi; qovun, tarvuz; guruch, mosh, no‘xat olib kel.

3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda qo‘llanadi:

Bir qarasangiz, qiziq-qiziq gaplarni aytib, odamlarni kuldirib o‘tiradi; bir qarasangiz, gung bo‘lib boshini egib oladi.

165

47.3-mashq. Quyidagilarni moslashtirib daftaringizga ko‘chiring.

QOIDA	MISOL
1. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi so‘ngida qo‘llangan.	A. Yaxshini yomon dema, olishing bo‘lsa ham; yomonni yaxshi dema, yaqining bo‘lsa ham.
2. Uyushiq bo‘laklar guruhlanib, o‘zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so‘zdan keyin qo‘llangan.	B. Uch oylik kurslarga taklif qilamiz: – buxgalteriya kursi; – video operatorlari kursi; – veb dasturlashga o‘qitish kursi.
3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda qo‘llangan.	C. Bog‘imizda qovun, handalaklar; olma, o‘rik, shaftolilar pishib yotibdi.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Internetdan muayyan bir mavzudagi debat – bahsni topib, ko‘ring va undan olgan taassurotlaringizni gapirib bering.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan. O‘quvchilar internetdan muayyan bir mavzudagi debat – bahsni topib, ko‘rishlari va undan olgan taassurotlarini gapirib berishlari zarur.

Teleko‘rsatuvlar orasida bahsli masalalar ko‘tarilayotgan shoular ham anchagina. Masalan, “Munosabat” tok-shousi, Amirxon Umarov shousi, “Oramizdagi odamlar”, “Siz nima deysiz?” kabilar orqali bahslashish odobi, muomala madaniyati haqidagi mulohazalarni qog‘ozga tushirish tavsiya qilinadi.

V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsda o‘zlari uchun qanday yangilik olganlarini, xususan, vaqtdan unumli foydalanish, uni serial ko‘rishga sarflamaslik zarur ekani haqida xulosa qilishadi. Yozma nutqda nuqtali vergulni to‘g‘ri qo‘llash bilan bog‘liq bilimni egallaganlarini aytib o‘tishadi.

48-dars

Darsning maqsadi. Adabiyot va kino borasida asosli mulohaza yuritish, fikrni adabiy tilda to‘g‘ri va ravon ifodalash; o‘qilgan va tinglangan matnga munosabat bildirish va xulosa berish; so‘zni tanlash va o‘z o‘rnida qo‘llash; ikki nuqtaning qo‘llanishiga doir bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni



48-dars

48.1-mashq. Quyidagi rasmga qarab “Film va badiiy asar” mavzusida ijodiy matn tuzing.

Bu haqda o‘z fikringizni yozma bayon qiling:
– ijodiy matnni esse talablari bo‘yicha yozing;
– fikrlaringizni izchil va bexato ifodalang;
– har ikki tushunchani to‘liq izohlang;
– bu tushunchalar haqida o‘z fikringizni misollar bilan dalillang;
– hozirgi davr va muhitdan kelib chiqib o‘z xulosangizni bering.
Esse 120–150 ta so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

TIL SANDIG‘I

SO‘ZLAR SAFARI

TOBAKI *degan so‘zimiz bor. Uning qismati ajoyib.* ***Tob*** *o‘zak so‘zining qizitish, kuydirish ma’nolaridan kelib chiqqan* ***toba (yassi qozoncha***, ***biz uni “tova”***, ***“tava” deymiz)***, ***toblanish***, ***ob-u tob***, ***tobiga keltirish*** *singari kalimalar ko‘p.* ***Tobaki*** *deb tobada pishirilgan yoki umuman qovurilgan taomga aytiladi. Xullas, tobaki degan so‘z “safarga chiqib”, Rossiyaga bordi va o‘ris bo‘lib qaytdi. Meliboy – Misha, Safarboy – Sasha, Ergashboy Erik bo‘lib qaytgani kabi Tobaki degan nomini Tabaka qilib keldi.* ***Tobada*** *pishgan taom ekani esidan chiqdi va qovurilgan jo‘jaga aylandi. Biz ham o‘zimizning “bolamiz”ni tanimay,* ***Tabaka*** *deb chaqiradigan bo‘ldik.*

Erkin Vohidov,
“So‘z latofati”dan

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Mavzuga kirishni muammoli vaziyat bilan boshlash tavsiya etiladi.

Savol:

Badiiy asarni o‘qimay turib, uning kinoversiyasinigina tomosha qilgan holda fikr yuritish to‘g‘rimi?

Bu muammo kinosanoat rivojlanishi bilanoq paydo bo‘lgan. O‘zbek kinematografiyasida ham ko‘plab badiiy asarlar ekran yuzini ko‘rdi. Badiiy asar g‘oyasini, yozuvchi maqsadini asl holicha yetkazish, qolaversa, qahramonlarning ichki tuyg‘ulari, nozik kechinmalarini sahna talqinida gavdalantirish qanday kechadi? Bugungi dars ana shu muammoni qamrab oladi. O‘rtaga tashlangan savol yuzasidan o‘quvchilarning fikr-mulohazalari tinglanadi. Shundan so‘ng **48.1-mashq**qa diqqat qaratiladi. “Film va badiiy asar” mavzusida yuqorida bildirilgan fikrlardan foydalanib o‘quvchilar ijodiy matn tuzadilar. Buning uchun ularga tavsiyalar:

– *ijodiy matnni esse talablari bo‘yicha yozing;*

– *fikrlaringizni izchil va bexato ifodalang;*

– *har ikki tushunchani to‘liq izohlang;*

– *bu tushunchalar haqida o‘z fikringizni misollar bilan dalillang;*


– *hozirgi davr va muhitdan kelib chiqib o‘z xulosangizni bering.*

Esse 120–150 ta so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

Dars davomida quyida berilgan ma’lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanish uchun ma’lumotlar

“Shum bola” — G‘afur G‘ulomning shu nomli asari asosida 1977-yili suratga olingan sarguzasht film. Filmga Damir Salimov rejissyorlik qilgan, ssenariyni Shuhrat Abbosov va Aleksandr Naumov yozgan.



IKKI NUQTA (:)

Ikki nuqta quyidagi o'rinlarda ham ishlatiladi.

1. *Reja, mavzu, qaror qilindi* kabi so‘zlardan so‘ng qo‘llanadi:
Mavzu: Inson va tabiat

2. Ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so‘ng qo‘llanadi: *Imom Buxoriy shunday degan edilar: “Ilmdan o'zga najot yo'q va bo'lmagay”.*

3. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta’minlash maqsadida turli xil rasmiy ma’lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so‘zlardan keyin ishlatiladi.
Toshkentda “Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari” mavzusida uchinchi an'anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

4. Sport musobaqalarida raqiblar o‘rtasidagi hisobni ifodalash uchun qo‘llanadi: *“Nasaf” va “Paxtakor” jamoalari o'rtasidagi o'yin 2:2 hisobida tugadi.*

5. Izoh munosabatidagi bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida qo‘llanadi:
Mening bir jaydari falsafamdir shu:
Hargiz iltimosga kuning qolmasin. (Abdulla Oripov)

48.2-mashq. Quyidagi gaplarni tushirib qoldirilgan ikki nuqtalarni qo'yib ko'chiring.

1. Gulzordagi turfa gullar atirgul, lola, chinnigul odamga zavq berardi... **2.** Kurashda bir tabiat qonuni bor polvon davrada mag'lub bo'lsa, taqdirga tan berib ketmaydi. **3.** Abdulla Avloniy shunday degan edi “Ilm — dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir, ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir”. **4.** Abror qizni darrov tanidi u qo'shni mahalladagi do'konda ishlar edi. **5.** Mavzu “O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va buning olamshumul ahamiyati”. **6.** “Neftchi” va “Navbahor” futbol jamoalari o'rtasidagi uchrashuvda hisob ochilmadi — 0 0. **7.**Hamma narsa uylar, devorlar, daraxtlar qorong'ilikka jimgina cho'kdi.

167

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Ixtiyoriy biror filmni ko‘rib, taassurotlaringizni yozib keling.

Rollarda:

Qoravoy – Abduraim Abduvahobov;
Qoravoyning onasi – Rixsi Ibrohimova;
Omon – Saidkarim Saidoripov;
Sulton o‘g‘ri – Hamza Umarov;
Sariboy – Vohid Qodirov;
Hoji bobo – Abdulxayr Qosimov;
Domla – Ergash Karimov;
Devona – Baxtiyor Ixtiyorov.

Qo‘shimcha ma’lumot
Abduraim Abduvahobov:

“1976-yilda G‘afur G‘ulom asari bo‘yicha juda katta tanlov bo‘lgan. Mingdan oshiq bola qatnashgan. O‘sha paytlar drama to‘garagiga qatnashardim. Meni dastlab Omon roliga tasdiqlashgan. Oxirida “Shum bola” rolida ham o‘ynab ko‘rsin, deyishgan. Shum bola roli avvalroq Xayrulla Sa’diyev ijrosida tanilgan. Shunda Omon rolini o‘ynagan Saidkarim bilan ikkalamiz ham shum bolani, ham Omonni o‘ynaganmiz. Keyin meni shum bolaga tasdiqlashgan, uni Omon rolida qoldirishgan. Men shu kino bilan aktyorlik poydevorini qurdim, desam bo‘ladi. Ilk bora o‘ynagan rolim menga sen aktyor bo‘lishing kerak, ijodning odamisan, degan fikrni tasdiqlagan film bo‘lgan. O‘zi yoshlikdan aktyorlikka ishtiyoq baland bo‘lgan, shu filmdan so‘ng aktyorlikni tanlaganman”.

(manba: BBC NEWS o‘zbek)

“Film va badiiy asar” mavzusida ijodiy matn yozish uchun tavsiya

“Shum bola” filmi	**“Shum bola” asari**
Shum bola sarguzashtlarini 90 daqiqa davomida maroq bilan tomosha qilish imkoni mavjud.	“Asarning ellik foizigina suratga olingan. Kitob asosida to‘liq film olinadigan bo‘lsa, u serialga aylanib ketardi”. *(Damir Salimov)*
Film sababli “Shum bola” qissasini ayrimlar soddagina, faqat kulgili sarguzashtlardan iborat asar hisoblaydi.	Asardagi ichakuzdi syujetlar zamirida davrning jiddiy muammolari, og‘riqli nuqtalari tilga olingan. Yozuvchi o‘zi yashagan davrning qiyofasini, mahallalardagi hayot tarzini, qashshoqlar va boylar hayotini, ishsizlik avj olishi tufayli bolalar tugul kattalar ham qiynalganini shum bolaning sarguzashtlari orqali mohirona ko‘rsatadi. “*Otalarimizning o‘ziga ish topilmaganda, bizga ish qayoqda deysiz. Ertadan kech ko‘cha changitib, hammaning joniga tegib, kampirlardan qarg‘ish eshitib, o‘spirinlardan kaltak yeb, sandiroqlab yuradigan uvun-to‘da bekorchi bolalarmiz*”. (Asardan)
Kinoda shum bola *Qoravoy* ismi bilan atalgan.	Asar voqealari shum bola tilidan hikoya qilinadi, o‘zining ismini aytmagan. Shum bola o‘sha davr bolalarining umumlashma obrazi sanaladi.
“Bu bola do‘mboqqina bo‘lsa, qanday qilib nochor oilaning bolasiga o‘xshasin” deb shum bolani ijro etishimga unashmagan. *(A. Abduvahobov)*	Kitob qahramoni ozg‘in, qotma, oq yaktak-ishtonchan, kir-chir bola qiyofasida namoyon bo‘ladi.
Filmda ko‘cha-ko‘yda odamlar bergan non-ovqatlarni yeb, hech kimga aralashmay yuradigan devona ustun yoniga borib, o‘z qo‘llarini o‘zi zanjirga bog‘laydigan epizod mavjud.	Kinotomoshabin qahramon his-tuyg‘ularini, ruhiy kechinmalarini to‘liq ilg‘ay olmaydi. Asardagi devona aslida devona emas, shunchaki u o‘zini o‘z davrining og‘riqlarini bilmayotganga, ko‘rmayotganga olardi, xolos. Ammo uning ko‘zlari bo‘layotgan voqealarni his qila olmayotgan devonaniki emas.
Kino Qoravoyning uyga qaytishi, singillari bilan topishishi, Toshkent qo‘zg‘olonining boshlanishi bilan yakunlanadi.	Asar shum bolaning Hoji bobo takyaxonasidan haydalishi bilan tugallanadi: *“Qoraqurum bosgan sassiq takyaxonadan tashqariga chiqib, ko‘kragimni to‘ldirib nafas oldim. Endi men pok-pokiza, qushday yengil, ko‘nglim tongday tiniq. To‘rt tomonim qibla. Lekin qayoqqa qarab yo‘l olsam ekan?..”* (Asardan)

“Til sandig‘i” ruknida **“So‘zlar safari”** sarlavhali matn berilgan. Unda Erkin Vohidovning *tobaki* so‘zi “sarguzasht”lariga bag‘ishlangan mulohazalari keltirilgan. Matn mazmuni o‘rganiladi.

Boshqa tillarga o‘zlashgan so‘zlarga misollar keltirish mumkin. Masalan, *tovarish* (*tovar + esh = savdo karvonlarida yo‘ldosh, hamrohlar shunday atalgan*), *kaymak* (*qaymoq*), *injir* (*anjir*), *ayva* (*asli hayva – behi*), *arbuz* (*tarvuz*), *izyum* (*uzum*), *kurgan* (*qo‘rg‘on*) kabi.

Nazariy ma’lumot beriladi.

Ikki nuqta (:)ning qo‘llanishi

Ikki nuqta quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi.

1. *Reja, mavzu, qaror qilindi* kabi so‘zlardan so‘ng qo‘llanadi. Masalan, *Mavzu: “Inson va tabiat”*.

2. Ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so‘ng qo‘llanadi. Masalan, *Imom Buxoriy shunday degan edilar: “Ilmdan o‘zga najot yo‘q va bo‘lmagay”*.

3. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta’minlash maqsadida turli xil rasmiy ma’lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so‘zlardan keyin ishlatiladi. Masalan, *Toshkentda “Mustaqil O‘zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari” mavzusida uchinchi an’anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.*

4. Sport musobaqalarida raqiblar o‘rtasidagi hisobni ifodalash uchun qo‘llanadi. Masalan, “Nasaf”va “Paxtakor”jamoalari o‘rtasidagi o‘yin 2:2 hisobida tugadi.

5. Izoh munosabatidagi bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida qo‘llanadi. Masalan,

Mening bir jaydari falsafamdir shu:
Hargiz iltimosga kuning qolmasin. (Abdulla Oripov)

Nazariy ma’lumot **48.2-mashq**ni yozma bajarish bilan mustahkamlanadi.

Yechim:

1. Gulzordagi turfa gullar: atirgul, lola, chinnigul odamga zavq berardi.

2. Kurashda bir tabiat qonuni bor: polvon davrada mag‘lub bo‘lsa, taqdirga tan berib ketmaydi.

3. Abdulla Avloniy shunday degan edi: “Ilm — dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir, ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas fazilatdir”.

4. Abror qizni darrov tanidi: u qo‘shni mahalladagi do‘konda ishlar edi.

5. Mavzu: “O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va buning olamshumul ahamiyati”.

6. “Neftchi” va “Navbahor” futbol jamoalari o‘rtasidagi uchrashuvda hisob ochilmadi — 0 : 0.

7. Hamma narsa: uylar, devorlar, daraxtlar qorong‘ilikka jimgina cho‘kdi.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” ruknida uyga topshiriq berilgan: “Ixtiyoriy biror filmni ko‘rib, taassurotlaringizni yozib keling”.

V. Darsni yakunlash.


Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsdan o‘zlari uchun qanday yangilik olganlarini, xususan, badiiy adabiyotning har qanday san’at turidan ustun ekanini bayon qiladilar. Yozma nutqda ikki nuqtani to‘g‘ri qo‘llash bilan bog‘liq bilimlarni egallaganlarini aytib o‘tishadi.

49-dars

Dars maqsadi. Nutqiy kompetensiyalar: o‘qib tushunish, yozish, tinglab tushunish, so‘zlash hamda lingvistik kompetensiyalar: grammatik savodxonlik bo‘yicha takrorlash va mustahkamlash.

(Diagramma ko‘rinishidagi matnlarni o‘qib tushunish, fikrni adabiy tilda izchil va ravon ifodalash; til birliklarini to‘g‘ri tanlash; yozma matnda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash)

Dars jarayoni


49-dars

MUSTAHKAMLASH

Topshiriq. Ijodiy matn tuzish
Sanjarbek filmlar sotiladigan do'kon ochmoqchi edi. U Yangihayot shaharchasidan filmlar sotiluvchi do'konni ijaraga oldi. Mazkur do'konda oldi-sotdi jarayoni to'liq raqamlashtirilgan edi, unda avvalgi yildagi sotuvlarning statistikasi bor edi. Sanjar sentyabr oyida ishni boshlamoqchi. Quyidagi statistika ko'rsatkichlariga asoslanib, unga qanday filmlar sotishni tavsiya qilasiz?

1-diagramma. Xorij filmlari disklarining 1 yillik savdo ko'rsatkichi

2-diagramma. Xorij filmlari disklari savdosining oylardagi ko'rsatkichi

Bu haqda o'z fikringizni yozma bayon qiling:
– ijodiy matnni tavsiya shaklida yozing;
– fikrlaringizni izchil va bexato ifodalang.

168

1. Tashkiliy qism.

2. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

3. O‘tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash.

Mavzu diagrammalar asosida o‘quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirish, biznes-reja tuzish va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.


Topshiriq. Ijodiy matn tuzish.

Sanjarbek filmlar sotiladigan do‘kon ochmoqchi edi. U Yangihayot shaharchasidan filmlar sotiluvchi do‘konni ijaraga oldi. Mazkur do‘konda oldi-sotdi jarayoni to‘liq raqamlashtirilgan edi, unda avvalgi yildagi sotuvlarning statistikasi bor edi. Sanjar sentyabr oyida ishni boshlamoqchi. Quyidagi statistika ko‘rsatkichlariga asoslanib, unga qanday filmlar sotishni tavsiya qilasiz?

1-ish. 1-diagrammadagi statistik ma’lumotlarni o‘qib tushunish.

Xorij filmlari disklarining 1 yillik savdo ko‘rsatkichi.

Eng ko‘p sotilgan, xaridorgir va kassabop filmlar komediya janridagi filmlar bo‘lib, jami 5602 dona disk savdoga chiqarilgan. Keyingi o‘rinlarni esa fantastik (4868 dona) va sarguzasht filmlar (2452 dona) egallagan. Dramatik filmlar nisbatan kamroq sotilgan bo‘lib, umumiy hajmi 1807 donani tashkil qilgan. Tarixiy va jangari janridagi filmlarga esa talab kam bo‘lib, 1586 dona tarixiy mavzudagi va 1380 dona jangari filmlar sotilgan. Qo‘rqinchli filmlarga esa talab juda kam bo‘lgan: jami 1380 dona disk sotilgan xolos.




1-diagramma. Xorij filmlari disklarining 1 yillik savdo ko‘rsatkichi

2-ish. 2-diagrammadagi statistik ma’lumotlarni o‘qib tushunish.


Xorij filmlari disklari savdosining oylardagi ko‘rsatkichi.

Diagrammada filmlar savdosining oylik ko‘rsatkichlari berilgan. Statistik ma’lumotga ko‘ra, fevralda 3546 dona, yanvarda 3006 dona disk sotilgan. Demak, qish faslining so‘nggi ikki oyida odamlar uy-ro‘zg‘or va dala yumushlaridan birmuncha uzoqlashib, film tomosha qilib dam olishni xush ko‘rishadi. Bahor oylarida esa ko‘klamgi tashvishlar boshlanishi sabab disklar savdosi kamaya boshlagan: martda 2281 dona, aprelda 2018 dona, mayda esa 1980 dona film diski sotuvga chiqarilgan. Yozgi mavsumda esa xarid ko‘rsatkichlari tushib ketgan: iyulda 664 dona, avgustda 614 dona, sentyabrda atigi 484 dona. Demak, bu oylarda ijara haqini to‘lash birmuncha qiyin bo‘lishi mumkin. Sentyabr oyidan boshlab filmga talab keskin oshgan: jami 1608 dona disk sotilgan, bu o‘tgan oyga nisbatan 1124 dona ko‘p. Keyingi



2-diagramma. Xorij filmlari disklari savdosining oylardagi ko‘rsatkichi

oylarda savdo hajmi asta-sekin ko‘tarilib borganini kuzatish mumkin. Oktyabrda 1756 dona, noyabrda 1798 dona, dekabrda esa 1802 dona disk sotib olingan.



3-ish. Statistik ma’lumotlar asosida oldi-sotdi (savdo aylanmasi)ni rejalashtirish.

Har ikkala diagrammadan aniq bo‘ldiki, kuz-qish mavsumlarida film disklari savdosi chaqqon bo‘ladi. Demak, sentyabrdan boshlab disklarni sotib olish hajmini oyma-oy oshirib borish kerak. Asosan komediyalar, fantastik filmlar – blokbasterlar va sarguzasht filmlar xaridorgir bo‘lgani uchun shu janrdagi disklarni ko‘proq sotib olish zarur. Dramatik janrdagi va tarixiy mavzudagi filmlarga ham talab bor. Tovar rang-barangligini ta’minlash maqsadida jangari filmlar va qo‘rqinchli filmlar – trillerlar ham muomalaga chiqariladi. Iyun, iyul va avgust oylari do‘kon ijarasi uchun qo‘shimcha pul mablag‘ini zaxirada saqlash, qolgan mablag‘ni esa savdo aylanmasiga kiritish kerak bo‘ladi.

Sanjar tadbirkorlik faoliyatini sentyabrdan yo‘lga qo‘ymoqchi. Demak, bu oydan boshlab film disklariga talab oshib borishini hisobga olib, savdoni qo‘rqmasdan boshlashi mumkin.

4-ish. Tavsiya shaklidagi ijodiy matn tuzish.

Bunda:

– sarlavha topiladi;

– fikrlar yozma ravishda izchil va bexato bayon qilinadi;

– matn sinfdoshlarga o‘qib eshittiriladi.

O‘qituvchi tomonidan eng yaxshi matn mualliflari rag‘batlantiriladi.

IV. Uyga vazifa berish.

Uyda “Mening biznes-rejam” matnini tayyorlash tavsiya qilinadi. Bu orqali o‘quvchilar kelajak uchun aniq maqsad qo‘yish va real harakat qilish ko‘nikmasini egallaydilar.


V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o‘quvchilar tadbirkorlikning tavakkalchilikka asoslanishi, biroq aniq rejasiz bu faoliyatni samarali amalga oshirish mushkul ekanini tushunganlarini bildiradilar. Kelgusi darsdagi nazorat ishiga tayyorgarlik ko‘rish eslatiladi.

53-dars

Darsning maqsadi. O‘quvchilarni “olam va ekologiya”, “inson va tabiat”, “ekotizimga insoniyatning sun’iy aralashuvi oqibatlari” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati bilan tanishtirish, o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, og‘zaki yoki yozma munosabat bildirish, yozma matnni qisqartirish, qavsdan foydalanish kabi ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish; matnni qisqartirish qonuniyatlari haqidagi bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni



MATNNI QISQARTIRISH

Matn ustida ishlash, uni kengaytirish yoki qisqartirish murakkab jarayon hisoblanadi. Matnni qisqartirish ikki xil usulda amalga oshiriladi:

1. Matnni tahrirlash orqali qisqartirish.
2. Matnning mazmunini ixchamlashtirib, uni qayta yozish.

Matnni tahrirlash orqali qisqartirish. Matnni, avvalo, diqqat bilan o‘qib chiqish zarur. Dastlab matnning maqsadi, g‘oyasi aniqlanadi. Undagi asosiy fikr va ana shu asosiy fikrni ochib berayotgan gaplar, so‘z birikmalari, ifodalar ajratib olinadi. Shundan so‘ng matn qisqaradi. Qisqartirish jarayonida quyidagi ishlarni bajarish mumkin:

– *matnning asosiy gaplari ajratib olinadi;*
– *gaplardagi uyushiq bo‘laklar, kiritmalar, ilovalar, eslatmalar qisqartiriladi;*
– *so‘z birikmalari sinonim so‘zlarga almashtiriladi;*
– *yoyiq gaplar yig‘iq gaplarga, qo‘shma gaplar esa sodda gaplarga aylantiriladi;*
– *ko‘chirma gaplar o‘zlashma gaplar bilan almashtiriladi;*
– *matnning qo‘shimcha fikr ifodalovchi gaplari, takrorlari tushirib qoldiriladi;*
– *badiiy-tasviriy ifodalar soddalashtiriladi;*
– *kirish va xulosa qismlar ehtiyojga qarab olib tashlanishi mumkin;*
– *muallifning umumiy mulohazalari, qarashlari olib tashlanadi;*
– *matnning asosiy mazmunini ifodalamaydigan xatboshilar tushirib qoldiriladi.*

Matnning mazmunini ixchamlashtirib, uni qayta yozish. Avvalo, asosiy maqsad, g‘oya belgilab olinadi. So‘ng shu g‘oyani ochishga xizmat qilayotgan fikr va mulohazalargina qog‘ozga tushiriladi. Bunda, albatta, zarur so‘zlarni tanlash, gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzishga alohida e’tibor qaratiladi.

172

53.3-mashq. Quyidagi jadvalda berilgan birliklarning qisqa ifodasini topib, yozing.

BIRLIKLAR	QISQA SHAKLDAGI IFODASI
Sayr-u sayohat qilmoq	*aylanmoq*
tabiatning “yashil qo‘rg‘oni”	
echkining bolasi	
yomg‘irlar fasli	
tirik mavjudotlar	
sayyoramizni qoq ikkiga bo‘lgan tabiiy belbog‘	
insonning qanotli do‘stlari	

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Topshiriqda berilgan matnni hamma ichda o‘qiydi, bundan tashqari, biror o‘quvchiga matnni ovoz chiqarib, ifodali o‘qish topshirig‘i beriladi.

Shundan so‘ng 53.1-mashqdagi savollarni bering va fikrlarini eshiting, javoblarini bo‘lmang. Avvalo ularga fikrlarini adabiy tilda bayon etishni eslating.

Ushbu topshiriq maqsadi – o‘quvchilarni nutqiy mavzuga olib kirish, inson va tabiat munosabatini tushuntirish, ekotizimning mazmun-mohiyatini anglatishdir.

Savollar:

1. Ekoolam deganda nimani tushunasiz?


2. Ekotizimga odamzodning sun’iy aralashishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Mintaqamiz misolida izohlay olasizmi?

3. Tabiatdagi yashash uchun kurash qonuniyati hukm suradigan muhitda sanitar – tozalovchi vazifasini bajaruvchi hayvon va qushlarning insoniyatga qanday foydasi bor deb o‘ylaysiz?

4. Ona tabiat o‘zining go‘zalligini, tarovatini yildan yilga yo‘qotib borayotganining guvohi bo‘lyapsizmi? Buning boisi nimada deb hisoblaysiz?

5. Ayrim insonlar yoki turli tashkilotlar o‘z manfaatlari yo‘lida ekoolamga atay zarar berishmoqda. Bunday hollarga munosabatingizni bildiring.

6. Sayyoramiz ekotizimini asrab qolish uchun nimalar qilish kerak?



53.4-mashq. Quyidagi qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantiring.

Namuna. *Har birimiz shuni unutmaylikki, biz ongli mavjudotmiz. // Biz ongli mavjudot ekanimizni unutmaylik.*

1. Odamzod tabiat ishiga aralashaversa, bir kun kelib tabiat o‘z o‘chini olmay qo‘ymaydi.
2. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, tabiatda turlarning rivoji bamisoli zanjirdek bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ular o‘zaro yaxlit ekotizimni tashkil etadi.
3. Birgina giyoh yo‘qolar ekan, hatto u ham tabiat muvozanati buzilishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

TIL SANDIG‘I

O‘ZBEKCHASI BOR!

“musor” – chiqindi
“shtraf” – jarima
“optom” – ulgurji, ko‘tara
“otdix” – dam

173

53.5-mashq. She’rni o‘qing. Undagi qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantirib, daftaringizga yozing.

BAHOR KECHASI

Quyosh botib ketdi.
Bir tutam nuri
Varrak dumlariga ilashib qoldi.
Onasi yetaklab ketgan boladek,
Chumchuqlar chirq-chirqlab tark etdi tolni.
Hovlim o‘rtasida do‘ndiq qiz kabi
Pushti ko‘ylak kiyib turar shaftoli.
Gilos oq shohi to‘n kiygan kuyovmi,
Egilib kelinga pichirlardi u.
To‘yni ko‘rish uchun tom tepasiga
Shoshib chiqib olgan qizlar kabi oy —
O‘rikka tirmashib, yong‘oqqa o‘tib,
Terak tepasida ko‘rsatdi chiroy...
Hovuzcha — kosaga bahor sharobin
Shildiratib quyar ariqchalar ham.
Ana, yulduz sanab bo‘g‘ot labida
Qo‘shnim mushugi ham kutadi yorin...

Shukrullo

53.2-mashqda matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini yozish talab etilgan.

Ushbu topshiriq maqsadi – o‘quvchilarda matnda qo‘llangan leksik birliklarning ma’nosini tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Javob:

Mitti *– juda kichkina, jimit.*

So‘lim *– beg‘uborligi, sofligi bilan yoqimli, yoqadigan.*

Nabotot *– flora, o‘simliklar dunyosi.*

Turfa *– ajibligi bilan kishini hayratga soladigan.*

Qirmoq *– ko‘plab yoki yoppasiga o‘ldirmoq*

Bilim berish.

“Matnni qisqartirish” mavzusi turli metodlardan foydalanib tushuntiriladi.

Olingan nazariy bilimni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilarga **53.3-mashq** bajartiriladi.

Ushbu o‘quv topshirig‘ining maqsadi – o‘quvchilarda fikrni lo‘nda ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirish.

BIRLIKLAR	QISQA SHAKLDAGI IFODASI
sayr-u sayohat qilmoq	*aylanmoq*
tabiatning “yashil qo‘rg‘oni”	*o‘rmon*
echkining bolasi	*uloqcha*
yomg‘irlar fasli	*bahor*
tirik mavjudotlar	*hayvonot*
sayyoramizni qoq ikkiga bo‘lgan tabiiy belbog‘	*ekvator*
insonning qanotli do‘stlari	*qushlar*

53.4-mashqda keltirilgan qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantirish so‘raladi.

Ushbu topshiriqning maqsadi – murakkab ifodalangan fikrni sodda ifoda shakli bilan berish ko‘nikmasini rivojlantirish.

QO‘SHMA GAPLAR	SODDA GAPLAR
1. Odamzod tabiat ishiga aralashaversa, bir kun kelib, tabiat o‘z o‘chini olmay qo‘ymaydi.	*Tabiat uning ishiga aralashavergan odamzoddan bir kuni o‘ch olmay qo‘ymaydi.*
2. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, tabiatda turlarning rivoji bamisoli zanjirdek bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ular o‘zaro yaxlit ekotizimni tashkil etadi.	*Ta’kidlashlaricha, tabiatda turlarning rivoji bir-biri bilan zanjirdek chambarchas bog‘langan o‘zaro yaxlit ekotizimdir.*
3. Birgina giyoh yo‘qolar ekan, hatto u ham tabiat muvozanati buzilishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.	*Hatto birgina giyoh yo‘qolishi tabiat muvozanatining buzilishiga olib kelishi mumkin.*

O‘quvchilar diqqati **“Til sandig‘i”** rukniga qaratiladi. Keltirilgan varvarizmlardan nutqda foydalanmaslik, uning o‘rniga o‘zbekcha muqobilidan foydalanish tavsiya etiladi.

53.5-mashqda she’riy misralarda keltirilgan qo‘shma gaplar ham yuqoridagi mashq kabi sodda gaplarga aylantiriladi. Bu mashqni vaqt yetsa bajartirish yoki uyga vazifa sifatida berish tavsiya etiladi.


O‘quvchilar diqqati **“Matnni qisqartirish namunasi”**ga qaratiladi. Keltirilgan namunalar orqali fikrni ixcham ifodalash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

53.6-mashqda keltirilgan gaplarda qavsning ishlatilishini izohlaymiz va daftarimizga ko‘chiramiz.

Ushbu o‘quv topshirig‘ining maqsadi – o‘quvchilarda qavsdan nutqda foydalanish tartibi haqidagi bilimlarini rivojlantirishdir.

GAPLAR	QAVSNING ISHLATILISH BOISI
1. “Muhaddislar imomi” sharafiga erishgan buyuk alloma Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-jome as-sahih” (“Ishonchli hadislar to‘plami”) kitobi nodir manbalardandir.	*Asarning ikki xil nomi berilgan, ulardan ikkinchisi qavsga olingan.*
2. Jannat onalar oyog‘i ostidadir. (*Hadis*)	*Olingan misollar yoki gaplar manbasi qavsda berilgan.*
3. Belgini (rang, maza-ta’m, hid, hajm-shakl, xil-xususiyat va boshqalar), o‘rin-paytni, miqdorni, shaxsni, narsani bildiruvchi so‘roqlarni aniqlang.	*So‘z yoki birikmalar ma’nosini izohlagan birliklar qavsda berilgan.*

4. Musobaqada Ruslan Nuriddinov (siz uni taniysiz) peshqadamlik qilmoqda.	*Kiritma gap qavs bilan ajratilgan.*
5. **Qozi Nizom.** Kisht. *(Bir dona surar).* **Mir Vafo.** E... otimiz ketdi-ku! *(M. Behbudiy)*	*Remarkalar qavs bilan ajratilgan.* *Olingan misollar yoki gaplar manbasi qavsda berilgan.*
6. So‘zga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganida asos tarkibidagi “a” unlisi tushib qolishi kuzatiladi. Masalan, shah[a]rim (shahrim).	*Tilshunoslikka oid matnda tushib qolgan tovush shartli talab bilan burchakli qavsda berilgan hamda aslini ko‘rsatish uchun qavsdan foydalanilgan.*



MATNNI QISQARTIRISH NAMUNASI

MATN. Yirik xomashyo konlarini faol o‘zlashtirish jarayonida yaqin atrofdagi tuproqlarning ifloslanish radiusi 40 kilometrgacha bo‘lishi mumkin. Tuproq qayta ishlanadigan moddalarning zararli ekanligiga qarab turli xil kimyoviy o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi. Qachonki yerga ko‘p miqdorda zaharli moddalar tushsa, daraxtlar, butalar va hatto o‘tlar unib chiqmaydi. Binobarin, hayvonlar uchun ozuqa yo‘q, ular nobud bo‘ladi yoki yashash uchun yangi joy izlab ketishadi. Ushbu muammolarning yechimi sifatida atmosferaga zararli moddalar chiqindilarini chiqarishni kamaytirish, shuningdek, zarar ko‘rgan hududlarni tiklash va tozalash bo‘yicha choralarni ko‘rish kerak.

QISQARTIRISH. Yirik xomashyo konlarini faol o‘zlashtirishda ~~(jarayonida)~~ yaqin atrofdagi tuproqlarning ifloslanish radiusi 40 km gacha bo‘ladi. ~~(bo‘lishi mumkin)~~ Tuproq qayta ishlanadigan moddalarning zararliligiga ~~(ekanligiga)~~ qarab turli ~~(xil)~~ kimyoviy o‘zgarishlarga uchraydi. ~~(duchor bo‘ladi)~~ ~~(Qachonki)~~ Yerga ~~(miqdorda)~~ zaharli moddalar ko‘p tushganda nabotot olami ~~(daraxtlar, butalar va hatto o‘tlar unib chiqmaydi)~~ nobud bo‘ladi. Ozuqa yo‘qligidan hayvonlar qirilib ketadi yoki yashashga boshqa joy qidirishadi. ~~(Binobarin, hayvonlar uchun ozuqa yo‘q, ular nobud bo‘ladi yoki yashash uchun yangi joy izlab ketishadi.)~~ Ushbu muammolarni yechish uchun atmosferaga zararli ~~(moddalar)~~ chiqindilarni chiqarishni kamaytirish, shuningdek, zararlangan hududlarni tiklash va tozalash bo‘yicha choralarni ko‘rish kerak.

174

Berilgan matn	Matnning qisqartma shakl
Yirik xomashyo konlarini faol o‘zlashtirish jarayonida yaqin atrofdagi tuproqning ifloslanish radiusi 40 kilometrgacha bo‘lishi mumkin. Tuproq qayta ishlanadigan moddalarning zararli ekanligiga qarab turli xil kimyoviy o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi. Qachonki yerga ko‘p miqdorda zaharli moddalar tushsa, daraxtlar, butalar, o‘tlar o‘sishdan to‘xtaydi, quriydi va hatto qayta unib chiqmaydi. Binobarin, hayvonlar uchun ham ozuqa yo‘qoldimi, demak, ular nobud bo‘ladi yoki yashash uchun yangi makon izlab ketishadi. Ushbu muammolarning yechimi sifatida atmosferaga xavfli chiqindilar chiqarishni kamaytirish, shuningdek, zarar ko‘rgan hududlarni tozalash va qayta tiklash bo‘yicha tezkor va muhim choralarni ko‘rish kerak.	Yirik xomashyo konlarini faol o‘zlashtirishda yaqin atrofdagi tuproqning ifloslanish radiusi 40 km gacha bo‘ladi. Tuproq qayta ishlanadigan moddalarning zararliligiga ko‘ra turli kimyoviy o‘zgarishlarga uchraydi. Yerga ko‘p miqdorda zaharli moddalar tushishidan nabotot olami quriydi. Hayvonlar ham ozuqa yo‘qligidan nobud bo‘ladi yoki yashashga boshqa joy izlaydi. Atmosferaga xavfli chiqindilar chiqarishni kamaytirish, zarar ko‘rgan hududlarni tozalash va qayta tiklash tezkor va muhim yechimlardir.

53.7-mashq og‘zaki bajariladi. Bu mashqni bajarish ixtiyoriy. Uni vaqt yetsa, bajartirish yoki uyga vazifa qilib berish tavsiya etiladi.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan. Rasmni diqqat bilan kuzatib, unga muhokamaga undovchi mos nom topish, **“Global ekologik muammolar”** mavzusida esse yozish uy ishi qilib beriladi.


V. Darsni yakunlash.

Bu qismda o‘quvchilardan **53-darsda** qanday lingvistik bilimlarga ega bo‘lgani hamda qaysi tushunchaning mazmun-mohiyatini o‘zlashtirgani so‘raladi, mavzuni uyda mustahkamlash tavsiya etiladi.

54-dars

Darsning maqsadi. “Insonning tabiatga ta’siri” tushunchasining mazmun-mohiyatini anglash, o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, og‘zaki yoki yozma munosabat bildirish, nutqda ko‘p nuqtadan foydalanish kabi ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish; tushunishga ta’sir etuvchi omillar haqidagi bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni



53.6-mashq. Quyidagi gaplarda qavsning ishlatilish sababini izohlab, daftaringizga yozing.

1. “Muhaddislar imomi” sharafiga erishgan buyuk alloma Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-jome' as-sahih” (“Ishonchli hadislar to'plami”) kitobi nodir manbalardandir. 2. Jannat onalar oyog'i ostidadir (*Hadis*). 3. Belgini (rang, maza-ta'm, hid, hajm-shakl, xil-xususiyat va boshqalar), o'rin-paytni, miqdorni, shaxsni, narsani bildiruvchi so'roqlarni aniqlang. 4. Musobaqada Ruslan Nuriddinov (siz uni taniysiz) peshqadamlik qilmoqda. 5. Qozi Nizom. Kisht. *(Bir dona surat)*. Mir Vafo. E... otimiz ketdi-ku! (M. Behbudiy) 6. So'zga egalik qo'shimchasi qo'shilganda asos tarkibidagi “a” unlisi tushib qolishi kuzatiladi. Masalan, shah[a]rim (shahrim).

53.7-mashq. Quyidagi suhbatni o'qing. Jumlalarni qisqartirib, qayta ifodalashga harakat qiling. Matnda qavslar nima maqsadda qo'llanganiga izoh bering.

SUHBAT

Komiljon. *(qafasdagi qushda ro'y bergan o'zgarishdan tashvishga tushib)* Ota, nega qushimiz ozib-to'zib ketyapti?

Abduqodir aka. *(qafas eshigini ochadi)* Yorug' dunyodagi har bir maxluqot, avvalo, ozod va erkin yashash uchun yaratilgan. Mana, o'zing ham bunga guvoh bo'lib turibsan. Kim ham tutqunlikda yashashni xohlardi...

Komiljon. Unda odamlar nega hayvonlarni ham, qushlarni ham qo'lga o'rgatishadi, qafasga solishadi?

Abduqodir aka. Bir vaqtlar odamzod ona tabiat bilan bir tan-u bir jon bo'lgan, endi esa tabiat ustidan zo'ravonlikka o'tdik, buning oqibati yaxshi bo'lmaydi.

Komiljon. ... *(U uchun bu gap yangilik edi.)*

175

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Rasmni diqqat bilan kuzating va unga muhokamaga undovchi mos nom toping. Global ekologik muammolar bo'yicha o'z nuqtayi nazaringizni yozing.

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat etiladi:

1. Orol dengizining rasmlarini ko‘rib, nimani tushundingiz?

2. Insonning tabiatga ta’siri deganda nega ko‘pchilik tabiatga zarar keltirishni tushunadi?

3. Bir jumlani ko‘pchilik har xil tushunadi. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

4. Quyidagi she’riy parchada shoir Orolni qanday qiyofada tasavvur qilyapti?

Xasta holing, xasta o‘yga botursan,
Bemajol, bemador, behol yotursan.
Doding bilan dunyoni uyg‘otursan,
Ketib qolma, Orolim! (Muhammad Yusuf)

Berilgan savollar asosida suhbat tashkillashtiriladi, shundan so‘ng o‘quvchilarning e’tibori darslikdagi matnga qaratiladi. Matnni hamma ichda o‘qiydi, bundan tashqari, biror o‘quvchiga matnni ovoz chiqarib, ifodali o‘qish topshirig‘i beriladi.

O‘quvchilarning e’tibori “Til sandig‘i” rukniga qaratiladi.

54.1-mashqda berilgan matn asosida tuzilgan test topshiriqlari bajariladi.

Testlarning to‘g‘ri javoblari:

Test tartib raqami	1	2	3	4	5
To‘g‘ri javobi	D	B	A, C, E	D	B, D, F

1-testda matn asosida berilgan fikr to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekani so‘ralmoqda. Bu topshiriq maqsadi – o‘quvchilarda matnda yashirin ifodalangan ma’lumotni tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish. Matnning quyidagi o‘rniga e’tibor qaratish kerak:



54-dars

Topshiriq. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering.

1. Orol dengizining rasmlarini ko'rib, nimani tushundingiz?

2. Insonning tabiatga ta'siri deganda nega ko'pchilik tabiatga zarar keltirishni tushunadi?

3. Bir jumlani ko'pchilik har xil tushunadi. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?

4. Quyidagi she'riy parchada shoir Orolni qanday qiyofada tasavvur qilyapti?

Xasta holing, xasta o'yga botursan,
Bemajol, bemador, behol yotursan.
Doding bilan dunyoni uyg'otursan,
Ketib qolma, Orolim! *(Muhammad Yusuf)*

TIL SANDIG'I

UNUTILGAN SO'ZLAR

Tilimiz tarixida qo'llanib, hozirda o'rnini boshqa tildan o'zlashgan so'zlarga bo'shatgan birliklarimiz ham bor. Quyida ana shunday unutilgan so'zlardan namunalar keltiramiz:

im – parol // o'ron – parol
archi – sumka
utug – dazmol, utyuk
ulatu – dastro'mol

N. Jo'raqo'ziyevning "Im bilsa, er o'lmas" maqolasi asosida tayyorlandi.



Topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing.

1994-yilda braziliyalik fotojurnalist Sebastyan Salgado Ruandadagi qatliom dahshatlarini suratga olib, uyiga qaytdi. U Braziliyaning o'zi tug'ilgan Minas Jerays hududidagi cheksiz o'rmonda xotirjamlikda yashab, o'ziga kelmoqchi bo'ldi.

Ammo u bu yerda ko'rganidan dahshatga tushdi: bir necha yil ichida yam-yashil va jonivorlarga boy bo'lgan o'rmon qurigan, shovullagan daryo tashlandiq yerga aylangan, yovvoyi tabiat ham izsiz yo'qolgan edi. Bir paytlar quyuq o'rmon bo'lgan yerning atigi 0,5% hududidagina daraxtlar qolgandi.

Shunda uning turmush o'rtog'i Leliya o'rmonni avvalgi holiga qaytarish uchun harakat qilishlari kerakligini aytdi. Sebastyan bu taklifni qo'llab-quvvatladi va oila ilgarigi o'rmon hududiga daraxt ekishga qaror qildi.

Salgadolar dastlabki nihollarni 1998-yilda ekishdi, ammo bunday ulkan hajmdagi ish uchun ikki kishi kamlik qilardi. Maydoni 1 754 akr bo'lgan o'rmonni tiklash uchun ular 24 kishini yollashdi.



Shu bilan birga Sebastyan bu loyihani moliyalashtiradigan va qo'llab-quvvatlaydigan hamkorlarni ham izladi. O'z missiyasiga boshqalarning e'tiborini tortish uchun oila "Instituto Terra" ekologik tashkilotini tuzdi.

2019-yilga kelib 293 turdagi 4 mln tupdan ortiq daraxt o'tqazildi va 1 502 akr tropik o'rmon tiklandi. Tashlandiq hudud yana ko'rkam holiga qaytdi.

Sebastyan Salgado Ruandadagi qatliom dahshatlarini suratga olib, uyiga qaytdi. U Braziliyaning o'zi tug'ilgan Minas Jerays hududidagi cheksiz o'rmonda xotirjamlikda yashab, o'ziga kelmoqchi bo'ldi.

Demak, Sebastyan Salgado *qatliom dahshatlarini suratga olib, ruhan ezilgani bois* tug'ilib-o'sgan joyiga borib, o'ziga kelib olish fikriga tushadi.

2-test topshirig'ida matn asosida berilgan fikr to'g'ri yoki noto'g'ri ekani so'ralmoqda. Bu topshiriq maqsadi – o'quvchilarning matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri tushunish ko'nikmasini rivojlantirish. Matnning quyidagi o'rniga e'tibor qaratish kerak:

Shunda uning turmush o'rtog'i Leliya o'rmonni avvalgi holiga qaytarish uchun harakat qilishlari kerakligini aytdi. Sebastyan bu taklifni qo'llab-quvvatladi va oila ilgarigi o'rmon hududiga daraxt ekishga qaror qildi.

Demak, o'rmonni qayta tiklash taklifini Sebastyan Salgado emas, uning turmush o'rtog'i Leliya bergan.

3-testda matn asosida berilgan fikr to'g'ri yok noto'g'ri ekani so'ralmoqda. Bu topshiriq maqsadi – o'quvchilarning matn qismlarini tushunish ko'nikmasini rivojlantirish. Matnga e'tibor qaratsak, Salgadolar oilasi o'rmonni qayta tiklash uchun:

– eski o'rmon hududiga daraxtlar ekib chiqdi;

– atrof-muhitni muhofaza qiluvchi tashkilot tuzdi;

– ekoolamni tiklash uchun yollanma ishchilarni ishga oldi.

Demak, boshqa ma'lumotlar matnda uchramaydi, to'g'ri javob – A, C, E.

4-testda matn asosida berilgan fikr to'g'ri yoki noto'g'ri ekani so'ralmoqda. Bu topshiriqning maqsadi – o'quvchilarning matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri tushunish ko'nikmasini rivojlantirish. Matnning quyidagi o'rniga e'tibor qaratish kerak:

O'rmon tufayli butun ekotizim qayta tiklandi. Bu yerga jonivorlar qaytdi. Tropik mikroiqlim tiklanganligi bois yog'inlar miq-





O'rmon tufayli butun ekotizim qayta tiklandi. Bu yerga jonivorlar qaytdi. Tropik mikroiqlim tiklanganligi bois yog'inlar miqdori ham oshib, qurigan irmoqlar to'lib oqa boshladi.

kun.uz

54.1-mashq. Quyidagi testlarni matn asosida bajaring.

1. Sebastyan Salgado nima sababdan o'zi tug'ilib-o'sgan joyga borish fikriga kelib qoladi?	
A	ota yurtini sog'inganidan
B	qo'riqxona qurish uchun
C	dam olish maqsadida
D	ruhan ezilgani bois

2. Quyidagi hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang. *O'rmonni qayta tiklash Sebastyan Salgadoning taklifi bilan boshlandi.*	
A	to'g'ri
B	noto'g'ri

3. Salgadolar oilasi o'rmonni qayta tiklash uchun qanday ishlarni amalga oshirdi? *Eslatma. Bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin.*	
A	Eski o'rmon hududiga daraxtlar ekib chiqishdi.
B	Xalqaro tashkilotlardan yordam olishdi.
C	Atrof-muhitni muhofaza qiluvchi tashkilot tuzishdi.
D	Hukumat e'tiborini qaratish uchun namoyishlar o'tkazdi.
E	Ekoolamni tiklash uchun yollanma ishchilarni ishga olishdi.
F	Butun mamlakat bo'ylab xayriya marafonlari tashkil etishdi.

dori ham oshib, qurigan irmoqlar to'lib oqa boshladi.

Demak, Salgadolar oilasi o'rmonni qayta tiklashi natijasida:

– ekotizim qayta tiklandi;

– daryo va irmoqlarga suv qaytdi.

5-testda matn asosida berilgan fikrni to'g'ri yoki noto'g'ri ekani so'ralmoqda. Bu topshiriq maqsadi – o'quvchilarning matnda yashirin ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri tushunish ko'nikmasini rivojlantirish. Matnning quyidagi o'rniga e'tibor qaratish kerak:

1994-yilda braziliyalik fotojurnalist Sebastyan Salgado Ruandadagi qatliom dahshatlarini suratga olib, uyiga qaytdi. U Braziliyaning o'zi tug'ilgan Minas Jerays hududidagi cheksiz o'rmonda xotirjamlikda yashab, o'ziga kelmoqchi bo'ldi.

Shunda uning turmush o'rtog'i Leliya o'rmonni avvalgi holiga qaytarish uchun harakat qilishlari kerakligini aytdi. Sebastyan bu taklifni qo'llab-quvvatladi va oila ilgarigi o'rmon hududiga daraxt ekishga qaror qildi.

Demak, quyidagilarni Sebastyan Salgadoning o'rmonni qayta tiklashiga sabab bo'lgan omillar deyishimiz mumkin:

– kasbi;

– turmush o'rtog'ining turtkisi;

– tabiatga muhabbati.

Bilim berish.

"Tushunishga ta'sir etuvchi omillar" haqida o'quvchilarga ma'lumot beriladi.

Shundan so'ng **54.2-mashq** bajariladi. O'quvchilarga Salgadolar oilasi misolida "Insonning tabiatga ta'siri" mavzusida kichik matn tuzish topshirig'i beriladi.

Matn tuzishda quyidagilarni inobatga olish kerak:

– matn kirish, asosiy qism, xulosa qismlaridan iborat bo'lishi zarur;

– adabiy til me'yorlariga amal qilish;

– inson tabiatga faqat salbiy ta'sir ko'rsatmasligini, istasa, unga ijobiy ta'sir qilishi mumkinligini dalillash lozim


54.3-mashqda jadvalda keltirilgan gaplarda qavsning ishlatilish sababini izohlaymiz va daftarimizga ko'chiramiz.

Ushbu o'quv topshirig'ining maqsadi o'quvchilarning nutqda ko'pnuqtadan foydalanish haqidagi bilimlarini rivojlantirishdir.

JAVOBI:

GAPLAR	KO‘PNUQTANING ISHLATILISH SABAB
1. *Qish... Butun atrof oppoq libosda...*	**E.** *So‘zlovchining cheksiz his-hayajoni ifodalangani uchun qo‘yilgan.*
2. *Turkistonda birinchi m...m...m... artaba tia... t... t... tr.*	**D.** *Fikr duduqlanib aytilgani uchun qo‘yilgan.*
3. *– Tushundingizmi? Tushundingizmi, deyapman!* *– ...*	**B.** *Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilgani bois qo‘yilgan.*
4. *Ilkimdin kelguncha... – deb boshlanar edi.*	**F.** *Jumla qisqartirilgani uchun qo‘yilgan.*
5. *Nuqtalar o‘rniga kerakli harfni qo‘yib ko‘chirib yozing: xayri...oh, a...loq, ...abar.*	**A.** *Tushirib qoldirilgan harf, so‘z yoki boshqalar o‘rnida qo‘yilgan.*

KO‘PNUQTA [...]



178

O'rmon tufayli butun ekotizim qayta tiklandi. Bu yerga jonivorlar qaytdi. Tropik mikroiqlim tiklanganligi bois yog'inlar miqdori ham oshib, qurigan irmoqlar to'lib oqa boshladi.

kun.uz

54.1-mashq. Quyidagi testlarni matn asosida bajaring.

1. Sebastyan Salgado nima sababdan o'zi tug'ilib-o'sgan joyga borish fikriga kelib qoladi?

A	ota yurtini sog'inganidan
B	qo'riqxona qurish uchun
C	dam olish maqsadida
D	ruhan ezilgani bois

2. Quyidagi hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.
O'rmonni qayta tiklash Sebastyan Salgadoning taklifi bilan boshlandi.

A	to'g'ri
B	noto'g'ri

3. Salgadolar oilasi o'rmonni qayta tiklash uchun qanday ishlarni amalga oshirdi?
Eslatma. Bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin.

A	Eski o'rmon hududiga daraxtlar ekib chiqishdi.
B	Xalqaro tashkilotlardan yordam olishdi.
C	Atrof-muhitni muhofaza qiluvchi tashkilot tuzishdi.
D	Hukumat e'tiborini qaratish uchun namoyishlar o'tkazdi.
E	Ekoolamni tiklash uchun yollanma ishchilarni ishga olishdi.
F	Butun mamlakat bo'ylab xayriya marafonlari tashkil etishdi.

Ko‘p nuqta *XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbekcha matnlarda* ishlatila boshlangan. 1876-yildan e’tiboran **“Turkiston viloyatining gazeti”da muntazam qo‘llangan.**

Ko‘pnuqta quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida.

To‘ra biroz o‘ylab turgach, podshoning devordagi suratini, so‘ngra o‘zining yelkasidagi pogonini ko‘rsatdi.

– Mana shu imperiya... .

Miryoqub hech narsa anglamadi. (A. Cho‘lpon)

2. So‘zlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun.

Do‘xtir ayol og‘iz berkitib piq-piq yig‘ladi.

– Men... men O‘zbekistonda besh-olti yil ishlab edim, – deya yig‘ladi.

– Bechora xalq-a, bechoragina xalq-a.... (T. Murod).

Qish... Butun atrof oppoq libosda...

3. Matn (jumla) qisqartirilsa.

– Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz?


–Xo‘sh, xo‘sh?

– Ilkimdin kelguncha... – deb boshlanar edi.

– Ha-ha, bo‘tam, lekin bu oyat emas, hazrat Navoiyning hikmatlaridur. (X. To‘xtaboyev)

4. Fikr bo‘lib-bo‘lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa.

Muhammadyor yolg‘iz:



– Turkistonda birinchi m...m...m... arta-ba tia... t... t... tr, – dedi-da, fikrg‘a toldi. (A. Cho‘lpon)

5. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa.

– Manavi dub eshiklaringizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi?

– ...

– Tushundingizmi, deyapman! (X.Sultonov)

6. Tushirib qoldirilgan harf, so‘z yoki boshqa-lar o‘rnida.

Nuqtalar o‘rniga kerakli harfni qo‘yib ko‘chiring.

Xayri...oh, a...loq, ...abar.

54.4-mashq og‘zaki tarzda bajariladi. Bu mashqni vaqt yetsa, bajartirish yoki uyga vazifa sifatida berish tavsiya etiladi.

Ushbu o‘quv topshirig‘ining maqsadi o‘quvchilarning nutqda ko‘pnuqtadan foydalanish haqidagi bilimlarini rivojlantirishdir.

Quyidagi suhbatni o‘qing, undagi ko‘pnuqtaning qo‘llanish sababini og‘zaki izohlang.

JAVOBI:


SUHBAT

O‘g‘il. Ota, har tongda juda chiroy-li s...s...s...ayraydigan bulbulcha bugun s...s...s...ayramadimi? *(Fikr duduqlanib aytil-gani uchun qo‘yilgan.)*

Ota. Ha, sayramadi, bolam.

O‘g‘il. Nega s...s..s...ayramadi? S...s... siz kecha bog‘imizdagi daraxtlarni kesib tashlagan edingiz. Ular ketib qoldimi? *(Fikr duduqlanib aytilgani uchun qo‘yilgan.)*

Ota. ... *(Ota o‘g‘liga nima deyishni bilmas edi.)* *(Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldi-rilgani bois qo‘yilgan.)*



4. Salgadolar oilasi o'rmonni qayta tiklashi natijasida nima yuz berdi?	
A	Qizil kitobga kiritilgan turlar ko'paya boshladi.
B	Yangi shaharcha paydo bo'ldi.
C	Kirish pulli bo'lgan qo'riqxona qurildi.
D	Ariq va daryolarga suvlar qaytdi.

5. Sebastyan Salgadoning o'rmonni qayta tiklashiga sabab bo'lgan omillarni aniqlang. *Eslatma. Bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin.*	
A	hukumat yordami
B	kasbi
C	kuchli qo'rquv
D	turmush o'rtog'ining turtkisi
E	otasining vasiyati
F	tabiatga muhabbati

TUSHUNISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

179

Tushunish – biror gap, ish-harakat, imo-ishora va shu kabilarning ma'no-mazmunini anglash, asl mazmunini fahm etish. Odatda o'qilgan matnni, o'zgalarning fikrini, xatti-harakatini doim ham suhbatdoshimiz yoki matn muallifi nazarda tutganidek tushunavermaymiz. Boisi insonning tushunishiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Ular quyidagilar hisoblanadi:

– til birliklarining ifodasi bilan bog'liq omillar;
– tushunuvchilarning xususiyatlari bilan bog'liq omillar.

Til birliklarining ifodasi bilan bog'liq omillar. Nutq vaziyatida til birliklaridan o'rinli, to'g'ri, ifodali foydalanish yoki foydalanmaslik tushunishga, vaziyatni anglashga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun nutqda birliklardan bexato foydalanish muloqotni samarali qiladi. Shuningdek, og'zaki nutqda imo-ishoralar, tana, ko'z, qo'l, yuz harakatlari ham muhim.

Tushunuvchilarning xususiyatlari bilan bog'liq omillar. Suhbatda tinglovchining, matnni tushunishda esa uni o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari ham tushunishga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. Ya'ni anglash jarayonida tushunuvchining yashash muhiti, yoshi, xarakter xususiyatlari, berilgan mavzu hamda vaziyatdan xabardor ekanligi yoki oldindan tanish emasligi tushunish jarayoniga ta'sir qiladi. Shuning uchun ham o'zgalar fikrini tinglaganda yoki o'qiganda, boshqalar bilan muloqot qilayotganda inson o'zidan, yashash muhitidan kelib chiqib fikr bildirmasligi, balki vaziyatni to'la o'rganib, keyin xulosaga kelishi turli ko'ngilxiraliklarning oldini oladi. Muloqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

54.2-mashq. Salgadolar oilasi misolida "Insonning tabiatga ta'siri" mavzusida kichik matn tuzing.

IV. Uyga vazifa berish.

"Mustaqil bajaraman" rukni ostida uyga topshiriq berilgan. Quyidagi rasm asosida **"Inson va tabiat munosabati"** mavzusida 10 ta savol tuzishlari, savollar ritorik so‘roq gap shaklida bo‘lishi aytiladi.

V. Darsni yakunlash.

Bu qismda o‘quvchilardan **54-darsda** qanday lingvistik bilimlarga ega bo‘lgani hamda qaysi tushunchaning mazmun-mohiyatini o‘zlashtirgani so‘raladi, olgan bilimlarini uyda mustahkamlash tavsiya etiladi.

55-dars

Darsning maqsadi. Qizil kitob haqidagi informativ matn bilan tanishtirish hamda o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, og‘zaki yoki yozma munosabat bildirish, nutqda asos va qo‘shimchalar imlosiga rioya qilish kabi ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish; asos va qo‘shimchalar imlosi hamda ko‘chirma va o‘zlashtirma gap uslubiyatiga doir bilimlarni oshirish.

Dars jarayoni



55-dars

Topshiriq. Quyidagi matnni diqqat bilan o‘qing.

Qizil kitob! U qanday kitob?! Bu xavf va umid kitobidir, qayg‘u-alam kitobidir. Chunki bu kitobda yo‘qolib borayotgan yoki yo‘qolish xavfida bo‘lgan noyob o‘simlik va hayvon turlari qayd etiladi, ular sonining kamayishi sabablari yoritiladi, ularni saqlab qolish uchun tavsiyalar beriladi. Shuning uchun Qizil kitob insonlarni harakatga, mas’uliyatga chaqiruvchi eslatmadir.

1948-yilda tashkil etilgan Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi kamyob va yo‘qolib ketish xavfida bo‘lgan o‘simlik va hayvon turlarining ro‘yxatini tuzish g‘oyasini amalga oshirishga kirishdi. 1966-yildan boshlab tabiatni muhofaza qiluvchi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda Xalqaro qizil kitobning dunyo va alohida mintaqalar florasiga bag‘ishlangan nashrlari chop etila boshladi. Unga kiritiladigan o‘simlik va hayvon turlari Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi taklif etgan tasnifga binoan 4 guruhga ajratiladi:

1) yo‘qolgan yoki yo‘qolish arafasida turgan (jiddiy muhofaza talab etuvchi) turlar;

2) yo‘qolib borayotgan (kun sayin kamayib borayotgan, maxsus muhofazaga muhtoj) turlar;

3) kamyob, bevosita yo‘qolish xavfi bo‘lmasa-da, kichik maydonlarda kamdan kam uchraydigan (muhofazaga muhtoj) turlar;

4) muayyan vaqt davomida soni va tarqalgan maydonlar tabiiy sabablarga ko‘ra yoki inson ta’sirida qisqarib borayotgan (sonini nazorat qilib turish talab qilinadigan) turlar.

Kitobning 1- va 2-jildida sutemizuvchilar, qushlar haqida, 3- va 4-jildida esa suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar, sudralib yuruvchilar va baliqlar haqida so‘z yuritiladi.

Qizil kitob tabiatni sevuvchilar, mutaxassislar diqqatini o‘ziga tortib, barcha mintaqada mashhur bo‘ldi. Bu kitob xuddi kalendardek bezalgan bo‘lib, uning har bir varag‘i har xil rangda. Har qaysi rangning o‘z ma’nosi bor. Masalan, qizil rangda yozilgan hayvon va o‘simlik turlari jiddiy muhofazaga muhtoj.

Sayyoramizda hayvon va o‘simlik turlari yo‘qolib ketishining ikki xil sababi bor bo‘lib, birinchi sababi iqlim va tabiiy sharoitning o‘zgarishi bo‘lsa (tabiiy sabab), ikkinchisi antropogen (inson) harakatlar natijasidir.

Yer yuzidagi hayotni ta’minlashda o‘simliklar dunyosi, ayniqsa, o‘rmonlarning ahamiyati beqiyos. Hozirgi vaqtda Yer yuzi quruqligining 25% ini o‘rmonlar tashkil etadi. Ular shimoliy yarimsharda va tropik mintaqalarda tarqalgan. Biroq aksar o‘rmonlar holatini yaxshi deb bo‘lmaydi. Chunki har yili 3 mlrd m^3 hajmda o‘rmonlar kesilmoqda. Bu esa floraning kamayib ketishiga olib kelmoqda. Qizil kitob yaratilishiga ham aslida shu holat turtki bo‘ldi.

181

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Quyidagi savol bilan o‘quvchilarga murojaat etiladi:

1. Qizil rang jamiyatda qanday tushunchani anglatishi haqida o‘z fikrlaringizni misollar bilan dalillang.

Berilgan savol asosida suhbat tashkillashtiriladi, shundan so‘ng o‘quvchilarning e’tibori darslikda berilgan matnga qaratiladi. Matnni hamma ichda o‘qiydi, bundan tashqari, biror o‘quvchiga matnni ovoz chiqarib, ifodali o‘qish topshirig‘i beriladi.

54.1-mashq bajariladi.

Bu o‘quv topshirig‘ining maqsadi – o‘quvchilarning matndagi muhim, kerakli ma’lumotni qidirib topish, jadvalda, chizmada berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushuna olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Javobi:

1. Sutemizuvchilarning 6,2 foizi qirilib ketish xavfi ostida qolmoqda.

2. Qushlarning 167 ta kenja turlari yo‘q bo‘lish arafasida.

3. Chuchuk suvlarda yashovchi baliqlarning 194 ta turi halokatga mahkum.

4. Yuksak o‘simliklarning 10 foizdan ortig‘i yo‘qolib ketishi mumkin.

5. Sudralib yuruvchilarning jami 135 ta turi kamayib ketish xavfi ostida qolmoqda.

Shundan so‘ng **54.2-mashq**dagi savollar o‘quvchilarga beriladi. O‘quvchilar o‘qilgan matn hamda mavjud bilim va tajribalari asosida og‘zaki javob beradi. Ularga fikrlarini bayon etishda adabiy til me’yorlariga amal qilish, sheva, so‘zlashuv tiliga xos elementlardan foydalanmaslik eslatiladi.

Yo'qolish xavfidagi turlar soni

T/R	Mavjudotlar	Turlar	Kenja turlar	Jami	Umumiy turlar soniga nisbatan % hisobida
1.	Sutemizuvchilar	227	93	320	6.2
2.	Qushlar	264	167	431	4.6
3.	Sudralib yuruvchilar	74	61	135	1.8
4.	Amfibiyalar	34	7	41	2.8
5.	Chuchuk suvdagi baliqlar	169	25	194	3.5
6.	Yuksak o'simliklar	25000 dan kam emas			10 dan kam emas

O'zbekistonning noyob va kamayib borayotgan o'simlik va hayvonlari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar 1974-yili ta'sis etilgan Qizil kitobda o'z aksini topgan. Umurtqali hayvonlar (baliqlar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sutemizuvchilar)ning 63 turi, o'simliklarning 163 turi haqida ilk bor mukammal ma'lumotlar 1984-yili bosmadan chiqqan Qizil kitobda keltirilgan. Undan dunyoga dong'i ketgan lola va sallagullar, qimmatbaho o'simlik – yetmak, dorivor o'simlik bozulbang, shirach va shunga o'xshash nafis gulli o'simliklar, Buxoro bug'usi (xongul), sayg'oq, jayron, tog' qoploni, Tyanshan qo'ng'ir ayig'i kabi noyob hayvonlar o'rin olgan.

Qizil kitob – davriy nashr, uning sahifalari hech qachon tugallanmaydi. Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar o'lkamiz florasiga mansub yana 138 turdagi o'simlikni Qizil kitobga kiritish lozimligini ko'rsatmoqda. 1998-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik turlarining soni 301 tani tashkil etgan bo'lsa, yangi nashrdan 48 oilaga mansub 313 tur o'simlik o'rin oladi. Shu o'rinda savol tug'iladi: "Inson, sen nimalar qilyapsan? To'xta! O'z uyingni qachongacha vayron qilmoqchisan?"

Internet manbalaridan

55.1-mashq. Bo'sh o'rinlarni matn asosida to'ldirib, gaplarni daftaringizga yozing.

1. *Sut emizuvchilarning ___ foizi qirilib ketish xavfi ostida qolmoqda.*
2. *Qushlarning ___ ta kenja turi yo'q bo'lish arafasida.*
3. *Chuchuk suvlarda yashovchi baliqlarning __ ta turi halokatga mahkum.*
4. *Yuksak o'simliklarning ___ foizi yo'qolib ketishi mumkin.*
5. *Sudralib yuruvchilarning jami __ ta turi kamayib ketgan.*

55.2-mashq. Matn mazmunidan kelib chiqib, quyidagi savollar asosida fikr-mulohazalaringizni bildiring.

1. *Bu kitob nima uchun "Qizil kitob" deb nomlangan? Uning paydo bo'lish sababini bayon eting.*
2. *Nima sababdan Yer yuzidagi o'simlik va hayvon turlari kamayib ketmoqda?*
3. *O'simlik va hayvonlar himoyasiga bag'ishlangan qanday badiiy asarlarni o'qigansiz va filmlarni tomosha qilgansiz?*
4. *Ekoolamni asrab qolish uchun nimalar qilish kerak?*
5. *Tilimizda muloqot jarayonidan chiqib ketayotgan so'zlar uchun Qizil kitob tuzish kerak emasmi? Bunga munosabatingizni bildiring.*

TALAFFUZ VA IMLOSI BIR-BIRIDAN FARQ QILADIGAN QO'SHIMCHALAR

1. Tarkibida [u] unlisi ishtirok etgan bir bo'g'inli so'zlarga ***-ir***, ***-il***, ***-ib*** kabi [i] unlisi bilan boshlanuvchi qo'shimchalar qo'shilganda ***-ur***, ***-ul***, ***-ub*** tarzida talaffuz qilinsada, yozuvda asliga muvofiq yoziladi: *tushurmoq* – **tushirmoq,** *quvulmoq* – **quvilmoq,** *tug'ulmoq* – **tug'ilmoq**, *urunmoq* – **urinmoq**, *uzub olmoq* – **uzib olmoq.**

2. Hozirgi zamon ***-yap*** qo'shimchasi undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, **-ayap** holida talaffuz qilinsa ham, ***-yap*** yoziladi: *kelayapti* – **kelyapti**, *borayapman* –**boryapman.**

55.3-mashq. Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gaplarni o'qing. Ularni o'zlashtirma gapga aylantirganda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini ayting.

1. "Qush bo'lib osmonda uchma, toshbaqa bo'lib yerda sudralma! Daraxt bo'l. Boshing osmonda, ildizing yerda bo'lsin", – deb yozgandi O'tkir Hoshimov.
2. Uorren Baffetdan shunday fikr qolgan: "Kimdir hozir salqin daraxt tagida dam olib o'tiribdi, chunki bir necha yil oldin nihol ekib qo'ygan".
3. "Daraxt kabi bo'ling, – deydi donolar, – to'kilmoqchi bo'lgan barglarning ketishiga izn bering".
4. Psixologlar: "Hozirgi turgan joyingiz yoqmayotgan bo'lsa, uni o'zgartirishga harakat qiling. Siz daraxt emassiz-ku", – deya maslahat beradilar.

NUTQIY VAZIYATLARDA MULOQOT QILISH

Nutqiy vaziyatlarda turli kishilar bilan muloqot qilish so'z, fikr egasidan alohida talabchanlikni, so'zga nisbatan hisobdorlikni, nozik fahm-farosatni, chechanlikni, so'zamollikni talab etadi. Ya'ni bir mazmundagi fikrni suhbatdoshning yoshi, jinsi, nutq vaziyatidan kelib chiqib turli ifoda shakllarida bayon etiladi. Shuning uchun ham ayollar va erkaklar bilan, o'zidan yoshi katta va kichiklar bilan, tanish va notanish kishilar bilan muloqot qilish bir-biridan farq qiladi.

Bu o'quv topshirig'ining maqsadi – o'quvchilarda matn va uning qismlarini tushunish, matnni tushunishda avvalgi bilim hamda tajribalaridan foydalanish, o'z fikrlarini og'zaki tarzda adabiy til me'yorlariga amal qilib ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Savollar:

1. Bu kitob nima uchun Qizil kitob deb nomlangan? Uning paydo bo'lish sababini bayon eting.

2. Nima sababdan Yer yuzidagi o'simlik va hayvon turlari kamayib ketmoqda?

3. O'simlik va hayvonlar himoyasiga bag'ishlangan qanday badiiy asarlarni o'qigansiz va filmlarni tomosha qilgansiz?

4. Ekoolamni asrab qolish uchun nimalar qilish kerak?

5. Tilimizda foydalanishdan chiqib ketayotgan so'zlar uchun Qizil kitob tuzish kerak emasmi? Bunga munosabatingizni bildiring.

"Qo'shimchalar imlosi" mavzusi o'quvchilarga tushuntiriladi, avvalgi bilimlari mustahkamlanadi.

QO'SHIMCHA TOPSHIRIQ!

Mashq. Quyidagi gaplarda tushirib qoldirilgan ko'pnuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan imloviy jihatdan to'g'risini qo'yib, daftaringizga ko'chiring.

Bu o'quv topshirig'ining maqsadi – o'quvchilarda qo'shimchalarni imloviy jihatdan to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirish.

1. Nimaga qarab tur...*(-ub, -ib)*san, gapir.
2. Kimdir yelpib-yelpib barra-barra go'shtlardan kabob pishir...*(-yabdi, -ayabdi, -yapti, -ayapti)*.
3. Chol ko'zlarini qisib, kul...*(-ub, -ib)* qo'yadi.
4. Bir kuni bechora chol qo'li titrab, osh suzib berilgan kosasini tush...*(-ur, -ir)*ib sindirdi...
5. Endi osonlikcha qutul...*(-ub, -ib)* keta olasan.
6. Kuzatishimcha, odamlar gapir...*(-ayotgan, -yotgan, -ayotkan, -yotkan)* gapning taxminan 30–40 foizi yolg'on ekan. 7. O'sha tog'...*(-gacha, -qacha)* taxminan oltmish kilometr yuramiz.

Vaqt yetsa, **55.3-mashq** yozma tarzda bajariladi. Yoki uyga vazifa sifatida berish tavsiya etiladi.

Bu o‘quv topshirig‘ining maqsadi – o‘quvchilarda ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirish, ulardan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish.

YECHIMI:


KO‘CHIRMA GAPLI QO‘SHMA GAP	O‘ZLASHTIRMA GAP
1. “Qush bo‘lib osmonda uchma, toshbaqa bo‘lib yerda sudralma! Daraxt bo‘l. Boshing osmonda, ildizing yerda bo‘lsin”, – deb yozgandi O‘tkir Hoshimov.	*O‘tkir Hoshimov qush bo‘lib osmonda uchmasligimizni, toshbaqa bo‘lib yerda sudralmasligimizni, daraxt bo‘lib, boshimiz osmonda, ildizimiz yerda bo‘lishi kerakligini yozgan edi.*
2. Uorren Baffet shunday degan edi: “Kimdir hozir salqin daraxt tagida dam olib o‘tiribdi, chunki bir necha yil oldin nihol ekib qo‘ygan”.	*Uorren Baffet salqin daraxt tagida dam olib o‘tirish uchun bir necha yil oldin nihol ekib qo‘yish kerakligini ta’kidlagan edi.*
3. “Daraxt kabi bo‘ling, – deydi donolar, – to‘kilmoqchi bo‘lgan barglarning ketishiga izn bering”.	*Donolar daraxt kabi bo‘lish kerakligini, to‘kilmoqchi bo‘lgan barglarning ketishiga izn berish lozimligini aytadi.*
4. Psixologlar: “Hozir turgan joyingiz yoqmayotgan bo‘lsa, uni o‘zgartirishga harakat qiling. Siz daraxt emassiz-ku”, – deya maslahat beradi.	*Psixologlar hozir turgan joyimiz yoqmasa, uni o‘zgartirishga harakat qilishimiz kerakligini, biz daraxt emasligimizni aytadi.*

O‘quvchilarning e’tibori nutqiy vaziyatlarda muloqot qilish haqidagi nazariy ma’lumotga qaratiladi.

55.4-mashqni o‘quvchilar bilan birga bajariladi.

Testlarning to‘g‘ri javobi:

T/R	To‘g‘ri javobi	Izoh	Rivojlantiriladigan ko‘nikma
1	1–d; 2–c; 3–a; 4–d, 5–f; 6–b.	Nutqiy muloqotda do‘stga, ukaga, tanbal kishiga, tanish yoki notanish kishiga, yoshi katta kishiga, ayol kishiga nisbatan o‘ziga xos til birliklaridan foydalaniladi. Hammaga bir fikrni aynan bir xil shaklda berib bo‘lmaydi.	nutqiy vaziyatlarda kerakli til birliklaridan o‘rinli foydalana olish
2	A	Berilgan ma’lumotlar orqali xulosa qilinadi.	mantiqiy mushohada



55.4-mashq. Topshiriqlarni bajaring.

1. Quyidagi bir mazmunli gaplarni kimga nisbatan ishlatishimiz mumkinligiga ko'ra moslashtiring.

Gap	Kimga nisbatan qo'llash mumkin?
1. Menga yordam bering.	A) ukaga
2. Menga ko'maklashib yuboring.	B) notanish ayol kishiga
3. Menga yordam ber.	D) yoshi katta tanish kishiga
4. Menga qarashib yubora olasizmi?	E) yoshi notanish katta kishi
5. Tur o'rningdan, yordam ber.	F) do'stga
6. Kechirasiz, menga ko'maklashib yubora olasizmi?	G) ishyoqmasga

2. Testni yeching.
Qadimda shunday odat bo'lgan ekan: daraxt oldiga kelib ta'zim qilishgan, keyin daraxtga yaqinlashib uni silab qo'yishgan, shundan so'ng unga hatto ovqat ham olib kelishgan. Savol: bu g'alati odatlar so'ngida nima qilingan? ***(zakovat.uz)***

A	Shu odatlar orqali daraxtdan uzr so'rab, keyin uni chopib tashlashgan.
B	Daraxt mo'l hosil bergani uchun shu tarzda minnatdorchilik izhor etishgan.
C	Daraxt ko'p meva berishi uchun shu xilda unga murojaat qilishgan.
D	Daraxtdagi mevalarni terib olish oldidan shunday marosim o'tkazilgan.

184

TIL SANDIG'I

MAQOL SHARHI

Tekinga mushuk ham oftobga chiqmas. Ushbu maqol *har narsaning o'z qiymati bor, qiymatini berib, unga erishish mumkin* degan ma'noni anglatadi. Biroq bu maqol nopok ishlarni qilish uchun o'ziga tasalli berish, uni "shior" qilib olish maqsadida qo'llanmasligi lozim. Quyidagi maqollarni ham nutqiy vaziyatda o'z o'rnida qo'llash so'zning ta'sirchanligini oshiradi: *Quruq qoshiq og'iz yirtar. It hurar, karvon o'tar.*

55.5-mashq. Quyidagi maqollarni o'qing. Tushunganingizni hayotiy dalillar bilan izohlang.

1. *Achchiq savol berib, shirin javob kutma.* ***2.*** *Har mevaning po'chog'i bor, har so'zning o'lchovi bor.* ***3.*** *Gapi to'mtoqning o'zi to'mtoq.*

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Do'stingiz, ustozingiz, otangiz, onangiz bilan suhbat dialoglarini tuzing, foydalanilgan til birliklarining ifoda xilmaxilligiga ahamiyat bering.

O'quvchilarning e'tibori "Til sandig'i" rukniga qaratiladi.

Shundan so'ng vaqt yetsa, **55.5-mashq** bajariladi. Yoki uyga vazifa sifatida berish mumkin. O'quvchilarga "Til sandig'i" ruknidagi kabi maqollarni og'zaki (uyda bo'lsa, yozma) sharhlash vazifasi beriladi. Ularga fikrlarini bayon etishda adabiy til qoidalariga amal qilish eslatiladi.

1. Achchiq savol berib, shirin javob kutma.

2. Har mevaning po'chog'i bor, har so'zning o'lchovi bor.

3. Gapi to'mtoqning o'zi to'mtoq.

IV. Uyga vazifa berish.

"Mustaqil bajaraman" rukni ostida uyga topshiriq berilgan. Do'stingiz, ustozingiz, otangiz, onangiz bilan suhbat dialoglarini tuzing, foydalanilgan til birliklarining ifoda xilmaxilligiga ahamiyat bering.

V. Darsni yakunlash.

Bu qismda o'quvchilardan **55-darsda** qanday lingvistik bilimlarga ega bo'lgani hamda qaysi tushunchaning mazmun-mohiyatini o'zlashtirganlari so'raladi, olgan bilimlarini uyda mustahkamlash tavsiya etiladi.

56-dars

Darsning maqsadi. Ekologik muammolarga qashi kurashgan Greta Tunberg haqidagi informativ matn bilan tanishtirish hamda o'qilgan yoki tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma'lumotlarni tushunish, og'zaki yoki yozma munosabat bildirish, yozma matnni kengaytira olish kabi ko'nikma va malakalarni rivojlantirish; ko'chirma va o'zlashtirma gap uslubiyati hamda matnni kengaytirish qonuniyatlariga doir bilimlarini oshirish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.


II. Uy vazifasini tekshirish va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlash.

Topshiriqda berilgan matnni hamma ichda o'qiydi, bundan tashqari, biror o'quvchiga matnni ovoz chiqarib, ifodali o'qish topshirig'i beriladi.

Shundan so'ng o'quvchilarga **53.1-mashqda**gi savollar beriladi va javoblari eshitiladi. Bunda ularning javoblarini bo'lmaslik zarur. Avvalo ularga fikrlarini adabiy tilda bayon etish kerakligi eslatiladi.

Ushbu topshiriq maqsadi – o'quvchilarni nutqiy mavzuga olib kirish, inson va tabiat munosabatini tushuntirish, ekotizimning mazmun-mohiyatini anglatishdir.



56.1-mashq. Quyidagi savollar asosida fikrlaringizni og'zaki bayon qiling.

1. Siz Gretaning fikrlariga qo'shilasizmi yo qarshimisiz?
2. Gretaning muammoni hal etishga bo'lgan yondashuvining qanday salbiy va ijobiy tomonlari bo'lishi mumkin?
3. Ekologik muammolarni keltirib chiqarayotgan holatlar haqida hech o'ylab ko'rganmisiz?
4. Ekologik muammolarni hal qilishda Greta tanlagan yo'ldan boshqa qanday usullarni taklif qila olasiz?
5. Siz o'zingiz yashayotgan joyda atrof-muhitni asrash, himoya qilish, qayta tiklash uchun harakat qilganmisiz?
6. Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qanday milliy qadriyatlarimiz bor? Shular haqida gapiring.

56.2-mashq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini ustozingizdan so'rab, daftaringizga yozing.

MATNNI KENGAYTIRISH

Matnni kengaytirishdan oldin u nima maqsadda yozilgani, qanday fikrlar bildirilgani, g'oyasi aniqlab olinadi. Avvalo, matnni diqqat bilan o'qib chiqish kerak. Shundan so'ng matnni quyidagi yo'llar bilan kengaytirish mumkin:

– *matnning bosh fikri, g'oyasini shakllantiruvchi tayanch so'z va iboralar, gap yoki mikromatn aniqlab olinadi;*

– *matn mazmuniga mos kiritma, ilova, izoh, eslatma, lirik chekinishlar qo'shiladi;*

– *lozim o'rinlarga mazmunga mos maqollar, ibora, hikmatli so'z va iqtiboslar, zarur hollarda badiiy-tasviriy ifodalar ham qo'shiladi;*

– *yig'iq gaplarni yoyiq gaplarga, sodda gaplarni qo'shma gaplarga, o'zlashma gaplarni ko'chirma gaplarga aylantirib yoziladi;*

– *so'zlar so'z birikmalari bilan, sifatdoshlar o'xshatish kabi vositalar bilan almashtiriladi;*

– *turli stilistik usullar, ritorik so'roq, murojaat, undovlar qo'llanadi;*

– *matnni kirish, xulosa va shaxsiy mulohazalar evaziga ham kengaytirishi mumkin;*

– *matn mazmunini ochish uchun xizmat qiladigan tushuntirish va qo'shimcha detallar qo'shiladi;*

– *muharrir muallif bilan kelishgan holda matnning qismlarini o'zgartirishi mumkin.*

Shundan so'ng matn qayta o'qib chiqiladi, xato va kamchiliklari tuzatiladi. So'ng sarlavha qo'yib, oqqa ko'chiriladi.

56.3-mashq. Quyida berilgan sodda yig'iq gaplarni sodda yoyiq gaplarga aylantiring.

1. *Men qatnashdim. //*
Men kecha do'stlarim bilan mahallamizni obod qilish uchun tashkil etilgan hasharda qatnashdim.
2. Ertaga kelsin. 3. Boshlandi. 4. Asrab-avaylaylik. 5. Obod eting. 6. Ekaylik.

187

Savollar:

1. *Siz Gretaning fikrlariga qo'shilasizmi yoki ularga qarshimisiz?*

2. *Gretaning muammoni hal etishga yondashuvining qanday salbiy va ijobiy tomonlari bor deb o'ylaysiz?*

3. *Ekologik muammolarni keltirib chiqarayotgan holatlar haqida hech o'ylab ko'rganmisiz?*

4. *Ekologik muammolarni hal qilishda Greta tanlagan yo'ldan boshqa qanday usullarni taklif qila olasiz?*

5. *O'zingiz yashayotgan hududda atrof-muhitni asrash, himoya qilish, qayta tiklash uchun harakat qilganmisiz?*

6. *Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qanday milliy qadriyatlarimiz bor? Shular haqida gapiring.*

53.2-mashqda matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni lug'at daftariga ko'chirib, ularning ma'nosini yozish so'ralgan.

Ushbu topshiriq maqsadi – o'quvchilarda matnda qo'llangan leksik birliklarning ma'nosini tushunish ko'nikmasini rivojlantirish.

Javob:

Rikstag *– Shvetsiya Oliy Kengashi, parlamenti. Bizda – Oliy Majlis.*

Piket *– hukumat idoralari siyosati yoki qaroriga norozilik bildiruvchi harakat; namoyishchilar guruhi.*

Flayer *– maxsus voqea, mahsulot, xizmat va boshqalarga e'tiborni jalb qilish uchun mo'ljallangan bosma reklama qog'ozi. Odatda ular odamlar gavjum bo'lgan joylarda tarqatilayotganini ko'rasiz.*

Heshteg *– ijtimoiy tarmoqlarda # belgisi bilan yoziladigan nomlar. Undan ijtimoiy tarmoqlardagi nashrlarni mavzu yoki mazmun bo'yicha tartibga solish, tasniflash uchun foydalaniladi.*

Sammit *– ikki yoki bir necha davlat boshliqlarining muhim xalqaro masalalar bo'yicha uchrashuvi; oliy darajadagi kengash.*

Bilim berish.

"Matnni kengaytirish" mavzusi turli metodlardan foydalanib tushuntiriladi.

Olingan nazariy bilimni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga **56.3-mashq** bajartiriladi.

Ushbu o'quv topshirig'ining maqsadi – o'quvchilarda fikrni batafsil ifodalash, matnni kengaytirish ko'nikmasini rivojlantirish.

O'quvchilar namuna asosida gaplarni sodda yig'iq gaplarga aylantiradi.

Namuna.

Kim? – Men	
Qachon?	
Nimada?	**qatnashdim**
(Qanday?) Nimada?	
Nima maqsadda?	
Nimani?	
Kimlar bilan?	

1. *Men qatnashdim. // Men kecha do‘stlarim bilan mahallamizni obod qilish uchun tash-kil etilgan hasharda qatnashdim.*

SODDA YIG‘IQ GAPLAR	SODDA YOYIQ GAPLAR
2. Ertaga kelsin.	*Akangiz rahbarimiz bilan uchrashish uchun ertaga 11:00 da kelsin.*
3. Boshlandi.	....
4. Asrab-avaylaylik.	....
5. Obod eting.	.....
6. Ekaylik.	.....

O‘quvchilar diqqati **“Til sandig‘i”** rukniga qaratiladi. Keltirilgan varvarizmlardan nutqda foydalanmaslik, uning o‘rniga o‘zbekcha muqobilini ishlatish tavsiya etiladi.

53.4-mashqda keltirilgan Gretaning nutqidan parchani asosiy mazmunini saqlagan holda kengaytirish topshirig‘i beriladi.

Ushbu o‘quv topshirig‘ining maqsadi – o‘quvchilarda qisqa ifodalangan fikrni kengaytirib berish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Namuna:


PARCHA	KENGAYTIRILGAN SHAKLI
Biz – bolalar ba’zan kattalarning gapiga kirmaymiz. Biz ham o‘zimizni kat-talardek tutyapmiz. Mening ismim Greta va men to‘qqizinchi sinfda o‘qiyman. Men parlament saylovigacha bo‘lgan vaqtda maktabga borishdan bosh tortaman!	Biz, ya’ni kichkina deb o‘zingizga teng ko‘rmaydigan yoshlar, ba’zan o‘zimizni sizlar kabi tutamiz. O‘zimiz to‘g‘ri deb bilgan ishimizni qilamiz. Men Gretaman, hozir to‘qqizinchi sinf-da o‘qiyman. Biroq ekologik muammolarga siz – kattalarning beparvoligingiz, tabiatga bilib turib zarar yetkazayotganlarni jim kuza-tayotganingiz uchun o‘z noroziligimni e’lon qilaman. Buning isboti sifatida parlament say-lovlari boshlangunga qadar maktabga ta’lim olish uchun borishdan bosh tortaman!

Vaqt yetsa, **56.5-mashq** yozma tarzda bajariladi. Yoki uyga vazifa sifatida beriladi.

Bu topshiriqning maqsadi – o‘quvchilarda ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga, o‘zlashtirma gaplarni ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarga aylantirish, ulardan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Yechimi:

GAPLAR	O‘ZGARGAN GAPLAR
1. Yahudiylar kun bo‘yi ishsiz yurishdan og‘irroq yumush yo‘qligini ta’kidlashadi.	*Yahudiylar aytadi: “Kun bo‘yi ishsiz yurishdan og‘irroq yumush yo‘q”.*
2. “Agar ota-onalar mehnat qilayotgan bir paytda farzandlar kayf-u safo bilan band bo‘lsa, bilib qo‘yingki, ularning nabiralari tilanchilik qiladi”, – deyilgan yapon xalq maqolida.	*Yaponlar ota-onalar mehnat qilayotgan bir paytda ularning farzandlari kayf-u safo bilan band bo‘lsa, nabiralari tilanchilik qilishini ta’kidlashadi.*
3. Donolar xorlik vaqtida qilinmagan mehnatning badali ekanini ta’kidlaydilar.	*Donolar aytadi: “Xorlik – vaqtida qilinmagan mehnatning badali”.*
4. “Boyoqishning umri yelday sovurilyapti”, – dedi Saodat aya. (Said Ahmad)	*Saodat aya boyoqishning umri yelday sovurilayotganini aytdi.*



TIL SANDIG‘I

O‘ZBEKCHASI BOR

“naushnik” – quloqchin
“svejiy” – yangi; barra; tabiiy
“otdelniy” – alohida
“tem bole” – ustiga-ustak

56.4-mashq. Quyida Gretaning nutqidan parcha berilgan. Matnni uning asosiy mazmunini saqlagan holda kengaytiring.

Biz – bolalar ba'zan kattalarning gapiga kirmaymiz. Biz ham o'zimizni kattalardek tutyapmiz. Mening ismim Greta va men to'qqizinchi sinfda o'qiyman. Men parlament saylovigacha bo'lgan vaqtda maktabga borishdan bosh tortaman!

56.5-mashq. Quyidagi o'zlashtirma gaplarni ko'chirma gaplarga, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantiring.

Namuna. *Stiven Kovi ko'p odamlar fikrni tushunish niyatida emas, balki javob qaytarish niyatida tinglashlarini aytgan edi. – Stiven Kovi shunday degan edi: "Ko'p odamlar tushunish niyatida emas, balki javob qaytarish niyatida fikrni tinglaydilar".*

188

1. Yahudiylar kun bo'yi ishsiz yurishdan og'irroq yumush yo'qligini ta'kidlashadi.
2. "Agar ota-onalar mehnat qilayotgan bir paytda farzandlar kayf-u safo bilan band bo'lsa, bilib qo'yingki, ularning nabiralari tilanchilik qiladi", – deyilgan yapon xalq maqolida.
3. Donolar xorlik vaqtida qilinmagan mehnatning badali ekanini ta'kidlaydilar.
4. "Boyoqishning umri yelday sovurilyapti", – dedi Saodat aya. *(Said Ahmad)*

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Quyidagi matnni diqqat bilan o'qing. Uni tavsiyalarga amal qilgan holda kengaytirib yozing:

– matnni kengaytirish qoidalariga amal qiling;
– asosiy mazmundan uzoqlashib ketmang;
– adabiy til me'yorlariga rioya qiling.

IV. Uyga vazifa berish.

“Mustaqil bajaraman” rukni ostida uyga topshiriq berilgan.

“Qizil panda” matnini diqqat bilan o‘qib, uni quyidagi tavsiyalarga amal qilgan holda kengaytirib yozib kelish topshirig‘i beriladi:

– matnni kengaytirish qoidalariga amal qiling;

– asosiy mazmundan uzoqlashib ketmang;

– adabiy til me’yorlariga rioya qiling.

V. Darsni yakunlash.

Bu qismda o‘quvchilardan **56-darsda** qanday lingvistik bilimlarga ega bo‘lgani hamda qaysi tushunchaning mazmun-mohiyatini o‘zlashtirgani so‘raladi, olgan bilimlarini uyda mustahkamlash tavsiya etiladi.

57-dars

Mustahkamlash darsi

Darsning maqsadi. “Inson va tabiat” mavzusi doirasida olingan ma'lumotlardan foydalanib, mulohazalarni adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda yozma bayon qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish; egallangan lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni mustahkamlash.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.
II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.
III. O‘tilgan mavzularni mustahkamlash.

O‘quvchilarga rasmga qarab **“Inson va tabiat”** mavzusida ijodiy matn tuzish topshirig‘i beriladi. Ular belgilangan talablarga amal qilib matn tuzishni eslatasiz.

Eslatma:

– ijodiy matnni esse talablari bo‘yicha yozing;
– fikrlaringizni izchil va bexato ifodalang;
– har ikki tushunchani to‘liq izohlang;
– bu tushunchalar haqida o‘z fikringizni misollar bilan dalillang;
– hozirgi davr va sharoitdan kelib chiqib o‘z xulosangizni bering.



IV. Uyga vazifa berish.

Uyga bob davomida o‘tilgan mavzularni takrorlab kelish vazifasi beriladi.

V. Darsni yakunlash.

Bu qismda o‘quvchilardan **bob davomida** qanday lingvistik bilimlarga ega bo‘lgani hamda qaysi tushunchaning mazmun-mohiyatini o‘zlashtirgani so‘raladi, olgan bilimlarini uyda mustahkamlash tavsiya etiladi.

58-dars

Darsning maqsadi. O‘qilgan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, unda ishlatilgan til birliklarining ma’nosi va vazifasini anglash, matn qismlarini tushunish, matndagi vizual ma’lumotlarni o‘qiy olish, matndagi ma’lumotlarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq eta olish, matnning umumiy ma’nosini bilish, matn maqsadini anglash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish.


Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.
II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.
III. O‘tilgan mavzularni mustahkamlash.

TESTLARNING TAHLILI

A variant

Birinchi matn



Quyidagi savollarga matn asosida javob bering.

1. Matnda qo'llangan "sterillangan" so'zining ma'nosini yozing.
Javob: _____

2. Matnda "Qon olish uchun bir martalik sterillangan asboblardan foydalaniladi", deyilgan.
Nima uchun ushbu ma'lumot matnga kiritilgan?

A	Donorlik xavfsiz ekaniga o'quvchini ishontirish uchun
B	Donorlik inson hayotida muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlash uchun
C	Topshirilgan qon qanday ishlatilishini tushuntirish uchun
D	Tahlil va tekshiruvlarning tafsilotlarini berish uchun

3. Quyidagi gap matn mazmuniga mos tarzda to'g'ri davom ettirilgan jumlalarni aniqlang.
Insonlar qon topshirish orqali...

1	o'z kasalliklaridan forig' bo'ladi.
2	o'zgalar hayotini saqlab qolishga ko'maklashadi.
3	mo'maygina mablag' ishlab oladi.
4	o'z hayotini xavf ostida qoldiradi.
5	xolis ezgu ish qiladi.
	Javob: _____

4. Quyidagi savolning to'g'ri javobini toping.
Yetmish kun oldin qon topshirgan 30 yoshli sog'lom erkak kishi hozir yana qon topshirishi mumkinmi?

A	Ha
B	Yo'q

192

1-test.

Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *so‘z ma’nosini bilish.*

To‘g‘ri javob: *mikroblardan xoli qilingan.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Qon olish uchun sterillangan bir martalik asboblardan (shpris, naychalar, konteyner) foydalaniladi.

2-test.

Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *til birligidan nima maqsadda foydalanilganini tushunish.*

To‘g‘ri javob: *A.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Qon olish uchun sterillangan bir martalik asboblardan (shpris, naychalar, konteyner) foydalaniladi.

3-test.

Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *matn va uning qismlarini tushunish.*

To‘g‘ri javob: *2 va 5.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Shuning uchun inson hayotini saqlab qolishda donorlik xizmati muhim ahamiyatga ega.

Qon topshirish – odamlarga beg‘araz yordam berishning eng keng tarqalgan usullaridan biri...


5. “Qon topshirish” matnining asosiy maqsadi nima?	
A	odamlarni qon topshirishga undash
B	qon topshirish bilan bog‘liq xavfni tasvirlash
C	qayerda qon topshirish mumkinligini tushuntirish
D	ko‘plab odamlar muntazam ravishda qon topshirishlarini isbotlash

II QISM


Quyidagi matnni o‘qing va u asosida berilgan 1–5-topshiriqlarni bajaring.

O‘ZBEKISTON AHOLISINING KO‘PAYISHI

Aholi sonining ko‘payishi davlatning rivojlanishi va taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston aholi soni bo‘yicha jahonda 44-o‘rinda turadi (2018-y.) va aholisi soni o‘sib bormoqda. Darhaqiqat, keyingi yillarda O‘zbekistonda tug‘ilish soni o‘lim soniga nisbatan ortganligi hisobiga aholi soni ko‘payib bormoqda. Aholining ko‘payish ko‘lami diagrammada ko‘rsatilgan. (1-rasm)



1-rasm. O‘zbekiston aholisining ko‘payishi (*million kishi hisobida*)



2-rasm. Aholining ko‘payishi (*2018-yil, ming kishi hisobida*)

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholining tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlarida ham o‘zgarishlar kuzatildi. 1991-yilda respublikada 723,4 ming nafar bola tug‘ilgan bo‘lsa, keyingi yillarda tug‘ilish soni kamayib, 2001-yilda 513 ming nafarni tashkil etdi. Keyinchalik aholining turmush farovonligi ko‘tarilishi bilan tug‘ilish soni ham ko‘paydi. 2017-yilga kelib 716 mingdan ortiq chaqaloq tug‘ilgan bo‘lsa, 2018-yilda 768 mingdan ortiq bola dunyoga kelgan. 2019-yili esa 815,9 ming bola tug‘ilishi ro‘yxatga olingan bo‘lib, 1000 aholiga tug‘ilish darajasi 24,3 promilleni tashkil etdi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 1 promillega ko‘paydi.

O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 33905,8 ming kishini tashkil etgan.

Mehnatga yaroqli yoshdan kichiklar aholining 30,5 foizini, mehnatga layoqatli yoshdagilar 58,9 foizni va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar 10,6 foizni tashkil etdi.

193

4-test.

Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *matndagi ma’lumotlarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq eta olish.*

To‘g‘ri javob: *A.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Erkak kishi yiliga 5 marta qon topshirishi mumkin.

18 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan kishilar donor bo‘lishlari mumkin. Har bir qon topshirish orasida 8 hafta tanaffus bo‘lishi kerak.

5-test.

Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *matn maqsadini tushunish.*

To‘g‘ri javob: *A.*

Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*

1. Donorlik – insonlar hayotini asrab qoladi.

2. Qon o‘rnini bosuvchi modda yo‘q.

3. Fransiyada yiliga 500 ming kishiga qon quyiladi.

4. Qon topshirish xavfsiz.

5. Donorlik – insonlarga beg‘araz yordam berish yo‘li.

6. Qon topshirishga uzog‘i bilan 1 soat vaqt ketadi.

7. Kimlar qon topshirishi mumkinligi haqidagi ma’lumot.

Xulosa: *imkoningiz bo‘lsa, qon topshirib, insonlarga beg‘araz yordam ko‘rsating.*

Ikkinchi matn

6-test.

Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *matndagi muhim ma’lumotlarni qidirib topa olish, ochiq ifodalangan ma’lumotni tushunish.*

To‘g‘ri javob: *44-o‘rinda.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

O‘zbekiston aholi soni bo‘yicha jahonda 44-o‘rinda turadi (2018-y.) va aholi soni o‘sib bormoqda.

7-test.

Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *matn qismlaridagi bog‘liqlikni tushunish.*


To‘g‘ri javob: *B.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

1991-yilda respublikada 723,4 ming nafar bola tug‘ilgan bo‘lsa...

2019-yili esa 815,9 ming bola tug‘ilishi ro‘yxatga olingan...

Aholi sonining oshishiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan yana biri umr davomiyligi ko'rsatkichidir. Mamlakatimizda o'rtacha umr davomiyligi ko'rsatkichida ham so'nggi yillarda o'sish kuzatilgan, jumladan, 1991-yilda ushbu ko'rsatkich 66,4 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda 70,8 yoshni, 2010-yilda 73,0 yoshni tashkil etdi. 2016-yilga kelib esa 73,8 yoshni tashkil etgan. *(3-rasm)*



3-rasm. O'zbekiston aholisining o'rtacha umr davomiyligi ko'rsatkichi (*yosh*)

Shuningdek, tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida respublikada o'lim darajasi, jumladan, bolalar va onalar o'limi ko'rsatkichlari pasaydi va bu respublika aholisi o'rtasida umr davomiyligi ko'rsatkichining o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, turmush darajasining ko'tarilgani, hayot farovonlashgani hisobiga O'zbekiston aholisi yiliga yarim milliondan ortiq kishiga ko'payib bormoqda. Bu ko'plab mehnat kuchi, ko'p sonli iste'molchi vujudga kelayotganini bildiradi. Bunday ko'rsatkich respublika rivojiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Internet manbalari asosida tayyorlandi.

Quyidagi savollarga matn asosida javob bering.

6. 2018-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholi soni bo'yicha dunyoda nechanchi o'rinda turadi?

Javob: _____

7. Matn mazmunidan kelib chiqib quyidagi hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

1991-yilda tug'ilish ko'rsatkichi hozirgidan ancha yuqori bo'lgan.

A) To'g'ri **B)** Noto'g'ri

8. Vizual ma'lumot asosida to'g'ri javobni toping.

2000-yilda erkaklarning o'rtacha umr davomiyligi _____ ni tashkil qilgan.

A) 73,2 yosh **B)** 70,8 yosh **C)** 76,2 yosh **D)** 68,4 yosh

9. Matnda O'zbekiston aholisining umr davomiyligi ko'rsatkichlarida ayollar va erkaklar umr davomiyligi alohida berilgani sababini yozing.

Javob:_____

10. O'zbekiston aholisining o'sishiga ta'sir qilgan omillarni aniqlang va yozing.

Javob:_____

8-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *vizual ma'lumotlarni o'qib tushunish.*

To'g'ri javob: *D.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

3-rasmda O'zbekiston aholisining o'rtacha umri davomiyligi ko'rsatkichi berilgan. Shu diagrammani o'qib tushunish kerak.

9-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *vizual va verbal ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish.*

To'g'ri javob: *ayollar va erkaklarda umr davomiyligi turlicha ekanini ko'rsatish uchun.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

3-rasmda O'zbekiston aholisining o'rtacha umri davomiyligi ko'rsatkichi berilgan. Shu diagrammaning umumiy matn bilan aloqadorligini tushunish kerak.

10-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matnning umumiy ma'nosini tushunish, to'g'ridan to'g'ri xulosaga kelish.*

To'g'ri javob: *1. Tibbiyot sohasidagi islohotlar. 2. Turmush darajasining ko'tarilishi.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismlaridan olingan:*

... tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida respublikada o'lim darajasi, jumladan, bolalar va onalar o'limi ko'rsatkichlari pasaydi...

... turmush darajasining ko'tarilgani, hayot farovonlashgani hisobiga O'zbekiston aholisi yiliga yarim milliondan ortiq kishiga ko'payib bormoqda.

B variant

Birinchi matn

1-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *so'z ma'nosini bilish.*


To'g'ri javob: *D.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Stansiyada maxsus "tomorqa" bo'lib, bu joyda o'simliklar parvarishlanadi.

2-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *til birligidan nima maqsadda foydalanilganini tushunish.*



B VARIANT

I QISM

Quyida keltirilgan matnni o'qing va u asosida berilgan 1–5-topshiriqlarni bajaring.

OYDA O'SGAN PAXTA

O'simliklarni fazoda ham o'stirish mumkinmi? Olimlar bu savolga javob topish uchun uzoq yillardan buyon turli tajribalar o'tkazib kelmoqda.

Hozirgacha eng yaxshi natijalar Xalqaro Kosmik stansiyasida qayd etilgan. Stansiyada maxsus "tomorqa" bo'lib, bu joyda o'simliklar parvarishlanadi. Shu kungacha bug'doy, kartoshka, turli ko'katlar va gullar o'stirilgan. Ularni bemalol yeyish mumkin.

Shu yilning yanvar oyida yana bir ajoyib tajriba o'tkazildi. Tarixda ilk bor Oy sathida o'simlik unib chiqdi. Buni xitoylik olimlar amalga oshirdi.

Gap shundaki, 2020-yil 3-yanvarda Xitoyning Oyga muvaffaqiyatli qo'ndirilgan "Chan'e-4" qurilmasida maxsus quti ham bor edi. Qutining ichiga kartoshka urug'i, ipak qurti lichinkasi va paxta urug'i kabi biologik turlar joylashtiriladi. Bu bilan olimlar Oyning noqulay sharoitida ham o'simliklarni yetishtirishga urinib ko'rishmoqchi edi. Bir necha kun o'tib kutilgan natijaga erishildi. Paxta urug'i unib chiqa boshladi.

Demak, kelajakda odamlar Oyni yoki Marsni o'zlashtirishsa, u yerlarda turli o'simliklar ekishi mumkin ekan. Bu o'simliklar fazogirlarni nafas olish uchun kislorod va qorin to'yg'izish uchun ovqat bilan ta'minlab turadi.

"Jajji akademik" jurnalidan

195

1. "Tomorqa" so'zining matndagi ma'nosini aniqlang.
A) *ekin-tikin qilinadigan hovlining oldidagi yer*
B) *barcha sharoitlarga ega bo'lgan maxsus yashash manzili*
C) *uyning orqasidagi dehqonchilik qilib daromad olinadigan ekinzor*
D) *o'ziga xos sharoitga ega bo'lgan o'simliklar yetishtiriladigan joy*

2. Matnda: "O'simliklarni fazoda ham o'stirish mumkinmi?" degan savol keltirilgan. Ushbu jumlaning mazmunini aniqlang.
A) *O'simliklar faqat Yerda o'sadi, boshqa sayyoralarda o'smaydi.*
B) *Odamzod koinotdagi boshqa biror manzilda yashash uchun sharoit yarata oladimi?*
C) *Boshqa biror sayyorada bog'-rog'lar tashkil qilib daromad qilish mumkinmi?*
D) *Koinotdagi sayyoralarda kislorod borligini aniqlash kerak.*

3. Quyidagi hukmlarni matn mazmunidan kelib chiqib to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.
I. *Fazoda birinchi o'stirilgan o'simlik paxta hisoblanadi.*
II. *Koinotdagi sayyoralarda yetishtirilgan mevalarni tanovul qilib bo'lmaydi.*
A) *To'g'ri*
B) *Noto'g'ri*
Javob: I II

To'g'ri javob: *B.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

O'simliklarni fazoda ham o'stirish mumkinmi? Olimlar bu savolga javob topish uchun uzoq yillardan buyon turli tajribalar o'tkazib kelmoqda.

3-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matn va uning qismlarini tushunish.*

To'g'ri javob: *I – b; II – b.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Xalqaro kosmik stansiyada ... shu kungacha bug'doy, kartoshka, turli ko'katlar va gullar o'stirilgan. Ularni bemalol yeyish mumkin.

4-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matn va uning qismlarini tushunish.*

To'g'ri javob: *I – b; II – a.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Bu bilan olimlar Oyning noqulay sharoitida ham o'simliklarni yetishtirishga urinib ko'rishmoqchi edi. Bir necha kun o'tib, kutilgan natijaga erishildi. Paxta urug'i unib chiqa boshladi. (Paxta o'sgan joyda boshqa o'simlik ham bemalol ko'karadi.)

5-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matn maqsadini tushunish.*

To'g'ri javob: *A.*

Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*

1. O'simlikni fazoda o'stirish mumkinmi?!
2. Koinotda turli o'simliklar o'stirildi.
3. Oyda paxta o'stirildi.
4. Odamlar kelajakda Mars yoki Oyni o'zlashtirishi mumkin.

Xulosa. *Insoniyat kelajakda koinotda boshqa bir manzilgoh qilishi mumkinligini izohlash.*

Ikkinchi matn

6-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *vizual ma'lumotlarni o'qib tushunish.*

To'g'ri javob: *D.*

Test izohi. *Jadval nomlangan.*

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

7-test.
Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *vizual ma’lumotlarni o‘qib tushunish.*
To‘g‘ri javob: *Jizzax viloyati.*
Test izohi. *Jadvaldagi ma’lumotlarni o‘qib tushunish kerak.*

8-test.
Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *vizual ma’lumotlarni o‘qib tushunish.*
To‘g‘ri javob: *Toshkent shahri, Navoiy viloyati, Buxoro viloyati.*
Test izohi. *Jadvaldagi ma’lumotlarni o‘qib tushunish kerak.*

9-test.
Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *vizual ma’lumotlarni o‘qib tushunish.*
To‘g‘ri javob: *B.*
Test izohi. *Ikkinchi jadvalni o‘qib tushunish kerak. 2018-yilda respublikada aholi jon boshiga real umumiy daromadlar emas, inflyatsiya ko‘rsatkichi qariyb 18% ga yetgan.*

10-test.
Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *vizual ma’lumotlarni o‘qib tushunish.*
To‘g‘ri javob: *B.*
Test izohi. *Jadvaldagi ma’lumotlarni o‘qib tushunish kerak. O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga real umumiy daromadlar 10 yil ichida 1641,7 mln so‘mdan 8908,4 mln so‘mga yetgan va qariyb 6 barobar o‘sgan.*

O‘quvchilar bilimini quyidagicha baholash tavsiya etiladi.

Ballni bahoga aylantirish shkalasi

Ball	Baho
9-10	“5”
7-8	“4”
5-6	“3”
0-4	“2”

IV. Uyga vazifa berish.

Yil davomida o‘tilgan lingvistik mavzularni takrorlab, mustahkamlab kelish uyga vazifa sifatida beriladi.

V. Darsni yakunlash.

Bu qismda o‘quvchilardan matnni o‘qib tushunishda nimalarga e’tibor berish kerakligi, tushunishga ta’sir etadigan omillar haqida so‘raladi. E’tibor qilish kerak bo‘lgan holatlar ta’kidlanadi.

59-dars

Darsning maqsadi. Tanishilgan leksik va grammatik me'yorlarni bilish, til birliklaridan nutqda tanlab, o'rinli foydalana olish, imloviy, uslubiy, ishoraviy xatoliklarni to'g'rilay olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars jarayoni


I. Tashkiliy qism.

II. O'tilgan mavzularni mustahkamlash.

TESTLARNING TO'G'RI JAVOBLARI

A VARIANT

T/R	To'g'ri javob	T/R	To'g'ri javob	T/R	To'g'ri javob
1	Xatolik yo'q	7	D	13	B
2	2 (biroq)	8	D	14	A
3	3 (qayd etilgan)	9	C	15	C
4	2 (eslab qoladi)	10	A	16	A
5	D	11	B	17	A
6	A	12	A	18	A



59-dars

GRAMMATIK SAVODXONLIK
A VARIANT

Quyidagi parchalarni o'qib, 1–4-savollarning to'g'ri javobini toping.

Parchada raqamlar bilan ajratib ko'rsatilgan so'zlardan uslubiy (leksik-grammatik) xato qo'llanganlarini aniqlang.

Agar barchasi to'g'ri qo'llangan bo'lsa, "Xato yo'q" deb yozing.

1	Ko'pchilik baliqlarning **no'xatdekkina (1)** miyasi bor va ular kun bo'yi u yoqdan bu yoqqa suzishdan boshqani bilmaydi deb o'ylaydi. **Bunning (2)** ham yomoni, o'zimiz ham "Nemoni izlab" multfilmidagi Dori kabi baliqlar xotirasi atigi 3 soniyadan iborat, shu bois ular kichik akvariumlarini o'zlari uchun qayta va qayta **kashf etadilar (3)** deb hisoblaymiz. Aslida ham shundaymi? Avstraliyalik olim Kulum Braun baliqlar ko'pchilik o'ylagandan ko'ra aqlliroq jonivorligi va ularning xotira imkoniyatlari keng ekanini isbotlab bergan.
2	**To'g'ri (1)**, baliqlarning miyasi kichkina bo'lishi mumkin. **Hamda (2)** baliq miyasi uning tana hajmi va og'irligi bilan taqqoslab ko'rilsa, miyasining nisbatan katta ekani bilinadi. **Masalan (3)**, Nil daryosida yashaydigan uzun burunli filbaliq miyasi bu jihatdan odam miyasidan ham ustun turadi.
3	Baliqlar xotirasi bo'yicha olib borilgan **tatqiqotlar (1)** shuni ko'rsatdiki, juda ko'p baliqlar bir necha oydan bir necha yilgacha muddatda olingan ma'lumotlarni eslab qolish imkoniyatiga ega ekan. Masalan, kanal laqqachasi o'ziga yemish berib yurgan odamning ovozini 5 yildan keyin ham eslagani yoki **tillarang (2)** tobonbaliq o'ziga ozuqa beriladigan idishni bir yildan keyin ham taniganini olimlar **qayt etgan. (3)**
4	Baliqlarning naqadar aqlli ekanini baliq oviga qiziquvchilar ham yaxshi biladi. Ular **o'ta (1)** ziyrak bo'lib, xavfli xo'rakni **yodlab oladi. (2)** Qorni och bo'lishiga qaramay, shu xo'rakka **yaqin yo'lamaydi. (3)**

1. Javob: _____ 2. Javob: _____

3. Javob: _____ 4. Javob: _____

5. Mazmun va grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirilgan gapni aniqlang.
A) *Yodda tuting: litsenziyasiz yo'lovchilarni tashish qonunga xilof.*
B) *Yodda tuting: yo'lovchilarning litsenziyasiz tashish qonunga xilof.*
C) *Yodda tuting: litsenziyasiz yo'lovchilarni tashish qonunda xilof.*
D) *Yodda tuting: yo'lovchilarni litsenziyasiz tashish qonunga xilof.*

198


B VARIANT

T/R	To'g'ri javob	T/R	To'g'ri javob	T/R	To'g'ri javob
1	B	7	B	13	C
2	C	8	A	14	A
3	B	9	B	15	B
4	C	10	D	16	A
5	xatolik yo'q*	11	C	17	C
6	A	12	C*	18	C

* 1. Texnik xatolik yuz bergan: *barchasi to‘g‘ri*. 2. Texnik xatolik yuz bergan: aslida *erta-yu kech, qadam-baqadam*

O‘quvchilar bilimini quyidagicha baholash tavsiya etiladi.

Ballni bahoga aylantirish shkalasi



6. Qaysi qatordagi barcha so'zlarda ko'chirish qoidalari buzilgan?
A) *ak-a-xon, ma-'lumot*
B) *den-giz, tong-gi*
C) *sin-fi, ke-ti-nglar*
D) *sing-lim, ko-sho-na*

7. Shogir...: "Odamgarchilik...a qanday erishish mumk...n?" – deb so'radi. Nuqtalar o'rnida qaysi harflar bo'lishi kerak?
A) *d, g, i* **B)** *t, k, u*
C) *t, k, u* **D)** *d, k, i*

8. Qaysi javobda asos va qo'shimchalar imlosi bilan bog'liq xato kuzatilmaydi?
A) *Orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho'kiz uni to'xtovsiz taqib etib kelayapti.*
B) *Tepalikdan o'tkach, chavandozlar birin-ketin orqada qola boshladi.*
C) *Qo'limda bir metr keladigan tayoq, belbog'imga bitta kulcha tugulgan.*
D) *Pastda esa odamni oqizadigan katta suv shovullab oqmoqda.*

9. Qo'shib yozilishi kerak bo'lgan qo'shma so'zni aniqlang.
A) *Markaziy Osiyo* **B)** *har doim*
C) *osmon o'par* **D)** *to'q qora*

10. Bosh harf bilan yozish qoidasi buzilgan qatorni belgilang.
A) *Davlat Test Markazi*
B) *Islom Taraqqiyot Banki*
C) *Oliy Sud Raisi*
D) *Birlashgan Arab Amirligi*

199

11. Qaysi javobda noto'g'ri yozilgan so'zlar qatori berilgan?
A) *afv etmoq, xayfsan*
B) *tadbiq etmoq, iptidoiy*
C) *isquvar, xatti-harakat*
D) *yo'llamma, shafqat*

12. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.
A) *aql, poyezd*
B) *artist, nutuq*
C) *do's, kilovatt*
D) *sinf, balanroq*

13. Quyidagi qaysi so'zda tutuq belgisi qo'yiladi?
A) *taqiqlamoq*
B) *meyor*
C) *namuna*
D) *mezon*

Ball	Baho
16–18	“5”
13–15	“4”
10–12	“3”
0–9	“2”

III. Uyga vazifa berish.

Yil davomida o‘tilgan yozma nutqni rivojlantirishga doir mavzularni takrorlab, mustahkamlab kelish uyga vazifa sifatida beriladi.

IV. Darsni yakunlash.

Bu qismda o‘quvchilardan leksik-grammatik, imloviy va punktuatsion me’yorlarni bilish haqida so‘raladi. E’tibor qilish lozim bo‘lgan holatlar ta’kidlanadi.

60-dars

Darsning maqsadi. Yil davomida o‘zlashtirilgan ma’lumotlardan foydalanib kitob va internet haqidagi mulohazalarni adabiy me’yorlarga ko‘ra yoza olish ko‘nikmasini rivojlantirish hamda egallangan lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni mustahkamlash, til birliklaridan nutqda o‘rinli foydalana olishga o‘rgatish.

Dars jarayoni


I. Tashkiliy qism.
II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.
III. O‘tilgan mavzularni mustahkamlash.

Rasmga qarab **“Kitob va internet”** mavzusida ijodiy matn tuzish topshirig‘i beriladi, o‘quvchilarga quyidagi talablarga amal qilib matn tuzish eslatiladi.

ESLATMA.

Essening tuzilishi:

I. Kirish. Essening kirish qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:
1) kirish qismi kichik xatboshidan iborat bo‘ladi;
2) mavzuga kiriladi.


60-dars

Yozish savodxonligi

1. Esse (qiyosiy esse) yozish.

Mavzu: INTERNET VA KITOB

Bunda:
– *ijodiy matnni esse talablari bo'yicha yozing;*
– *fikrlaringizni izchil va bexato ifodalang;*
– *har ikki tushunchani to'liq izohlang;*
– *bu tushunchalar haqida o'z fikringizni misollar bilan dalillang;*
– *hozirgi davr va sharoitdan kelib chiqib o'z xulosangizni bering.*

Esse 200–250 ta so'zdan iborat bo'lishi kerak.

203

II. Asosiy qism. Essening asosiy qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

1) asosiy qism kamida ikkita tezisdan iborat bo‘lishi lozim, har bir tezisda o‘zgalarning qarashlari va shaxsiy qarashlaringizni batafsil bayon eting;

2) shaxsiy mulohazalaringizni batafsil va dalillar asosida bayon eting;

3) bayon qilinayotgan barcha fikr-mulohazalar mavzu doirasida bo‘lsin;

4) mantiqiy izchillikka amal qiling, o‘z qarashingizga o‘zingiz qarshi bormang.

III. Xulosa. Essening xulosa qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

1) asosiy qismda ifodalangan fikr-mulohazalarni umumlashtiring;

2) xulosa ikki-uch jumladan iborat bo‘lsin;

3) xulosadan keyin yana qo‘shimcha fikrlarni yozmang.

Esse 200–250 ta so‘zdan iborat bo‘lishi kerak. Unda reja va epigraf bo‘lmaydi.

IV. Uyga vazifa berish.

Yil davomida o‘tilgan og‘zaki nutqni o‘stirish bilan bog‘liq mavzularni takrorlab kelish uyga vazifa sifatida beriladi.

V. Darsni yakunlash.

Bu qismda o‘quvchilardan yozma matn tuzishda nimalarga e’tibor berish kerakligi, matn tuzishga ta’sir etadigan omillar haqida so‘raladi. E’tibor qilish kerak bo‘lgan holatlar ta’kidlanadi.

61-dars


Darsning maqsadi. Yil davomida o‘zlashtirilgan bilimlardan foydalanib diagramma va jadvallarda berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish, unda ifodalangan ma’lumotlar asosida mavzuga doir mulohazalarni adabiy til me’yorlariga ko‘ra og‘zaki bayon eta olish; taqdimot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda egallangan lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni mustahkamlash; birliklardan og‘zaki nutqda o‘rinli foydalana olishni o‘rgatish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. O‘tilgan mavzularni mustahkamlash.


61-dars

Nutq so‘zlash savodxonligi


1-bilet
Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.
Quyidagi diagrammada ifodalangan ma’lumotni og‘zaki bayon qilib bering.

Kutubxonaga kitobxonlar tashrifi ko‘rsatkichi

204

2-bilet
Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.
Quyidagi diagrammada ifodalangan ma’lumotni og‘zaki bayon qilib bering.

Muzeyga tomoshabinlarning tashrifi ko‘rsatkichi



3-bilet
Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.
Quyidagi diagrammada ifodalangan ma’lumotni og‘zaki bayon qilib bering.

Teatrga muxlislar tashrifi ko‘rsatkichi

205

O‘qituvchi jamiyatda zamon bilan hamnafas shaxs sifatida muayyan mavzularda rasmiy doiralarda og‘zaki taqdimot qiladi. Taqdimot davomida turli ma’lumotlar berilgan jadval, diagramma, infogrammalardan foydalaniladi, shu orqali mulohazalar dalillanadi.

O‘quvchilarga quyidagi diagrammalardan foydalanib og‘zaki taqdimot qilish topshirig‘ini bering. Ular eslatmaga amal qilib fikrlarini og‘zaki bayon etsin.



Quyidagi savollarga matn asosida javob bering.

1. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosini yozing
Javob: _____

2. Hikoyada Polvon tog'aning ayoli nutqida keltirilgan "O, sho'r boshim, sho'rgina boshim!" jumlalari asosida uni qanday ayol deyish mumkin?
A) *nohaqlikka chiday olmaydigan kuyinchak ayol*
B) *qanoatli, har narsaga rozi bo'luvchi, itoatkor ayol*
C) *boriga qanoat qilmaydigan, noshukr ayol*
D) *gapga chechan, ko'p gapiradigan ayol*

3–4. Berilgan obrazlar va unga aloqador tavsiflarni o'zaro moslashtiring.

ESLATMA! Javob variantlari orasida ortiqchasi bor.

Ularga berilgan tavsiflar	Obrazlar
3. Yomonlikni o'ylamaydigan, hammaga Ollohdan insof tilaydigan, doim yaxshilikni ko'zlaydigan bir so'zli inson.	A. *Cho'pon*
4. O'zgalar mol-mulkini o'ziniki qilib o'zlashtirib olgan, harom-xarishdan ham qaytmaydigan inson.	B. *Rais*
	C. *Polvon tog'a*

208

5. Matn mazmunidan kelib chiqib quyidagi hukmlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.
Bola o'z otasining tutumi, xarakteri, tanlovini har doim to'g'ri deb bilgan.
A) To'g'ri B) Noto'g'ri

6. Quyidagi surat va hikoya o'rtasidagi mazmuniy bog'liqlikni qisqacha ifodalang.

ESLATMA. Fikrlaringizni lo'nda, ixcham ifodalang, 20 ta so'zdan oshib ketmasin.
Javob: _____

Eslatma:

– fikrlaringizni izchil bayon eting;
– fikrlaringizni adabiy tilda bayon eting;
– og'zaki nutqingiz ravon bo'lishiga e'tibor bering;
– ma'lumotlarni umumlashtirib, xulosa qiling.

IV. Uyga vazifa berish.

Yil davomida o'tilgan o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish bilan bog'liq mavzularni takrorlab kelish uyga vazifa sifatida beriladi.

V. Darsni yakunlash.

Bu qismda o'quvchilardan fikrni og'zaki ifoda qilishda nimalarga e'tibor berish kerakligi, og'zaki nutqning o'ziga xosliklari haqida so'raladi. E'tibor qilish kerak bo'lgan holatlar ta'kidlanadi.

62-dars

Darsning maqsadi. O'qilgan matnlar asosida ochiq va yashirin ma'lumotlarni, ishlatilgan til birliklarining ma'nosi va vazifasini, matn qismlarini tushunish, matndagi vizual ma'lumotlarni o'qiy olish, matndagi ma'lumotlarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq eta olish, matnning umumiy ma'nosini bilish, matn maqsadini tushunish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.
II. Uy vazifasini tekshirish va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.
III. O'tilgan mavzularni mustahkamlash.

TESTLARNING TAHLILI

A variant

Birinchi matn

1-test.
Rivojlantiriladigan ko'nikma: *so'z ma'nosini bilish.*
To'g'ri javob: *haqiqatan mavjud bo'lmagan.*

62-dars

O'qish savodxonligi

A VARIANT
I QISM

Quyida keltirilgan matnni o'qing va u asosida berilgan 1–8-topshiriqlarni bajaring.

"O'ZBEKNING SODDASI"

O'shanda sakkiz yoshlarda edim. Ikkinchi sinfda o'qiyotgan bo'lsam ham, zehnim o'tkir ekanmi, savodim chiqib qolgan, ya'ni otam aytib tursa, men fakturasi (mahsulot narxi)ni yozib borardim. Otam rayon matlubot jamiyatida magazinchimi, bir nima bo'lib ishlar edi. U kishi shunday katta ishda tursalar ham, jussalari mendaqaning o'ntasiga teng kelsa ham, savodlari haligidaqa edi. Lekin otamni mahalla ahli hurmat qilar, u kishi bilan "Polvon bobo" deb so'rashishardi...

Biz yoz oqshomlari alla-pallagacha gurunglashib o'tirardik. Otamning oshnalari kelganda, muk tushib, doston o'qishar, navbat bilan do'mbira chertishar, momom ham qozon boshidan jilmasdi. Esimda: biznikilar, ayniqsa, "Alpomish" dostonini sevishar edi. Yusuf degan bir tanishimiz bo'lardi, uyga keldimi, lo'labolishni o'mroviga tortib, shu dostonni o'qishga boshlar edi. Men jiddiy quloq solib o'tirar, keyin uxlab qolganimni bilmas edim, ertalab supa pastidagi yog'och karavotda ko'rardim o'zimni.

O'sha kecha uyimizda mehmon ham yo'q edi. Otam ham qayoqqadir ketib, kelavermadi...

206

Men zerikib, karavotimga chiqib yotdim. Bir mahal uyqu aralash payqab qoldim: supada g'o'dir-g'o'dir gap bo'lyapti. Ayniqsa, enamning ovozi baland-baland chiqardi. Otam bosiq, lekin u ham ba'zan "E! E!" deb qo'yardi, men shunda beixtiyor hushyor bo'lib ketdim. Otamning odatlari qiziq-da: meni hech vaqt "To'raboy, ke!" deb chaqirmaydi, shunchaki, "To'raboy!" deb qo'ya qoladi, demak, bu – beri ke, deganlari ham bo'ladi. "Ulim!" deb qo'yardilar, vassalom, men yugurib borishim kerak. Otam singillarimni ham "ulim" deb chaqirardi... U kishining "E!" deganini ko'p eshitganman. Dashtda bir sigirimizni cho'pon o'ziniki qilib, "bo'ri yedi"ga chiqargan ekan. Shunda enam cho'pondan sigirimizni undirish haqida ko'p gapirgan. Otam: "E! E!" deb turib, qo'l siltagan edi. Shundan keyin enam otamga gap kor qilmasligini bilib, cho'ponni qarg'ay-qarg'ay tinchigan edi.

– E! – dedi otam birdan baqirib. – Shu pul bilan biri ikki bo'larmidi, kampir?

– Siz shunday deysiz-da, hoy! – dedi enam. – Dashtdagi mol ham sanoqli qolgan, biz uni qaytib to'laymiz! O'ylaysizmi?

– Mol sizlarga, – deb to'ng'illadi otam. – Men endi manglayda borini ko'raman, kampir! E, gapirma! – otam qizishib ketdi: – Nima qilay? Selpo raisi o'g'irlik qildi, savodim yo'q, meni go'l bilib, shuncha pulga tushirdi, yordam qilinglar, deb arzga boraymi? E, men bu ishti qilolmayman! Insofi bo'lsa, o'ylab ko'radi, kampir! Olti bolam bor, ko'rib turibdi o'zi. Nokaslik qilmas.

– O, sho'r boshim, sho'rgina boshim! – dedi enam kuyinib va idishlar taraqlab ketdi. – Siz arz qilmasangiz, men qilaman! Ertalab milisaga boraman, tekshirib ko'ringlar, bu odam selpodan hech mahal muncha pul olgani yo'q, fakturayam tuzgani yo'q. Tuzgan bo'lsa, kopiyasi o'zida bo'lardi-da!.. Bu odamni o'sal qilib, o'zlari padlo'k dakumit tuzgan, shuncha pulni buning bo'yniga urgan! Tekshirib ko'ringlar. Buning pakturalarini o'g'lim yozib berardi, uniyam keltirib so'roq qilinglar, deyman!

Otam jimidi. Men bu gaplarning ma'nosiga tushunmas edim. Biroq kimdir otamni aldagani, uning boshida xavf borligini sezdim. Biz bolalar tayyorga ayyor bo'lib o'sar edik: oilada paydo bo'ladigan qiyinchilik, kamchilikni ota-onamiz tuzatar, to'ldirar edi. Bizga o'yin bo'lsa, yonboshlab yotib doston eshitish bo'lsa yoki pistaga pul bo'lsa bo'ldi edi.

Men otamga faktura yozib berganlarimni eslab, ichimda xursand bo'lib, ko'rpaga o'raldim...

Otamning oxirgi so'zi shu bo'ldi:

– E, kampir, boshimni qotirma. Men aytdim aytgichimni unga. Nomard ekansan, uka. Mayli, shu o'tirik puldi deb ket, lekin biring ikki bo'lmasin. Bir kuni seni bolalaring ham ota deb qolsin, dedim. Bo'ldi shu gap, kampir. Yurakti bo'shatdim. Agar hayvon emas, odam naslidan bo'lsa, keladi u – ukkig'ar!

O'rtoqlarim bilan so'kishib yurganlarimni esladim, otam: "O'zbekning gapi bir bo'ladi", degich edi. Men yana, hamma vaqt bir so'zli bo'lishni o'yladim. So'ng nima uchundir shu tobda otamning tutgan yo'lini to'g'ri deb bildim va keyin uxlab qoldim.

Yopiray! Juda notinch bo'ldi-da bu kecha!

Yana uyg'onib ketdim: supada g'o'dir-g'o'dir gap-so'zlar qulog'imga yetmasidan qozonda jiz-biz bo'layotgan go'shtning hidi dimog'imga yetdi. Hayron bo'lib boshimni ko'tardim. Dashtdan otamning oshnalari kepti deb o'ylagan edim. Yo'q, lampa yoritib turgan dasturxonning bir tomonida matlubot jamiyatining raisi cho'kka tushib o'tirar, u otam bilan kulishar edi. Enam o'choq boshida.

Men bu odamni yaxshi tanir edim, qachon otamga ergashib uning omboriga borsam, shu kishini ham ko'rardim, u burchak-burchakda uyilib yotgan yong'oq, olmaqoqi va olchaqoqilardan hovuchlab olib hidlar, so'ng sochib tashlab, kaftlarini bir-biriga urib qoqar, keta turib, menga qoshini uchirib qo'yar edi. Lekin uyimizga hech kelmagan edi.

207

Qovurdoqning hididan uning hali yetilib pishmaganini sezdim. Uyda mehmon borida dasturxondan chetda tur, hadeb o'rtaga qo'l uzataverma, bir ishora qil, o'zim beraman, xohlagan narsangni, der edi enam. Men o'zimning uyg'oq ekanimni enamga qanday bildirsam deb o'ylab turgan edim, ular yana kulib yuborishdi. Shunda otamning oqshomgi kayfiyatini eslab, ishi o'ngidan kelgani – tutgan yo'li to'g'ri chiqqaniga ishondim va xursand bo'lib ketdim. Enamga tikilaman, harakatlaridan u kishining ham kayfi chog' ekani bilinib turibdi.

Lekin baribir turishga jur'at etolmadim.

– Ha, Polvon aka, menga yomon ta'sir qildi gapingiz, – dedi rais. – Men shuncha yoshga kirib, bunday gapni eshitmagan edim. Yashirmayman, mard odamsiz, tushunasiz... Bunday ishlar avval ham bo'lgan. Lekin birovi ham o'zimga havola qilib ketmagan edi. Odamga ta'sir qilar ekan, men ham odam bolasiman... Ana, faktura, dela! Yangamga bering, yoqib yuborsinlar. O'tgan ishga salovat, Polvon aka.

Men karavotdan sekin tushib, o'choq boshiga chopdim.

– Suv ichaman, suv – dedim enamga.

– Go'sht-chi, yemaysanmi, bolam? – dedi enam.

Men tirjayib, cho'nqaydim. Shunda rais meni chaqirib, qoshini chimirdi. Men o'rnimdan turib salom berdim.

– Berman ke, ulim, berman ke! – dedi otam. Bunday vaqtda borishim kerak. Enam ham yelkamga qoqdi. Otam yoniga o'tqazib:

– Sher ulim! – dedi. – Uxlamadingmi?.. Endi go'shtdan yeysiz-u kirib uxlaysiz. Xavotir olma, bolam! Mard odamning sadag'asi ketsang arziydi. Mana, amaking ham mard chiqib qoldilar...

Ular kulishdi. Shunday qilib, bu notinch kecha o'tdi.

Hozir men o'sha kecha, o'sha suhbatlardan yigirma besh yil beridaman. Ularni tushdagidek eslayman...

Shukur Xolmirzayev

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Mayli, shu o'tirik puldi deb ket, lekin biring ikki bo'lmasin.

2-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *til birligining nima maqsadda ishlatilganini tushunish.*

To'g'ri javob: *A.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

– Mol sizlarga, – deb to'ng'illadi otam. – Men endi manglayda borini ko'raman, kampir! E, gapirma! – otam qizishib ketdi: – Nima qilay? Selpo raisi o'g'irlik qildi, savodim yo'q, meni go'l bilib, shuncha pulga tushirdi, yordam qilinglar, deb arzga boraymi? E, men bu ishti qilolmayman! Insofi bo'lsa, o'ylab ko'radi, kampir! Olti bolam bor, ko'rib turibdi o'zi. Nokaslik qilmas.

– O, sho'r boshim, sho'rgina boshim! – dedi enam kuyinib va idishlar taraqlab ketdi. – Siz arz qilmasangiz, men qilaman! Ertalab milisaga boraman, tekshirib ko'ringlar, bu odam selpodan hech mahal muncha pul olgani yo'q, fakturayam tuzgani yo'q.

3-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *Asar qahramoniga baho berish.*

To'g'ri javob: *C.*

Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*

4-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *asar qahramoniga baho berish.*

To'g'ri javob: *A.*

Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*

U kishining "E!" deganini ko'p eshitganman. Dashtda bir sigirimizni cho'pon o'ziniki qilib, "bo'ri yedi"ga chiqargan ekan.

Quyidagi savollarga matn asosida javob bering.

1. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosini yozing
Javob: _____

2. Hikoyada Polvon tog'aning ayoli nutqida keltirilgan "O, sho'r boshim, sho'rgina boshim!" jumlalari asosida uni qanday ayol deyish mumkin?
A) *nohaqlikka chiday olmaydigan kuyinchak ayol*
B) *qanoatli, har narsaga rozi bo'luvchi, itoatkor ayol*
C) *boriga qanoat qilmaydigan, noshukr ayol*
D) *gapga chechan, ko'p gapiradigan ayol*

3–4. Berilgan obrazlar va unga aloqador tavsiflarni o'zaro moslashtiring.

ESLATMA! Javob variantlari orasida ortiqchasi bor.

Ularga berilgan tavsiflar	Obrazlar
3. Yomonlikni o'ylamaydigan, hammaga Ollohdan insof tilaydigan, doim yaxshilikni ko'zlaydigan bir so'zli inson.	**A.** *Cho'pon*
4. O'zgalar mol-mulkini o'ziniki qilib o'zlashtirib olgan, harom-xarishdan ham qaytmaydigan inson.	**B.** *Rais*
	C. *Polvon tog'a*

5. Matn mazmunidan kelib chiqib quyidagi hukmlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.
Bola o'z otasining tutumi, xarakteri, tanlovini har doim to'g'ri deb bilgan.
A) To'g'ri **B)** Noto'g'ri

6. Quyidagi surat va hikoya o'rtasidagi mazmuniy bog'liqlikni qisqacha ifodalang.



ESLATMA. Fikrlaringizni lo'nda, ixcham ifodalang, 20 ta so'zdan oshib ketmasin.
Javob: _____

II QISM

Quyidagi matnni o'qing va u asosida berilgan 7–10-topshiriqlarni bajaring.

CHAQMOQ VA MOMAQALDIROQ

Osmonni qora bulutlar qoplagan vaqtda yarq etib chaqmoq chaqishi, uning ortidan esa momaqaldiroq gumburlashini ko'p kuzatgansiz. Lekin bu ajoyib tabiat hodisasi qanday hosil bo'lishini bilmasangiz kerak-a?

Chaqmoq o'zida juda katta elektr zaryadi to'plagan bulutlarda paydo bo'ladi. Chaqmoq hosil bo'lgan paytda bulutlarning yuqori qismi yerdan 6-7 kilometrgacha, pastki qismi esa atigi 500 metr balandlikda bo'lishi mumkin. Bunday paytda bulutning yuqori qismida musbat, quyi qismida esa manfiy elektr zaryadlari yig'ilib qoladi. Ushbu qarama-qarshi zaryadlar bir-biriga yaqin kelgan lahzada yorqin chaqnash sodir bo'ladi. Elektr zaryadlari esa yirik plazma kanali bo'ylab harakatlanadi. Shu hodisani biz chaqmoq deymiz.

Chaqmoq nuri bizning ko'zimizga yorug'lik tezligida, ya'ni soniyasiga 300000 kilometr tezlik bilan yetib keladi. Bu juda katta tezlik. Uni biz deyarli shu zahoti ko'ramiz.

Chaqmoq chaqnagan joydagi havo 30000 darajagacha qizishi mumkin. Chaqmoqdagi elektr kuchlanishi esa milliard voltgacha yetadi, ammo hali-hamon chaqmoq energiyasidan foydalanish xususida hech qanday harakatlar amalga oshirilmagan.

Momaqaldiroq gumburlashining chaqmoqdan ancha keyin eshitilishi ham qiziq. Ammo buning sababi juda oddiy: momaqaldiroq – tovush hodisasi. Tovush esa yorug'likka qaraganda nihoyatda past tezlikka ega. Shu sababli siz momaqaldiroqni, odatda, chaqmoqdan bir necha soniya keyin eshitasiz.

Chaqmoqlar asosan tropiklarda va alohida olis tog' hududlarida ko'proq uchraydi. Dunyoda eng ko'p chaqmoq Kongo va Argentina davlatlari hududida chaqnaydi. Misrda esa, aksincha, taxminan 10 yilda atigi bir marta chaqmoq chaqadi, xolos.

"Jajji akademik" jurnali va internet materiallari asosida tayyorlandi.

7. Chaqmoq taxminan yerdan qancha balandlikda hosil bo'ladi?
Javob: _____

8. Nima uchun momaqaldiroq ovozi chaqmoq chaqqandan keyin eshitiladi?
Javob:_____
_____

9. Matn asosida quyidagi hukmlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang va moslashtiring.

I. *Issiq, cho'l hududlarida chaqmoq tez-tez bo'lib turadi.* **II.** *Chaqmoqdan hosil bo'ladigan elektr quvvatidan foydalanish imkoni topilmagan.*	**A.** *To'g'ri* **B.** *Noto'g'ri*

Javob: *I* *II*

10. Eng mustahkam jismlardan biri olmos. U 3600°C da yonib kulga aylanadi. Chaqmoq olmosni yondirib kulga aylantira oladimi?
A) *Ha, yondirib kulga aylantiradi.*
B) *Yo'q, olmosni yondira olmaydi.*
C) *Chaqmoq juda uzoq davom etsagina yondirishi mumkin.*
D) *Olmos yonmaydigan metallar sirasiga kiradi.*

5-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matndagi yashirin ma'lumotni tushunish.*

To'g'ri javob: *B.*

Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*

O'rtoqlarim bilan so'kishib yurganlarimni esladim, otam: "O'zbekning gapi bir bo'ladi", degich edi. Men yana hamma vaqt bir so'zli bo'lishni o'yladim. So'ng nima uchundir shu tobda otamning tutgan yo'lini to'g'ri deb bildim va keyin uxlab qoldim.

Xulosa: *bola har doim ham bir so'zli bo'lish oson emasligini, uddasidan chiqa olmasligini o'yladi, shu tobda (boshqa payt bu fikrga doim ham qo'shilavermagan) bu fikrni to'g'ri deb hisobladi.*

6-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *verbal va vizual ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlikni bilish.*

To'g'ri javob: *ikkiyuzlamachilik qiluvchi insonlar haqida fikrlarini yozadi.*

O'qituvchi fikrning qay darajada asoslanganini hisobga oladi.

Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*

Ikkinchi matn

7-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matnda ochiq ifodalangan ma'lumotni tushunish.*


To'g'ri javob: *500 metrdan 6–7 km gacha bo'ladi.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Chaqmoq hosil bo'lgan paytda bulutlarning yuqori qismi yerdan 6–7 kilometrgacha, pastki qismi esa atigi 500 metr balandlikda bo'lishi mumkin.

8-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matn qismlaridagi bog'liqlikni tushunish.*



B VARIANT
I QISM

Quyidagi matnni o'qing va u asosida berilgan 1–6-topshiriqlarni bajaring.

11-bob. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari
65-modda. Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlar bundan mustasnodir.

Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega.

Bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

66-modda. Bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqi

Bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi.

Ota va ona alohida yashagan holda bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-ona turli davlatlarda yashagani taqdirda ham bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega.

Favqulodda vaziyatlarga tushib qolgan bola (ushlab turish, qamoqqa olish, hibsga olish, davolash muassasasida bo'lish va boshqa hollarda) o'z ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan qonunda belgilangan tartibda ko'rishish huquqiga ega.

210

67-modda. Bolaning himoyaga bo'lgan huquqi

Bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega.

Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan, himoya huquqini mustaqil amalga oshirishga haqlidir.

Bola ota-ona (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan qilinadigan suiiste'molliklardan himoyalanish huquqiga ega.

Bolaning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab, vasiylik va homiylik organiga, o'n to'rt yoshga to'lgandan keyin esa, mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Bolaning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganligidan, uning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganligidan xabardor bo'lgan shaxslar bu haqda bola ayni paytda yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma'lum qilishi shart. Shunday ma'lumotlarni olgach, vasiylik va homiylik organi bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan zarur choralar ko'rishi shart.

68-modda. Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi

Oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola o'z fikrini ifoda qilishga, shuningdek, har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida so'zlashga haqlidir. Bunda qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qil-

To'g'ri javob: *ovoz tezligi sekin bo'lgani uchun.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Momaqaldiroq gumburlashining chaqmoqdan ancha keyin eshitilishi ham qiziq. Ammo buning sababi juda oddiy: momaqaldiroq – tovush hodisasi. Tovush esa yorug'likka qaraganda pastroq tezlikka ega.

9-test.


Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matn va uning qismlarini tushunish.*

To'g'ri javob: *I – b; II – a.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Chaqmoqdagi elektr kuchlanishi esa milliard voltgacha yetadi, ammo hali-hamon chaqmoq energiyasidan foydalanish bo'yicha hech qanday harakatlar amalga oshirilmagan.

Chaqmoqlar asosan tropiklarda va olis tog' hududlarida ko'proq uchraydi.



ishda bolaning fikrini, uning yoshidan qat'i nazar, ko'rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi kerak.

69-modda. Bolaning ism, ota ismi va familiya olish huquqi

Bola ism, ota ismi va familiya olish huquqiga ega.

Bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan, ota ismi — otasining ismiga ko'ra beriladi.

Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Ota-ona turli familiyalarda bo'lganda ota-onaning kelishuviga binoan bolaga otasining yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning xohishiga ko'ra, bolaga ota yoki ona tomonidan milliy an'analarga ko'ra boboning ismi bo'yicha familiya berilishi mumkin. Ota-ona o'rtasida bolaning ismi va (yoki) familiyasi bo'yicha kelishuv bo'lmaganda, kelib chiqqan nizo vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

70-modda. Bolaning ismi va familiyasini o'zgartirish

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan bola o'n olti yoshga to'lguncha bola manfaatlarini e'tiborga olib, uning ismini o'zgartirishga, shuningdek, unga berilgan familiyani ham otasi yoki onasining familiyasiga qarab o'zgartirishga haqlidir.

Agar ota-ona alohida yashasa va bola bilan birga yashovchi ota (ona) bolaga o'z familiyasini berishni xohlasa, vasiylik va homiylik organi bu masalani bolaning manfaatlarini va ona (ota)ning fikrini hisobga olgan holda hal qiladi. Ota yoki onaning turgan joyini aniqlash mumkin bo'lmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda, muomalaga layoqatsiz deb topilganda, shuningdek, ota yoki ona bolaga ta'minot berish va uni tarbiyalash majburiyatlarini bajarishdan uzrsiz sabablarga ko'ra bo'yin tovlagan hollarda ota yoki onaning fikrini hisobga olish shart emas.

Agar bola o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan va otalik qonuniy tartibda belgilanmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib, uning familiyasini onaning murojaat qilgan davridagi familiyasiga almashtirish uchun ruxsat berishga haqli.

211

O'n yoshga to'lgan bolaning ismi yoki familiyasini o'zgartirishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Oila kodeksidan

Quyidagi savollarga matn asosida javob bering.

1. Ajratib ko'rsatilgan "shuningdek" birligi matnda qanday mazmunni ifodalayapti?

A) *Oldingi fikr keyingi fikrning xulosasi ekanini ifodalamoqda.*
B) *Keyingi fikr oldingi fikrni dalillayotganini ifodalamoqda.*
C) *Oldingi fikr keyingi fikrning tasdig'i ekanini ifodalamoqda.*
D) *Keyingi fikr oldingi fikrning davomi ekanini ifodalamoqda.*

2–3. Berilgan ma'lumotlar va unga aloqador tushunchalarni o'zaro moslashtiring.
ESLATMA! Javob variantlaridan ortiqchasi bor.

2. O'n besh yoshli bolaning huquqlari ota-onasi tomonidan toptaldi. Uning manfaatlarini himoya qilish uchun kim sudga murojaat qilishi mumkin? ____	A.qo'shnisi
3. Muomala layoqatiga ega bo'lmagan o'n yetti yoshli bola yaqinlari tomonidan jismoniy azob berib kelingani aniqlanganda, ota-onasi sudga murojaat qilmadi. Shunday paytda uning huquqlarini himoya qilish uchun kim sudga murojaat qilishi mumkin?____	B. bolaning o'zi C. vasiylik kengashi va boshqalar

To'g'ri javob: *A.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Chaqmoq chaqnagan joydagi havo 30 000 darajagacha qizishi mumkin.

B variant
Birinchi matn

1-test.

Rivojlantiriladigan ko'nikma: *so'z ma'nosini bilish.*

To'g'ri javob: *D.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola o'z fikrini ifoda qilishga, shuningdek, har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida so'zlashga haqlidir.

4–6. Matn mazmunidan kelib chiqib quyidagi hukmlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

4. Sanjarning ota-onasi onasining axloqi yomonligi sababli ajrashib ketishgan. U otasi bilan yashaydi, ammo onasini ham sog‘inadi. Kunlardan bir kuni onasi Sanjarni ko‘rgani keldi. Otasi ularni ko‘rishtirmadi. Shu to‘g‘rimi?
A) To‘g‘ri B) Noto‘g‘ri

5. Sanjar dunyoga keldi. Otasi Soatov, onasi esa Temurov. Unga ota-onaning kelishuviga binoan onasining familiyasi berildi. Shu to‘g‘rimi?
A) To‘g‘ri B) Noto‘g‘ri

6. Bola dunyoga keldi. Ota-onasi kelishib, unga Farmon deb ism qo‘yishdi. Bu ism unga yoqar edi. U o‘n ikki yoshlarda edi. Ular yashaydigan mahallada Farmon degan giyohvand, aqli noqis, bezori yigit paydo bo‘ldi. Shunda ota-ona undan so‘ramasdan bolaning ismini o‘zgartirib kelishdi. Shu to‘g‘rimi?
A) To‘g‘ri B) Noto‘g‘ri

II QISM

Quyidagi matnni o‘qib, u asosida berilgan 7–10-topshiriqlarni bajaring.

BOSH MIYA

Inson miyasi qanday mo‘jiza ekani bilan tanishamiz. Umuman nerv sistemasi inson organizmini boshqaruvchi tizim bo‘lib, tafakkurni belgilab beradi. Ya’ni inson miyasi uning aqliy faoliyati, dunyoqarashi, fikrlashi va ongning fiziologik asosi hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda, organizmning tashqi muhit bilan aloqasini ta’minlaydi. Bosh miya kalla suyagining ichida joylashgan bo‘lib, inson o‘sib borgani sari u ham rivojlanib boradi. Insonning bosh miyasi o‘rtacha 100 mlrd neyrondan tashkil topgan bo‘lib, u jigarda ishlab chiqarilib qonga quyilgan glyukozaning 50% ini “iste’mol” qiladi. Bosh miyani tashkil etayotgan neyronlar o‘zaro nerv impulslarini 270 km/soat tezlikda uzatadi. Neyronlarning soni ko‘paymasligi haqida barchamiz o‘qiganmiz, lekin neyronlar inson hayoti davomida o‘sib turadi. Bitta neyron istalgan ensiklopediyadagi ma’lumotlardan ko‘ra besh barobar ko‘p ma’lumotni eslab qola oladi. Miya hujayralari oksibiont hujayralar qatoriga kirib, ular qon aylanish tizimiga tushgan kislorodning 20% ini ishlatadi. Shu bilan birga, miyaning 80% ini suv tashkil etadi, shu boisdan ham odam doimiy ravishda yetarli miqdorda suv ichib turishga ehtiyoj sezadi.

Bosh miya odam tana massasining o‘rtacha 2% ini tashkil etadi. U o‘rta hisobda 1000–2000 gramm oralig‘ida bo‘lishi mumkin. Ba’zan bu ko‘rsatkich kam yoki ortiq bo‘lishi mumkin.

Shunisi hayratlanarliki, insonning aqliy faoliyati miyaning o‘lchamiga bog‘liq emas. Misol uchun, buyuk kimyogar olim Dmitriy Ivanovich Mendeleyev bosh miyasi og‘irligi 1571 gramm, Ivan Sergeyevich Turgenevning bosh miyasining og‘irligi esa 2012 gramm bo‘lgan. Demak, insonning aqliy faoliyati bosh miyaning massasiga emas, uning po‘stloq qismidagi nerv hujayralarining xususiyatiga bog‘liq.

Bosh miya ikki qismdan tashkil topgan: miyaning stvol, ya’ni ust qismi va bosh miyani o‘rab turuvchi bosh miya katta yarimsharlari. Miyaning ustun qismi uzunchoq miya, miya ko‘prigi, o‘rtamiya, oraliq miya va miyacha kabi qismlardan iborat.

Uzunchoq miya bosh miyaning eng pastki qismi bo‘lib, yuqori tomondan miya ko‘prigiga tutashadi. Uzunligi 3–3,5 cm bo‘lib, og‘irligi 7 gramm. Uzunchoq miya nafas olish, ovqat hazm qilish va qon aylanish sistemalari ishini boshqarib, uning shikastlanishi nafas olish va yurak ishining to‘xtab qolishiga sabab bo‘ladi.

Miya ko‘prigi uzunchoq miyaning ustki qismida joylashgan bo‘lib, yuqoridan o‘rta miyaga va yon tomondan miyachaga tutashib turadi. Miya ko‘prigida ko‘z soqqasining harakati va yuzdagi mimika muskullarini harakatlantiruvchi nerv markazlari joylashgan.

O‘rta miya miya ko‘prigining yuqori tomonida joylashgan. Unda to‘rtta tepalik bo‘lib, oldingi ikkitasida po‘stloqosti ko‘rish, orqadagi ikkita tepalikda esa po‘stloqosti eshitish markazlari joylashgan. Bosh miyaning mana shu sohasida ovqatni chaynash va yutish reflekslari, ko‘rish, eshitish, qo‘l barmoqlarining nozik harakatlari va muskullar tarangligini ta’minlovchi nerv markazlari joylashgan.

Oraliq miya o‘rta miyaning yuqori qismida joylashgan bo‘lib, yuqori tomondan bosh miya katta yarimsharlari bilan qoplanib turadi. Oraliq miya ko‘rish do‘mbog‘i va do‘mboqosti sohalaridan iborat.

Miyacha inson tanasidagi turli harakatlarning asosi bo‘lib, bosh miya katta yarimsharlarining ostki qismida joylashgan. Og‘irligi 150 gramm. Agar miyacha zararlansa, tana muskullari bo‘shashadi va odam tik turish, yurish, sakrash, yugurish mashqlarini bajarishi qiyinlashib, mast odamga o‘xshab gandiraklab harakatlanadi.

Miyaning ikkinchi qismi bo‘lgan bosh miya katta yarimsharlari bosh miyaning yuqori tomonidan qoplab, uni himoya qilib turadi. U o‘ng va chap yarimsharlardan iborat bo‘lib, qadoqsimon tana yordamida bir-biridan ajralib turadi. U kulrang moddadan tashkil topgan tashqi qavat va oq moddadan iborat ichki qavatdan tuzilgan. Uning qalinligi 2,5-3 mm. Po‘stloq qavati tekis bo‘lmasdan, xuddi yong‘oq kabi juda ko‘p burmalardan iborat. Miya po‘stlog‘ining bunday tuzilishi unda juda ko‘p sonli nerv hujayralarining joylashuviga imkon beradi. Binobarin, miyaning po‘stloq qismida 14-16 milliard atrofida nerv hujayralari mavjud. Qizig‘i shundaki, miya po‘stlog‘i pushtalarining soni deyarli barcha odamlarda bir xil bo‘lib, lekin ularning tuzilishi xuddi inson kaft chiziqlari singari xilma-xil bo‘ladi. Agar miya sharining bunday pushta va egatlari yozib chiqilsa, umumiy sathi 1468-1670 cm² ni tashkil etadi. Bosh miya katta yarimsharlarining hujayralari bajaradigan funksiyaga ko‘ra po‘stloq sathi uchta zonaga bo‘linadi. Birinchisi ko‘rish zonasidagi hujayralar barcha sezgi organlarining asosiy markazi bo‘lib, teri, ko‘rish, eshitish, hid va ta’m bilish kabi sezgi organlari retseptorlaridan qabul qiladi. Harakat zonasidagi hujayralar odam organizmidagi barcha muskul, suyak, pay va bo‘g‘imlarning oliy markazi hisoblanadi. Assotsiativ zona hujayralari esa miya po‘stlog‘ining turli qismlaridagi nerv markazlarini bir-biri bilan bog‘laydi. Bu zona hujayralari sezish va harakat zonasidan kelgan impulslarni analiz va sintez qiladi. Bosh miya organizmdagi hamma a’zolarning kelishib ishlashini ta’minlaydi. Shuningdek, u zararlansa jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Tibbiyot sohasida “bosh miya chayqalishi” termini ostida bosh miyaning yengil chayqalishi va qisqa muddat ichida hushdan ketish tushuniladi. Bosh miya chayqalishining ikki xil darajadagi ko‘rinishi farqlanadi:

yengil bosh chayqalishi – markaziy nerv tizimi tomonidan jiddiy o‘zgarishlar bo‘lmaydi, hatto bemorni chuqur tekshiruvlardan o‘tkazganda ham. Bunda simptomlar uzog‘i bilan 14 kunda yo‘qoladi (ko‘pincha undan ham oldinroq);

kuchli bosh chayqalishi – ba’zi bir qontomirlarning yorilishi bilan namoyon bo‘ladi. A’zolarda gematomalar paydo bo‘ladi, simptomlar biroz muddatdan keyin yo‘qoladi.

Bosh miya zarba yegandan keyin – inson hushini yo‘qotishi mumkin va bu qisqa muddatli yoki uzoq davom etuvchi bo‘lishi mumkin. Lekin ko‘pincha inson hushida bo‘ladi va quyidagilardan shikoyat qilishi mumkin:

– quloqdagi shovqinlar;
– bosh aylanishi;

2-test.

Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *matn va uning qismlarini tushunish.*

To‘g‘ri javob: *B.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Bolaning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste’mol qilganda bola o‘z huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so‘rab vasiylik va homiylik organiga, o‘n to‘rt yoshga to‘lgandan keyin esa mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

3-test.

Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *matn va uning qismlarini tushunish.*

To‘g‘ri javob: *C.*

Test izohi. *Matnning quyidagi qismidan olingan:*

Bolaning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘ilganidan, uning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganidan xabardor bo‘lgan shaxslar bu haqda bola ayni paytda yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma’lum qilishi shart. Shunday ma’lumotlarni olgach, vasiylik va homiylik organi bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan zarur choralar ko‘rishi shart.

4-test.

Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *matnda ifodalangan ma’lumotni hayotiy vaziyatga tatbiq eta olish.*

To‘g‘ri javob: *B.*


Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*

5-test.

Rivojlantiriladigan ko‘nikma: *matnda ifodalangan ma’lumotni hayotiy vaziyatga tatbiq eta olish.*

To‘g‘ri javob: *A.*

Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*



– umumiy holsizlik.
Jarohat olgandan so'ng boshning ensa sohasida lo'qillovchi og'riq, ko'ngil aynishi ham kuzatiladi, tana harorati normal ko'rsatkichlarda bo'lib, inson es-hushini yo'qotmaydi.
Agar bosh miya jarohatlangan bo'lsa zudlik bilan tez tibbiy yordamga murojaat qilish kerak. Ular kelgunga qadar quyidagi chora tadbirlar bajarilishi kerak:
– bemorni gorizontal holatda, boshi ostiga baland bo'lmagan yostiq qo'yib yotqizish kerak;
– bemorga umuman ovqat va suv ichirish kerak emas;
– bemorga toza havo kelishini ta'minlash kerak;
– bemor tinch holatda bo'lishi kerak, u televizor ko'rishi, telefoniga qarashi, kitob o'qishi mumkin emas.
Agar bemor hushini yo'qotgan bo'lsa, uni harakatlantirish, joyidan ko'chirish mumkin emas. Uni o'ng yonbosh sohaga yotqiziladi, chap oyoq va chap qo'l bukiladi, boshni o'ng tomonga burib, iyakni ko'krak qafasi tomonga biroz egib qo'yish kerak. Shunday holatda bemorga havo kelishi oson bo'ladi.

Internet manbalari asosida tayyorlandi.

Quyidagi savollarga matn asosida javob bering.
7–8. Matn mazmunidan kelib chiqib quyidagi hukmlar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

7. Odamning dunyoqarashi, aqliy faoliyati yuqori darajada bo'lishi bosh miyasining hajmiga bog'liq.
A) *To'g'ri* **B)** *Noto'g'ri*

8. Bosh miya hujayralari qondagi kislorodning asosiy qismini ishlatadi. Shuning uchun inson tez-tez suvsaydi.
A) *To'g'ri* **B)** *Noto'g'ri*

9. Matn mazmuniga MOS KELMAYDIGAN ma'lumotni toping.
A) *Miya po'stlog'i pushtalarining tuzilishi odamlarda bir-biridan farq qiladi.*
B) *Bosh miyaning assotsiativ zonasi hujayralari sezish va harakat qismidan kelgan impuls signallarni tahlil qiladi.*
C) *Bosh miya katta yarimsharlarining tashqi va ichki qavati o'zaro bir xil rangda bo'ladi.*
D) *Bosh miya katta yarimsharlari sathi hujayralari amalga oshiradigan vazifasiga ko'ra uchta katta qismga bo'linadi.*

10. Bir yigit boshi bilan qattiq yiqilib tushdi va birozdan keyin hushini yo'qotdi. Unga qanday birinchi yordamni ko'rsatish kerak?
ESLATMA. Bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin.

A) *Hushiga keltirib, suyuqlik ichirish kerak.*
B) *Tezda soya-salqin joyga olib o'tish kerak.*
C) *Uni o'ng yelkasi bilan yonbosh qilib yotqizish kerak.*
D) *Boshiga yostiq qo'yib, to'g'ri holatda yotqizish kerak.*
E) *Yotqizgach, chap oyoq-qo'lini bukish kerak.*

6-test.
Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matnda ifodalangan ma'lumotni hayotiy vaziyatga tatbiq eta olish.*
To'g'ri javob: *B.*
Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*

Ikkinchi matn

7-test.
Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matn va uning qismlarini tushunish.*
To'g'ri javob: *B.*
Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*

8-test.
Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matn va uning qismlarini tushunish.*
To'g'ri javob: *A.*
Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*

9-test.
Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matn va uning qismlarini tushunish.*
To'g'ri javob: *C.*
Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*

10-test.
Rivojlantiriladigan ko'nikma: *matnda ifodalangan ma'lumotni hayotiy vaziyatga tatbiq eta olish.*
To'g'ri javob: *C, E.*
Test izohi. *Matnning umumiy mazmunidan tushuniladi.*

O'quvchilarning bilimini quyidagicha baholash tavsiya etiladi.

Ballni bahoga aylantirish shkalasi

Ball	Baho
9–10	"5"
7–8	"4"
5–6	"3"
0–4	"2"

IV. Uyga vazifa berish.
Yil davomida o'tilgan lingvistik mavzularni takrorlab, mustahkamlab kelish uyga vazifa sifatida beriladi.

V. Darsni yakunlash.
O'quvchilardan matnni o'qib tushunishda nimalarga e'tibor berish kerakligi, tushunishga ta'sir etgan omillar haqida so'raladi. E'tibor qilish lozim bo'lgan holatlar ta'kidlanadi.


63-dars

Darsning maqsadi. O‘tilgan leksik va grammatik me’yorlarni bilish, til birliklaridan nutqda, o‘rinli foydalana olish, imloviy, uslubiy, ishoraviy xatoliklarni to‘g‘rilay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.

II. O‘tilgan mavzularni mustahkamlash.



63-dars

Grammatik savodxonlik

A VARIANT

1. Quyidagi so‘zlardan nechtasi to‘g‘ri yozilgan?
pesa, atel`e, mone, kompyuter, tabiyat
A) 3 ta
B) 1 ta
C) 2 ta
D) 4 ta

2. Quyidagi so‘zlardan nechtasi NOTO‘G‘RI yozilgan?
pulus, ukrayin, oila, uzur, teatr, hukum
A) 4 ta
B) 2 ta
C) 3 ta
D) 5 ta

3. Qaysi javobda NOTO‘G‘RI yozilgan so‘zlar qatori berilgan?
A) harajat, tatqiqot
B) xoxlamoq, izchil
C) afg‘on, xibsga olmoq
D) tasdiqlamoq, avzal

4. To‘g‘ri yozilgan so‘zni aniqlang.
A) hayfsan
B) yo‘llamma
C) ischil
D) tatqiqot

5. To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.
A) psixologiya, ilm
B) past, gram
C) hukm, uchchala
D) komissiya, pilan

7. Yakka shaxsga ishora qilib hurmat ma’nosini ifodalagan *siz* kishilik olmoshi qatnashgan javobni aniqlang.
A) Albatta, sizga, guruhimiz a’lochilariga, hammamiz ishonamiz.
B) Bolalar, ehtimol, siz oq ayiqni ko‘rmagandirsiz? Men uni ko‘rganman.
C) Rahbarimiz o‘quvchilarga yuzlanib: “Siz ertaga muzeyga borasiz”, – dedi.
D) Siz yoshlik qilib bunaqa xomxayollarga borib yurmang, usta!

215

TESTLARNING TO‘G‘RI JAVOBLARI

A VARIANT

T/R	To‘g‘ri javob	T/R	To‘g‘ri javob	T/R	To‘g‘ri javob
1	C	7	D	13	C
2	B	8	B	14	C
3	A	9	C	15	A
4	A	10	C	16	B
5	A	11	B	17	D
6*	D	12	B	18	D

* Texnik xatolik yuz bergan: *test tushirib qoldirilgan.*

Tushirib qoldirilgan test o‘rniga quyidagi testni bajartirish mumkin.


6. Quyidagi gapda ko‘pnuqtalar bilan ajratib ko‘rsatilgan o‘ringa grammatik va mazmun jihatidan eng mos so‘zni qo‘ying.

Xivaning ham o‘ziga xos obidalari juda ko‘p. Bu yerning Ichan qal’asi ... muzey hisoblanadi.

A) *kamyob* B) *tanqis* C) *tansiq* D) *noyob*

B VARIANT

T/R	To‘g‘ri javob	T/R	To‘g‘ri javob	T/R	To‘g‘ri javob
1	A	7	C	13	D
2	A	8	A	14	B
3	B	9	B	15	D
4	D	10	B	16	A
5	B	11	C	17	C
6	D	12	D	18	B



13. Qaysi so'zlar qatorida boshqalari bilan o'zaro ma'nodoshlik hosil qila olmaydigan so'z ishtirok etgan?
A) yalqov, ishyoqmas, tanbal
B) betob, bemor, xasta
C) ayyor, quv, mug'ombir
D) eplamoq, uddalamoq, sarflamoq

14. Qaysi javobda berilgan so'zlar juftligi o'zaro ma'nodosh emas?
A) chopmoq – yelmoq
B) husn – go'zal
C) ayyor – makkor
D) epchil – abjir

15. Quyidagi parchada necha o'rinda qo'shimcha xato qo'llangan?
Har bir inson ustozlarining e'zozlashi, ularning hurmat va ehtiromini ado qilishi shartdir. Negaki bu zotlar insonni ruhini tarbiyalaydilar.
A) 4 ta
B) 3 ta
C) 1 ta
D) 2 ta

16. Quyidagi gapda adabiy til me'yorlariga amal qilinmay uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan qo'shimchalar soni nechta?
Nayman onani o'g'li bir yil oldin jungjanglar tomonidan halok etilgan otasining o'chini olish uchun jangga otlanib, Sario'zakda bo'lgan omonsiz olishuvga yarador bo'ladi.
A) 2 ta
B) 4 ta
C) 3 ta
D) 5 ta

17. Qaysi gapda kelishik qo'shimchasining qo'llanishi bilan bog'liq xatolik MAVJUD EMAS?
A) Xalq orasida: "Maqtanganni uyini ko'r", – degan gap bor.
B) Men o'tgan yili yozga anhor bo'yidagi hovlimizda dam oldim.
C) Ziyolilar ma'rifat urug'ini sochishda fidoyilik ko'rsatdilar.
D) Elparvar kishilarni moddiy yordamisiz faoliyat ko'rsatolmas edi.

18. Quyidagi parchada nuqtalar o'rniga qaysi kelishik qo'shimchasini QO'YIB BO'LMAYDI?
Yaxshi tarbiya ko'rgan odam... xislatlari... biri shuki, bunday odam o'z faoliyati... boshqalar... bir qadam oldin... o'tsa, darrov sheriklari... yordam beradi.
A) o'rin-payt kelishigi
B) tushum kelishigi
C) qaratqich kelishigi
D) chiqish kelishigi

219

O‘quvchilarning bilimini quyidagicha baholash tavsiya etiladi.

Ballni bahoga aylantirish shkalasi

Ball	Baho
16–18	“5”
13–15	“4”
10–12	“3”
0–9	“2”

III. Uyga vazifa berish.

Yil davomida o‘tilgan yozma nutqni rivojlantirishga doir mavzularni takrorlab, mustahkamlab kelish uyga vazifa sifatida beriladi.

IV. Darsni yakunlash.

Bu qismda o‘quvchilardan leksik-grammatik, imloviy va punktuatsion me’yorlar haqida so‘raladi. E’tibor qilish kerak bo‘lgan holatlar ta’kidlanadi.

64-dars

Darsning maqsadi. Yil davomida o‘zlashtirilgan ma’lumotlardan foydalanib zamonaviy va an’analarga sodiq kishi bo‘lish haqidagi mulohazalarni adabiy me’yorlarga ko‘ra yozma bayon qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish hamda egallangan lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni mustahkamlash, birliklardan nutqda o‘rinli foydalana olish.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism.
II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.
III. O‘tilgan mavzularni mustahkamlash.

Ayrimlar zamonaviy shaxs bo‘lishni afzal ko‘radi, boshqa zamondoshlarimiz esa ota-bobolaridan qolgan qadriyatlarni mahkam tutib, ularga sodiq bo‘lishni xohlaydi. O‘quvchilarga shuni tushuntirib, **“Zamonaviylik va an’analarga sodiqlik”** mavzusida ijodiy matn (qiyosiy esse) yozish topshirig‘i beriladi. Ular quyidagi eslatmaga amal qilib esse yozishadi.

ESLATMA.

Essening tuzilishi:

I. Kirish. Essening kirish qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

1) kirish qismi kichik xatboshidan iborat bo‘ladi;

2) o‘quvchini mavzuga olib kiradi.



64-dars

Yozish savodxonligi

1. Esse (qiyosiy esse) yozish.

Mavzu: ZAMONAVIYLIK VA AN'ANALARGA SODIQLIK

Bunda:
– *ijodiy matnni esse talablari bo'yicha yozing;*
– *fikrlaringizni izchil va bexato ifodalang;*
– *har ikki tushunchani to'liq izohlang;*
– *bu tushunchalar haqida o'z fikringizni misollar bilan dalillang;*
– *hozirgi davr va sharoitdan kelib chiqib o'z xulosangizni bering.*
Esse 200-250 ta so'zdan iborat bo'lishi kerak.

220

II. Asosiy qism. Essening asosiy qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

1) asosiy qism kamida ikkita tezisdan iborat bo‘lishi lozim, har bir tezisda tomonlarning qarashlari va shaxsiy qarashlaringizni batafsil bayon eting;

2) shaxsiy mulohazalaringizni batafsil va dalillar asosida bayon eting;

3) bayon qilinayotgan barcha fikr-mulohazalar mavzu doirasida bo‘lsin;

4) mantiqiy izchillikka amal qiling, o‘z qarashingizga o‘zingiz qarshi bormang.

III. Xulosa. Essening xulosa qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

1) asosiy qismda ifodalangan fikr-mulohazalarni umumlashtiring;

2) xulosa ikki-uch jumladan iborat bo‘lsin;

3) xulosadan keyin yana qo‘shimcha fikrlar yozmang.

Esse 200–250 ta so‘zdan iborat bo‘lishi kerak. Unda reja va epigraf bo‘lmaydi.



IV. Uyga vazifa berish.

Yil davomida o‘tilgan og‘zaki nutqni o‘stirish bilan bog‘liq mavzularni takrorlab kelish uyga vazifa sifatida beriladi.

V. Darsni yakunlash.

Bu qismda o‘quvchilardan yozma matn tuzishda nimalarga e’tibor berish kerakligi, matn tuzishga ta’sir etadigan omillar haqida so‘raladi. E’tibor qilish zarur bo‘lgan holatlar ta’kidlanadi.

65-dars

Darsning maqsadi. Yil davomida o‘zlashtirilgan bilimlardan foydalanib muayyan mavzudagi fikrlarni adabiy til me’yorlariga ko‘ra og‘zaki bayon qila olish, mustaqil nutq tuza olish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda egallangan lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni mustahkamlash, birliklardan og‘zaki nutqda o‘rinli foydalana olish.

Dars jarayoni


65-dars

Nutq so‘zlash savodxonligi

1-bilet
Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.

MUSTAQIL NUTQ

– O‘zingizni tanishtiring;
– Farzandlik burchi deganda nimani tushunasiz?
– Ba’zilar ota-onasining hurmat-izzatini joyiga qo‘ymaydi, ularga quloq solmaydi, ba’zilar esa ota-onalarining aytmoqchi, buyurmoqchi bo‘lgan yumushlarini oldindan sezadi, ularni e’zozlab, boshida ko‘tarib yuradi. Nega shunday?

2-bilet
Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.

MUSTAQIL NUTQ

– O‘zingizni tanishtiring;
– Adolat va teng huquqlilik deganda nimani tushunasiz?
– Ba’zilar adolatsizlik qilishadi, ba’zilar esa adolatli bo‘ladi. Nega shunday?

3-bilet
Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.

MUSTAQIL NUTQ

– O‘zingizni tanishtiring;
– Ijtimoiy tarmoqlar deganda nimani tushunasiz?
– Ba’zilar ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketib, qadrli vaqtlarini isrof qiladi, ba’zilar esa undan foyda oladilar. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

66-dars Nazorat ishi
67-dars Nazorat ishi
68-dars Nazorat ishi tahlili

221

I. Tashkiliy qism.

II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

III. O‘tilgan mavzularni mustahkamlash.

O‘quvchilar quyidagi biletlardan birini tanlab, eslatmaga amal qilgan holda fikrlarini og‘zaki bayon etadi.

O‘quvchilarga eslatma:

– fikrlaringizni mustaqil nutq ifodalash qoidalariga amal qilib bayon eting;

– fikrlaringizni kirish, asosiy qism, xulosa tartibida ifodalang;

– fikrlaringizni izchil va adabiy tilda bayon eting;

– og‘zaki nutqingiz ravon bo‘lishiga e’tibor bering;

– og‘zaki nutq ifodalashda badiiy tasvirlardan foydalaning;

– fikrlaringizni hayotiy misollar bilan dalillang.

1-bilet

Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.

MUSTAQIL NUTQ

– O‘zingizni tanishtiring.

– Farzandlik burchi deganda nimani tushunasiz?

– Ba’zilar ota-onasining hurmat-izzatini joyiga qo‘ymaydi, ularga quloq solmaydi, ba’zilar esa ota-onalarining aytmoqchi, buyurmoqchi bo‘lgan yumushlarini oldindan sezadi, ularni e’zozlab, boshida ko‘tarib yuradi. Nega shunday?

2-bilet

Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.

MUSTAQIL NUTQ

– O‘zingizni tanishtiring.

– Adolat va teng huquqlilik deganda nimani tushunasiz?

– Ba’zilar adolatsizlik qilishadi, ba’zilar esa adolatli bo‘ladi. Nega shunday?

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

3-bilet

Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.

MUSTAQIL NUTQ

– O‘zingizni tanishtiring.

– Ijtimoiy tarmoqlar deganda nimani tushunasiz?

– Ba’zilar ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketib, qadrli vaqtlarini isrof qiladi, ba’zilar esa undan foyda oladi. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

IV. Uyga vazifa berish.

Yozgi ta’til uchun topshiriq.

Yozgi ta’til davomida Abduqayum Yo‘ldoshevning “Puankare” hikoyasini to‘liq o‘qib chiqing. Ushbu hikoya asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1. Iboralar ro‘yxatini tuzing.

2. Siz uchun tushunarsiz bo‘lgan so‘zlar lug‘atini tayyorlang.

3. Muallif o‘rnida bo‘lganingizda hikoyani qanday yakunlar edingiz? O‘z taklifingizni yozma bayon qiling. Bunda adabiy til me’yorlariga amal qiling.

V. Darsni yakunlash.

Bu qismda o‘quvchilardan fikrni og‘zaki ifoda qilishda nimalarga e’tibor berish kerakligi, og‘zaki nutqning o‘ziga xosliklari haqida so‘raladi. E’tibor qilish lozim bo‘lgan holatlar ta’kidlanadi hamda o‘quvchilarga nazorat ishiga alohida tayyorgarlik ko‘rish uqtiriladi.

66- va 67-darslarda nazorat ishi olinib, 68-darsda tahlil qilinadi.

So‘nggi darsda darslikda ta’til uchun berilgan “Puankare” hikoyasi asosidagi topshiriqni bajarib qo‘yish kerakligi uqtiriladi.

O‘quv nashri

ONA TILI 10

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Dizayner va sahifalovchi *Oloviddin Sobir o‘g‘li*
Musahhih *Xurshid Ibrohimov*

Bosishga ruxsat etildi _____ Bichimi 60x84 1/8.
Roboto garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 26,04 Nashriyot-hisob tabog‘i 24,25
Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ___.